132 5

3

QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

Mamatov A.A., Xurramov A.F. Mamatov M.A.

QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI

O‘quv qo‘llanma

O‘quv qo‘llanma “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)” va 5420100-“Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish” ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrlar, fermer xo‘jaliklari rahbarlari hamda agrar soha bo‘yicha qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

«Sano-standart» nashriyoti
Toshkent – 2016

UO'K: 631.16(075.8)

KBK: 65.32

M 230

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti / o'quv qo'llanma. Mamatov A.A., Xurramov A.F., Mamatov M.A.– T.: Sano-standart», 2016. – 296 b.

O'quv qo'llanmada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi infratuzilma korxonalarining xo'jalik yuritish faoliyati, ularning fermer xo'jaliklari bilan iqtisodiy va huquqiy aloqalari hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi, sifatini va samaradorligini oshirishning konseptual asoslari aks ettirilgan.

O'quv qo'llanma "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)" va 5420100-"Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish" ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrlar, fermer xo'jaliklari rahbarlari hamda agrar soha bo'yicha qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma F-1-80 «Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish» mavzusidagi fundamental loyiha materiallari asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish kengashining 2016-yil 26-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat etilgan.

Mas'ul muharrir: Iqt.f.n.,dotsent. O.T.Sattorqulov

Taqrizchilar: Iqt.f.d., prof. T.X. Farmonov;
Iqt.f.n., dotsent O.R. Rayimberdiyeva

UO'K: 631.16(075.8)
KBK: 65.32

ISBN 978-9943-4802-7-8

© «Sano-standart» nashriyoti, 2016-yil
© Mamatov A.A., Xurramov A.F., Mamatov M.A.

KIRISH

O'zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligi ham jadal rivojlanmoqda. Bunda yer haqiqiy egasini topganligi, sohada izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga davlat tomonidan zaruriy ko'mak berilib, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi o'z samarasini bermoqda.

Iqtisodiy islohotlar davrida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy erkinliklarini kengaytirish va davlat buyurtmasiga narxlarning shakllanishini takomillashtirish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlaydigan yirik qishloq xo'jalik korxonalari tarkibiy tuzilmasini qayta o'zgartirish hamda ularning negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etish, fermer xo'jaliklari uchun bugungi kun talabalariga javob bera oladigan zamonaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaratish, ular tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirishga erishildi va barqaror iqtisodiy faoliyat yuritishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatning 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining yig'ilishida alohida qayd etganidek, "Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi. Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yyetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir"[1].

[1] "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi". O'zbekiston Res-

...NO IQTI... OMOT
VA SERVIS INSTITUTI
57775

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik shakli bo'lgan fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligi qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligiga bog'liq. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining asosiy funksional vazifasi fermer xo'jaliklarida takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda ularga xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash, unga turli shakldagi xizmatlarni ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, tovar shaklidagi xizmat turlarini kengaytirish va aholiga bu turdagi xizmatlardan samarali foydalanish uchun qulayliklar yaratish, pirovard natijada aholining turmush farovonligini oshirishdir.

Qishloqda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va barqarorligini ta'minlanganlik holati bilan belgilanadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish ikki yoqlama jarayondir, birinchidan uning tarkibiga kirgan tarmoqlar va korxonalarning bir qismi erkin raqobat muhitida rivojlanadi, ikkinchi qismining monopol holati davlat tomonidan tartibga solinadi. Bu qishloq infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlar va korxonalar faoliyatini yagona bir tizim sifatida integratsiyalashtirish asosida tizimli tashkil etish va rivojlantirishni talab etadi. Bunda qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayoni ham tizim ichida ikki yoqlama tavsifga ega bo'ladi. Infratuzilma korxonalarining bir qismida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish asosida ular o'rtasida erkin raqobat muhiti shakllantiriladi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligi oshiriladi. Infratuzilma tizimida monopol holatda bo'lgan kor-xonalar faoliyati davlat tomonidan: narx, kredit siyosati, budjet ajratmalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq tizimi va tovar ishlab chiqaruvchilarni himoyalash kabi dastaklar orqali

publikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni "2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga" bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 20-yanvar 2014-yil, Toshkent oqshomi gazetasi.

amalga oshirilib, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligi oshiriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni ilmiy hal etish uchun zaruriy nazariy bilimlarni o'zlashtirishda ushbu o'quv qo'llanma asos bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining asosiy maqsadi talabalarda qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, tarkibi, uni barqaror va jadal rivojlantirish muammolarini o'rgatish. Infratuzilma korxonalari tomonidan fermer xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida ularga turli shakldagi samarali xizmatlarni ko'rsatish hamda sohani boshqarish, tartibga solib turish maqsadida zarur boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun yetarli darajada nazariy va amaliy bilimlar majmuasini shakllantirish hisoblanadi.

1-BOB. "QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI" FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

1.1. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog'liqligi va o'rni

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani iqtisodiy fanlar tarkibiga kiradi. Har qanday davlatning iqtisodiyoti ma'lum tarmoq, soha va xizmatlar yig'indisidan iboratdir. Ushbu tarmoq, soha va xizmatlar ichida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardan biri bo'lib, qishloq xo'jaligining taraqqiyoti, insoniyatning hayoti, turmush darajasi ko'p jihatdan uning rivojlanishi bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligida insonlarning asosiy oziq-ovqatlari, kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqariladi. Boshqacha qilib aytganda, insonlarning hayoti bilan bevosita bog'langan tarmoq hisoblanadi. Ushbu tarmoqning insonlar hayoti bilan bevosita bog'liqligi uni rivojlantirish bilan bog'liq qator zaruratlarni keltirib chiqaradi. Aholining turmush darajasi, bevosita hayoti bilan bog'liq bo'lganligi tufayli qishloq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlaydigan bilimlarni o'rganish zarurati tug'iladi. Shu sababli boshqa iqtisodiy fanlar qatorida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti fani ham shakllanib, rivojlanib kelmoqda.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z o'rganish obyektlari va predmetiga ega. Fanning predmeti obyektiv iqtisodiy qonunlarning qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoq va korxonalarda amal qilishining o'ziga xos tomonlarini o'rganish hisoblanadi. Doimiy rivojlanishda bo'lgan ushbu fan qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoq va korxonalari iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi, sifati, mehnat resurslari, asosiy ishlab chiqarish vositalari va tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini o'rganadi. Fan qishloq ishlab

chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoq va korxonalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning ta'sirini ham o'rganadi. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoq va korxonalari taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni o'rganadi va mutaxassislarga ularni yaxshilash yo'nalishlari to'g'risida zarur bilimlarni beradi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoq va korxonalarida amalga oshirish jarayondagi yutuq va kamchiliklarni o'rganadi hamda ularning yechimlari to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassam etadi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z predmetini quyidagi tartibda o'rganadi: dastlab agrosanoat integratsiyasi, infratuzilmaning shakllanish qonuniyatlari, qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarida takror ishlab chiqarish jarayoni o'rganiladi. Qishloq xo'jaligi takror ishlab chiqarish jarayonida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining o'rni, uning tarkibiga kiruvchi tarmoq va korxonalarning hozirgi holati, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi, sifati, ularni rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan muammolar va ularni yechish yo'nalishlarini belgilovchi iqtisodiy bilimlar bilan mutaxassislarni (talabalarni) tanishtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning oldi-sotdi munosabatlarini talab va taklif qonuni asosida amalga oshishi, ASM tarkibida mustaqil ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari tizimini shakllanib faoliyat ko'rsatishini taqozo qiladi. Ta'kidlash joizki, qishloq ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlarining ASM ning rivojlanishiga katta ahamiyatga egadir. Bunday g'oyani ilgari surishimizning yana bir omil – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining o'ziga xos bo'lgan takror ishlab chiqarish uchun umumiy sharoitlar yaratish xususiyatiga egaligidir. Ya'ni, infratuzilma ASM tizimidagi I, II va III bo'g'inlarini vositachi sifatida ko'rsatadigan xizmatlari orqali bir-birini hamda iste'molchilar bilan bog'lab turadi.

Agrosanoat majmuasi tarkibida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmaning ahamiyati katta. Infratuzilma agrosanoat majmuasining 4-sohasi hisoblanadi. Bu fan infratuzilmani uchga bo'lib o'rganadi. Birinchi qismga agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish infratuzilmasi, ikkinchi qismga majmuaning ijtimoiy infratuzilmasi va uchinchi qismga bozor infratuzilmasi kiradi. Infratuzilmaning (ishlab chiqarish va ijtimoiy) mohiyatini, ahamiyatini, vazifalarini, tarkibini, uning rivojlanish tendensiyalarini tartibga solib o'rganadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi mehnat taqsimoti (ba'zi hollarda avlodlar mehnati) natijasida vujudga kelib doimiy ravishda takomillashib boruvchi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va qishloq aholisini takror ishlab chiqarish talablariga mos umumiy sharoitlarini yaratib beruvchi hamda soha mahsulotlarining raqobatbardoshligini va ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlash uchun xizmat qiladigan tarmoqlar va korxonalar majmuidir.

Qishloq xo'jaligida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida yuzaga kelgan ixtisoslashuv, tabiiyki, uning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishiga turtki beradi. Shunday ekan, ixtisoslashuvning takomillashuvi ASMda ishlab chiqarish infratuzilmasining yangi ixtisoslashgan funksional guruhlarga bo'linib rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati u bajaradigan ko'p qirrali funksional vazifalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi yaxlit mehnat jarayoni uchun shunday iqtisodiy-ishlab chiqarish sharoitlarini yaratadiki, unda ishlab chiqarish vositalari amal qilib, o'zining ishchanlik qobiliyatlarini uzoq muddatga saqlab qoladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining bosh vazifasi qishloq xo'jaligini samarali amal qilishi uchun korxonalararo aloqalarni ta'minlash va ularning yaxlit xo'jalik subyektiga aylanishlari uchun moddiy sharoit yaratishdir.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari va korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini bozor talablariga mos ravishda yangilanishi hamda fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshli-

gini oshirish uchun umumiy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. U o'zining moslashuvchanlik, tezkorlik, bog'lanuvchanlik va optimallik tamoyillari orqali ASM tizimidagi korxonalarning bir-biri bilan iqtisodiy aloqalari uzluksizligini ta'minlash hamda xizmatlarni xo'jalik subyektlarining talabiga muvofiq zamon, makon va zaruriy me'yorda bozorning sharoitiga mos ravishda yetkazish orqali korxonalarning samaradorligini oshiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi o'z xizmat ko'rsatish ko'lamiga mos xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi yer tarkibini yaxshilash, o'simliklarning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, qishloq xo'jaligida ishchi kuchini tiklash ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni takomillashtiradi. Soha mahsulotlarini nest-nobud bo'lishining oldini olish va sifatini oshirish orqali iste'molchilarning talabini qondirish hamda fermer xo'jaliklar raqobatbardoshligini ta'minlash, ularning ASM tizimidagi korxonalar bilan turli aloqalari uzluksizligini ta'minlash hamda infratuzilma xizmatlarini xo'jalik subyektlari talabiga muvofiq zamon, makon va zaruriy me'yorlarda bozorning sharoitiga mos ravishda yetkazib berish orqali fermer xo'jaliklarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi qishloq xo'jaligiga, asosan, texnik-texnologik, moddiy-texnik ta'minot, urug'chilik va seleksiya, ilmiy-tadqiqot, axborot-kommunikatsiya, melioratsiya-irrigatsiya, agromarketing va agroservis kabi xizmatlarni ko'rsatadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi va bajaradigan funksional vazifalariga binoan uni turlicha tasniflash mumkin.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi. Ularga ishlab chiqarish maqsadiga yo'naltirilgan transport, ta'mirlash ustaxonalari, ombor xo'jaliklari va muzxonalar, texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari, MTP (mashina traktor parklari), YOMM (yoqilg'i-moylash ta'minoti korxonalari), SIU (suv iste'molchilari uyushmasi), mineral o'g'itlarni sotish shoxobcha-

lari, minibanklar kiradi. Bundan tashqari, bu yerga o'simliklarni himoya qilish, agrotexnik, veterenariya, sun'iy urug'lantirish, texnik - ta'mirlash, huquqiy, ilmiy va axborot kabi maxsus xizmat ko'rsatish bo'linmalari ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonining tezlashib borayotgani, o'z navbatida, xorijiy davlatlarning qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi siyosatini o'rganish katta ahamiyatga egaligini e'tiborda tutib, Yevropa hamjamiyati davlatlarining yagona agrar siyosati to'g'risida ham qisqacha ma'lumot beradi. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani moddiy ishlab chiqarishning iqtisodiy masalalari bilan bog'liq bo'lganligi sababli boshqa iqtisodiy fanlar kabi quyidagi amaliy masalalarga javob izlaydi va ularning mo'tadil yechimini topadi.

1. Mamlakat qishloq xo'jaligi nima ishlab chiqarishi kerakligini aniqlashi va uning eng mo'tadil tarkibini topishi lozim. Respublika tabiiy-iqlim, mehnat va ishlab chiqarishning moddiy resurslari hamda bozor talablarini hisobga olgan holda nima yetishtirish kerakligini belgilashi kerak. Bu juda muhim va qiyin masala bo'lib, uni yechimini topish ustida fikr yuritadi. Bu masalani hal etishda mamlakatning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabi aniqlaniladi. Ushbu talabni qondirish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi o'rganiladi. Respublika uchun absolyut va nisbiy ustunlik jihatlar o'rganiladi. Shundan so'ng «Nima yetishtirish kerak?» degan savolga javob beradi. Bu doimiy rivojlanishda bo'lib, davrlar o'tishi bilan ishlab chiqarishning tarkibi o'zgarib boradi.

2. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani "Infratuzilma xizmatlari hajmi, muddati, tarkibi va sifati qanday bo'lishi kerak?" degan savolga ham javob beradi. Bu savolga javob berish uchun mamlakatning ushbu xizmatlarga bo'lgan talabi va uni ishlab chiqarish uchun imkoniyatlari aniqlanadi. Qanday ishlab chiqarish kerak? degan savolga javob berish uchun ko'rsatilayotgan xizmatlar qanday texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi belgilanadi. Bu savolga javob topish uchun mamlakat

o'z resurslarining qancha qismini ushbu xizmatlarni va ne'matlarni yaratishga ajrata olishini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun mos keladigan ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish katta amaliy ahamiyatga ega.

3. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani "Infratuzilma korxonalari xizmatlarni kim uchun ishlab chiqaradi?" degan savolga javob topishi lozim. Bu bir ko'rinishda oddiy masaladek ko'rinsada, aslida, juda murakkab masala hisoblanadi. Bu masala qanchalik murakkab, tez o'zgaruvchan bo'lmasin, unga doimo javob topib turish zarurati bor.

4. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani har bir tarmoq iqtisodiyotini alohida-alohida emas, balki ulardan har biriga tegishli ma'lumotlar asosida infratuzilma xizmatlari ko'rsatishni ko'paytirish, uning tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulotlar sifatini yaxshilashni ta'minlovchi mexanizmni yaratish nuqtayi nazaridan o'rganadi.

5. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" "Iqtisodiy nazariya", "Mikroiqtisodiyot", "Makroiqtisodiyot", "Marketing", "Menejment", "Iqtisodiy statistika", "Iqtisodiy geografiya", "Mintaqa iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti", "Qishloq xo'jaligi huquqi" , "Korxona iqtisodiyoti", "Mehnat iqtisodiyoti" kabi qator fanlar bilan uzviy bog'liq. Shu bois u o'z predmetini ko'plab fanlar yutuqlaridan foydalangan holda o'rganadi. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani juda ko'plab iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi va ularda erishilgan yutuqlar bilan boyib boradi, o'z navbatida, boshqa iqtisodiy fanlarning rivojiga hissa qo'shadi.

Masalan, makroiqtisod, ya'ni respublika iqtisodini o'rganmasdan, bilmasdan qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyotini, unda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, ularning ahamiyatini baholab bo'lmaydi. Iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ulardan har birining mazmunini, harakat qilishini o'zlashtirmasdan qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalaridagi iqtisodiy

munosabatlar tizimini to‘g‘ri va samarali amalga oshirish, mehnatni tejash va uning unumdorligi rivojlantirilishini belgilay olish murakkab. «Mikroiqtisodiyot» fanidan talab va taklif qonunlarini o‘rganmasdan qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarida qayerlarda, qanday infratuzilma xizmatlarini qancha hajmda ta’minlash zarurligini to‘g‘ri belgilash haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas.

Bu fanning rivojiga bizning mamlakatimizda akademiklar, Jalilov X.M., Usmanov S.N., Kim V.V., Husanov R.X., G‘ulomov S.S., Lapkin K.I., i.f.d., professorlar Qayumov F.Q., Abdug‘aniyev A.A., Hasanjanov Q.S., Jo‘raev A., Husanov M., Shokirov A., Yusupov E., Xushmatov N., Murodov Ch., Hamdamov Q.S., Xurramov A., dotsentlar Maxmadiyev U., Gavrilyuk L., Ogurcyeva G.A., Ziyavutdinov Sh., Ismailova F., Xolbotirova U., Galiyev B., Kim V.M., Tursunxo‘jayev T.L., To‘raxo‘jayev T.I., Raximov B.R., Raximov S.B., Abdullayev B.M., Mirzajonov M.Q., Murtozayev O., Aripov M., Aripov I.M., O‘roqov N.I., Xudoyberdiyev O‘., kabi ko‘plab agrar iqtisodchilar katta hissa qo‘shdilar.

1.2. “Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti” fanining predmetini o‘rganish usullari

Barcha fanlar o‘z o‘rganish predmetiga ega. Ular o‘z predmetlarini o‘rganishda turli-tuman usullardan foydalanadi. Jumladan, iqtisodiy fanlar ham o‘z predmetini o‘rganishda o‘ziga mos usullar tizimidan foydalanadi. Iqtisodiy fanlar o‘z predmetlarini o‘rganish maqsadida qanday usullardan foydalansa, “Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti” fani ham shu usullaridan foydalanadi. Faqat o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib ayrim usullardan ko‘proq, ayrimlaridan kamroq foydalanadi.

Uslubiyat bu ilmiy bilishning tamoyillari, shakl va uslublari to‘g‘risidagi qarashlardir. Uslubiyat qator usullar yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Har bir fan o‘z uslubiyatidan kelib chiqib usullar guruhini tanlaydi. Usul deganda biror qonuniyatni, hodisa yoki ja-

tayonni nazariy tekshirish va amaliy yechishning vositasi, yo'li tushuntiladi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti"fani agrosanoat majmuasida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi, majmuaga kirgan tarmoqlar, korxonalarni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar, bilimlar beradi. Fanning bergan tavsiyalari asosida majmuani boshqarish, undagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani iqtisodiyotda yuz berayotgan voqealarni, jarayonlarni tasvirlaydi. Ushbu jarayonlar chuqur tahlil qilinadi va obyektiv, ilmiy asoslangan xulosalar olinadi. Tahlil oqibatida olingan natijalarning xususiyatlari aniqlanib ularni takomillashtirish, rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z predmetini o'rganishda quyidagi muayyan usullardan ko'proq foydalanadi. Fan o'z predmetini o'rganishda foydalanadigan usullarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga o'rganishning umumfan usullari kiradi. Bu usullarga ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, tarjiba, faraz, kabilar kiradi. Ikkinchi guruhga maxsus usullar kiradi. Bular: monografik tadqiqotlar, iqtisodiy–matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil va sintez, iqtisodiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik, balans, hisob konstruktorlik kabi usullar kiradi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti"fani tarixiy fandir. U o'z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Fanning muammolarini o'rganish juda qadim davrlarga borib qadaladi. Lekin alohida fan sifatida shakllanganiga uncha ko'p vaqt bo'lgan emas. Adabiyotlarda "agrosanoat integratsiyasi", "agrobiznes", "agrosanoat majmuasi" tushunchalari 1950-yillar oxiriga to'g'ri keladi. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" alohida fan sifatida 1990-yillardan boshlab o'rganila boshlandi. Bizning mamlakatimizda bu fan 1970-yillarning o'rtalarida shakllandi va mutaxassislar tomonidan o'rganilib, rivojlantirilmoqda.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani dinamik rivojlanib boryotgan fanlar qatoriga kiradi. Shu sababli dunyo iqtisodiyoti va mamlakat iqtisodiy siyosatida yuz berayotgan hodisalar "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, fan o'z predmetini o'rganishda tarixiy–dialektik rivojlanish usulidan ham keng foydalanadi. Bunda majmuaga kirgan bir tarmoqda yuz bergan o'zgarish uning boshqa tarmoqlari foliyatida o'z aksini topishi doimiy hisobga olinib turiladi. Demak, "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani boshqa iqtisodiy fanlar kabi iqtisodiyotda yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni bir-biriga bog'liq holda o'rganadi.

1.3. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining vazifalari

Agrar islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifa, ichki bozorda iste'molning o'sishi va tashqi bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa, agrooziq-ovqat sektori iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan kompleks va mutanosib rivojlanishini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ishlab chiqiladigan strategiyasi asosida qishloqda turmush darajasini yuksaltirish va sifatini oshirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashning makroiqtisodiy barqarorlik bilan o'zaro bog'liqligiga erishilishini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan ham, qishloq ishlab chiqarish infratuzilma subyektlari faoliyatini rivojlantirish, ularning barqaror ishlashini ta'minlash imkonini beruvchi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi:

- bozor narxlari konyunkturasi talablaridan kelib chiqqan holda, infratuzilma xizmatlari raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish tadbirlarini joriy etish,

infratuzilma xizmatlari ko'rsatishni ratsionalizatsiyalash hisobiga mahsulot tannarxini arzonlashtirish;

• infratuzilma korxonalarida xodimlar tomonidan xizmatlar tannarxini kamaytirish, uning raqobatbardoshligi hamda tashqi va ichki bozorda sotish hajmini oshirishdagi faoliyati samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish;

• ishlab chiqarilayotgan har bir turdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti va ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha sarf-xarajatlar limiti va me'yorini qayta ko'rib chiqish;

• suvdan foydalanuvchilar uyushmalari samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashni tashkil etish uchun fermer xo'jaliklari va boshqa suvdan foydalanuvchi (iste'molchi)lar tomonidan moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish;

• zooveterinariya va servis xizmatlarini yaxshilash bo'yicha yana qo'shimcha zoovetpunktlar tashkil etish va kredit mablag'lari hisobiga ularni Dyuar idishlar, sovutgich, akusher-ginekologik va jarrohlik jihozlari hamda boshqa asbob-anjomlar bilan ta'minlash;

• sun'iy urug'lantirishni ko'paytirish va chorva mollarini kasalliklarga qarshi o'z vaqtida emlash hisobiga ularda chiqim salmog'i kamaytirilishiga erishish;

• MTP, YOMSH, Mineral o'g'it sotish shaxobchalari kabi infratuzilma korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashni uchun fermer xo'jaliklari bilan yangi innovatsion iqtisodiy mexanizmni shakllantirishni tashkil qilish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish uchun:

• aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan arzon narxlarda va uzluksiz ravishda ta'minlashni tashkil etish maqsadida mahalliy hokimliklar qoshida meva-sabzavot hamda uzum mahsulotlari va kartoshkani fermer xo'jaliklaridan maqbul narxlarda sotib oladigan, saqlaydigan, tashiydigan, ichki iste'mol bozorlariga realizatsiya qiladigan, eksportini amalga oshiradigan hamda moliyalashtiradigan ixtisoslashgan kompaniyalar tashkil qilish va ularni yetarli miqdordagi

aylanma mablag'lar hamda zarur moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlashning tashkiliy choralarini ishlab chiqish;

• bugungi kunda jahon miqyosida kuzatilayotgan, oziq-ovqat muammosi salbiy oqibatlarining oldini olish uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishni optimallashtirish, ilm-fan tavsiyalaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yer maydonlari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklari bo'yicha keyingi yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish hamda ularda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

• Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning har bir tumanida yengil konstruksiyali, muqobil issiqlikdan foydalanish ko'zda tutilgan issiqxonalar qurish;

• suv tanqisligining yetishtirilayotgan hosilga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan texnik-muhandislik tadbirlari va suv resurslarining tejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish;

• qayta ishlash korxonalari va agrofirmalar tomonidan sotib olinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun bo'nak mablag'lari berish va keyin sotib olingan mahsulotlar uchun to'liq hisob-kitob qilish maqsadida uzluksiz naqd pul berib borish mexanizmini takomillashtirish va muntazam monitoringini yuritish;

• dehqon xo'jaliklari tomorqalarida ekiladigan ekinlar turlari va maydonlarini aniqlash hamda bu xo'jaliklarning urug'likka, ko'chatlarga, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini qondirish tizimini rivojlantirish;

• sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkaning serhosil, kasallik hamda turli sharoitlarga chidamli bo'lgan yangi navlari va birinchi duragaylarini yaratish;

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish, pirovardida, zamonaviy innovatsion agrotexnologiyalarni joriy qilish orqali qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining asosiy maqsadi o'quvchilarni majmuaning iqtisodiy masalalari bo'yicha davlat standartlari darajasida barcha zaruriy bilimlar maj-

muasi bilan qurollantirishdir. Mutaxassislarga majmuada yuzaga keladigan ko'plab iqtisodiy muammolar va masalalarning mo'tadil yechimini topishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining asosiy vazifasi o'quvchilarni qishloq xo'jaligida iqtisodiyotning dolzarb masalalari bilan tanishtirish, ularni fermer xo'jaliklarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun normal shart-sharoitlarni yaratuvchi va samarali faoliyatini ta'minlovchi, pirovard mahsulot hajmining miqdoran ko'p va sifat jihatidan yuqori bo'lishiga yo'naltirilgan xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha mutaxassilarga yetarli darajada bilim berishdir. Ushbu masalalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- agrosanoat integratsiyasi;
- agrosanoat majmuasi tarmoq tarkibi;
- agrosanoat majmuasi tarmoqlari tarkibida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining o'rni;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi tarmoqlar va korxonalar rivojlanishining hozirgi holati;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari va korxonalaridagi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish yo'llari;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari va korxonalarida agromarketing;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari menejmenti;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining moliya va kredit, soliq siyosati;
- qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirish yo'nalishlari.

Ushbu masalalarni to'g'ri tushunish va ularning yechimlari to'g'risidagi bilimlar bilan talabalarni, mutaxassislarni qurollantirish "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Fanni o'rganish tufayli o'quvchi qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi to'g'risida, uning iqtisodiy

...IQTISODIYOT
V. SERVIS INSTITUTI
...RESURS MARKAZI
51771

masalalari, muammolari haqida minimal bilimlar majmuasiga ega bo'ladi. Turli tarmoqlar iqtisodiyotini alohida-alohida o'rgangan mutaxassislarni qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasiga kiruvchi tarmoqlar iqtisodiy manfaatlarini bir-biriga moslashtirishning, ta'bir joiz bo'lsa, bo'ysundirishning zarurligi to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi."Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani talabalarning iqtisodiy bilimlari yanada mukammal bo'lishini ta'minlaydi, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida to'g'ri xulosalar chiqarish va mo'tadil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Mamlakat hukumatining iqtisodiy siyosatini o'rganish va uning tegishli qismini mutaxassislarga yetkazish ushbu fanning asosiy vazifalaridan biridir. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani talabalarga bir-biri bilan texnologik jihatdan bog'langan ko'plab tarmoqlar mutonosib rivojlanishi zarurligi to'g'risidagi bilimlarni o'rgatadi, aholining turmush darajasi, eng avvalo, ushbu majmua tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi va ularning mutanosib rivojlanishiga bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi resurslaridan foydalanishning eng maqbul yo'llari va yo'nalishlarini ko'rsatish ham ushbu fanning vazifasiga kiradi. U mutaxassislarga qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari xizmatlariga bo'lgan talab uzoq va qisqa davrlarda shakllanishining umumiy qoidalarini o'rgatadi, ularni majmua xizmatlariga narx shakllanishining o'ziga xos tomonlari va xususiyatlari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Mamalakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonda qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi qishloq xo'jaligini va shu bilan birga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini belgilab beradi. Infratuzilmaning rivojlanishi uning tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlar va korxonalarning rivojlanishiga bog'liq. Biror tarmoq yoki

korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarda mavjud kamchilik, oqsoqlik fermer xo'jaliklarning iqtisodiy faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga kirgan tarmoq va sohalarni bir-biriga mutanosib rivojlantirish zarurati mavjud. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z predmetini o'rganishda, yuqoridagi holatni hisobga olgan holda, talabalarga zarur bilimlar olishda imkoniyat yaratishi uning vazifalaridan biri hisoblanadi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanida belgilangan mavzularning mohiyatini ochishda xorijiy davlatlarda ushbu sohada erishilgan fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan keng foydalanadi. Xorijiy davlatlarda erishilgan fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanishning imkoniyatlari to'g'risida mutaxassislarga bilimlar berish uning asosiy vazifalaridan sanaladi.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z mohiyatini ochishda O'zbekiston Respublikasining agrar iqtisodiy siyosatini asos qilib oladi va uning mohiyati bilan mutaxassislarni yaqindan tanishtiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi" fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot usullari nimalardan iborat?
2. Infratuzilmaning lug'aviy ma'nosi nimadan iborat?
3. Fanning tarkibi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Fanning o'z predmetini o'rganish usulari qanday?
5. Fanning o'rganish obyektlari haqida nimalar bilasiz?
6. Fanning o'zga fanlar orasidagi o'rni va bog'liqligi qanday?
7. Fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan agrar iqtisodchi olimlardan kimlarni bilasiz?
8. "Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fani o'z predmetini qanday ketma-ketlikda o'rganadi?

2-BOB. QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA UNI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

2.1. ASMda infratuzilmaning mohiyati va uni tadqiq etishning nazariy asoslari

O'zbekiston aholisining turmush darajasini oshirishda agrosanoat majmuining roli beqiyosdir. Chunki, ASM o'z tarkibida agrar soha uchun moddiy-texnik vositalar ishlab chiqaruvchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalarining o'zaro va aholi hamda boshqa bozor subyektlari bilan aloqasini ta'minlovchi infratuzilmani qamrab olgan.

Infratuzilma vujudga kelishining asosiy sababi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, samarali faoliyat olib borishi uchun asos ekanligi va ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatish jarayonida ma'lum vazifalarga ega bo'lgan tarmoqlarning iqtisodiy tizimi sifatida muhim nazariy tushuncha bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "infratuzilma" tushunchasi mazmuniga nisbatan bugungi kunda bir xil qarash yo'q, bu esa mazkur kategoriyaning mohiyatini ochishga nisbatan olimlar orasida turli yondashuvlar borligi bilan izohlanadi. Jahon tajribasida infratuzilma tushunchasi XX asr boshlarida birinchi bor harbiy qurolli kuchlarning to'laqonli faoliyat yuritilishi uchun zarur bo'lgan obyektlar va inshootlar majmuasi sifatida muomalaga kiritilgan. G'arb davlatlari taraqqiyot bosqichining 1940-yillariga kelib infratuzilmani moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tarmoq va muassasalarning yaxlit bir tarkibi sifatida tushungan.[1] 1970–1980-yillardan sobiq ittifoq respublika-

---

[1] Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства: Автореф. дис.канд. экон. наук.. – Вологда: РГБ ОД 2002. – 18 с.

larining iqtisodiy adabiyotlarida, odatda, infratuzilmani muhandis – texnik bino va inshootlarning yig'indisi sifatida ko'rilgan.

Iqtisodiy adabiyotda infratuzilma terminiga turlicha izoh berilgan. Lug'aviy ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, infratuzilma (lotincha infra - quyi, struktura - joylashuv, tuzilish) turli-tuman xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kompleksi: transport, aloqa, savdo, moddiy texnika ta'minoti, suv bilan ta'minlash, fan, maorif, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha iqtisodiyot nazariyasi fani tushunchalari majmuida dastlab XX asrning 40 yillarida paydo bo'ldi. Unga iqtisodiy tizimdagi mustaqil element sifatida qarashga undovchi sabablar, bir tomondan, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuv jarayonlari; boshqa bir tomondan esa – infratuzilmani faqat bozor mexanizmi orqali to'laqonli rivojlantirish mumkin emasligi bilan baholanadi. Bu infratuzilma korxonalarini rivojlantirishda ikki asosiy yo'nalish mavjudligini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalish infratuzilma korxonalari ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida rivojlanishini ko'zda tutsa, ikkinchi yo'nalish infratuzilma korxonalari rivojlanishini tartibga solishda davlatning rolini oshirish zaruriyatini ifoda etadi.

Iqtisodiy tizimlarni tashkil etish masalalarini o'rganish asosida infratuzilma tushunchasining turlicha ta'riflarini ifoda etuvchi, ko'plab yo'nalishlarning paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratdi. Mazkur yondashuvlardan biri infratuzilmani ishlab chiqaruvchiga to'g'ridan to'g'ri foydani ta'min etmaydigan, sotishga tayyor bo'lgan tovar ko'rinishidagi bevosita natijani ham bermaydigan jamiyatning ustama xarajatlari sifatida qarab chiqishda ifodalanadi. Boshqa bir nuqtayi nazar ushbu kategoriyani korxonaning ustama xarajatlarini qisqartirgani, shu bilan birga, kapital aylanishini osonlashtirgani holda, nafaqat birlamchi maqsad yalpi talab va bandlikni oshirish, balki bozor sektorida foyda me'yorini oshirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar majmui (yo'l tarmog'i, transport vositalari, yer tuzilishi va boshqalar) sifatida tasavvur yetishda o'z aksini topadi.

G'arb ilmiy va o'quv adabiyotlarida yaxlit iqtisodiyot tarmoqlari infratuzilmasi deyilganda, masalan, amerikalik olimlar Makkonel K.R., Bryu S.L.ning ta'kidlashicha, infratuzilma milliy iqtisodiyot darajasida "fuqarolar va firmalar tomonidan ulardan foydalanish, odatda, davlat tomonidan ta'minlanadigan kapital qurilmalardir (yo'llar, shahar transport tizimlari, suv tozalash qurilmalari, munitsipal suv ta'minoti tizimlari, aeroport)", shuningdek, "infratuzilma firma uchun – mahsulotni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan xizmatlar va qurilmalardir (suv ta'minoti, elektroenergiya, ishlab chiqarishlarini olib ketish, yuklarni tashish, ilmiy – tad-qiqot va loyiha konstruktorlik ishlari, moliyaviy va bank xizmati)"[1]. Ularni o'z mablag'lari bilan tashkil etish qimmatga tushganligi bois davlat va boshqa firmalar tomonidan ta'minlanadi, deb ta'kidlaganlar.

Bir qator tadqiqodchilar "infratuzilma" tushunchasini iqtisodiyotga P.N.Rozenshteyn-Rodan kiritgan deb hisoblaydilar. Uning fikricha, infratuzilmaga "barcha aholining ehtiyojlarini qondiruvchi va iqtisodiyotning asosiy sohalarida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini ta'minlovchi umumiy shart-sharoitlar majmuasi, yoki asosiy sohalar ...", deb ta'rif bergan[2]. R.Ioxemsen o'zining "Infratuzilma nazariyasi" nomli asarida infratuzilmani hududlarda yaxlit xo'jalikni tashkil etishga ko'maklashuvchi moddiy, shaxsiy va institutsional faoliyat turlari va ular tashkilotlarining yig'indisi deb talqin etgan.[3]

Taniqli iqtisodchi olim P.Samuelsonning infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida xususiy tadbirkorlarning iqtisodiy mavqeyini mustahkamlashi uchun qulay sharoit yaratib berishiga olib keladi deb bergan ta'rifi bugungi globallashuvi sharoitida xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va ular

[1] Макконел Кэмпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2–х т. – М.: Республика, 1992. – 388 с.

[2] Жаравина Ю.А. Производственная инфраструктура, как фактор повышения конкурентоспособности национального хозяйства: Дис...канд. экон. наук. – Санк Петербург: 2006. – 19с

[3] Коновалова В.Н. Экономическая эффективность производственной инфраструктуры сельского хозяйства: Дис...канд. экон. Наук. – Вологда: РГБ ОД, 2002. – 18 с

mavqeining mustahkamlanishi uchun muhim nazariy va amaliy asosdir[1].

Iqtisod sohasiga oid ruscha adabiyotlarda ham infratuzilma tushunchasiga nisbatan yaxlit fikrlar uchramaydi. Quyidagi ta'rif bir muncha umumlashgan ta'rif hisoblanadi: "Infratuzilma-bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (ijtimoiy) sohalarining yordamchi tarmoqlari (quyi tarmoqlari)ning umumiyligidir." Infratuzilmaning ko'pchilik talqinlarida mualliflarning fikrlaridan kelib chiqqan holda, tarmoqlar to'plami nazarda tutilsa-da, ammo tarmoq to'plamlaridagi rang-baranglik uni turlicha tushunishga olib keladi. Xususan N.F.Chernyavskiy sanoat va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi xalq xo'jaligi tarmoqlari majmuini: yuk saqlash omborlari, aerodromlar, ko'priklar, portlar, suv omborlari, kanallar, avtomobil yo'llari qurish, energetika xo'jaligi, temir yo'l transporti, aloqa, suv ta'minoti va kanalizatsiya, umumiy va kasbiy ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash va shu kabi sohalarga xarajatlarni infratuzilma[2], deb ataydi. Ko'plab tarmoqlarni sanab o'tishga intilish, odatda, tushunchaning mavhumlashishiga olib keladi, buning natijasida esa kategoriyaning mohiyati ham yo'qolib boradi.

V.P. Fedko va N.G. Fedkolar "infratuzilmani ma'lum hududda takror ishlab chiqarish obyektlari birligi va ularning samarali faoliyatini ta'minlovchi sohalari yig'indisidan iborat" degan fikrni ilgari surganlar[3]. L.A.Merkushev infratuzilmaga ikkinchi soha sifatida ta'rif berib, "Umuman, bu qo'shimcha faoliyat turi bo'lib, asosiy obyektga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan", deb yozadi[4]. Shuningdek, iqtisodchi olimlar V.Jamin, S.A.Xeynman, S.S.Darosov ham yuqoridagi infratuzilmaga berilgan ta'riflarga mazmun jihatidan o'xshash fikrlarni bildiradi.

---

[1] Самуелсон П."Экономика". М.: Алгон, 1992, т.2. 14 б

[2] Чернявский И.Ф. Инфраструктура сельскохозяйственного производста (вопросы теории и практики).-М.: Экономика, 1999.

[3] Федко В.П., Федко Н.Г. "Инфраструктура товарного рынка". Ростов н/Д: Феникс, 2000. – С.14.

[4] Меркушев Л.А Территориальные системы производства, расселения, инфраструктуры Урала. Вып.2. Пермский гос.ун.т, 1976 –С.180.

Infratuzilmaga A.Seleznev tomonidan berilgan ta'rif o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning fikricha, «qishloq infratuzilmasi mintaqadagi subyektlar o'rtasida moddiy, moliyaviy va boshqa shakllanishni ta'minlovchi ma'lum obyektlar, institutsional tuzilmalar majmui bo'lib, ishlab chiqarish, muomala va iste'mol sohalarini yagona zanjirga birlashtiradi. Iqtisodiyotda moddiy, moliyaviy va axborotlar oqimini aylantirishni tezlashtirish hamda ijtimoiy rivojlanish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi[1].

A.A.Govorin infratuzilmaning iqtisodiy mohiyatini yoritish bo'yicha yuzaga kelgan turli yondashuvlarni tahlil qilish asosida umumlashtirib quyidagicha ta'rif beradi: Infratuzilma bu hududiy mehnat taqsimoti asosida yuzaga kelgan» ishlab chiqarish va uning alohida tarmoqlari o'rtasida takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlovchi sohalar hamda aholining farovon turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar majmuasidir.[2]

Yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflar ma'lum bir afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy soha elementlarinigina qamrab olish bilan cheklanib qolganligi sababli yaxlit tarzda infratuzilmaning iqtisodiy funksiyalarini, jumladan, makroiqtisodiy tizimning institutsional, moliyaviy infratuzilma kabi muhim elementlarini to'laqonli aks ettira olmagan. Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyotida infratuzilma maqsadi, turli bozorlarda iqtisodiy subyektlarning faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdan iborat o'zaro bog'liq bo'lgan institutlarning o'ziga xos quyi tizimini ifoda etadi, bu esa uni ekologik, axborot, ijtimoiy, tijorat, institutsional, moliya-kredit va ishlab chiqarish infratuzilmalarining majmui sifatida qarab chiqish imkonini beradi.

O'zbek olimlari tomonidan infratuzilma keng tadqiq etilgan bo'lib, unga turlicha ta'riflar berilgan. Ko'pchilik adabiyotlar-

[1] Селезнев А. "Становление рынки и его инфраструтуры" Экономист.1993.№9

[2] Говорин А.А. Инфраструктура современного предпринимательства: проблемы, теории и практики. М.: "Финстатинформ", 1999,-С.55.

da infratuzilmaning funksional vazifalari va xizmat turiga qarab nazariyotchi olimlar metodologik nuqtayi nazardan uni ikkita guruhga: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmalariga bo'lganlar. Masalan, A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning yozishicha: «Ishlab chiqarish infratuzilmasi yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad yaratadi; ijtimoiy infratuzilma sohalari (maorif, fan, sog'liqni saqlash va b.) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga, inson omillarini faollashtirishga xizmat qiladi»[1].

Ba'zi adabiyotlarda "infratuzilma – takror ishlab chiqarish shart -sharoitlarini ta'minlaydigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmuidir. Asosiy ishlab chiqarish infratuzilmasi - bu energiyani ta'minlovchi, transport va aloqa zanjiridir"[2]. Shuningdek, "infratuzilma – bu xalq xo'jaligini yurgizib turish uchun umumiy sharoit yaratib beruvchi sohalardir. Ularning faoliyat natijasi – natura shakldagi mahsulotlar emas, balki xizmatlardir"[3]

Tursunov A. G'. o'z tadqiqotlarida "Infratuzilma majmuasi – bevosita moddiy ne'mat ishlab chiqarishda qatnashmaydigan (ishlab chiqarish infratuzilmasidan tashqari), ammo ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitini va kishilar hayot faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi xo'jalik tarmoqlari majmuidan iborat"[4], deb ta'riflagan.

Shu bilan birga infratuzilmaning hosil bo'lish sababini ishlab chiqarish rivojlanishining natijasi o'laroq, takror ishlab chiqarish tizimida ma'lum vazifaga ega bo'lgan tarmoqlarning iqtisodiy birligi shaklida tasvirlaydi. Umuman olganda, infratuzilma sohasiga ta'rif berganda uning bir nechta jihatlariga e'tibor berish lozim:

---

[1] O'lmasov A.,To'xliyev N. Iqtisodiy lug'at.,T.1995. - B. 43.

[2] Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo'nalishlari.– T.: TDIU, 2007 - 23 b.

[3] Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo'nalishlari.– T.: TDIU, 2007. - 23 b.

[4] Tursunov A.G'. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish infrastrukturasini tashkil etish va rivojlantirish: Avtref. Dis. .. iqt.fan.nomz.– T.:BIITI, 1998 y.–S. 7.

• xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi;

• infratuzilmaning rivojlanishi va taraqqiy etishi ko'p hollarda u xizmat qilayotgan sohaning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi va aksincha;

• infratuzilma tarmog'ining turlari qaysi sohaga xizmat qilishiga bog'liq;

• jamiyat rivojlanishi, taraqqiy etishi bilan infratuzilma tarmog'ining xizmat ko'rsatish turlari kengayib boradi.

Umuman olganda, infratuzilma, bu – ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining mutanosib faoliyat yuritishi va aholi turmush darajasini oshirishga ko'maklashuvchi xizmatlar majmuasi va ularning bino – inshootlaridir. Shu paytga qadar infratuzilmani ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalardan iboratdir, deb hisoblab kelingan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizimning kirib kelishi bilan infratuzilmaning ko'lami kengayib, bozor infratuzilmasi, institutsional infratuzilma, bank infratuzilmasi, birja infratuzilmasi, investitsion infratuzilma kabi atamalar muomalaga kirib kelmoqda.

Ch.Murodovning fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat miqyosida infratuzilma oltita yo'nalishda, ya'ni ishlab chiqarish, ijtimoiy – maishiy, institutsional, shaxsiy, ekologik va bozor munosabatlariga mos ravishda ajralib chiqadi va shakllanadi. Bu infratuzilmalarni bir-biridan ajratish, farqlash hamda ularning asosiy mohiyatini ifodalovchi ilmiy ta'riflash nafaqat nazariy, balki infratuzilma majmuasining iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini asoslashda muhim amaliy ahamiyatga egadir.[1] Bugungi iqtisodiy adabiyotlarda infratuzilmaning, asosan, to'rtta turiga ta'rif berib kelinmoqda.

1. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

2. Bozor infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatmasa-da, xo'jalikning umumiy faoliyatini ta'minlashga

[1] Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi. Avtoref. iqt.f.dokt.. – T.:O'zBIITI, 2001 – B.11 -12.

xizmat ko‘rsatadi. Masalan, marketing va reklama, axborot-maslahat, auditorlik, investitsion va shu kabi boshqa xizmat turlari xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari samaradorligini oshirishga xizmat ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy infratuzilma tarkibiga agrar sohada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar: maorif va madaniy muassasalar, sport, turar joy va kommunal xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalari, maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalari, umumovqatlanish korxonalari, savdo, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi transport, mehnatni muhofaza qilish xizmatlari, texnika xavfsizligi, o‘quv-ishlab chiqarish kombinatlari, sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi. Ijtimoiy infratuzilma insonning har tomonlama kamol topishi va unga erishish sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar yig‘indisidir.

4. Institutsional infratuzilma iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo‘llab quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Unga iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, moliya-kredit muassasalari va boshqalar kiradi.



1– rasm. Infratuzilma sohalarning vazifasiga qarab turkumlanishi

Bundan tashqari infratuzilma tarmoqlarining hududiy belgilari, soha va tarmoqlar belgilari hamda foydalanish jihatlariga qarab quyidagicha turkumlash mumkin. Xududiy belgilariga qarab infratuzilma – makroiqtisodiy, mintaqaviy va mahalliy guruhlarga bo'linadi. Makroiqtisodiy infratuzilma mamlakat miqyosidagi infratuzilmaga mansub bo'lib, ular makroiqtisodiyot tarkibiga kiruvchi sektorning ish faoliyatiga xizmat ko'rsatadi. Bu infratuzilmaga moddiy-texnika ta'minoti, elektr energiya uzatuvchi liniya, mineral o'g'itlar va urug'lar yetkazib berish, maorif, sog'liqni saqlash va boshqalarni kiritish mumkin. Infratuzilma korxonalari davlat tomonidan tashkil etilib, dehqon va fermer xo'jaliklariga o'z xizmatini ko'rsatadi. Hududiy infratuzilmalar, ma'lum bir mintaqaga o'z xizmatini ko'rsatadi. Infratuzilmaning iqtisodiy xususiyatlarini quyidagilar belgilab beradi:

a) korxona faoliyatining bevosita natijalarini ifoda etuvchi foyda me'yorida emas, balki iste'molchi-korxonalar sarf-xarajatlarining pasayishi va foydaning o'sishida va ayni paytda aholi turmush farovonligining yaxshilanishida aks etuvchi yirik ko'lamdagi ijobiy samaralar;

b) har bir iste'molchi tomonidan alohida to'lanishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy ne'matlar: mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv;

v) qo'shilgan xarajatlarning pasayishi (boshqa tarmoqlarda bo'lgan o'sishga nisbatan) bilan ishlab chiqarish hajmining o'sishi.

Ammo, infratuzilma faoliyatining iqtisodiy-ishlab chiqarish xususiyatlari funksional jihatdan qo'shilgan xarajatlarning pasayishi bilan bog'liq emas. Infratuzilmaning funksional xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

1) ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarida sarflanayotgan mehnatning YAIM qiymatini oshiruvchi tavsifi;

2) infratuzilma tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonining muomala sohasida davom etishi;

3) infratuzilma tarmoqlarining saqlash, axborotlarni uzatish, yetkazib berish kabi jarayonlarni amalga oshirishlari sababli in-

fratuzilma tarmoqlari mahsulotlarini omborga joylash va zaxira qilish imkoniyatining yo'qligi;

4) Infratuzilmasini nafaqat yordamchi, balki ikkinchi darajali soha deb hisoblashning mumkin emasligi va shu kabilar.

Infratuzilmaning o'ziga xos xususiyatlari va sifat ko'rsatkichlarini tavsiflovchi bir qator belgilari mavjud:

- takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini ta'min etish;
- faoliyatning servis-xizmat ko'rsatish tavsifiga ega ekanligi;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligi sharoitida agrosanoat majmui mahsulotlarini yil davomida iste'mol qilish, ishlab chiqaruvchi va iste'molchining vaqt-makon tizimida o'zaro bog'liqligi, shu bilan bir qatorda, muomala sohasida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- tarmoqlararo integratsiyalashgan ishlab chiqarish barcha bo'g'inlarining o'zaro uyg'unlikda bo'lishini qo'llab-quvvatlash;
- agrosanoat majmuining asosiy ishlab chiqarish sohalari bo'lgan resurslarni ishlab chiqaruvchi, agrar va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida aloqalarni va o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;
- barcha ishlab chiqarish-qiymat (mahsulot-guruhli, tarmoq) zanjirining yaxlitligi va funksional jihatdan amal qilishini ta'minlash.

Shunday qilib, yuqoridagi tahlillarimiz infratuzilmaga ta'rif berishda adabiyotlarda yagona uslubiy yondashuvning yo'qligidan dalolat beradi. Albatta, bu yuqorida ta'kidlanganidek, infratuzilmaning alohida yo'nalishlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratishni ta'lab etadi. Shuningdek, hudud(viloyat)ni yagona majmua sifatida o'rganilgan ilmiy izlanishlarning yo'qligi ham bu borada ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Hozirgacha infratuzilmani yaxlit hudud nuqtayi nazaridan to'liq qamrab oladigan darajada tahlil qilib o'rganilmagan. Aksincha, bozor infratuzilmasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi shaklida o'rganilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va M.Sharifxo'jayev, Ch. Murodovlar bozor infratuzilmasiga atroflicha ta'rif bergan va O'zbekiston miqyosida o'rgangan. Yuqorida keltirilgan va boshqa ta'riflarni tanqidiy,

iqtisodiy o'rganish asosida infratuzilmaga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Infratuzilma barcha xo'jalik subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining shakllanishida bevosita ishtirok etuvchi, ularning manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi, tizimli yo'naltiruvchi, ishlab chiqarishdan iste'molchiga qadar bo'lgan jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash hamda aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishga yo'naltirilgan muassasalarni o'z ichiga oluvchi bir butun tizimdir.

Shu bilan birga, qator olimlar ishlab chiqarish va sanoat infratuzilmasini tahlil qilganda, uning qandaydir mahsulot ishlab chiqarmay, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi deb ta'riflaydi. Infratuzilma elementlari iqtisodiyot mazkur tizimga yuklagan vazifalarning o'ziga xos natijasidir. Bu vazifalar vaqt o'tgani sari o'zgarib, asosiy ishlab chiqarish funksiyalari yanada kengayib boradi.

Infratuzilmaning asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun umumiy shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Qoida bo'yicha, infratuzilma majmuasida mahsulot o'z-o'zidan yaratilmaydi, uning asosiy mahsuloti xizmatlardir. Ishlab chiqarish jarayonidagi vazifasiga bog'liq holda, infratuzilma material ishlab chiqarishda umumiy sharoitlarni ta'minlovchi ishlab chiqarish va inson kapitalini ishga tushirish, aholining turli ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlar yaratuvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rinishlarga egadir.

Infratuzilma deyilganda bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi quyi tizim tushuniladi. Biroq uning tarmoqlarida bozor munosabatlari ko'pgina yetakchi jabhalarni egallovchi bozor shakli qatorida nobozor sektorning mavjudligini avvaldan belgilovchi o'z xususiyatlari va ishlash chegaralariga egadir. Masalan, mintaqalarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish bo'yicha tanlangan mexanizm uning faoliyatini cheklashi yoki, aksincha, rag'batlantirishga sabab bo'lishi mumkin. Infratuzilmaning o'ziga xos xususiyati, avvalo, ishlab chiqarish samaradorligini va shu bilan birga milliy daromad qiymatini oshiradi.

Infratuzilma mintaqaning ko'pgina moliyaviy, ijtimoiy, huquqiy, axborot, ekologik, boshqaruv va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish faoliyatini o'z ichiga oladi va ishlab chiqarishning samarali olib borilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma muassasalari o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'p hollarda davlat tomonidan tashkil etiladi yoki mavjud infratuzilma muassasalari davlat tomonidan rag'batlantirib boriladi.

Shu bilan birga, infratuzilma jamiyatda insonlarning ishlab chiqarishdagi samarali ishtiroki uchun shart-sharoit yaratuvchi ishlab chiqarish kuchlarining bir qismidir. U jamiyat va uning a'zolari o'rtasidagi ehtiyojlar borasidagi iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydi. Infratuzilmaning umumiy tushunchasi shuki, u takror ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish, bozor va iste'molchining samarali munosabatga kirishini ta'minlovchi tizim bo'lish bilan birga, mintaqada ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Infratuzilmaning shakl-lanishi va rivojlanishini ilmiy tadqiq qilish ma'lum uslubiy tamoyillarga tayanadi. Jumladan:

- tizimli yondashuv tamoyiliga asosan, tarmoqlarda takror ishlab chiqarish jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida amalga oshiriladi;
- hududiylik tamoyili mintaqaning o'ziga xos alohida hududiy va mahalliy xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi;
- infratuzilmaning rivojlanishi va istiqbolini tahlil qilishda dinamik yondashuv tamoyili, uning doimiy rivojlanishini hisobga olib, tarkibiy jarayonlarni, iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni yaxlitlikda olib qaraydi;
- infratuzilmaning muvofiqlashtirish tamoyili takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi barcha tarmoqlar faoliyatini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanishiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining faoliyatini o'rganishda qulaylik tug'diradi;
- infratuzilma iqtisodiy munosabatlar tizimida bajaradigan vazifalari, maqsadlari va faoliyat yo'nalishlari nuqtayi nazaridan bir qancha tarkibiy qismlarni tashkil etadi.

Infratuzilmaga kiruvchi sohalar iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi va ishlab chiqarish, qayta ishlash hfmda sotish jarayonida o'ziga xos o'rin egallaydi. Shuning uchun infratuzilmani o'zining muhim belgilari nuqtayi nazardan tasniflash uning alohida yo'nalishlarining ishlab chiqarish jarayonidagi o'rnini aniqlashga imkoniyat yaratib beradi. Infratuzilma rivojlangan bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, ko'p jihatdan uning ishlab chiqarish va raqobat imkoniyatlarini belgilaydi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Infratuzilmaning iqtisodiy vazifasi qishloq xo'jaligining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bozor xizmatlarini yetkazishdan iborat. Bu vazifani bajarish bilan infratuzilma qisman avval xalq xo'jaligini rejalashtirishga xos bo'lgan tartiblash rolini bajaradi;

2. Infratuzilmaning ijtimoiy vazifasi aholi bandligi imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyat har bir a'zosining ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida o'z o'rnini topishini ta'minlashdan iborat.

Bizning nazarimizda, infratuzilma o'zida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning me'yorda faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'min etishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va tarmoqlar majmuini ifoda etadi. U har qanday tabiiy - ijtimoiy xo'jalik tizimlari, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonida vujudga keluvchi texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni amalga oshirish orqali agrosanoat majmuining ham samarali faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi va ayni paytda infratuzilma yagona bozor xo'jaligi mexanizmining asab, qon-tomir tizimi funksiyasini bajaradi.

Infratuzilma mamlakat hududlari, iqtisodiy rayonlar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini yaxlit tizimga keltirgani holda, ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Tayyor mahsulot, materiallar, xomashyoni o'z vaqtida yetkazib berish ko'p jihatdan xo'jalik muomalasida bo'lgan resurslar hajmini oldindan aniqlash imkonini beradi. Mamlakat iqtisodiy salohiyati-

ning umumiy holatda o'sishi infratuzilma tarmoqlarining tizimli qaror topishining bosh mezoni hisoblanadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini imkon qadar tez rivojlantirish zaruriyati uning tarkibiga kiruvchi soha va tarmoqlarni o'stirish omillarining o'zgarishi bilan izohlanadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida infratuzilma tarmoqlari va xizmatlarining funksiyalari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda agrosanoat majmui korxonalariga moddiy-texnik resurslarni sotish va yetkazib berish bo'yicha turli aksionerlik jamiyatlari va shirkatlar tashkil etilmoqda. Moddiy ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy vazifalaridan biri bu fermer xo'jaliklarni ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish vazifasidan ozod etish va ularning butun diqqat – e'tiborini asosiy ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish hisoblanadi. Agrosanoat majmui infratuzilmasi ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Infratuzilma tarmoqlari va xizmatlari o'zlari mustaqil ravishda pirovard mahsulot ishlab chiqarmasada, ko'p jihatdan yaxlit tarzda takror ishlab chiqarish jarayonining samarali faoliyat ko'rsatishini belgilab beradi.

Infratuzilmaning vazifalari faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va servisdan iborat deb hisoblovchi iqtisodchilar mazkur tushunchaning qo'llanish chegaralarini cheklab qo'yadi. Xizmat ko'rsatish funksiyalari bilan bir qatorda ishlab chiqarish infratuzilmasining shunday bo'g'inlari ham borki, ular bevosita ishlab chiqarish doirasida amalda bo'lib, asosiy ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy ishlab chiqarish bo'g'inlariga nisbatan yordamchi va to'ldiruvchi vazifalarni bajaradilar. Shu bilan bir qatorda mahalliy va xorijiy iqtisodchilar o'rtasida "infratuzilma", "ishlab chiqarish infratuzilmasi", "ijtimoiy infratuzilma", "atrof-muhit muhofazasi infratuzilmasi", "bozor infratuzilmasi" tushunchalarini talqin etishda yakdillik mavjud emas. Ularni ta'riflash va tasniflash borasidagi ko'p sonli usullar

iqtisodchilarning qaysi belgi va yo'nalishlarga ustuvorlik berishlari bilan bog'liqdir.

U yoki bu darajada rivojlangan har qanday iqtisodiy tizim o'z oldiga tizimning yashovchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator uzoq muddatli global maqsadlarni qo'yadi. Barcha faoliyat turlari, shu jumladan moddiy ishlab chiqarishning asosiy qismi ham utilitar tavsifga ega bo'lib, u yoki bu darajada tizimga xizmat ko'rsatadi, yoxud tizim yakuniy maqsadlarining amalga oshishini ta'minlaydi.

Infratuzilma yordamchi tavsifdagi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish xizmatlarini ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. O.S. Bekbergenova qator boshqa hammualliflar singari xizmat deyilganda mehnatning o'ziga xos iste'mol qiymatini tushunish lozimligini aytadi, zero, xizmat buyum sifatida emas, balki faoliyat sifatida ko'rsatiladi, ya'ni, u bu borada, aytaylik, biror bir mashina yoki uskunadan deyarli farq qilmaydi[1].

Yuqorida tilga olib o'tilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, korxona uchun iste'mol qiymatini nafaqat, moddiy tavsifga ega bo'lgan texnik vositalarning xizmati, balki, reklama, marketing xizmatlari, injiniring, investitsion siyosat va buxgalteriya masalalari bo'yicha maslahatlar berish kabi nomoddiy ko'rinishdagi xizmatlar ham yaratadi. Ular moddiy-texnik ta'minot va ishlab chiqarishga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari kabi yordamchi tavsifga ega bo'lgani holda, bevosita yoki bilvosita asosiy ishlab chiqarishning yakuniy mahsulotiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda ishlab chiqarish va iste'molning bir vaqtning va bir joyning o'zida amalga oshishi ko'plab ishlab chiqarish tavsifidagi xizmatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Har qanday tizimning amal qilishi ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunmadi, agar infratuzilma tizimining amal qilish qonunlari zaruriylik va yetarlilik nuqtayi nazaridan bayon etiladigan bo'lsa, u holda aytish mumkinki, iqtisodiy zaruriyat korxonaning ehtiyo-

[1] Бекмуратова О.С., Германова О.Е., Солдатова И.Ю. Институциональные основы рыночной экономики в России.-М.:Наука,1996.-С.43-47.

ji bilan, yetarlilik esa - transaksion yoki o'zaro ta'sir ko'rsatish xarajatlarini tejash bilan belgilanadi. Amaldagi qonunlar tipiga ko'ra, infratuzilmaning ichki holatini ko'p jihatdan tashqi muhit ta'siriga bog'liq bo'lgan tizimlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Bu iqtisodiyot institutsional tuzilmasining ishlab chiqarish infratuzilmasiga ta'sirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, transport korxonalarining faoliyatiga yuk va yo'lovchi tashish tariflarini davlat tomonidan tartibga solish katta ta'sir ko'rsatadi, bu esa ko'plab kor-xonalarning qarzga botishiga, narxli raqobatning yo'qolishiga va sohaga davlat subsidiyalarining ajratilishi zarurligiga olib keladi. Ammo mazkur vaziyatda yuzaga keladigan salbiy holatlar bilan bir qatorda, ijobiy jihatlar ham ko'zga tashlanishini unutmasligimiz lozim. Transport tariflarini davlat tomonidan tartibga solish subyektlarga yuk tashish narxlarining keskin o'sishidan qutulish, transport korxonalariga esa davlat subsidiyalari, subvensiyalari va dotatsiyalarini olish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishga alohida talablar qo'yadi, chunki bunga barcha korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati, bilvosita esa mintaqa aholisining turmush darajasi ham bog'liqdir. Normal faoliyat ko'rsatuvchi bozor iqtisodiyoti uchun barcha turdagi resurslar zaxirasi bo'lishi talab etiladi, infratuzilma quvvatlari ham bundan mustasno emas. Bir qator mutaxassislarning fikriga ko'ra, infratuzilma quvvatlarining zaxirasi iste'mol qilinayotgan quvvatlarning 30-35 foizi atrofida bo'lishi talab etiladi, aks holda, xo'jalik shartnomalarining bajarilishi qiyinlashadi, shartnomalar bo'yicha yuk yetkazib berish muddatlari barbod bo'ladi, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlarining o'zaro aloqalari, korxonalar ta'minotining bir maromiyligi buziladi.

Ishlab chiqarish xizmatlari qiymatga ega bo'ladi, chunki ularni sotish uchun resurslar talab etiladi va ayni paytda ular asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilganligi uchun iste'mol qiymatiga ham ega bo'ladi. Infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishda cheklangan resurslardan foydalaniladi, shunga mos

infratuzilma xizmatlarining o'zi ham cheklangan hisoblanadi, ular har bir xo'jalik yurituvchi subyektning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lmaydi. Ishlab chiqarish xizmatlarining bu xil barcha sifatlari uning nafliligi, cheklanganligi va resurs sig'imliligida namoyon bo'ladi. Infratuzilma asosiy ishlab chiqarish tovarlari naflitigi va xarajatlarini shakllantirishda ishtirok etgani holda, bozor sharoitida asosiy tovarning qiymati va iste'mol qiymatiga, yoki uning naflitigi va xarajatlari darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy ishlab chiqarishning u yoki bu ehtiyojlarini qondira oladigan bo'lgan infratuzilma korxonalarining layoqati moddiy ishlab chiqarishning daromadlari darajasi; qo'llanilayotgan ishlab chiqarish xizmatlarining o'rnini almashtirish imkoniyatlari; moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni; yangiliklarga intilish darajasiga bog'liq tarzda o'zgarishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish xizmatlariga talabni shakllantiradi.

Infratuzilma korxonalarining ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari ayni vaqtda amalda bo'lgan narxlar (tariflar) bo'yicha bozorga olib chiqilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish tavsifidagi xizmatlar taklifini shakllantiradi. Xuddi iste'mol ne'matlari bozorlarida bo'lgani kabi, ishlab chiqarish xizmatlari bozorida ham talab taklifni vujudga keltiradi. Har bir ishlab chiqarish xizmati taklifi turlicha egiluvchanlikka ega bo'ladi. Boshqa omillar ta'siri ham bo'lsa-da, resurslarning cheklanganligi va kamyobligi buning asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Misol tariqasida, elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta'minotining muqobillari yo'qligi va ularning ta'minotchilari doimo tabiiy monopoliyalar bo'lib kelganligi sababli ham, mazkur xizmatlar noelastik tavsifga egadir. Ishlab chiqarish xizmatlari taklifi iqtisodiy resurslar narxi, ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining texnologik rivojlanish darajasi, mazkur sohadagi korxonalar soni, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi, yangiliklarni kutishga bog'liq tarzda o'zgarishi mumkin. Ijtimoiy zaruriy infratuzilma faoliyatining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

• moddiy ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy belgilariga javob bermasligi;

• usiz mumkin bo'lmagan, yoki yyetarlicha samarasiz bo'lgan, biror bir boshqa asosiy faoliyatni me'yorida amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida maydonga chiqishi;

• servis xizmati va ko'rsatilayotgan xizmatning iste'moli jarayonlarining vaqt va mazmun bo'yicha bir-biriga mos tushishi;

• xizmat ko'rsatish obyektining mavjudligi;

• infratuzilma xizmatlarining xizmat ko'rsatilayotgan obyektga ijobiy ta'siri darajasi va tavsifi;

boshqa xizmatlarda bo'lgani kabi, infratuzilma xizmatlarini jismoniy ko'rinishda to'plashning mumkin emasligi.

Infratuzilma ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarini ishlab chiqarish-texnik ahamiyatidagi mahsulotlar yoki mehnat vositalari (mehnat qurollari, mehnat predmetlari va obyektlari) ko'rinishidagi barcha zaruriy moddiy resurslar bilan ta'minlaydi. Natijada, barcha xizmatlarni ularning tavsifidan qat'i nazar, resurs sig'imli va resurs sig'imsiz xizmatlarga ajratishimiz mumkin. Moddiy, material sig'imli, energiya sig'imli deb ataluvchi xizmatlarning eng muhim xususiyati – bu umumiy hisobda ishlab chiqarilgan moddiy (xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektroenergiya, amortizatsiya va shartli-doimiy xarajatlar) hamda mehnat resurslarining qiymatiga bog'liq holda, ularning hajmi, sifati va samaradorligi o'rtasidagi yetarlicha aniq va uzviy bog'liqlikdir. Resurs sig'imsiz xizmatlar (kichik energiyali xizmatlar) tarkibiga sifati, samaradorligi, yakuniy qiymati (narxi) resurs xarajatlari va mahsulot hajmi bilan sust korrelyatsion bog'lanishda bo'lgan xizmatlar kiritiladi.

Ko'pchilik hollarda resurs sig'imli xizmatlar moddiy-ishlab chiqarish infratuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi. U moddiy ishlab chiqarishga (servis, ya'ni ishlab chiqarish xizmatlari ko'rinishida) xizmat ko'rsatsa-da, moddiy ishlab chiqarishda uning ulushi yetarlicha katta bo'lmaydi. Biroq, infratuzilmaning funksional-tuzilmasi va uning ta'minot tuzilmalari o'rtasidagi farq-

[illegible] izohlanuvchi mazkur soha xizmatlaridagi tafovutlarni [illegible] olish qiyin emas. Infratuzilmaning funksional-tuzilmasi [illegible] moddiy ishlab chiqarish uchun xizmat ko'rsatuvchi [illegible] vositachilik tuzilmalari, birlamchi xo'jalik-ishlab chiqarish [illegible] (yetkazib beruvchi kontragentlar) va moddiy-texnik [illegible] bo'linmalari tushuniladi. Aynan ishlab chiqarish kuchlari [illegible] va jamiyat xarid qobiliyatining o'zaro ta'sirlashuvi [illegible] bo'lgan butun xo'jalik aloqalari tizimi hamda tovarlar ha[illegible] tarkibi va yo'nalishi material oqimlarining tartibini belgilab [illegible]

Mazkur oqimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, materiallar va tovarlar [illegible] yuqorida sanab o'tilgan tuzilmalarning sof ko'rinishdagi [illegible] vositachilik, informatsion va maslahat xizmatlaridan [illegible], to yuklash, tushirish, tashish, saralash, saqlash, butlash, [illegible] solish, qadoqlash, markirovkalashgacha bo'lgan resurs [illegible] majmuaviy yoki natijani ta'min etuvchi to'plamni ifoda etadi.

Qoidaga ko'ra, bunday korxonalarning faoliyati butunicha yetkazib beruvchi kontragentlar va vositachilar o'rtasidagi xo'jalik aloqalariga mos ravishda ta'minotning keng qamrovli dasturlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, temir yo'l, havo, suv, avtomobil transporti va shu kabi korxonalarda yuk tashish reja va dasturlari faqatgina, ta'minotchi kontragentlarning o'zaro manfaatli shartnomalariga asoslangan buyurtmalari asosidagina shakllantirilishi mumkin. Aynan shu sababli mazkur xo'jalik tizimlari buyurtmachilar faoliyatining keng qamrovli tavsifiga nisbatan yetarlicha indeferent bo'lgan infratuzilmaning ta'minot funksiyalarini bajarishga va buyurtmalarning o'z vaqtida, aniq, to'la-to'kis bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Umumiy tarzda aytishimiz mumkinki, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining infratuzilmaviy ta'minoti va asosiy ishlab chiqarishning har bir quyi tizimi alohida holatda ham katta o'rin egallasa-da, biroq ularning birgalikda qo'llanishdagi samaradorligi sezilarli darajada ortadi, chunki qishloq xo'jaligi tovar

ishlab chiqaruvchilarini xomashyo resurslari bilan ta'minlashda asosiy ishlab chiqarish har bir quyi tizimining samaradorligi ularning ma'lum bir to'plamlaridan birgalikda foydalanish va o'zaro uyg'unligini ta'minlash holatida, yetarli darajada o'sadi.

2.2. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni

Infratuzilmaviy faoliyat turlarini ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri nuqtayi nazaridan qarab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi tarkibiga ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilma tizimlari kiradi. O'z tarkibiga ishlab chiqarish vositalarining me'yorida, davr davomida faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi va ular ish qobiliyatining saqlab qolinishiga zamin yaratuvchi tarmoqlarni qamrab turuvchi ishlab chiqarish infratuzilmasi institutlari tizimini shakllantirishga alohida e'tbor qaratish lozim.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va infratuzilmaviy ta'minot tizimlarining funksional vazifalari shundan iboratki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi faoliyatining natijasi moddiy obyekt-mahsulot ishlab chiqarish bo'lib hisoblansa, infratuzilmaviy ta'minot esa takror ishlab chiqarish uchun, asosiy ishlab chiqarishning hech qanday muammolarsiz va uzluksiz amalda bo'lishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlab beradi. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining asosiy belgisi bo'lgan agrar sohada takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini ta'min etishdan kelib chiqqan holda, moddiy boyliklar, inson resurslari, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish uchun umumiy shart-sharoitlarni yaratib beruvchi takror ishlab chiqarish jarayonlari obyektlariga bog'liq ravishda ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik infratuzilmalarning sifat belgilarini aniqlash mumkin.

O'zbekiston Rspublikasida bozor infratuzilmasi tizimining iqtisodiy-huquqiy asoslari shakllanib takomillashib borayotgan bir vaqtda qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlani-

[illegible] sektorda miqdor va sifat o'zgarishlariga olib kelmoqda. Chunki, qishloq xo'jaligida hozirgi zamon ishlab chiqarish in-[illegible] korxonalari xizmatlari tizimining shakllanishi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bilan birga qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va bandlik muammosini hal etishda muhim o'rin tutadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining har tomonlama mukammal rivojlanishini ta'minlashning mazmuni, mohiyati, tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini belgilash iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dolzarb axamiyatga ega.

Mazkur masalalarning yoritilishi bo'yicha turli yondashuvlar qator olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Ularning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi infratuzilmasini o'rganishda ASM tarkibiy tuzilishiga tayangan. Albatta, bu bejiz emas, chunki infratuzilma ASMning ajralmas tarkibiy qismidir.

Hozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning oldi-sotdi munosabatlarining talab va taklif qonuni asosida amalga oshirilishi, ASM tarkibida mustaqil ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari tizimining shakllanib faoliyat ko'rsatishini taqozo qiladi. Ta'kidlash joizki, qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari ASMning asosiy fondlari, yalpi tovar mahsuloti hamda umumiy band bo'lgan kishilari tarkibida nisbatan kamroq ulushga egaligiga qaramasdan, u ASMning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bunday g'oyani ilgari surishimizning yana bir omili ishlab chiqarish infratuzilmasining o'ziga xos bo'lgan takror ishlab chiqarish uchun umumiy sharoitlar yaratish xususiyatiga egaligidir. Ya'ni, infratuzilma ASM tizimidagi I, II va III bo'g'inlarni vositachi sifatida ko'rsatadigan xizmatlari orqali bir-birini hamda iste'molchilar bilan bog'lab turadi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi mehnat taqsimoti (ba'zi hollarda avlodlar mehnati) natijasida vujudga kelib doimiy ravishda takomillashib boruvchi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va qishloq aholisining takror ishlab chiqarish talablariga mos umu-

miy shart-sharoitlar yaratib beruvchi hamda soha mahsulotlarining raqobatbardoshligini va ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlash uchun xizmat qiladigan tarmoqlar va korxonalar majmuidir.



2-Rasm. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibi

Qishloq xo'jaligida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida yuzaga kelgan ixtisoslashuv, tabiiyki, uning ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi. Shunday ekan, ixtisoslashuvning takomillashuvi ASMda ishlab chiqarish infratuzilmasi yanada yangi ixtisoslashgan funksional guruhlarga bo'linib rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati bajaradigan ko'p qirrali funksional vazifalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish

infratuzilmasi yaxlit mehnat jarayoni uchun shunday iqtisodiy-ishlab chiqarish sharoitlarini yaratadiki, unda ishlab chiqarish vositalari normal amal qilib o'zlarining ishchanlik qobiliyatlarini uzoq muddatga saqlab qoladilar. Ishlab chiqarish infratuzilmasining hosil vazifasi milliy iqtisodiyotning samarali amal qilishi uchun korxonalararo aloqalarni ta'minlash va ularni yaxlit xo'jalik subyektiga aylanish uchun moddiy sharoit yaratishdir.

Shunga ko'ra qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasiga berilgan ta'riflarga asoslanib uning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonini bozor talablariga mos ravishda yangilash hamda sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun tegishli sharoitlarni yaratishdan iborat deb ta'kidlash mumkin. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi o'zining moslashuvchanlik, tezkorlik, bog'lanuvchanlik va optimallik tamoyillari orqali ASM tizimidagi korxonalarning bir-biri bilan iqtisodiy aloqalari uzluksizligini ta'minlash hamda xizmatlarini xo'jalik subyektlarining talabiga muvofiq zamon, makon va zaruriy me'yorda, bozor sharoitiga mos ravishda etkazish orqali korxonalarning samaradorligini oshiradi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi yer tarkibini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, soha mahsulotlarining nest-nobud bo'lishining oldini olish va sifatini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, orqali iste'molchilarning talabini qondiradi. ASM tizimidagi korxonalar bilan turli aloqalar uzluksizligini ta'minlash hamda infratuzilma xizmatlarini xo'jalik subyektlarining talabiga muvofiq yetkazib berish orqali fermer xo'jaliklarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi qishloq xo'jaligiga asosan texnik-texnologik, moddiy-texnik ta'minot, urug'chilik va seleksiya, ilmiy-tadqiqot, axborot-kommunikatsiya, melioratsiya-irrigatsiya, agromarketing va agroservis kabi xizmatlarni ko'rsatadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi va bajaradigan funksional vazifalariga binoan uni turlicha tasni-

flash mumkin. Bundan tashqari, bu infratuzilmaga o'simliklarni himoya qilish, agrotexnik, veterenariya, sun'iy urug'lantirish, texnik - ta'mirlash, huquqiy, ilmiy va axborot kabi maxsus xizmat ko'rsatish bo'linmalari ham kiradi[1].

2.-rasmda B.Salimov tomonidan tavsiya etilgan ishlab chiqarish, ijtimoiy va atrof muhitni muhofaza qilish institutsional-tarmoq tarkibiga ega bo'lgan xalq xo'jaligi kompleksining uch sohasini tashkil etadigan qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi kategoriyalari va institutlari ajratib ko'rsatilgan.

Afsuski, xozirgi vaqtgacha iqtisodiy adabiyotlarda infratuzilmani rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Aynan ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarlicha taraqqiy etmaganligi iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi eng katta to'siqlardan biri bo'lib qolmokda. Rus olimi A.R. Belorusovning fikricha: «Rossiya iqtisodiyoti shunday holatga keldiki, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash va investitsion jozibadorligini oshirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasiga: energetika, gaz tarmog'i, transport va aloqa uchun yalpi tarzdagi kapital qo'yilmalari zarurdir»[2]. Bunday yalpi tarzda kapital qo'yilmalarni jalb etishga faqatgina, infratuzilmaning ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari xususiyatini hisobga olgandagina erishish mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: tabiiy-geografik, iqtisodiy, texnika-texnologik, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-madaniy. Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ta'sir etish yo'nalishlariga ko'ra, ikki: rag'batlantiruvchi va cheklovchi jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy-geografik omillar bloki o'ziga ishlab chiqarish infratuzilmasi tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-

[1] Коваленко Н.Я. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрних рынков.-М. :Тандем, 1998

[2] Qarang: Пчелинцев О.С. Региональная инфраструктура как условие экономического роста.// Проблемм прогнозирования.-2004.-№6.

iqlim, resurs, geografik va ekologik omillarning kichik guruhlarini qamrab oladi. Qoidaga ko'ra, ularning ta'sirini tashqi muhitga bog'laydi. Tabiiy iqlim sharoitlari va xom ashyo salohiyati sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tuzilmasi, qurilish ishlari qiymatini va mazkur sohalarga xizmat ko'rsatuvchi soha va tarmoqlarning xususiyatlarini belgilab beradi. Ekologik omillar tozalash inshootlarini qurish va atrof-muhitni muhofaza qilish infratuzilmasini rivojlantirishni talab etadi.

Texnik-texnologik omillar guruhi korxonalar ishlab chiqarish infratuzilmasining texnik-texnologik bazasi holatini aks ettiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamizning ko'plab mintaqalari sanoat korxonalariga yangi zamonaviy texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar muhim omillar blokini tashkil etadi. Tashqi omillar blokiga quyidagilar kiradi: iqtisodiyotdagi turli mulk shakllari; iqtisodiy tizim va xo'jalik aloqalarining rivojlanganlik darajasi; bozor kon'yunkturasi; investitsion siyosat; iqtisodiyotni monopoliyadan chiqish darajasi; soliq siyosati; kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; institutsional infratuzilmaning holati; moddiy ishlab chiqarish korxonalarining holati; davlatning fiskal siyosati va boshqalar.

Ichki iqtisodiy omillar bloki umumiy va o'rtacha xarajatlar darajasi; bozor konyunkturasining o'zgarishi; barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi; xususiy investitsion mablag'larning mavjudligi; sotish bozorlari ko'lami va boshqalarni qamrab oladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ichki holatining ko'p jihatdan tashqi muhit ta'siriga bog'liqligini hisobga olgan holda, keyingi bosqichlarda tashqi omillarga ko'proq e'tibor qaratamiz. Mazkur omillar tarkibida ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarining turli mulkchilik shakllariga ega ekanligi alohida ahamiyatga ega. Jumoa, davlat yoki xususiy mulkka asoslangan ishlab chiqarish infratuzilma korxonalari bozor iqtisodiyotida teng huquqlar aso-

sida faoliyat ko'rsatadi. Mulk shakllarining mehnatning ijtimoiylashuv darajasiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlariga mosligi mehnat unumdorligining oshishi, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bozorning to'yinishi, korxonalar rentabelligi va investitsion jozibadorligining ortishiga zamin yaratadi, bu esa, shubhasiz ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishini rag'batlantiruvchi omil sifatida maydonga chiqadi.

Iqtisodiy tizimning barqarorligi kapital qo'yilmalarning tavakkalchilik darajasini pasaytiradi va ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari qiymatini oshiradi, bu esa mintaqaning investitsion muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, mazkur holat tovar va xizmatlar bozoridagi vaziyatni bashoratlash va xususiy kapitalni joylashtirish uchun eng manfaatli bozor segmentini aniqlash imkonini beradi. Bozorning hajmi va yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning dinamikasi iqtisodiy tizim holatining muhim ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida mahalliy va import tovarlari ichki bozorlari ko'lamining o'sish sur'atlari yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lishi talab etiladi.

ASM infratuzilmasini rivojlantirish omillari o'rtasida siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy, tabiiy-geografik (tuproq-iqlim sharoitlari, mintaqalarning' releyfi, yerning tuzilishi va suv bilan ta'minlanganligi), yo'llarning holati va ulardagi qoplamalarning turi, korxonalarning joylashuvi, ishlab chiqarish obyektlarining joylashuvi, foydalanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va ixtisoslashuv darajasi kabi omillar alohida o'rin tutadi. Mazkur omillardan ko'p jihatdan nafaqat ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibi, balki ichki xo'jalik bo'linmalarining ko'lami va korxonalar funksional faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ham bog'liqdir"[1].

Infratuzilmaning ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan mustaqil sohasi sifatida shakllanishi jarayoni ijtimoiy mehnat taqsimotin-

[1] Салимов Б. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрных рынков. – М.:Тандем,1998 .

ing yirik tarmoqlanishi bilan tavsiflanuvchi qator bosqichlarni bosib o'tdi. Xususan, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, yoki ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida shaharlarning vujudga kelishi, obyektiv tarzda shahar va qishloq o'rtasida mahsulot ayriboshlanishining kuchayishiga, hamda infratuzilma obyektlarining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Agrar sohada infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish - ishlab chiqarish subyektlarining o'zaro samarali hamkorligining zaruriy sharti bo'lib, agrosanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi, taraqqiy topishi, unda talab va taklifni o'zaro bog'lovchi hamda barcha resurslarni ishlab chiqarish omillariga aylantiruvchi, takror ishlab chiqarish jarayoni umumiy asoslarini barpo etishga ko'maklashuvchi, agrosanoat majmuasining o'sishi va rivojlanishi agrar sohaning iqtisodiy tabiatini ifoda etuvchi muhim belgi sifatida maydonga chiqdi[1].

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiyotning mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishining umumiy sababi bo'lib ijtimoiy mehnat taqsimoti hisoblanadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi asosiy va yordamchi faoliyat turlariga bo'linadi. Kooperatsiya munosabatlarining rivojlanishi va turli shakldagi korxonalarning paydo bo'lishi natijasida keyinchalik yordamchi funksiyalarning ajralib chiqishi yuz beradi va ular ixtisoslashadi. Ushbu vaziyatda hatti-harakatlarning o'zini emas, balki faoliyatning mahsulotga bo'lgan aloqasini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bozorlarning yanada rivojlanishi, tovar-pul munosabatlari chegaralarining kengayishi, yordamchi xizmatlar ko'rsatishning iste'molchi kompaniyalardan, maxsus ixtisoslashgan firmalarga o'tishiga olib keldi. Shu tariqa ichki va tashqi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkib topdi. Tashqi ishlab chiqarish infratuzilmasi ixtisoslashgan korxonalardan tashkil topgan bo'lsa, ichki infratuzilma asosiy ishlab chiqarish doirasida yordamchi xizmatlarni ishlab chiqaruvchilardan tarkib topdi.

---

[1] Иванова Н.В. Формирование и развитие социальной и производственной инфраструктуры: автореферат дис.канд.экон. наук.-Саратов, 2005 – С.15.



3-rasm. ASMning takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish infratuzilmasining turlari va funksiyalari[1]

Shunday qilib, birinchi navbatda funksiyalarning faoliyat darajasiga ko'ra asosiy va yordamchi funksiyalarga bo'linishi, so'ngra korxona ichida, yordamchi xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarning alohida korxonalarga va asta-sekinlik bilan tarmoqqa aylanib borishi sodir bo'ladi. Yuqorida keltirilgandan shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlarning ajralib chiqishi jarayonida ayrim funksiyalarning alohidalashuvi sodir bo'ldi. Yordamchi ishlab chiqarish faoliyati subyektlari asosiy ishlab chiqarishdan alohida bo'lganligi sababli, asosiy ishlab chiqarish faoliyati subyektlari ham alohida agentlari sifatida maydonga chiqadi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning maqsadi-asosiy ishlab chiqarish natijasi sifatida mahsulot yaratishdan iboratdir. Tovar ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil eta borib, maqsadga erishish borasida bevosita ishtirok etmaydigan yordamchi faoliyat subyektlariga o'z vazifalarining bir qismini yuklaydi.

Agrosanoat majmui ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi va uning samarali faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan iqtisodiyotning agrar sektoridagi investitsion jarayonlarning holatiga bog'liq.

[1] Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari fond mablag'laridan (ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish loyihalari va rejali, atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun mo'ljallangan moliyalashtirishning boshqa manbalarini almashtirmagan holda) quyidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish va kreditlashning qo'shimcha manbalari sifatida foydalaniladi:

1) atrof-muhit muhofazasi ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarni qurish, texnik qayta qurollantirish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, shu jumladan, shahar kanalizatsiya tozalash inshootlari va hududiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa atrof-muhit muhofazasi tadbirlarini moliyalashtirish;

2) nazoratni amalga oshirish uchun asbob-uskunalar, jihozlarni xarid qilish, ijaraga olish va yaratish, texnik vositalar hamda avtomatlashgan monitoring tizimlarini barpo etish va takomillashtirish;

3) mahalliy tabiatdan foydalanish va ekologiya qo'mitalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, mashinalar, jihozlar, asbob-uskunalar, hisoblash texnikasi, reagentlar va materiallarni xarid qilish;

4) axborotlarni to'plash tizimini vujudga keltirish, qayta ishlash va saqlash borasida ekologik vaziyat bo'yicha axborot informatsion tizimini shakllantirish;

5) qo'riqxonalar, milliy bog'larni barpo etish va rivojlantirish, tabiat yodgorliklarini saqlash;

6) atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni tejash bo'yicha yangi texnika va texnologiyalarni yaratish borasidagi tajriba-konstruktorlik, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, hamda ekologik xizmatlar bozorini rivojlantirish;

7) atrof-muhitga ta'sir etish darajasini baholash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, obyektlarning davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish;

8) ekologik muammolarni hal etish uchun korxonalar barpo etish;

9) izdan chiqqan alohida tabiiy ekotizimlarning xo'jalik faoliyatini tiklash va muhofaza qilish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

10) ekologiya va tabiatdan foydalanish bo'yicha noshirlik ishlari, ekologik ta'lim va tarbiyani tashkil etish, ekologik bilimlarni targ'ib qilish.

Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy-tashkiliy joylashtirish tizimida ASM ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish shartlarini o'rganish, uni ikki asosiy tashkil etuvchi - tashqi (shakllantirish omillari) va ichki (rivojlantirish omillari) muhitning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi miqdor-sifat tavsiflarini ajratib olish imkonini beradi. Tashqi muhit bir tomondan makroiqtisodiy (ekzogen) omillar ta'siri ostida bo'lsa, boshqa bir tomondan esa, infratuzilma elementlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki omillar (endogen)ning faollik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Respublikaning shart-sharoitlar ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish infratuzilmasi elementlarini rivojlantirish va shakllantirish jarayonida boshqaruv tashkiliy tuzilmasining tarkibi muvofiqlashtirilib boriladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy jihatdan samaradorligi mahsulot birligiga mehnat, pul va moddiy xarajatlar sarfining qisqarishida, pirovard mahsulotlar sifatining yaxshilanishi va yo'qotishlarning kamayishida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, infratuzilma xizmatlari, bo'linmalari va obyektlarini barpo etishga sarflangan xarajatlarning qoplanish ko'rsatkichi hisoblanadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$\mathbf{Ix = K(m)/Mx(so'm)\ (1)}$$

Bu yerda: Ix -ishlab chiqarish infratuzilmasiga qilingan xarajatlarning qoplanishi, K(m) - qishloq xo'jaligi pirovard mahsulotining qiymati, Mx–ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishga sarflangan moddiy xarajatlar[1].

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini yaratishga sarflangan sarf-xarajatlar 6-8 yil davomida o'zini qoplaydi[2]. Qishloq xo'jaligi bi-

[1] Коваленко Н.Я. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрных рынков.-М.:Тандем,1998.

[2] Минасов М. Стратегия устойчивого развития АПК.// АПК: экономика, управление, 2004.№9.

lan qayta ishlash o'rtasidagi faol integratsiyalashuvni ta'minlash agrosanoat majmuini samarali rivojlantirishning muhim omillaridan biri sanalib, uning tarkibiga nafaqat ixtiyoriy tarzda kirgan, balki yuridik jihatdan mustaqil korxonalarning kelishilgan holdagi iqtisodiy va ilmiy-texnik siyosatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Yirik agrosanoat birlashmasi korxonalarining ustunligi barqaror yuqori sifatli mahsulot va xomashyo yo'qotilishining past darajasi, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, yuqori ekologik xavfsizlik, mahsulot tannarxining yetarlicha pastligida ifodalanadi. Yagona texnologik jarayonning tarqoq bo'g'inlarini birlashtirish, ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish hisobiga erishiladigan iqtisodiy samara iqtisodiyotdagi birikish jarayonlari uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Buning natijasida hamkorlikdagi jarayonlarda ishtirok etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarishlarining barcha bosqichlarini yagona tarzda boshqarishni tashkil etishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Oqilona kooperatsiya va integratsiya mehnat unumdorligi va sotish hajmini oshirishning qo'shimcha manbalarini ochib beradi va turli xil tayyor mahsulotlarni yaratish bo'yicha hamkorlikda samarali ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishga ko'maklashadi.[1]

Fermer xo'jaliklarining past xarid qobiliyati agrosanoat majmuida muhandislik sohasini isloh qilishni talab etadi. Fermer xo'jaliklarining texnika bilan ta'minlanishidagi tanqisliklarni qoplash mavjud MTPlarni rivojlantirish va yangilarini tashkil etish va ular tasarrufidagi mashina va texnikalardan yuqori samara bilan foydalanilish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning ilg'or texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ishlarni davom ettirishni ta'lab etadi.

Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ahvoli va ularning amalda yerdan unumli foydalanish borasida tarkib topgan vaziyatidan kelib chiqqan holda, yaqin yillar ichida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

---

[1] Мицасов М. Стратегия устойчивого развития АПК.// АПК: экономика, управление, 2004.№9

1) yerdan foydalanuvchilarga iqtisodiy va ma'muriy ta'sir ko'rsatishni kuchaytirish maqsadida yerdan foydalanish borasidagi qonunchilikka rioya etilishini to'liq nazorat qilish;

2) yerdan foydalanish tizimi tavsiyanoma va ko'rsatmalariga monand ravishda agrotexnika va almashlab ekish texnologiyalariga amal qilish;

3) yer unumdorligining pasayishi va uning muomaladan chiqib ketishiga yo'l qo'ygan, qonunchilikka rioya etmagan yerdan foydalanuvchilarni yerdan foydalanish borasidagi huquqlaridan mahrum etish.

Turli faoliyat turlarining ixtisoslashuvi nafaqat, xo'jalik tuzilmasining u yoki bu bo'g'ini, hududlarning turli tuzilmalari doirasida ham amalga oshadi. Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish borasida ixtisoslashuvga turli yo'nalish va tavsifga ega bo'lgan quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- qishloq xo'jaligi uchun ayniqsa xos bo'lgan mahsulot turlari ishlab chiqarish yo'nalishlarini belgilab beruvchi tabiiy-iqlim sharoitlari;
- yoqilg'i-xomashyo va energetika resurslarining hududiy joylashuvi;
- ishchi kuchi qiymatiga, ishlab chiqarishning transaksion xarajatlari va tavakkalchilikka bog'liq tarzda uning barqaror faoliyatini amalga oshirishda shaffoflik va boshqarilishga moyillik darajasi (norasmiy tuzilmalar ulushi) ga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- transport -ekspeditsiya va bojxona xizmatlari sohasida ixtisoslashuv va savdoda vositachilik tavsifini belgilab beruvchi, mintaqaning geosiyosiy maydondagi o'rni kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarining alohidalashuvi bevosita iste'molchidan oraliq yoki pirovard mahsulot, xomashyoning uzoqlashuvida namoyon bo'ladi va yil sayin yuk tashishlarning o'rtacha uzoqligining ortib borishida aks etadi. Iste'molchilarga oraliq yoki pirovard mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish ular uchun ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarish, yetkazib berish va iste'mol qilishning mavsumiylik omili ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, fermer xo'jaliklari bug'doy va donni faqatgina bahor-yoz oylarida etishtirishsa, ular qayta ishlash sanoati tomonidan butun yil davomida amalga oshiriladi. Ushbu sohada mahsulot sotish va ishlab chiqarishning tartibi va maromiyligi, quvvatlarning mos tushmasligi ishlab chiqarish va iste'molning moddiy oqimlarini joy, vaqt va yetkazib berish hajmlari bo'yicha muvofiqlashtirish zarurligidan dalolat beradi. Bu vazifa infratuzilma institutlari zimmasiga yuklanadi.

Har qanday u yoki bu darajada rivojlangan iqtisodiy tizim o'z oldiga tizimning yashovchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator uzoq muddatli global maqsadlarni qo'yadi. Barcha faoliyat turlari, shu jumladan moddiy ishlab chiqarishning asosiy qismi, u yoki bu darajada tizimga xizmat ko'rsatadi, yoxud tizimning yakuniy maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi yordamchi tavsifdagi moddiy va ijtimoiy ishlab chiqarish xizmatlarini ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. O.C. Белокрылова va boshqa qator olimlar xizmat deyilganda mehnatning o'ziga xos iste'mol qiymatini tushunish lozimligini ta'kidlaydilar, zero, xizmat buyum sifatida emas, balki faoliyat sifatida ko'rsatiladi, ya'ni, u bu borada aytaylik biror bir mashina yoki uskunadan deyarli farq qilmaydi[1].

Yuqorida keltirilgandan shunday xulosa qilish mumkinki, korxona uchun iste'mol qiymatini nafaqat moddiy tavsifga ega bo'lgan texnik vositalarning xizmati, balki, reklama, marketing xizmatlari, injiniring, investitsion siyosat va boshqaruv masalalari bo'yicha maslahatlar berish kabi nomoddiy ko'rinishdagi xizmatlar ham yaratadi. Ular moddiy-texnik ta'minot va ishlab chiqarishga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari kabi yordamchi tavsifga ega bo'lgani holda, bevosita yoki bilvosita asosiy ishlab chiqarishning pirovard mahsulotiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda ishlab chiqarish va

[1] Белокрылова О.С., Германова О.Е., Солдатова И.Ю. Институциональные основы рыночной экономики в Росии.-М.:Наука,1996. – С. 43-47.

iste'molning bir vaqtning va bir joyning o'zida amalga oshishi ko'plab ishlab chiqarish tavsifidagi xizmatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Har qanday tizimning amal qilishi ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunadi, agar ishlab chiqarish infratuzilmasi tizimining amal qilishi qonunlari zaruriylik va etarlilik nuqtayi nazaridan bayon etiladigan bo'lsa, u holda, aytish mumkinki, iqtisodiy zaruriyat korxonaning ehtiyoji bilan, yetarlilik esa transaksion yoki o'zaro ta'sir ko'rsatish xarajatlarini tejash bilan belgilanadi.

Amaldagi qonunlarga ko'ra, ishlab chiqarish infratuzilmasining ichki holatini ko'p jihatdan tashqi muhit ta'siriga bog'liq bo'lgan tizimlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Bu iqtisodiyot institutsional tuzilmasining ishlab chiqarish infratuzilmasiga ta'sirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, transport korxonalarining faoliyatiga yuk va yo'lovchi tashish tariflarini davlat tomonidan tartibga solish katta ta'sir ko'rsatadi, bu esa ko'plab korxonalarning qarzga botishiga, narxli raqobatning yo'qolishiga va sohaga davlat subsidiyalarining ajratilishi zarurligiga olib keladi. Ammo mazkur vaziyatda yuzaga keladigan salbiy holatlar bilan bir qatorda, ijobiy jihatlar ham kuzatilishini unutmasligimiz lozim. Transport tariflarini davlat tomonidan tartibga solish subyektlariga yuk tashish narxlarining keskin o'sishidan qutulish, transport korxonalariga esa davlat subsidiyalari, subvensiyalari va dotatsiyalarini olish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlarida alohida talablarni qo'yadi, chunki bunga barcha korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati, bilvosita aholining turmush darajasi ham bog'liqdir. Normal faoliyat ko'rsatuvchi bozor iqtisodiyoti uchun barcha turdagi resurslar zaxirasi bo'lishi talab etiladi, infratuzilma quvvatlari ham bundan mustasno emas. Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish infratuzilmasi quvvatlarining zaxirasi iste'mol qilinayotgan quvvatlarning 30-35 foizi atrofida bo'lishi kerak, aks holda, xo'jalik shartnomalarining bajarilishi qiyinlashadi, kontraktlar bo'yicha yuk yetkazib berish muddatlari barbod bo'ladi, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlarining

o‘zaro aloqalari, korxonalar ta’minotining maromiyligi buziladi.

Ishlab chiqarish xizmatlari qiymatga ega bo‘ladi, chunki ularni sotish uchun resurslar talab etiladi va ayni paytda ular asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilganligi uchun iste’mol qiymatiga ham ega bo‘ladilar. Infratuzilma xizmatlarini ko‘rsatishda cheklangan resurslardan foydalaniladi, shunga mos tarzda xizmatlarning o‘zi ham cheklangan hisoblanadi, ular har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Ishlab chiqarish xizmatlarining bu xil barcha sifatlari ularning navliligi, cheklanganligi va resurs sig‘imkorliligida namoyon bo‘ladi.



4-Rasm. Ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlariga tariflarning shakllanish sxemasi

Ishlab chiqarish infratuzilmasi asosiy ishlab chiqarish tovarlarining nafliligi va xarajatlarini shakllantirishda ishtirok etgani holda, bozor sharoitida asosiy tovarning qiymati va iste’mol qiymatiga, yoki uning nafliligi va xarajatlari darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Asosiy ishlab chiqarishning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishga bo‘lgan ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining layoqati moddiy ishlab chiqarishning daromadlari darajasi; qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish xizmatlarining o‘rnini almashtirish imkoniyatlari; moddiy ne’matlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning soni; yangiliklarga intilish darajasiga bog‘liq tarzda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish xizmatlariga talabni shakllantiradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari ayni vaqtda amalda bo‘lgan narxlar (tariflar) bo‘yicha bozorga olib chiqilishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqa-

rish tavsifidagi xizmatlar taklifini shakllantiradi. Xuddi iste'mol ne'matlari bozorlarida bo'lgani kabi, ishlab chiqarish xizmatlari bozorida ham talab taklifni vujudga keltiradi. Har bir ishlab chiqarish xizmati taklifi turlicha egiluvchanlikka ega bo'ladi. Boshqa omillar ta'siri ham bo'lsa-da, resurslarning cheklanganligi va tanqisligi buning asosiy omilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Misol tariqasida, elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta'minotining muqobillari yo'qligi va ularning ta'minotchilari doimo tabiiy monopoliyalar bo'lib kelganli sababli ham, mazkur xizmatlar noegiluvchan tavsifga egadir. Ishlab chiqarish xizmatlari taklifi iqtisodiy resurslar narxi; ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining texnologik rivojlanish darajasi; mazkur sohadagi korxonalar soni; tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi yangiliklarni kutishga bog'liq tarzda o'zgarishi mumkin.

Ijtimoiy zaruriy infratuzilma faoliyati barcha ko'rinishlarining, o'ziga xos jihatlari:

- moddiy ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy belgilariga javob bermasligi;
- usiz mumkin bo'lmagan, yoki yetarlicha samarasiz bo'lgan, biror bir boshqa asosiy faoliyatni me'yorida amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida maydonga chiqishi;
- servis xizmati va ko'rsatilayotgan xizmatning iste'moli jarayonlarining vaqt va mazmun bo'yicha bir-biriga mos tushishi;
- xizmat ko'rsatish obyektining mavjudligi;
- infratuzilma xizmatlarining xizmat ko'rsatilayotgan obyektga ijobiy ta'siri darajasi va tavsifi;
- boshqa xizmatlarda bo'lgani kabi infratuzilma xizmatlarini jismoniy ko'rinishda to'plashning mumkin emasligi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni texnik-ishlab chiqarish ahamiyatidagi mahsulotlar yoki mehnat vositalari (mehnat qurollari, mehnat predmeti va obyektlari) ko'rinishidagi barcha zaruriy moddiy resurslar bilan ta'minlaydi. Ma'lumki, barcha xizmatlarni ularning tavsifidan qat'iy nazar resurs sig'imli va resurs sig'imsiz xizmatlarga ajratishimiz mum-

kin. Moddiy, material sig'imli, energiya sig'imli deb ataluvchi xizmatlarning eng muhim xususiyati umumiy hisobda ishlab chiqarilgan moddiy (xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektroenergiya, amortizatsiya va shartli-doimiy xarajatlar) va mehnat resurslarining qiymatiga bog'liq holda, ularning hajmi, sifati, samaradorligi o'rtasidagi yetarlicha aniq va uzviy bog'liqlikdir. Resurs sig'imsiz xizmatlar (kichik energiyali xizmatlar) tarkibiga sifati, samaradorligi, yakuniy qiymati (narxi) resurs xarajatlari va mahsulot hajmi bilan sust korrelyatsion bog'lanishda bo'lgan xizmatlar kiritiladi.

Ko'pchilik hollarda yuqori resurs sig'imli xizmatlar moddiy-ishlab chiqarish infratuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi. U moddiy ishlab chiqarishga (servis, ya'ni ishlab chiqarish xizmatlari ko'rinishida) xizmat ko'rsatsa-da, moddiy ishlab chiqarishda uning ulushi yetarli darajada katta emas. Biroq, infratuzilmaning tuzilmaviy-funksional va ta'minot qismlari o'rtasidagi farqlar bilan izohlanuvchi mazkur soha xizmatlaridagi tafovutlarni ilg'ab olish qiyin emas. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tuzilmaviy-funksional qismi deyilganda moddiy ishlab chiqarish uchun xizmat ko'rsatuvchi savdo-vositachilik tuzilmalari, birlamchi xo'jalik-ishlab chiqarish tuzilmalari (yetkazib beruvchi kontragentlar) va moddiy-texnik ta'minot bo'linmalari tushuniladi. Aynan u ishlab chiqarish kuchlari elementlari va jamiyat xarid qobiliyatining o'zaro ta'sirlashuvi natijasi bo'lgan butun xo'jalik aloqalari tizimi va tovarlar harakati: tarkibi, yo'nalishi va material oqimlarining tartibini belgilab beradi.

Mazkur oqimlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, materiallar va tovarlar harakati yuqorida sanab o'tilgan tuzilmalarning sof ko'rinishdagi boshqaruv vositachilik, informatsion va maslahat xizmatlaridan tortib, yuklash, tushirish, tashish, saralash, saqlash, butlash, idishlarga solish, qadoqlash, markirovkalashgacha bo'lgan resurs sig'imli majmuaviy natijani ta'min etuvchi to'plamni ifoda etadi.

Qoidaga ko'ra, bunday korxonalarning faoliyati butunlay yetka-

zib beruvchi kontragentlar va vositachilar o'rtasidagi xo'jalik aloqalariga mos ravishda ta'minlashning keng qamrovli dasturlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, temir yo'l, havo, suv, avtomobil transporti va shu kabi korxonalarda yuk tashish reja va dasturlari faqat, ta'minotchi kontragentlarning o'zaro manfaatli shartnoma va kontraktlariga asoslangan buyurtmalari asosidagina shakllanishi mumkin. Aynan shu sababli mazkur xo'jalik tizimlari infratuzilmaning ta'minot funksiyalarini bajaradi, buyurtmachilar faoliyatining keng qamrovli tavsifiga nisbatan yetarlicha indifferentga ega bo'lgan holda, ular buyurtmalarning o'z vaqtida, aniq va to'la-to'kis bajarilishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Umumiy tarzda aytishimiz mumkinki, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining infratuzilmaviy ta'minoti va asosiy ishlab chiqarishning har bir quyi tizimi alohida holatda ham katta o'rin egallasa-da, ularning majmuali holdagi faoliyati samaradorligi sezilarli darajada ortadi, chunki qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini xomashyo resurslari bilan ta'minlashda asosiy ishlab chiqarish har bir quyi tizimining samaradorligi ularning ma'lum bir to'plamlaridan birgalikda foydalanish va o'zaro uyg'unligini ta'minlash holatida yetarli darajada o'sadi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi globalizatsiya sharoitida raqobat afzalliklariga erishish uchun transport, energiya ta'minotida, aloqa va boshqa sohalarda uzluksiz innovatsion rivojlanish jarayonini amalga oshirishni, bu o'z navbatida xo'jalik subyektlarining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida, ularning ichki hamkorligini oshirishni talab etadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda shunday siyosat olib borish kerakki, unda alohida olingan korxona, tarmoqning lokal muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lmasin, balki, butun iqtisodiyotni yagona iqtisodiy majmua sifatida qarab, ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlanishining umumiy masalalarni hal etishda, o'zaro ta'minot masalalarini tashkil etishda, uning obyektlaridan foydalanishda, yagona fan-texnika bazasini shakllantirishda, ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayinlanishi lozim. Bu iqtisodiy siyosat xususan,

xizmat ko'rsatishda, qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini samarali rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

2.3. ASMda infratuzilma institutlarining tizimli o'zaro aloqadorligining funksional differensiatsiyasi

Infratuzilma elementlarining ko'p rejali tavsifini hisobga olgan holda, ularni yagona belgilari bo'yicha tasniflash imkoniyati yo'q. Uning tarkibiga kirgan tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoniga turlicha ta'sir etadi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o'ziga xos o'rin tutadi. Shunga ko'ra infratuzilma tarmoqlarini asosiy belgilari bo'yicha tasniflash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu bizga infratuzilmaning ijtimoiy takror ishlab chiqarishning alohida bir elementi sifatida va butun tarmoqlari bo'yicha tutgan o'rnini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari uning tarmoqlararo aloqalarini o'rganish moddiy ishlab chiqarish bilan xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari o'rtasidagi optimal nisbatni belgilashga asos bo'ladi.

Agrosanoat majmuasi infratuzilmasining barcha elementlarini quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin: ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir darajasi bo'yicha; mintaqaviy tamoyili bo'yicha; tarmoq tamoyili bo'yicha; fuksional yo'nalishi bo'yicha.

Tizimli yondashuvda asosiy tamoyil bu majmuali tahlildan, ya'ni aniq ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida ishlab chiqarish infratuzilmasining turli tuzilmalarini o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini belgilagan holda rivojlanuvchi jarayon sifatida tadqiq etiladi. Bu belgilar tizimida birinchi o'ringa, moddiy ishlab chiqarish korxonalarining amal qilishi uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarni yaratuvchi ishlab chiqarish infratuzilmasining quyi tizimi sifatida maqsadli funksiya turadi. ASM infratuzilmasini aniqlashga tizimli yondashuvga Shadmanov Sh.Sh. va boshqalar[1] tomonidan qator bloklar ko'rinishidagi yondashuv misol bo'la oladi. Bular:

[1] Shadmanov Sh. Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2. 2012. – B. 37.

mahsulotni sotish, moddiy-texnik ta'minot, ishlab-chiqarish va texnik xizmat ko'rsatish, moliya- kredit ta'minoti tizimining tovar ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro munosabatlari. Bu yerda tovar ishlab chiqaruvchi quyi, ikkinchi darajali infratuzilmaviy xizmat ko'rsatishning markazida, yadrosida turadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi bu yerda an'anaviy ravishda ishlab chiqarish infratuzilmasining iste'molchisi sifatida maydonga chiqadi. Qurilish jarayonida binolar ko'rinishida moddiy mahsulot yaratiladi, shunga ko'ra bu turdagi faoliyat moddiy-ashyoviy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra biz moddiy ishlab chiqarish sifatida faqat moddiy predmetlar, ashyoviy qiymatlar bilan bog'liq ishlab chiqarishni, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi va qurulishni tushunamiz.

Ta'kidlash lozimki, infratuzilmaning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnining muhimligi bajaradigan funksional vazifalari va xizmat turlarida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ko'pgina adabiyotlarda infratuzilmaning funksional vazifalari va xizmat turiga qarab nazariyotchi olimlar uni metodologik nuqtayi nazardan ikkita guruhga: ishlab chiqarish va ijtimoiyga. Shu jumladan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning yozishlaricha: Ishlab chiqarish infratuzilmasi (bevosita moddiy ishlab chiqarishga xizmat qiladi) va noishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud. Ishlab chiqarish infratuzilmasi yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad yaratadi; ijtimoiy infratuzilma sohalari (maorif, fan, sog'liqni saqlash va b.) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga, inson omillarini faollashtirishga xizmat qiladi[1].

A.Tursunov infratuzilmaning mohiyatini yoritishda aynan shunday yondashuvga suyangan: «Infratuzilma iqtisodiy kategoriya (toifa) sifatida birinchidan, moddiy ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lmagan (sog'liqni saqlash, savdo, aholi tashuvchi transport, mehmonxona, oshxona, shahar komunikatsiya inshootlari, xodimlarni tayyorlash masalalari va hk;) ikkinchidan: moddiy ishlab

[1] O'lmasov A.,N.To'xliyev. Iqtisodiy lug'at..T.1995. – B. 43.

chiqarish xarakteridagi, (umumiy transport xo'jaliklari, elektr quvvatini uzatish liniyalari, tabiiy resurslardan foydalanish tarmoqlari, axborotni uzatish va ishlab berishdagi vositalar va hk.) obyektlarining mazmunini o'zida ifoda etadi»[1].

Albatta, infratuzilmaning ana shunday ikkita katta guruhga bo'linishi bajaradigan asosiy vazifalar hamda milliy iqtisodiyotning moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarga bo'linishiga asoslanadi. Biroq infratuzilma elementlarining o'zaro juda jips bog'langanligi ularning u yoki bu guruhga mansubligini belgilashni mushkullashtiradi. Masalan, aholiga xizmat ko'rsatuvchi transport yoki aholining transport vositalarini ta'mirlash kabi xizmatlar o'z xususiyatlariga ko'ra birga aholiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning sohasidir, biroq ularda umumiy texnik-ishlab chiqarish xususiyatlari ham mavjud. Shu bilan birga bu sohalarning iqtisodiy-funksional xizmat vazifasi aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilganligi bois ijtimoiy chiqarish infratuzilmaga mansub deb topilishi ham tabiiydir.

Infratuzilma soha mutaxassislari tomonidan turlicha tasniflangan. Ayniqsa, islohotlardan oldingi davrda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish (ijtimoiy), xalq xo'jaligi (yoki magistral), institutsional; mintaqaviy, korxona va sohalar nomi bilan yuritiladigan infratuzilma turlari ilmiy adabiyotlarda ko'p yoritilgan. Lekin hozirgacha infratuzilmaning guruhlarga bo'linishiga qaramay, uning tarkibiy tuzilishi, mohiyati va bajaradigan vazifalari yuzasidan yagona fikr shakllanmagan. Masalan, A.Tursunov, infratuzilma quyidagi to'rt shaklda namoyon bo'ladi, deb ta'kidlab, ularning tarkibini o'z nuqtayi nazaridan belgilaydi:

- Ijtimoiy infratuzilma
- Bozor infratuzilmasi
- Institutsional infratuzilma
- Ishlab chiqarish infratuzilmasi.

U. Nigmadjanov infratuzilmani ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor shakllariga bo'lishni tavsiya etib, agrosanoat mahsulotlari

[1] Tursunov A.F. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish infrastrukturasini tashkil etish va rivojlantirish. i.f.n. dis- T.: 1998, - B. 18 .

va resurslari sotilishini ASM tarkibida alohida bo‘g‘in sifatida ajratish kerakligini taklif qilgan[1].

Fikrimizcha, agrosanoat mahsulotlari hamda resurslarining sotilishi ASM tizimida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Chunki, tayyor mahsulot sotilgandan keyin, tovar-pul shakliga ega bo‘ladi va ishlab chiqarishning yangilanishi uchun imkoniyat yuzaga keladi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sotilishi o‘ziga xos sharoitlarni talab qiladi. Masalan, bir qator qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazib berish maxsus transport va maxsus saqlash sharoitlari hamda qadoqlash vositalarini talab qiladi, ya’ni, bunday mahsulotlarning savdosi ham maxsus infratuzilma xizmatlarini yaratishni taqazo etadi. Shu bois ASM mahsulotlarini hamda moddiy-texnik resurslarining sotilishi alohida bo‘g‘in sifatida ASM infratuzilmasiga xosligicha qoladi. Shuning uchun ASM mahsulotlari va resurslarining sotilishi infratuzilmaning elementi sifatida talqin qilinishi metodologik nuqtayi nazaridan ma’qulroqdir.

Darhaqiqat, infratuzilmaning mazkur to‘rt shakli ko‘p adabiyotlarda talqin etilgan va yoritilgan. A.Tursunov infratuzilma shakllarining elemenlarini belgilashda kamchilik va qarama-qarshiliklarga yo‘l qo‘ygan. Masalan, u savdoni ijtimoiy infratuzilma turiga kiritadi. Chunki, infratuzilma xizmatlarini ko‘rsatuvchilarning aksariyati (bepul xizmatlar ko‘rsatish hollaridan tashqari) tovar va xizmatlar savdosi bilan shug‘ullanadi. Yoki, tadqiqotchi yo‘l qurilishini ishlab chiqarish infratuzilmasiga mansub deb ta’kidlashi ham unchalik aniq emas. Chunki yo‘l qurilishi iqtisodiyotning alohida sohasi, qurilish industriyasiga mansubdir. Lekin yo‘l va undan foydalanish infratuzilmaning tarkibiy qismidir. Mazkur tadqiqotchining aholi tashuvchi transportning ijtimoiy infratuzilmaga mansubligini ta’kidlab, keyin transport xo‘jaligining barcha turlari

[1] Нигмаджанов У.Проблемы трансформации и функционирования АПК Узбекистана в переходный период к рыночной экономике. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук, Т.: 2002. -Б.10.

ishlab chiqarish infratuzilmasiga kiradi deyishi bir-biriga qarama-qarshi fikrlardir.

Infratuzilmani guruhlashda Ch.Murodovning nuqtayi nazari o'zining chuqurligi va ko'p qirraliligi bilan alohida diqqatni jalb etadi. Ch.Murodov doktorlik dissertatsiyasida infratuzilma: «... ishlab chiqarish, shaxsiy, ekologik va bozor infratuzilmasi yo'nalishlarida shakllanib rivojlanadi»,- deb ta'kidlaydi va ularni alohida-alohida tavsiflab, tarkibini aniqlaydi hamda bozor infratuzilmasining tadqiqiga alohida e'tibor qaratadi[1].

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan nomlar bilan yuritilayotgan infratuzilma xizmatlari turlarining mavjudligini e'tirof etgan holda, infratuzilmani umummilliy (magistral yoki xalq xo'jaligi), institutsional, ijtimoiy, bozor va ishlab chiqarish shakllariga bo'lish mumkin. Ta'kidlash joizki, infratuzilmaning tasnifi juda murakkab iqtisodiy muammodir. Uning o'rganilishi maxsus tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin. Tavsiya etilayotgan infratuzilma majmuining tasnifi shartli ravishda mazkur sohada qilingan ilmiy ishlar asosida hamda infratuzilmaning bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatayotganligini inobatga olgan holda bizning tomonimizdan amalga oshirilgan. Infratuzilma majmuining tarkibiy tuzilishi soha mutaxassislarining turli metodologik yondashuvlarining sintezlashtirilgan ko'rinishi bo'lib, biz ularni o'z ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida ishlab chikdik.

Tavsiya etilayotgan infratuzilma majmui tasnifining farqi shundaki, unda infratuzilma uchta katta guruhga: ishlab chiqarish, mezoinfratuzilma va ijtimoiy infratuzilmalarga bo'lingan. Buning asosiy sababi, ba'zi infratuzilma xizmatlari turlari ikki yoqlama xarakterga egaligidir. Masalan, lizing xizmati o'zining evolyutsiyasi va mazmuni jihatidan bozor infratuzilmasiga xosdir. Biroq lizing ko'p hollarda uzoq muhlat xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga qo'llaniladi. Birinchidan, lizingga olingan vositalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

[1] Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi: i. f.d. dis. -T.: 2003. –B.16-28.

Ikkinchidan, lizing shartnomalariga ko'ra, lizing obyektini lizingga olgan «shaxs» sotib olishi yoki shartnoma muddati tugagach, lizing obyekti lizing oluvchining ixtiyoriga qoldirilishi mumkin. Bu holda lizing moddiy-texnik ta'minot, ya'ni ishlab chiqarish infratuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yana bir misol: umumiy temir yo'l tarmog'idan yo'lovchi tashuvchi va yuk tashuvchi korxonalar birdek foydalanadi. Shuningdek, huquq tartibot institutlari ham ishlab chiqarish korxonalariga va aholiga teng ravishda xizmat ko'rsatishi mumkin. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Misollardan ko'rinib turibdiki, umummilliy, bozor va institutsional infratuzilma shakllarining ba'zi obyektlari ko'rsatadigan xizmatlari, ham ishlab chiqarish ham ijtimoiy tavsifga ega ekan. Shu tufayli ularni mezoinfratuzilmaga mansub deb topdik.

Milliy iqtisodiyotning barcha tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va mamlakat ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti uchun umumiy sharoit yaratish esa umummilliy infratuzilmaning asosiy vazifasidir. Mazkur infratuzilma milliy temir, avtomobil, havo va suv yo'llari hamda transportlari, suv, gaz va neft quvurlari, sug'orish inshootlari, elektr tarmoqlari, milliy va xalqaro aloqa hamda komunikatsiya tizimi va boshqa milliy maqomga ega bo'lgan inshootlari hamda infratuzilma obyektlari kabilardan tashkil topgan.

Institutsional infratuzilma esa jamiyat boshqaruvining uzluksiz faoliyatini, iqtisodiy-ijtimoiy adolat, mamlakat xavfsizligini, demokratik va siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlash orqali ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanishi va rivojlanishi uchun tegishli sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Bu infratuzilma: davlatning boshqaruv organlari va tashkilotlari, sud, prokratura, mudofaa, milliy xavfsizlik tizimi, demokratik, siyosiy, diniy, gumanitar tashkilotlar, hukumatning turli darajadagi milliy va xalqaro institutlaridan iborat.

Ijtimoiy infratuzilma aholi sog'ligini saqlash va tiklash, ta'lim-tarbiya, madaniyat, maorif, maishiy-hordiq, umumiy ovqatlanish

tizimlari, aholini ijtimoiy himoyalash, gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash, kommunal hamda ekologik xizmatlar va boshqalarni qamrab oladi. Ta'kidlash lozimki, mazkur infratuzilma xizmatlarining ko'p qismi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga bevosita qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish sohalariga (ikki yoqlama xarakterdagi xizmatlar turidan tashqari) bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga quyidagilar kiradi: moddiy-texnik ta'minot, turli ta'mir servis xizmatlari, ishlab chiqarish sohalariga xos (yuqoridagi infratuzilmalarga kirmaydigan) tovar harakati tizimi, yo'l transporti, suv inshootlari, aloqa elektr tarmoqlari, mahsulot tayyorlash, uni saqlash, qadoqlash, sotish, atrof muhitni muhofaza qilish va boshqalar. Ijtimoiy ishlab chiqarish sohalarida ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlarining roli juda kattadir. Ayniqsa, to'yinmagan va raqobatsiz bozorda aholining tovarlarga bo'lgan talabini qondirish uchun tovar ishlab chiqarish hajmini oshirishga zarurat tug'iladi. Bunday hollarda ishlab chiqarish tavsifidagi xizmatlarga nisbatan boshqa turdagi xizmatlarga talabning oshishi tabiiydir. Chunki, bunday bozorlarda mahsulot hajmini ko'paytirish uchun ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlarini kengaytiradi. Natijada ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarish jarayoniga ko'proq miqdorda jalb etila boshlanadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lgan xizmatlar uchun talabning o'sishiga asos bo'ladi.

ASMda ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari bilan fermer xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rganish mazkur hamkorlik aloqalarining iqtisodiy o'sish va iqtisodiy pasayishlarga ta'siri mohiyatini tushunib yetishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bu nisbatan barqaror faoliyat uchun institutsional maydonni shakllantiruvchi, davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita qo'llab -quvvatlanuvchi va ularning rioya etilishini davlat tomonidan tartibga solinuvchi umumiy ijtimoiy me'yorlardir. Institut tushunchasi ijtimoiy me'yor sifatida insonlarning ijtimoiy

munosabatlari va ularning namoyon bo'lish shakllari bilan uzviy bog'liqdir[1].

Ishlab chiqarish infratuzilmasi barcha korxonalarini funksional belgisi bo'yicha ham tasniflash mumkin. Ularning ma'lum bir qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi va fermer xo'jaliklarining asosiy va yordamchi quyi tizimlari faoliyatini tashkillashtirish, barpo etish, rivojlantirish va ayni paytda ularning faoliyatini nazorat qilishga bevosita javob beradi.

ASMda ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va amal qilishini ta'minlovchi iqtisodiy, atributiv va boshqa belgilarini, shuningdek mazkur jarayonga bevosita ta'sir etuvchi bir qator tashqi omillarni hisobga olgan holda rivojlantirish va mazkur infratuzilma korxonalarining o'zaro uyg'unligini ta'min etish agrosanoat ishlab chiqarishining barqaror faoliyat ko'rsatishiga va istiqbolda rivoj topishiga imkon beradi.

Agrosanoat majmui va ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining faoliyati bir biri bilan uzviy bog'liq. Har bir korxonaning o'rni va vazifalari alohida holatda, uning ishlab chiqarish faoliyati va ta'sir ko'rsatish doiralari bilan cheklangan bo'ladi. Bir necha korxonalarning salohiyatini, nazorat funksiyalarini va majburiyatlarini yagona tuzilmaga birlashtirish ularning ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshiradi.

Infratuzilmaning amal qilishi, bir tomondan, moddiy ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi inson, inson kapitali, uchinchi tomondan insonlar hayot faoliyati tabiiy muhitini qayta tiklashdir. Bunda ishlab chiqarish (butlovchi qismlarni bir korxonadan ikkinchisiga yetkazib berish), ijtimoiy (oyoq kiyim, kiyim-kechak ta'miri) va atrof-muhit muhofazasi (suv, havo, tuproq va shu kabilarni tozalash) infratuzilmalari sohalarida xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy ne'mat sifatida tovar qiymatining o'zgarishi amalga oshadi. Mazkur infratuzilmalarni shakllantirish va rivoj-

[1] Белокрылова О.С., Германова О.Е., Солдатова И.Ю. Институциональные основы рыночной экономики в России.-М.:Наука,1996.-С. 43-47.

lantirish ko'p jihatdan qishloq aholisining to'lov qobiliyatiga, qishloq hududlarida investitsion faollik darajasiga va ayni paytda agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etish xususiyatlari, omillari va shart-sharoitlariga bog'liqdir[1].

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarning o'zaro hamkorlik sikli, hamkorlik aloqalari jarayoniga tobora ko'proq xo'jalik yurituvchi subyektlarni qamrab oluvchi zanjirni vujudga keltiruvchi doiraviy aylanishni ifoda etadi. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashning respublika va mahalliy institutlar ko'rinishidagi tizimi mavjud. Bozor uchun muhim bo'lgan iqtisodiy axborotlarni tarqatuvchi axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari, Internet- agentliklari - bu respublika institutlari hisoblanadi. Mintaqa boshqaruv organlari tomonidan tashkil etiluvchi tadqiqot markazlari, mahalliy axborot agentliklari, marketing markazlari, uyali va boshqa aloqa tizimlari; infratuzilma subyektlarini axborot bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi muassasalar; u yoki bu tumanda mavjud bo'lgan mahalliy me'yor va qoidalar, urf-odatlar va boshqalar mahalliy institutlar sifatida e'tirof etiladi.

Infratuzilma korxonalarining hatti-harakatlarini bir korxonaning faoliyati qisman bo'lsada ikkinchi bir korxonaning faoliyatiga bog'liqlikda bo'lgan ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining halqasimon faoliyati sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ya'ni bir infratuzilma obyektining tayyor mahsuloti yoki xizmati boshqa bir infratuzilma obyekti uchun xomashyo bo'lib hisoblanadi uning asosida mutlaqo yangi ko'rinish va sifatdagi mahsulot yoki xizmat ishlab chiqariladi. Mazkur holatda ishlab chiqarish va infratuzilma sohalari korxonalarining o'zaro xatti-harakatlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olish muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Masalan, qayta ishlovchi korxonalar qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarsiz, asbob-uskunalarni ta'mirlash xizmatlarisiz, ta'minotchi va yuk tashuvchi firmalarsiz, sotish bozor-

[1] Иванова Н.В. Формирование и развитие социальной и производственной инфраструктуры: автореферат дис.канд.экон. наук.-Саратов, 2005- С.15.

larisiz, faoliyatni tartibga soluvchi davlat organlarisiz to'la qonli faoliyat ko'rsata olmaydilar.

Sanitariya - veterenariya stansiyalarining ish faoliyati ma'lum darajada o'simlik va hayvonlarni himoyalovchi vaksina va vositalarni ishlab chiqaruvchilar hamda ta'minotchilar, bu xil xizmatlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan atrof-muhit muhofazasi subyektlari va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari; suv tarmoqlari va tozalash inshootlari ularning ustidan nazorat qiluvchi stansiyalar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

ASMning samarali va barqaror rivojlanishining muhim sharti majmua sohalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, uning barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi o'zaro nisbat va muvofiqlikni ta'minlashdan iboratdir. Mos ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud bo'lmagan ko'pchilik vaziyatlarda qayta ishlovchi korxonalar xarid narxlarini pasaytirish va sotish narxlarini oshirish maqsadida o'zlarining monopol mavqelaridan foydalanadi[1].

Bu qishloq tumanlarida ommaviy tarzda go'sht, sut, moyli ekinlar urug'i (juvoz), don (un tegirmonlari) va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha kichik sexlarning shakllanishiga olib keldi. Unchalik katta bo'lmagan qayta ishlovchi korxonalarni qurish fermer xo'jaliklaridan katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni talab etadi, lekin kompleks qayta ishlash imkoniyatlari yetarli bo'lmagan hollarda xomashyolarni asossiz ravishda nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Qayta ishlovchi korxonalar o'zlarining xomashyo hamkorlarini yo'qota borib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanmayapti, quvvatlardan foydalanish koeffitsientining 20 foizdan 30 foizgacha oraliqda tebranib turishi xomashyoni qayta ishlash narxining qimmatlashuviga, ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat tovarlari raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelmoqda.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali modeli raqobatbardoshlik muhitida va kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga

[1] Минасов М. Стратегия устойчивого развития АПК.// АПК: экономика, управление, 2004.№9

yo‘naltirilgan holda mavjud bo‘ladi. Yirik korxonalar ularning atrofida mayda va o‘rta ishlab chiqarish, innovatsion, huquqiy va maslahat xizmatlarini taklif etuvchi servis korxonalarining samarali tizimi shakllangan holdagina raqobatbardosh bo‘lib boradi. Shu tariqa, yaxlit tarmoq klasteri shakllanadi. Faqatgina shunday sharoitdagina bosh korxonaning egiluvchanligi o‘sib boradi. U tobora yakuniy mahsulotga nisbatan bozor talablarining o‘zgarishiga moslashib boradi. Bunday yondashuv innovatsiyalarni tezkor joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash va shu kabi bir qator afzalliklarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Infratuzilma institutlari tizimining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash borasidagi muhim vazifa ko‘p sonli tarmoqlarning o‘zaro kelishilgan hamkorlikdagi faoliyatini ta’min etishdan iboratdir. Agrosanoat majmui tarmoqlari barcha bo‘g‘inlarini muvozanatlashgan holda rivojlantirish - mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi xomashyosi bilan ta’minlash muammosini hal etishning muhim shartidir. Iqsodiyot tarmoqlarining o‘zaro muvofiqlashgan hamkorlikdagi faoliyatida infratuzilmaning katta o‘rin tutishi shunday muhim bir holat bilan belgilanadiki, u ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida: (ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol) ishtirok etadi.

Unda ASMning har bir instituti o‘ziga xos funksional vazifaga ega: biri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarsa, boshqalari ularni qayta ishlash bilan mashg‘ul bo‘ladi, uchinchisi uni iste’molchilarga yetkazib beradi, to‘rtinchisi servis funksiyalarini bajaradi, beshinchisi esa butun tizimni mehnat vositalari va predmetlari bilan ta’minlaydi. Har bir tarmoqning korxona va tashkilotlari faoliyati davomida o‘zlarining xo‘jalik manfaatlaridan kelib chiqib ish ko‘radi va tovar ishlab chiqaruvchi sifatida alohidalashgan bo‘ladi. Ular bir asosiy holatda o‘zaro bog‘langandir, ya’ni ularning har biri takror ishlab chiqarish siklining avvalgi bosqichida ishlab chiqarilgan resurslarning iste’molchisi bo‘lganlari holda, bir vaqtning o‘zida yangi mahsulotni ishlab chiqarishning

navbatdagi bosqichida iste'mol qilish uchun mo'ljallangan resurslarning ishlab chiqaruvchisi ham hisoblanadilar.

ASM ishlab chiqarish infratuzilmasi institutlari tizimi murakkab ko'rinishdagi funksional, xo'jalik va ijtimoiy tuzilmaga ega. U ko'plab agroservis, fan sohasi, ta'lim muassasalari tashkilotlari va birlashmalari kabi ko'p sonli korxonalardan iborat bo'ladi. Qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlarning faoliyati ko'plab iste'molchilar, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga qaratilgan bo'lsa, agrosanoat majmuining yakuniy mahsulotlari savdo tashkilotlari orqali individual (chakana) iste'molchilarga yetib keladi. Bu pirovard mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini ijtimoiy ehtiyojlar ko'lami va tuzilmasiga yaqinlashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda shakllantirishda alohida elastiklik va moslashuvchanlik bo'lishini talab etadi.

ASM tuzilmasida quyidagi eng muhim sohalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- qishloq xo'jaligi, engil, oziq-ovqat va go'sht-sut sanoati hamda taiyorlov tizimi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi sanoat tarmoqlari;
- bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi: chorvachilik va o'simchilik;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat;
- infratuzilma xizmatlari: qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish-texnik, agrokimyoviy, meliorativ, atrof-muhit muhofazasi, veterinar xizmatlar;
- qishloq xo'jaligi xomashyosini saqlash, tashish, tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarishlar hamda agrosanoat majmui mahsulotlarining ulgurji va chakana savdo bozorlari .

Olimlarning ASM tarkibiga informatsion, ilmiy-tadqiqot, moliyaviy, joriy etish markazlari, konsalting xizmatlari kabi bozor tuzilmalarini ham kiritish lozimligi to'g'risidagi qarashlari asosli bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tovar va xizmatlarni mustaqil ishlab chiqaruvchilar hamda ishlab chiqarish - qayta ishlash- sotish - iste'mol siklining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilayotgan barcha subyektlar endilikda, to'liq, haqqoniy va o'z vaqtida zarur bo'lgan axborotlarga ega bo'lmasdan turib, bozorda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmasligi hech kimga sir emas. Boshqaruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, va kutilayotgan iste'molchilarga butlovchi qismlar va texnologiyalar, xomashyo ta'minotchilari, tovar va kapital bozorlaridagi vaziyat va narx-navo, biznes olamidagi holat, umumiy iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, iqtisodiyot rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyalari, xo'jalik yuritishning huquqiy shart-sharoitlari va shu kabilar to'g'risidagi ma'lumotlar juda ham zarur. To'laqonli axborot moliyaviy xavf-xatarni pasaytirish evaziga aniq ustunlikka ega bo'lish, iste'molchilarning xohish-istaklarini o'z vaqtida ilg'ab olish, tashqi muhitni kuzatib borish, strategiyani muvofiqlashtirib borish, faoliyatni haqqoniy baholay olish, reklamaga ishonchni oshirish, samaradorlikni oshirish kabi imkoniyatlarni beradi. Boshqarish axborotni olish va qabul qilishdan boshlanib tegishli axborotlar asosida boshqaruv qarorlari bajarilishi nazoratini amalga oshirish bilan tugallanadi[1].

U yoki bu servis xizmatining mavjudligi va uning individual, hududiy yoki ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlashdagi o'rnini yaqqol tasavvur etish amaliyotda "faktor-minimum"ning cheklovchi ta'sirini bartaraf etish va agrosanoat majmuida ijobiy tarkibiy siljishlarni ta'minlashga qaratilgan investitsion siyosat chora-tadbirlarini qo'llash borasida ASM ishlab chiqarishi tizimidagi cheklovchi bo'g'inlarni tezda aniqlab olish imkonini beradi.

Bozorning rivojlanishi, talab va taklif o'rtasidagi o'zgarishlar natijasida ASM ishlab chiqarish infratuzilmasi quyi tizimlari funksiyalarini ajratishga zarurat tug'ildi. Shunday qilib, pirovard

[1] Овчинников В.Н., Ахохов М.Х. Рыночная стратегия материально-технического обеспечения регионального АПК.-Нальчик Издательский центр «ЭЛЬ-ФА», 1994

mahsulotning sifati ishlab chiqarish butun texnologik zanjirining ishonchli faoliyat ko'rsatishiga bog'liqdir. Ammo insonning ishtirokisiz yuqori sifatli mahsulot olish amalda mumkin emas. Shuning uchun ASMga tegishli yuqori malakali kadrlar salohiyatining mavjud bo'lishi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida mashina va uskunalardan samarali foydalanish va texnik ta'mirlashning optimal xizmatlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarishda minimal yo'qotishlarni ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, tashkiliy-tuzilmaviy yo'sindagi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarning ishlab chiqarishga yoki muomala sohasiga mansubligi, funksional belgilari esa ASM takror ishlab chiqarish tizimidagi o'rni bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari faoliyatini moddiy-texnik ta'minot va texnik-ta'mirlash xizmatlariga bo'lishimiz mumkin. Bunday yondashuv ishlab chiqarish va muomala sohasiga mansub bo'lgan infratuzilma turli quyi va yuqori tizimlarining ASM takror ishlab chiqarish jarayonida o'zaro bog'liq tarzda amal qilishini kuzatib borish imkonini beradi. ASM ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining mustaqil holda boshqa korxonalar bilan cheklangan faoliyatining samaradorligi darajasi past bo'ladi. Barcha korxonalarning yagona vazifani bajarishlari va ularni nazorat qilishini yagona tuzilmaga birlashtirish ishlab chiqarish infratuzilmasining imkoniyatlari va samaradorligini oshiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Infratuzilmaning nechta turi mavjud?
2. ASMda infratuzilma turkumlanadimi?
3. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari nimada ifodalanadi?
4. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi majmui nimani ifodalaydi?
5. Infratuzilma qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
6. Infratuzilma tizimida ijtimoiy infratuzilmaning rolini aytib bering.

3-BOB. QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI

3.1. Fermer xo'jaliklari bilan infratuzilma korxonalarining o'zaro aloqalarini tartibga solishning institutsional va bozor mexanizmlari

Qishloq xo'jaligi raqobatli bozor tuzilmasi va o'ziga xos bozor munosabatlari tizimiga ega bo'lgan, milliy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligi tarmoq mahsuloti bilan boshqa tarmoqlar mahsulotlari o'rtasidagi narxlar nomutanosibligining o'sishi bilan tavsiflanuvchi vaziyat yuzaga keldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bir butun bozor organizmini bir me'yorda faoliyat ko'rsatishini ta'min etuvchi va unga yordamchi tavsifga ega bo'lgan bozor infratuzilmasiga ma'lum darajada bog'liqdir. Bozor infratuzilmasi bozor xo'jaligiga xizmat qiluvchi muassasalar, tashkilotlar, davlat va tijorat korxonalaridan tashkil topadi. Bozorning qaror topishi bir qator iqtisodiy asoslarga tayanadi. Barcha bozorlar turli mezonlardan kelib chiqqan holda, o'z tavsifiga ko'ra quyidagicha tarzda tasniflanishi mumkin:

Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida ikki xil: tovar ishlab chiqarish va muomala qonunlariga muvofiq tarzda amalga oshuvchi aloqalar mavjud. Abdug'aniyev A.A fikriga ko'ra bozor bir qator muhim iqtisodiy funksiyalarni bajaradi[1]. Faoliyat ko'rsatayotgan bozorlarning turli tumanligi ularni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori; qishloq xo'jaligi uchun moddiy-texnik resurslar bozori; xizmat ko'rsatish sohalari bozorlariga ajratish imkonini beradi. Quyidagi rasmda qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorining tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi va boshqa qator funksiyalari keltirilgan.

Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar sonining ko'pligi, alohida ishlab chiqaruvchining narxga ta'sir eta olmasligi, bozorga kirish

[1] Abdug'aniyev A.A., Abdug'aniyev A.A.Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: TDIU. 2004. –B. 274 b.

to‘siqlarining mavjud emasligi, mahsulotlarning bir xilligi va standartlashganligi, tarmoqqa kirish to‘siqlarining yo‘qligi, erkin raqobatli bozorning asosiy belgilari bo‘lib hisoblanadi.



5- Rasm. Qishloq xo‘jaligida bozor funksiyalari

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnik resurslari bozoriga uch yirik tarmoq: qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyoviy vositalar va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, ozuqa ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlari kelib tushadi. Dilerlik, ta'mirlash-texnik, agrokimyoviy, meliorativ va boshqa tashkilot va firmalar fermerlarga va dehqon xo'jaliklariga taqdim etiluvchi xizmatlar sohasi bozorining subyektlari bo'lib hisoblanadi[1].

Bozor mexanizmi davlatning aralashuvisiz qishloq xo'jaligi texnikalari bozorini mustaqil tarzda tartibga solish imkoniyatiga ega emas, chunki ular tartibga solish yagona tizimining bir-birini to'ldiruvchi komponentlari bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi texnikalari bozoriga davlat aralashuvining pasayishi:

1) mashinasozlik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari o'rtasidagi narx nomutanosibligining kuchayishiga;

2) fermer xo'jaliklarining to'lov layoqatining pasayishiga;

3) ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanmaslik va energiya qiymatining yuqoriligi oqibatida qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ining inqirozga yuz tutishiga;

4) amortizatsiya fondi mablag'laridan maqsadsiz foydalanishga;

5) qishloq xo'jaligiga texnikasiga QQSning joriy etilishiga;

6) fermer xo'jaliklariga texnikani lizing asosida yetkazib berishda monopoliyaning vujudga kelishi;

7) fermer xo'jaliklarining texnikalarni lizing bo'yicha xarid qilishda budjetdan yetarlicha moliyalashtirilmaganligi;

8) fermer xo'jaliklariga yetkazib berilgan texnikalarga ta'minotchi korxonalar tomonidan kafolatli xizmatlar ko'rsatishning mavjud emasligi kabi bir qator salbiy holatlarning namoyon bo'lishiga olib keldi.

Fermer xo'jaliklari samarali faoliyat olib borishi uchun doimiy ravishda qishloq xo'jaligi bozorlaridagi vaziyat, ya'ni ichki va

[1] Choriyev Q.A. Bozor infratuzilmasini shakllantirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish garovi. // Bozor islohotlarini chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va qishloqda infratuzilmani rivojlantirish ilmiy-amaliy seminar ma'ruzalari to'plami. A Toshkent, 1998.- B. 13-16.

tashqi muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lib borishlari talab etiladi. Fermer xo‘jaliklari mahsulotini sotish faoliyati bo‘yicha tahlil natijalaridan marketing faoliyatining taktika va strategiyasini tanlab olish hamda uni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Marketing va sotish faoliyatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va mahsulotni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste’molchiga yetkazib berishda samarali tizimni joriy etishning garovi bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamizda mahsulotni sotish bo‘yicha marketing konsepsiyasini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste’molchilari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida iqtisodiy manfaatlar muvozanatini vujudga keltirib, ayni vaqtda bozorlarni barqaror kengaytirib, ASMda takror ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy shart-sharoitlarini optimallashtirishga zamin yaratadi[1].

Bozor mexanizmining asosiy elementlari bo‘lgan talab, taklif, raqobat va narx tizimining mavjudligi, ularning o‘zaro uyg‘unligi evaziga qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori faoliyat yuritadi. Mazkur elementlar o‘zaro hamkorligini mantig‘i shundaki yuqori darajada foyda olishga intilish, fermer xo‘jaliklari va jamiyat tomonidan katta ehtiyoj sezilayotgan, jamiyat a’zolari esa uning uchun pul to‘lashga tayyor bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga o‘z resurslarini safarbar etishini talab etadi. Talab va taklif sotilayotgan va xarid qilinayotgan tovarlar miqdori va ularga bo‘lgan narx tizimini shakllantiradi. Narx iste’molchilar uchun ham, ayni paytda fermer xo‘jaliklari uchun ham bozordagi vaziyat to‘g‘risida axborot beruvchi signal vazifasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, narxlar, ishlab chiqarilgan tovarlar hajmi va massasi to‘g‘risida, ularning xarajatlari va unda qo‘llanilgan texnologiyalar darajasi to‘g‘risida bilvosita ravishda tasavvur qilish imkonini beradi.[2]

---

[1] Saidova D. Fermer xo‘jaliklari barqarorligi asosi. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. №8. 2008. B. 9.

[2] Коваленко И.Я. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрных рынков,-М.: «Тандем»,1998.

Shunga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari bozorida (OOMB), fermer xo‘jaliklari va oziq-ovqat mahsulotlarini yakuniy iste’molchisiga yetkazib berish borasidagi iqtisodiy munosabatlarga va institutlar tizimiga alohida e’tibor qaratish lozim. OOMBning tarkibiy tuzilmasining asosiy subyektlariga, tovarlar bozori institutlari tizimini qamrab olgan, fermer xo‘jaliklari, moliyaviy vositachilar va yakuniy iste’molchilar kiradi. Bozor subyektlari mavjud infratuzilmadan foydalangan holda, bozor munosabatlari tizimida funksional jihatdan mustaqil iqtisodiy faoliyat turlarini olib boradi. OOMBning asosiy subyektlariga qayta ishlovchi korxonalar, aholi va davlat kiradi.



6-Rasm. ASMda oziq- ovqat bozorining tarkibiy tuzilmasi va muhiti.

Funksional jihatdan tadqiq etilayotgan OOMBning tuzilmasiga birjalar, ulgurji savdo tashkilotlari, chakana savdo tizimi, sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblar, axborot, marketing va shu kabi boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olgan mahsulotlarni sotish, saqlash, tashish, xarid qilishning moddiy-texnik va tashkiliy tizimini ifoda etadi.

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan qayta ishlash korxonalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib fermer xo‘jaliklari bilan iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, qishloq xo‘jalik xomashyosining o‘z vaqtida yetkazib berilishini

ta'minlash fermer xo'jaliklari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish; xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, mahsulot yo'qotishlarini pasaytirish hisoblanadi.

M. Qutbiddinova fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning rag'batlantiruvchi omillariga quyidagilar kiradi[1]:

1) ekologik toza, tabiiy mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog'liq holda, xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobat kurashidagi afzalliklar;

2) yetarlicha ekin maydonlarining kattaligi va qishloqda yashovchi aholi sonining ko'pligi;

3) ovqatlanish muvozanatiga bo'lgan extiyoj - bugungi kunda O'zbekistonda oila xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlari 55-60 foizni tashkil etgani holda, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich atigi 15-20 foizni tashkil etadi, ammo ulardan farqli o'laroq, respublikamiz aholisining ovqatlanishi muvozanatlashmaganligi bilan tavsiflanadi va bir qator o'rinlarda tavsiya etilgan ovqatlanish me'yorlariga yetmaydi.



7- Rasm. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqatlari oqimining tarkibiy tuzilmasi

[1] Qutbiddinova M. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori va marketingi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №3. 2010. B.31.

Mazkur omillarni amalga oshirish OOMB barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi va o'z navbatida ichki resurslarning asosiy iste'molchisi sifatida maydonga chiquvchi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham barqaror rivojlanishiga turtki beradi. Oziq-ovqat bozorining (alkogol mahsulotlaridan tashqari) bir-muncha sezilarli segmenti bo'lib kartoshka, sut va sut mahsulotlari, non hamda non mahsulotlari hisoblanadi.

Iste'mol bozorlarining to'yinishi ko'pchilik hollarda import mahsulotlari hisobiga ta'min etiladi. OOMBlari ayrim segmentlarining importga bog'liqligi uning nobarqarorligi va bozor kon'yunkturasining sezilarli darajadagi tebranishlariga olib keladi. Respublikamizda OOMB rivojlanishining ijobiy jihatlaridan biri sifatida aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatining import qilinuvchi shu turdagi mahsulotlar sifatiga nisbatan yaxshilanib borayotganligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

OOMB rivojlantirish borasidagi cheklovchi omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) keyingi yillarda kuzatilayotgan aholi pul daromadlarining barqaror o'sish sur'atlariga qaramasdan, aholi xarid qobiliyatining pastligicha qolib ketayotganligi;

2) qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlamaganligi. Fermer xo'jaliklari turli bozor segmentlarida, unga mos infratuzilma tarmoqlarining mavjud emasligi sababli, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish borasida muammolarga duch kelmoqda. Mahsulotni sotish, saqlash va tashish borasidagi mavjud muammolar mahsulot yetkazib berish geografiyasini, shu jumladan, eksportga mahsulot chiqarishni ham cheklab qo'yadi. Shuningdek, bunga qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti salohiyatidan yetarlicha foydalanilmasligiga, refrejerator vagonlar parkining yetishmasligi kabi asosiy cheklovlar sabab bo'lmoqda.

3) mahsulot sotishning muqobil kanallarining rivojlanmaganligi va monopol korxonalar faoliyatining kuchayishi. Yirik tarmoqli kompaniyalarning bozorda ish olib borish tajribasi, yetkazib berish muddatlari va narxlari borasida fermer xo'jaliklariga katta talab-

lar qo'yilmoqda. Ko'plab savdo tarmoqlari fermer xo'jaliklariga mahsulot yetkazib berishda to'lovlarni kechiktirish shartlari asosida mahsulotlarni xarid qiladi, bu esa fermer xo'jaliklari aylanma mablag'lari hajmini qisqarishiga olib keladi;

4) Bozorni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy-me'yoriy bazasining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ayni vaqtda bozorni tartibga solish masalalari turli qonun va qonunosti hujjatlari, hamda amaldagi standartlar, normativlar va boshqa texnik hujjatlar bilan muvofiqlashtirib borilmoqda. Biroq, respublika qonunchiligida yaxlit, barqaror tizim mavjud emas, rivojlantirishning ustivorliklari va ularni amalga oshirishning aniq yo'nalishlari belgilab olinmagan;

5) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning past darajadaligi. Bu barcha bozorlardagi raqobat muhitini bo'g'ib qo'yuvchi muhim omildir. Qishloq xo'jaligida hanuz o'z yechimini topa olmayotgan narxlar nomutanosibligida ifodalanuvchi shuningdek, boshqa tarmoqlar bilan mahsulot ayriboshlashning noekvivalentligi muammosini hal etish uchun sohaga katta moliyaviy mablag'lar talab etiladi;

6) respublikamiz fermer xo'jaliklari uchun import mahsulotlar bilan raqobatlashish borasida alohida tovarlar guruhi bo'yicha bir xil shart-sharoitlar ta'min etishda to'sqinlik qiluvchi ichki bozorning yetarlicha himoyalanmaganligi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari garovida davlatning ishtirok etishi, o'rnatilgan tartibda davlat tomonidan xarid qilinuvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha xarajatlarni qoplash, kreditlar berish, budjet mablag'larini ajratish shaklida amalga oshishi mumkin. A.A. Abdug'aniyev fikriga ko'ra, davlat tomonidan tartibga solishning asosiy dastaklari bo'lib narx, kredit siyosati, budjet ajratmalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq tizimi va fermer xo'jaliklarini himoyalash hisoblanadi[1].

[1] Abdug'aniyev A.A., Abdug'aniyev A.A.Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: TDIU, 2004. –B. 274 b.

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun davlat tomonidan tartibga solishga asoslangan, muvozanatlashgan narx va moliya-kredit siyosatini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi talab etiladi. Agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish vazifalariga, agrosanoat ishlab chiqarishini barqarorlashtirish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy mutanasoblikni ta'minlash, fermer xo'jaliklarni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari xodimlari daromadlarini tenglashtirish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash kiradi. Keyingi yillar davomida narxlar borasida tarkib topgan nomutanosibliklarni bartaraf etish muammosi qishloq xo'jaligi uchun o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlar bilan o'zaro munosabatlaridagi nomutanosiblik nafaqat bozor mexanizmi, balkibudjetdan moliyalashtirish yo'li bilan ham ta'min etilishi lozim.

Shu narsa ayonki, qishloq xo'jaligining o'ziga xosligi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida va jahonda oziq-ovqat tanqisligi bo'lgan murakkab iqtisodiy vaziyatda budjet dotatsiyalari va kompensatsiyalari saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz, dotatsiyalash tizimini takomillashtirish talab etiladi, chunki dotatsiyalar to'lashning amaldagi tizimi uchun bir qator kamchiliklar xos, xususan dotatsiyalar o'zining manzilligini yo'qotgan, daromadlilikka deyarli ta'sir ko'rsatmaydi; fermer xo'jaliklari har doim ham ushbu pul mablag'laridan mustaqil va samarali tarzda tasarruf eta olmaydi, bu esa bozor munosabatlarining rivojlanishiga imkon bermaydi, ushbu pul mablag'lari ayrim hollarda bozordagi boshqa sheriklar foydasiga qishloq xo'jaligidan olib qo'yilishi ham mumkin[1].

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

[1] Rahimov B. Moddiy texnika resurslari ta'minoti: muammo va takliflar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2.2007. –B 56.

1) davlat kapital qo‘yilmalari;

2) chorvachilikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari;

3) o‘simchilikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari;

4) yer tuzish va undan foydalanishni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar;

5) jalb etilgan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini qoplash;

6) qaytarib berish sharti asosida fermerlarni davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlash;

7) baliqchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

8) fermer xo‘jaliklarining ilmiy-texnik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqish;

9) fermer xo‘jaliklari uchun kadlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

10) iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining mintaqaviy fondini shakllantirish;

11) mintaqada qishloq xo‘jaligining boshqa xarajatlarini qoplash.

Qishloq xo‘jaligining ayrim tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun davlat budjetidan dotatsiyalar ajratish va boshqaruv organlari orqali davlat budjetini ijro etishning belgilangan tartibi hamda ular o‘rtasida tuzilgan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy texnik taraqqiyotni rag‘batlantirish, mulk huquqini tartibga solish, mehnatkashlarning daromadlarini oshirish, mehnat jamoalarining ma’muriyat faoliyati ustidan nazoratini yo‘lga qo‘yish va o‘zini-o‘zi boshqaruvchi korxonalarni barpo etish, ishlab chiqarish rivojlanishini davlat tomonidan rag‘batlantirish, moliyaviy tizimni sog‘lomlashtirish borasida tub va kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi[1].

[1] Rahimov B. Moddiy texnika resurslari ta’minoti muammo va takliflar. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. №2.2007. –B 56.

Paxtani xarid qilishning ichki past narxlari sharoitida uni eksport qilishning sezilarli darajada o'sishi, sotish bozorlari moddiy-texnik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va paxtani xarid qilish intervensiyasining kechiktirib amalga oshirilishi respublikamizda "Paxtasanoatsavdo" kompaniyalarining katta daromadlarga ega bo'lishini ta'min etgani holda, bevosita paxta ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida daromadlarining yetarli darajada shakllanishiga imkon bermayapdi. Fermer xo'jaligi kerakli hajmda va qat'iy belgilangan sifatdagi mahsulotlarni yetkazib berayotgan bir paytda, sanoat unga ko'pchilik hollarda past sifatli texnika, va boshqa turli xil resurslarni yetkazib berishi paradoksal teskari vaziyatni vujudga keltiradi. Ayriboshlashning nomutanosibligi nafaqat sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari o'rtasidagi keskin tafovutlarda, shu bilan bir qatorda mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan, mahsulotlarni chetga chiqarishni ta'minlash mexanizmida ham aks etmoqda.

Bozor sharoitida narxlar erkin va shartnomaviy bo'lishi kerak, lekin ayni vaqtda ular uncha yuqori darajada oshmasligi kerak, chunki tayyorlov tashkilotlariga xarid qilish uchun ajratilgan mablag'lar hajmi miqyosidagina tasarruf etish imkoniyatlariga ega xolos.

Qishloq xo'jaligini tartibga solishning iqtisodiy tizimini barpo etish, uning salbiy oqibatlarni oldindan ko'ra bilish va yumshatish-kabi masalalar bozor iqtisodiyotida birinchi o'ringa qo'yiladi[1].

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozorlarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish fermer xo'jaliklari va qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari faoliyatiga turlicha (ham ijobiy, ham salbiy) ta'sir ko'rsatadi. Tegishli davlat organlarining nazorati bozor iqtisodiy munosabatlari rivojlanishini tartibga solishda asosiy bo'g'in bo'lib qolmoqda.

---

[1] Isaqov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish soxasiniig rivojlanishi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi.№4. 2012.- B.44.

3.2. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining samaradorligini baholash uslubiyoti

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklari raqobatbardoshligini oshira borishga to'siq bo'layotgan muammolarni hal qilishga tizimli tarzda yondashish, barcha yo'nalishdagi tadbirlarni o'zaro mutanosib holda olib borish, bu jarayonlarni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish, yaqin istiqbolda ichki va tashqi bozordagi holatdan kelib chiqqan holda fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini keskin oshirish quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- mehnat resurslari miqdori o'zgarmas holda ko'proq hajmda qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish:
- Ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning kamayishi:
- Mehnat unumdorligini oshirish hisobiga qishloq xo'jalik korxonalari ishchilarining oylik ish haqi miqdorining o'sishi:
- Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi qishloq ishchilarining mehnat sarflarini kamaytirish va ularning bo'sh vaqtlarini ko'paytirishning asosiy shartidir.

Ishlab chiqarish samaradorligi olingan natija bilan ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatidir. Qancha resurs sarflab qancha va qanday sifatga ega mahsulot (va xizmat)lar yaratilganligi samaradorlikni ifodalaydi. Uning bosh mezoni pirovard natija hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarishning pirovard natijasi bu yalpi milliy mahsulot va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromadir. Samaradorlik sintetik va umumlashgan ko'rsatkich bo'lib, integral xarakterga ega, ya'ni o'zida bir necha ko'rsatkichlar natijasini jamlaydi. U mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi va investitsiya sig'imidan kelib chiqadigan hosiladir.[1]

Buning uchun, birinchi navbatda, samaradorlik tushunchasi va uning ta'rifiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Samaradorlik tushunchasi murakkab tushuncha ekanligini e'tirof etib, ilmiy adabiyotlarda (efficieny -- inglizcha) bir nechta tarjimaviy talqinga

[1] O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.1992. - BL 06-107.

ega, birmuncha keng tarqalgan «efficieny» iborasini samaradorlik natijalilik, harakatchanlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati, operativlik[1] kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin. Hozirgi vaqtda samaradorlikning ko'plab ta'riflari nafaqat iqtisodiyot fanlarida, balki boshqa fanlarda ham keltirilgan. Iqtisodiyot fanlarida «samaradorlik» tushunchasi keng va tor ma'noda talqin qilinadi. «Samaradorlik» tushunchasi keng ma'noda atrof- muhitga samarali va adekvat yondashuv qobiliyati[2], nisbiy samara, operatsiyalar va loyihalar[3] sifatida talqin qilinadi.

Samaradorlik mohiyatini aniqlashning yuqoridagi ta'rifini qaraydigan bo'lsak, uning bir qancha resurslari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Chunki bu tushuncha bir qancha mezonlar, xususiyatlar orqali ifodalanishi mumkin. Shuningdek, samaradorlik kategoriyasi iste'molni qondirish sifatida ham, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi sifatida ham, korxonalarning samarali shakllanishi sifatida va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Samaradorlik tushunchasi konkret tor ma'noda potensial va real faoliyatlar natijasining kompleks tasnifi bo'lib, bunda asosiy e'tibor faoliyat bo'yicha olingan natijalarga qaratiladi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ta'riflar «Samaradorlik» mohiyatining quyidagi asosiy jihatlarini ifodalaydi: birinchidan, samaradorlik murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u bir yoki bir necha mezonlar asosida aniqlanadi; ikkinchidan, samaradorlik nisbiy tushuncha bo'lib, u har doim muayyan maqsadlar faoliyatiga bo'ysunadi. Ya'ni, samaradorlikni baholash bosh maqsadlar asosida faoliyatlarni tavsiflaydi. Shunday qilib, samaradorlik nisbiy tushunchadir. Mazkur tushuncha haqida fikr yuritilganda bir necha holatlar taqqoslanadi. Masalan, iqtisodiy nazariyada iqtisodiyotdagi biror-bir manfaat bilan bog'liq bo'lgan

[1] Мюллер Д.К. – Англо-русский словарь – М.: «Русский язык» 1992 . –С. 233-234.

2 Кравченко С.А. Социально-экономический русско-английский словарь – М.: Астрель, 2004. –С. 511.

[3] Борисов А.Б. Большой экономический словарь/А.Б. Борисов – М.: Книжный Мир, 1999. –С. 825.

farovonlik darajasi taqqoslanadi. Gap shundaki, jamiyat farovonligi barcha jamiyat a'zolarining manfaatlarini to'g'ridan to'g'ri umumlashtirish natijasidir. So'nggi yillarda respublikamizda kichik biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, xizmat sohasidagi alohida olingan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar, dasturiy yo'nalishlar xizmat ko'rsatish va servis sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda»[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-maydagi «Xizmat ko'rsatish va servis sohasini 2006-2010-yillarda rivojlantirish to'g'risida»gi PQ-325-sonli, 2007-yil 21-maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010-yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-640-sonli qarorlari respublikamizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi tarmoqlarini har tomonlama jadal rivojlantirish, ularning samaradorligini ta'minlash, xizmat turlarini ko'paytirish uchun huquqiy asosni mustahkamladi. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Shu sababli ham iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi.

Samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda aholining erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy darajasini yuksaltirishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining o'sishida, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi ham-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2009, 21 -b.

da kamoloti naqadar yuksalsa, shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo'ladi[1].

Ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorligini o'rganishda uning mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunish va hisoblab chiqish katta ahamiyatga ega. Fikrimizcha, muhim masalalardan biri bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni har tomonlama chuqur o'rganish va tushunish uchun alohida ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlari hamda ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Lekin bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlari hamda ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, ular uzviy bog'langan, bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi.

Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatdan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uning muntazam oshib borishi bo'yicha belgilangan ishlarni bajarib bo'lmaydi. Iqtisodiy samaradorlikning o'sishi - ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning har qanday shakli rivojlanishida obyektiv qonuniyatdir, chunki jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va sifatining ortishi, ishlab chiqarish va muomala, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun jamg'arishni ko'paytirishni talab etadi. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish faqat samaradorlik mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi kerak, chunki mezon, asosan, samaradorlikni oshirishning mohiyati va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hal qiladi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma sohasini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maqsadlari va resurslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar zarurligini taqozo etadi. Fikrimizcha, O'zbekistonda qishloq ishlab chiqarish infratu-zilma korxonalari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning

[1] Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (oliy o'quv yurtlari uchun darslik) -T.: Fan, 2005. 122-123. –b.

zamonaviy tarmoqlari singari rivojlanib borayotgan sohadir. Shunga ko'ra, mazkur sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari iqtisodiy samaradorligining ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi:

- iste'molchilarning turli qatlamlariga mos xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni to'laroq qondirish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar ommabopligini ta'minlash;
- xo'jalik subyektlari faoliyatining natijaviyligini oshirish;
- sarflarning nisbiy darajasini pasaytirish;
- sohada yuqori unumdorlikni ta'minlashga erishish.

Mazkur mezonlar qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalari faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ko'rsatkichlari turlicha: baholash miqyosi bo'yicha, resurslardan foydalanish darajasi bo'yicha, ko'rsatkichlarning ahamiyati bo'yicha, ularning qarorlar qabul qilishdagi roli bo'yicha, umumlashtirish darajasi va hokazolar bo'yicha tasniflari uchraydi.

Fikrimizcha, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ikki guruhga: xususiy va umumlashgan ko'rsatkichlarga bo'linadi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlarga mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari kiradi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Fikrimizcha, qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi (natural va qiymat ko'rsatkichlari); o'rtacha mehnat haqi; bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati va mehnatga haq to'lash sur'atining nisbati; mehnat haqining bir so'miga olingan natija ko'rsatkichlari tizimidan foydalanib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining keng tavsifiga ega bo'lish mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasi natural va qiymat shaklida hisoblanishi mumkin. Natural shaklda hisoblansa, tovarlar hajmining xodimlar o'rtacha soniga nisbati olinadi.

$$MU = \frac{Tm}{Xs} \quad (2.1)$$

Bu yerda: Tm – tovar mahsulot hajmi;

Xs – xodimlar (bevosita) soni.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi mehnat unumdorligi, mehnat qaytimi va mehnat sig'imi kabi ko'rsatkichlarda aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi bir ishchi tomonidan qancha xizmatlar ko'rsatilganligini bildiradi.

$$MU = \frac{Tush\ x}{Sir} \quad (2.2)$$

Bu yerda: Tush x – xizmatlar hajmi;

Sir – ishlovchilarning o'rtacha yillik soni.

Mehnat qaytimi bir so'mlik ish haqiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tavsiflaydi.

$$MK = \frac{Tush\ x}{MxF} \quad (2.3)$$

Bu yerda: MK – mehnat qaytimi;

MxF – ish haqi fondi;

Mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari ko'rsatkich bo'lib, bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan mehnat sarfini ifodalaydi.

$$Msig = \frac{Msarf}{Tush.x} \quad (2.4)$$

Bu yerda: M sig – mehnat sig'imi;

M sarf – mehnat sarfi;

Mehnat unumdorligi o‘sish sur’ati va mahsulot mehnat sig‘imining pasayishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$MUus = \frac{Msigx100}{100 - Msig} \quad (2.5)$$

$$MCh = \frac{Musx100}{100 + MUus} \quad (2.6)$$

Bu yerda: MU o‘s – mehnat unumdorligining bazis davriga nisbatan darajasi (%);

MSh – mehnat sig‘imining bazis davrida pasayishi (%);

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat unumdorligining umumiy o‘sishi (Δ MU umumiy) xizmatlar ko‘rsatish hajmi oshishi va ishlovchilar sonining kamayishi hisobiga bo‘ladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\Delta MU = \frac{100(\Delta V + \Delta Un)}{100 + Un} \quad (2.7)$$

Bu yerda: ΔV – korxonada joriy davrda mahsulot ishlab chiqarishning o‘sish hajmi (foizda).

ΔUp – korxonalarda ishlovchilar sonining kamayish foizi. Agar ishlovchilar soni kamaymay, aksincha, ko‘payib borsa, ishlovchilar soni foizi teskari belgi bilan ifodalanadi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish miqdori yoki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (soni) o‘sishining qancha qismi mehnat unumdorligining oshishi, qancha qismi qo‘shimcha resurslar (mehnat resurslari)ni jalb qilish evaziga bajarilishini ifodalovchi ko‘rsatkich bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich intensiv omil hissasi formulasi deb yuritiladi.

$$Iok = \left(1 - \frac{Uis}{Utm}\right) \times 100\% \quad (2.8);$$

Bu yerda: Iok = intensiv omil hissasi;

Uis = ishchilar sonining qo‘shimcha o‘sishi;

Utm = tovar mahsulot hajmining qo'shimcha o'sishi;

O'rtacha mehnat haqi ish haqi jamg'armasining xodimlar o'rtacha soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$IX\ urt = \frac{IXJ}{Sir};(2.9);$$

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalari faoliyati samaradorligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun samaradorlikning xususiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda umumlashtirilgan ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi. Adabiyotlarda umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga: rentabellik, xarajatlar nisbiy darajasi, fond samaradorligi, sarflangan barcha resurslar fond samaradorligi va boshqa ko'rsatkichlar kiradi.

Rentabellik xizmat ko'rsatish korxonalari xo'jalik faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Rentabellik xizmat ko'rsatish sohasida balans foydaning korxona asosiy fondlari va aylanma mablag'lari yig'indisiga nisbatining foizdagi ulushi bilan aniqlanadi.

$$Rkor = \frac{balans\quad foydasi}{\sum Aif + \sum NOM};(2.10);$$

Bu yerda: $\sum$ Aif – asosiy ishlab chiqarish fondlari;

$\sum$ NOM – aylanma mablag'lar summasi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligining asosiy ko'rsatkichi - infratuzilma obyektlari, xizmat va bo'linmalari xarajatlarining qoplanishidir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Oi = Sv * Mi[1] (2.11)

Bunda

Oi - ishlab chiqarish infratuzilmasidagi xarajatlarning qoplanishi, so'm,

[1] Коволенко Н.Я. Экономика сельского хозяйста с основами аграрных рынков. Курс лекций. - М.: ЭКМОС, 1999.-448 с.

Sv - qishloq xo'jaligining pirovard mahsuloti, so'm,

Mi - ishlab chiqarish infratuzilmasining yaratilish xarajatlari, so'm.

Infratuzilma samaradorligini baholashning quyidagi usullari shakllangan:

1. Infratuzilma xarajatlari va natijalarining nisbatini taqqoslash.

2. Ishlab chiqaruvchi (asosiy) sohalarning pirovard natijasida infratuzilma xizmatlarining ulushi, ya'ni asosiy sohalarning rivojlanishi uchun sharoit yaratilganligi darajasining ifodasi.

3. Ishlab chiqarilgan mahsulot harakatini yaxshilash orqali uning nest-nobud bo'lishi va yaroqsiz holga kelishini oldini olish darajasi.

4. Infratuzilma hamda asosiy sohalarning rivojlanish ko'rsatkichlari o'zaro nisbatining tahlili.

5.Mintaqalar, hududlar hamda sohalararo infratuzilmaning omillarini modellar asosida samaradorligini belgilash va boshqalar.

Albatta, bu usullarning qo'llanilishi orqali infratuzilmaning samaradorligini belgilash juda muhim ahamiyatga egadir. Biroq infratuzilmada xarajatlar va natijalarni taqqoslash uning unsurlari samaradorligini cheklab qo'yadi hamda to'la baholash imkonini bermaydi. Chunki, qayd etganimizdek, infratuzilmaning bir qator obyektlari: yo'llar, omborlar, suv inshootlari va boshqalar ko'p yillar davomida xizmat ko'rsatadi. Shu bois ularning xarajatlari juda katta bo'lib, ularni qoplash darajasi juda sekinlik bilan kechadi va ko'rsatadigan xizmatlari turli sohalarni qamrab oladi. Mazkur xizmatlarning samarasi sohalararo tarqalib ketib, ular asosiy sohaning pirovad natijasida namoyon bo'ladi va ko'rinmas bo'lib qolishi ham mumkin. Fikrimizcha, qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarida ijtimoiy samaradorlik deganda xodimlarning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida ularning ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash turmush farovonligi bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Insonning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi uchun zamin yaratishni maqsad qilib qo'ygan jamiyatning pirovard ijtimoiy maqsadga erishuvida ijtimoiy samaradorlik bosh mezon hisoblanadi. Ijtimoiy samaradorlikning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi ikkinchi mezoni ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga bilvosita ta'sir qiluvchi iste'mol xarajatlarini kamaytirishdir.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilma tizimida ijtimoiy samaradorlikni yagona mezon bilan o'lchab bo'lmaydi, chunki soha ijtimoiy samaradorligining mezoni va ko'rsatkichlari bir xil emas. Agar ijtimoiy samaradorlikning mezoni uning mazmuni va vazifasini ifodalasa, ko'rsatkichlari samaradorlikni o'lchash va baholash quroli bo'lib xizmat qiladi. Mehnat sharoiti va mehnat xarakterini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga:

- mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash darajasi);
- xizmat ko'rsatish korxonalari bino va inshootlarining zamon talablari darajasiga javob berishi;
- xizmat ko'rsatishda ilg'or mehnatni tashkil qilish usullaridan foydalanish darajasi;
- korxonada foydalaniladigan texnologiya, asbob-uskuna va mexanizmlarning ilg'orlilik darajasi;
- xizmat ko'rsatish xizmatida band bo'lgan ishchilarning malakasi, ma'lumoti, mutaxassisligining yuqoriligi darajasi;
- soha uchun zarur bo'lgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil qilish darajasi kiradi.

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlardan alohida bittasi qo'llanilsa, umumiy natijaviylikni ifodalamaydi. Chunki har bir ko'rsatkich, ijtimoiy samaraning kichik bir yo'nalishinigina tavsiflaydi. Bu ko'rsatkichlar birgalikda qo'llanilsa, xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy samaradorligiga to'liq baho berish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini baholash, kompleks tahlil

qilish va strategik rejalashtirishning metodologik asoslarini yaratish va ularni tatbiq etishda foydalanish mumkin.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining xizmat ko'rsatish faoliyati – turli shakl va yo'nalishlarda xizmat ko'rsatish asosida fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini samarali yetishtirishga qaratilgan faoliyatidir.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi (natural va qiymat ko'rsatkichlari); o'rtacha mehnat haqi; bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati va mehnatga haq to'lash sur'atining nisbati; mehnat haqining bir so'miga olingan natija ko'rsatkichlari tizimidan foydalanib, mehnat resurslaridan foydalanishning keng tavsifiga ega bo'lish mumkin.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarining optimal muddatlarda bajarilishini ta'minlash va yetishtirilgan hosilning nestnobud bo'lishining oldini olish ham qishloq ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlarining samaradorligini belgilaydi. Infratuzilma samaradorligi va rivojlanish darajasini yuqorida qayd etilgan usullar asosida alohida baholash, sohaning istiqbolli va ustuvor yo'nalishlarini belgilash asosida ularni samarali moliyalashtirish imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, mamlakat, mintaqa, soha, korxona miqyosida infratuzilmaning optimal rivojlantirishga ham bevosita xizmat qilishi mumkin.

3.3.Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlari

Mamlakatimizda keyingi yillarda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi bilan bir qatorda qishloq ishlab chiqarish infratuzilma tizimi ham yuksak sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarish-

ning o'sish sur'atlari infratuzilmalar rivojidan oldin bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. G'arb iqtisodiy adabiyotlarida bu jarayon "iqtisodiyotning servislashuvi" (inglizcha "servise" – xizmat) degan atama bilan nomlanmoqda. Ishlab chiqarishning servislashuviga quyidagi omillar ham o'z ta'sirini o'tkazadi: ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, aholi daromadlarining o'sishi, kredit resurslariga bo'lgan talabning kengayishi, ilmiy – texnik taraqqiyoti sur'atlarining oshishi, ishlab chiqarishning alohidalashuvi va diversifikatsiyasi, resurslarni tejashga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanishi va boshqalar.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning yakuniy natijalari nafaqat xo'jalikning o'z imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi, balki unga xizmat ko'rsatuvchi qishloq ishlab chiqarish infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi – ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarish uchun normal shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoq va sanoat majmuidir. U ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalar jarayonida vujudga keladigan mahsulotlarni sotish orqali ASM ning samarali ishlashini ta'minlaydi. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bo'linmas qismi hisoblanadi va fermer xo'jaliklarining samarali faoliyatini ta'minlab, ASMning pirovard mahsulotining miqdoran ko'p va sifat jihatidan yuqori bo'lishiga yo'naltirilgan.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'linmalarining rivojlanib borishidan dehqon va fermer xo'jaliklari katta manfaat ko'radi, chunki bu xo'jalik a'zolarini ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishlardan ozod etib, ularning kuch-g'ayratini asosiy faoliyatiga qaratishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasida qishloq ishlab chiqarish infratuzilma-

sining rivojlanishini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Ularga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar aniqlandi.

I bosqich 1995 – 2001-yillarni qamrab olgan bo'lib, qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanish davri hisoblanadi. Ushbu yillarda infratuzilma xizmatlariga ehtiyoji bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ya'ni dehqon va fermer xo'jaliklarining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda past rentabelli, zarar bilan ishlaydigan shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklari vujudga keldi va fermer xo'jaliklari ta'sischilari hisoblangan muqobil MTP, SFU[1]lar tashkil etila boshladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu davrda infratuzilma obyektlarini shaklantirish uchun yetarli darajada huquqiy – me'yoriy hujjatlar hamda ularni rivojlantirish mexanizmlari shakllanmagan edi.

II bosqich (2002 – 2006-yillar)da – qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasing rivojlantirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va fermerlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarining davlat dasturlari asosida shakllantirilishi kuzatildi. Istiqbolli xo'jalik yurituvchi shakl hisoblangan fermer xo'jaliklarining rivoji unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlariga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi "2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish belgilandi.

III bosqich 2007–2012-yillarni o'z ichiga olib, u O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi asosida amalga oshirilib, xizmat turlarini kengaytirish ularning sifatini yaxshilash va istiqbolli fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadigan xizmat turlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Res-

[1] MTP – mashina traktor parklari, SFU-suvdan foydalanuvchilar uyushmasi.

publikasi Prezidentining 2006-yil 11-yanvardagi 255 sonli va 2006-yil 514 sonli qarorlari asosida mamlakatimizda fermerchilik harakatini jadal rivojlantirish uchun shart – sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kadrlar tayyorlash, ular malakasini oshirish va qayta tayyorlashga har tomonlama e'tibor berildi.

IV bosqich 2012 va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr esa mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, jahon talablari va standartlariga javob beradigan zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash darajasini tubdan yaxshilash davri bo'lib hisoblanadi. Unda qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012-2016-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida" qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 2012-2016-yillarda "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi" qabul qilindi. 2012-2016-yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish va uning asosiy turlarini yangilashning prognoz parametrlari aniqlandi. 2012-2016-yillarda qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikasi, transport vositalari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash bo'yicha texnologik asbob-uskunalarning yangi turlarini ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha investitsiya loyihalari ro'yxati tasdiqlandi.

Ushbu qarorda belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyuldagi "2012-2016-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va

uning chora-tadbirlar belgilandi. Unga muvofiq qishloq xo'jaligida 4 ta yo'nalishda amaliy ishlar belgilangan:

1) qishloq xo'jaligi texnikasi parkini yangilash va kengaytirish, qishloq xo'jaligini yangi, zamonaviy, yuqori unumli va resurslarni tejovchi texnika bilan ta'minlash;

2) qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, qishloq xo'jaligi texnikasining yangi turlarini ishlab chiqishga tayyorlash;

3) qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish, yetkazib berish va ularga servis xizmati ko'rsatishni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish;

4) fermer xo'jaliklari, mashina-traktor parklari va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalariga kadrlar tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha amaliy ishlar belgilangan hamda ular izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Shu bois qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, qishloq aholisining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, buning asosida yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlari oshirilishini ta'minlash maqsadida "2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1957-sonli hukumat qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 2013-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning ijrosini ta'minlash uchun chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi.

Belgilangan maqsadli parametrlarga muvofiq 2013-2016-yillar mobaynida ushbu tarmoqning servis xizmat ko'rsatishni 1,8 martaga. jumladan, qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlarni 1,2 martaga, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, ta'lim berish xizmatlarini 1,6 martaga, qurilish xizmatlarini 1,7 martaga, aloqa va axborotlashtirish, moliyaviy, sog'liqni

saqlash xizmatlarini 1,8 martaga, transport, texnologik uskunalarini ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish, maishiy xizmatlarni 1,9 martaga, kompyuter dasturlash, turistik, savdo va ommaviy ovqatlanish xizmatlarini 2,0 martaga oshirish rejalashtirilgan. Ko'rinib turibdiki, qishloqda texnikani ta'mirlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish va shu kabi sohalarga katta e'tibor berilmoqda.

Bu davrda qishloqda infratuzilma obyektlari tomonidan fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish ahvoli va natijadorligi yuzasidan o'rnatilgan monitoring natijalariga ko'ra 2013-yilda 1641 ta muqobil MTPlar 19607 ta, 1504 ta suv iste'molchilari uyushmasi 51909 ta, 1357 ta YOMM sotish shoxobchalari 44302 ta, 915 ta mineral o'g'it sotish shoxobchalari 45006 ta, 1293 ta minibanklar 32075 ta, 341 ta konsalting va marketing xizmatlari ko'rsatish tarmoqlari 3280 ta, 346 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish shoxobchalari 13724 ta, 115 ta transport shoxobchalari 4298 ta, 143 ta tara idishlar tayyorlash va qadoqlash shoxobchalari 1550 ta, 2591 ta zooveterinariya xizmati ko'rsatish shoxobchalari 5765 ta, fermer va dehqon xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, qishloqda xizmat ko'rsatish hajmining o'sish sur'ati keyingi besh yilda jami 161,6 foizga ko'payadi. Bu, albatta, yuqori ko'rsatkich va uni izchillik bilan ta'minlash uchun salmoqli miqdordagi mablag' talab qilinadi. Shu bois mazkur yo'nalishlarda ishlarni amalga oshirish uchun respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari kreditlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, yuqorida nomi keltirilgan Dasturda qishloq joylarda yaqin istiqbolda xizmat ko'rsatish va bozor ifratuzilmalarini barpo etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilgan. Xususan, 2013-2016-yillarda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarga qo'shimcha ravishda 111 ta mini-bank, 70 ta zooveterinariya xizmati, 157 ta mineral o'g'itlar, kimyoviy preparatlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari shoxobchalari, 157 ta qishloq

1-jadval

Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma obyektlarining soni[1]

Infratuzilma obyektlari	1999-2004 y.	2005 y.	2007 y.	2009 y.	2011 y.	2013 y.
Mini-banklar	442	628	1207	1478	1462	1293
Yoqilg'i-moylash materiallar (YOMM)ni sotish shoxobchalari	514	972	1779	1757	1681	1357
Mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarini sotish shoxobchalari	471	821	891	935	917	945
Suv iste'molchilari uyushmalari (SIU)	516	867	1676	1712	1487	1504
Muqobil mashina-traktor parklari (MMTP)	579	796	1340	1389	1366	1641
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotish shoxobchalari	-	300	443	424	420	346
Zotdor mollarni sotish va zoovetcrinariya xizmatlari shoxobchalari	-	252	2180	2411	2596	2591
Axborot ta'minoti va konsalting xizmatlari shoxobchalari	-	202	295	300	318	341
Transport xizmat ko'rsatish shoxobchalari	-	-	82	82	85	115
Idishlar tayyorlash va qadoqlash shoxobchalari	-	-	78	78	78	143
Jami	**2522**	**4838**	**9971**	**10566**	**10410**	**10276**

[1] O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

xo'jaligi mahsulotlarini sotish shoxobchalarini barpo etish ko'zda tutilgan. 2013-yilda 25 ta (ushbu obyektning tashkil etilayotgan umumiy soniga nisbatan 22,5%) mini-bank, 25 ta (35,7 %) zooveterinariya xizmati, 80ta (51,0 %) mineral o'g'itlar, kimyoviy preparatlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari shoxobchalari, 70ta (44,6 %) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish shoxobchalari barpo etildi.

Davlat dasturlarida belgilangan prognoz ko'rsatkichlari va chora-tadbirlar qishloqda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, xususan, fermer xo'jaliklariga zamonaviy yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan infratuzilmalarni barpo etish hamda bozor talablariga mos, yuqori saviyada xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, va pirovardida xizmat bozorini yuksaltirishga zamin yaratib beradi.

Tahlillar idishlarni tayyorlash va qadoqlash, transport xizmatlaridan foydalangan fermer xo'jaliklari soni ko'proq ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu turdagi xizmatlarga talab yuqori, xizmat ko'rsatish esa boshqa infratuzilmalarga nisbatan yaxshi. Axborot ta'minoti va konsalting xizmati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va mineral o'g'itlarni sotish shoxobchalari xizmatidan foydalangan fermerlar soni ham nisbatan yuqori bo'lib, tegishlicha 470; 368; 132 nafarni tashkil etadi. Chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi va yiriklashuvi natijasida ushbu xizmat turlariga talab o'sib bormoqda. Unga mos ravishda iqtisodiy munosabatlar ham takomillashib borayotganligi kuzatilmoqda. Mini-banklar, SIU, YOMM sotish, zotdor mollarni sotish va zooveterinariya shoxobchalari xizmatlaridan foydalangan fermer xo'jaliklari boshqa infratuzilmalarga nisbatan son jihatdan ancha kam.

Bu davrda qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari faoliyatidagi asosiy mavjud muammolar va aniqlangan kamchiliklar quyidagilardan iborat:.

• Infratuzilma obyektlarining tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishining huquqiy asoslari, shuningdek, ularni fermer

xo'jaliklari bilan shartnoma munosabatlari takomillashtirilib borilmayotganligi sababli xo'jalik subyektlarida majburiyat va javobgarlik mas'uliyati talablarga to'liq javob bermaydi. Mazkur holat infratuzilma obyektlarining faoliyati bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlari va shartnomaviy munosabatlarini yanada takomillashtirilishni talab qiladi.

• Joylarda hisob-kitob to'g'ri tashkil etilmaganligi va bu sohada malakali kadrlarning yetarli emasligi sababli xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ayrim fermer xo'jaliklari bilan solishtirma dalolatnomalar yo'qligi, tijorat banklariga inkassa qo'yilmaganligi natijasida fermer xo'jaliklarining infratuzilma shoxobchalari oldidagi qarzlar o'z vaqtida to'lanmasligi tufayli ustama va jarimalar miqdori ko'payib ketmoqda.

• Monitoring natijalariga ko'ra, paxta va g'alla yetishtirishda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarning 4 ta asosiy tarmoq oldidagi kreditorlik qarzlari 2013-yil 1-mart holatiga 871,9 mlrd. so'mni, jumladan, "O'zneftmahsulot" 299,6 mlrd. so'm, "O'zkimyosanoat" 459 mlrd. so'm, "O'zbekenergo" 80 mlrd. so'm, "O'zagromashservis" uyushmasi korxonalaridan 32,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.

• Shuningdek, fermer xo'jaliklarining ushbu tarmoqlar oldidagi jami debitorlik qarzdorliklari 168,2 mlrd. so'mni, jumladan, "O'zneftmahsulot" 52,1 mlrd. so'm "O'zkimyosanoat" 99,7 mlrd so'm, "O'zagromashservis" 14,1 mlrd. so'm va "O'zbekenergo" kompaniyasi korxonalaridan 2,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

• Tizimli xizmatlar ko'rsatish uchun bozor va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarining o'zida erkin moliyaviy mablag'larining yetishmasligi va ular tomondan bankdan kredit olishdagi qiyinchiliklar infratuzilma obyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

• Tashkil qilingan mini banklardan 519 tasi hanuzgacha ish boshlamagan. Jumladan, Toshkent viloyatida 145 ta, Namangan viloyatida 74 ta, Buxoro viloyatida 62 ta va Jizzax viloyatida 22 ta minibankda bugungi kungacha modem aloqasi o'rnatilmagan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda istiqbolda fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma obyektlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish lozim. Bu borada birinchi Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani yana bir bor tanqidiy baholab, uni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha mablag' va imkoniyatlar topish zarur."[1] Shuni inobatga olib, qishloqda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish davlat dasturi parametrlariga tayangan holda, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni tashkil etishning optimal o'lchovini topish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mashina-traktor parki (MTP) fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi asosiy infratuzilma muassasasi hisoblanadi. Parkning tarkibi er haydash, ekish, ekinlar qator oralariga ishlov berish, hosilni yig'ishtirib olish kabi agrotexnik tadbirlarni bajarishga qodir bo'lgan texnik vositalardan iborat bo'ladi. Mazkur tashkilot bilan fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar shartnoma tuzish orqali olib boriladi. Fermer xo'jaliklariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha raqobat muhitini yaratish, ushbu tizim faoliyatini yanada jonlantirish, sifatli xizmat ko'rsatishga yo'l ochib beradi. Ammo tashkil etilgan MTPlari joylashishi talab darajasida emas. Bu ularning faoliyati samaradorligi pastligi, ya'ni shartnomada ko'rsatilgan xizmatni vaqtida va to'liq hajmda (amalda 95,4 %) bajarishini ta'minlay olmaslikda namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri tuman miqyosida MTPlar o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltiruvchi asosiy shart, ya'ni MTPlar soni va ulardagi texnika tarkibi agrotexnologik ishlar hajmiga mos kelmasligi hisoblanadi.

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – B.44.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. ASMda samaradorlikni oshirish muammolari o‘z yechimini qanday topadi?
2. Qishloq xo‘jaligidagi infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?
3. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
4. Ijtimoiy infratuzilmaning qishloq xo‘jaligi rivojlanishidagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlanishining qanday tabiiy sharoitlari mavjud?
6. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlanishining qanday iqtisodiy sharoitlari mavjud?
7. Fermer xo‘jaliklarida mehnatni tashkil etish va boshqarish qanday yo‘lga qo‘yilgan?
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq ishlab chiqarish infratuzilma korxonalarning huquqiy-iqtisodiy imkoniyatlari nimalardan tashkil topadi?
9. Bozor infratuzilmasining qishloq xo‘jaligi rivojlanishidagi ahamiyati nimalardan iborat?

4-BOB. FERMER XO‘JALIKLARI KREDIT MABLAG‘LARINING SHAKLLANISHIDA MINIBANKLARNING O‘RNI

4.1. Minibanklar faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslari

Har qanday jamiyatda iqtisodiyotni, shu jumladan, uning agrar tarmog‘ini isloh qilish iqtisodiy dastaklar oqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda moliya-kredit tizimi muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini kreditlash tizimini bozor munosabatlari talablariga mos holda takomillashtirib borishga alohida e’tibor berishni taqozo qiladi. Qishloq xo‘jaligida asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlar hisoblangan fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini kreditlash tizimini takomillashtirishda bevosita qishloq xo‘jaligi sohasining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu xo‘jalik yuritish shakllari faoliyatida yuz beradigan jarayonlarni alohida e’tiborga olish lozim.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, sohani moliyalashtirish va kreditlash tizimini bozor munosabatlariga yanada moslashtirish bo‘yicha respublika hukumati tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi moliya-kredit tizimi yaratilmoqda. Islohotlar natijasida moliya-kredit tizimiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda joylarda minibanklar ham tashkil etildi. Mini banklarning asosiy faoliyati fermerlarni va boshqa qishloq xususiy tadbirkorlarini samarali moliyalashtirish tizimini joriy etishga qaratilgandir. Shuning bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligiga kredit ajratishda banklar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish va uni kuchaytirish masalasi muammo bo‘lib turibdi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasida muhim o‘ringa ega bo‘lgan minibanklar faoliyatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston

Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" va "Bank siri to'g'risida"gi Qonunlari, amaldagi boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 2-oktabrdagi "Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2000-yil 21-martdagi "Bank tizimini isloh qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15 apreldagi "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ. 56-sonli Qarori, 2009-yil 30 martdagi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-1084-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 31martdagi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 89-sonli qarori, Agrobank Ustavi, Markaziy bank va Agrobankning me'yoriy hujjatlari tashkil etadi.

Minibanklar Agrobank ochiq aksiyadorlik tijorat bankining shoxobchasi bo'lib "Minibank" deb yuritiladi. Minibank o'z faoliyatini bank hamda o'zi bo'ysunuvchi organ bergan vakolatlar doirasida, bankka berilgan litsenziyalar asosida amalga oshiradi. Minibank – bank filiali binosidan tashqarida, lekin o'zi joylashgan viloyat, shahar, tuman hududida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasidir. Uning yuridik nomi : "Agrobank" ochiq aksiyadorlik tijorat bankining filiali (bo'limi) tarkibidagi bank shoxobchasi (minibanki) hisoblanadi. Minibank xizmatidan foydalanishga o'tish to'g'risidagi qarorni yuridik va jismoniy shaxslar mustaqil ravishda qabul qiladi.

Minibankda hisobraqami ochish istagini bildirgan yoki kredit so'rab murojaat qilgan mijozlarning arizalari minibank orqali yoxud to'g'ridan to'g'ri bank filialiga taqdim etilishi mumkin. Yuqoridagi murojaatlar belgilangan tartibda faqat minibank bo'ysunuvchi bank filiali tomonidan hal etiladi. Minibank yuridik

shaxs hisoblanmaydi. Uning majburiyatlari yuzasidan bank (filial) javob beradi. Minibankning xo'jalik faoliyati o'zi bo'ysunuvchi filial tomonidan amalga oshiriladi.

Minibank o'z nomi tushirilgan dumaloq muhr, to'rtburchak tamg'a, buxgalteriya va kassa operatsiyalarini amalga oshirishda zarur bo'lgan shtamplar hamda plombiratorlarga, o'z nomiga ega. Minibank faoliyatini ta'minlash uchun bank (filial) unga zarur bo'lgan mablag'lar va boshqa mulkni xo'jalik yuritish huquqisiz biriktirib qo'yadi. Minibank o'ziga ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda, bank (filial) tomonidan berilgan vakolatlar doirasida tasarruf etadi. Minibankning moddiy-texnika bazasi o'zi bo'ysunuvchi filial tomonidan tashkil qilinadi va ularning hisobi balansning tegishli subhisobvaraqlarida yuritiladi.

Minibank mablag'larini saqlash va u tomonidan operatsiyalar bajarilishi uchun o'zi bo'ysunuvchi filialda hisobvaraqlar hamda subhisobvaraqlar ochiladi. Aksiyadorlar, mijozlar va omonatchilarning Minibankdagi pul mablag'lari hamda boshqa mulki, jumladan omonatlari amaldagi qonunchilik va unda ko'zda tutilgan tartib asosida xatlanishi hamda olib qo'yilishi mumkin. Minibank xodimlari minibankning o'zi, o'zi bo'ysunuvchi filial, bank, mijozlari, omonatchilariga qarashli hisobvaraqlar va ular bo'yicha operatsiyalar, banklardagi mulklari to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlash shart. Barcha ma'lumot va axborotlar amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda berilishi mumkin.

Minibankning resurslari quyidagilar hisobidan tashkil topadi:

a) minibank foydasi;

b) mijozlarning mablag'lari jalb etilgan depozitlar va safarbar etilgan resurslar hisobidan;

v) bank (filial) tomonidan ajratilgan resurslar;

g) hukumatning qaroriga binoan Markaziy bank va uning muassasalari, Moliya vazirligi hamda uning tarkibida tashkil etilgan jamg'armalar, budjetdan tashqari jamg'armalar, moliya institutlari tomonidan beriladigan kredit resurslaridan.

Minibank o'zi bo'ysunuvchi filialning o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etishidan kelib chiqqan holda, bank Boshqaruvi tomonidan minibank bo'ysunuvchi filialga belgilangan kredit limitlari doirasida mavjud resurslar hisobidan, bankning kredit siyosatiga muvofiq ravishda, o'zi bo'ysunuvchi filialning ruxsati asosida kredit beradi. Minibank omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilish maqsadida quyidagi majburiyatlarga ega:

a) Minibank fuqarolardan qabul qilgan omonatlarning shartnoma shartlariga muvofiq, o'z vaqtida foizlari bilan birgalikda qaytarilishini kafolatlaydi;

b) Minibank o'z faoliyatiga oid hisobot va boshqa axborotlarni o'zi bo'ysunuvchi filialga belgilangan vaqtda taqdim etadi.

Minibank mablag'larining saqlanishi va omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi, shu jumladan, to'lovlarning bir bankdan boshqa bankka o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar hamda tashkilotlar hisobvaraqlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgar. Minibank qonunda belgilangan holatlarda va o'rnatilgan tartibda boshqa majburiyatlar hamda javobgarliklarga ega bo'lishi mumkin. Minibank bank Nizomida ko'zda tutilgan quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

a) jismoniy va yuridik shaxslarning hisob varaqlarini ochish hamda yuritish, hisob varaqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;

b) omonatlarni jalb etish;

v) kreditlarning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o'zi bo'ysunuvchi filialning ruxsati asosida o'z mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan filial nomidan kreditlar berish;

g) pul mablag'lari, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;

d) bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmatini ko'rsatish;

e) mijozlarga kassa va hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish;

j) budjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalash bo'yicha operatsiyalarni belgilangan tartibda bajarish;

z) minibank o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan, qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa operatsiyalarni bank (filial)ning ruxsati yoki farmoyishiga asosan amalga oshiradi.

Foiz stavkalari va bank operatsiyalarini bajarganlik uchun vositachilik haqi miqdorini Minibank o'zi bo'ysunuvchi filial nomidan mijoz bilan tuzilgan shartnomalar asosida hamda bankning siyosatlariga qat'iy rioya qilgan holda, bank Boshqaruvi organlari tomonidan belgilangan tartiblar va tasdiqlangan xizmat haqlari tarifiga muvofiq, o'zi bo'ysunuvchi filial bilan kelishilgan holda belgilaydi. Minibank bank operatsiyalarini amalga oshirishda o'z vakolati doirasida mustaqil qarorlar qabul qiladi va quyidagi huquqlarga ega:

a)qarz oluvchilar bilan kelishilgan holda beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini bank foydaliligini ta'minlagan holda o'z vakolati doirasida o'zi bo'ysunuvchi filial bilan kelishilgan holda belgilash;

b)mijozlar bilan tuzilgan shartnoma asosida o'tkazilayotgan operatsiyalarning foiz stavkalarini va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan haq miqdorini tizimdagi mavjud me'yoriy hujjatlarga zid bo'lmagan holda yuritish;

v)kredit shartnomasida ko'zda tutilgan majburiyatlar buzilganda bundan keyin kredit berishni to'xtatish, berilgan kredit summalarini muddatidan avval undirib olish;

g)bank nomidan minibank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarni o'zi bo'ysunuvchi filial tomonidan tuzilishida qatnashish.

Minibank tomonidan olingan yillik foyda o'zi bo'ysunuvchi filial foydasiga qo'shiladi va bank Kengashi (aksiyadorlar umumiy yig'ilishi)ning qaroriga muvofiq belgilangan tartibda taqsimlanadi. Minibankning daromad va xarajatlari hisobini yuritish maqsadida har bir daromad hamda xarajat turi bo'yicha o'zi bo'ysunuvchi fili-

alda subhisobvaraqlar ochiladi. Minibank o'z moliyaviy xo'jalik faoliyatini o'rnatilgan tartibda o'zi bo'ysunuvchi filial tomonidan tasdiqlangan moliya yili Biznes rejasi va Byudjetida belgilangan prognoz parametrlari asosida yuritadi. Minibank Biznes rejasi va buudjetiga qo'shimcha o'zgartirishlar o'zi bo'ysunuvchi filialning farmoyishi (buyrug'i) asosida kiritiladi. Minibank budjetida belgilangan xarajatlardan tashqari boshqa to'lovlar o'rnatilgan tartib asosida amalga oshiriladi. Minibank foydasi o'z faoliyatining hamma turlaridan olingan daromadlardan barcha operatsion xarajatlar, xususan, mehnatga haq to'lash (mukofotlashni hisobga olganda), moddiy va boshqa xarajatlar o'tkazilgandan so'ng tashkil topadi.

Minibank faoliyatiga minibank mudiri bevosita rahbarlik qiladi, u minibankning bank operatsiyalarini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'rnatilgan tartibda bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi. Minibank mudiri o'z faoliyatini o'zi bo'ysunuvchi filial tomonidan o'rnatilgan tartibda (buyruq asosida) berilgan vakolatlar asosida yuritadi. Minibank mudiri o'zi bo'ysunuvchi filial bilan kelishilgan holda viloyat boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i asosida tayinlanadi.

Minibankda buxgalteriya hisobi va hisob-kitoblarni yuritish O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 11-iyulda 1834-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"da belgilangan tartib, Markaziy bankning boshqa me'yoriy hujjatlari, bankning buxgalteriya siyosati hamda bank tomonidan buxgalteriya ishini tashkil etishga doir qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar va qoidalarga muvofiq tashkil etiladi. Bank filiali o'z tarkibida bo'lgan minibanklarda buxgalteriya ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi va bank operatsiyalarining aniq hamda o'z vaqtida bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatishi lozim. Minibank mijozlarga bank filiali nomidan

xizmat ko‘rsatadi, biroq faoliyati yuzasidan buxgalteriya hisobi va hisoboti o‘zi bo‘ysunuvchi bank filiali bo‘yicha yagona tarzda yuritiladi. Minibankning yakuniy faoliyati oylik, chorak va yillik hisobotlarida, uning daromadlari hamda xarajatlari bank tomonidan belgilangan hajm va muddatda o‘zi bo‘ysunuvchi filialga topshiriladigan hisobotlarda aks etadi.

Bankning ichki audit xizmati xodimlari minibank faoliyatini auditdan o‘tkazadi. Bunday taftishni, shuningdek, minibankni bevosita taftish qilish yoki tekshirishni bank boshqaruvi, bankning viloyat boshqarmasi yoxud o‘zi bo‘ysunuvchi filial tomonidan tuziladigan komissiya ham o‘tkazishi mumkin. Minibankni taftish qilish va tekshiruvlar o‘tkazish tartibi amaldagi me’yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Minibank faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli idoralar tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq tekshirilishi mumkin.

Minibank faoliyatining tugatilishi bankning tegishli filiali va viloyat boshqarmasining taklif hamda xulosalariga muvofiq bank boshqaruvining qarori bilan amalga oshiriladi. Minibankni tugatish ishlarini bankning tegishli viloyat boshqarmasi tomonidan tayinlangan maxsus komissiya bajaradi.

4.2.Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga bo‘lg‘usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli “2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli “2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qa-

roriga muvofiq, fermer xo'jaliklarni minibanklar tomonidan kreditlashning ikki turi imtiyozli va tijorat usuli qo'llanilib kelmoqda.

Fermer xo'jaliklarni minibanklar tomonidan kreditlashning imtiyozli usuli Markaziy bank boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 563-sonli qarori bilan ishlab chiqilgan bo'lib, tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit (keyingi o'rinlarda - kredit) berish tartibi va shu bilan birga Markaziy bank Boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 564-son qarori bilan tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasini garovga olgan holda kreditlash tartibi ishlab chiqilgan. Bunda yer uchastkasini ijaraga berish muddati kredit shartnomasida belgilangan, ta'minlanishi uchun u garovga qo'yilayotgan kreditni qaytarish muddatidan kamida besh yilga ko'p bo'lishi kerak. Biroq amaliyotda bugungi kunda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga imtiyozli bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit (keyingi o'rinlarda - kredit) berish tartibi qo'llanilib kelinmoqda.

Fermer xo'jaliklarini minibanklar tomonidan kreditlashning tijorat usuli Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-son qaroriga asosan yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit berish qoidalari ishlab chiqilgan.

Kreditlar davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga qaytarish, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi. Davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirib bermaydigan fermer xo'jaliklarini kreditlash Markaziy bankning "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklari, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash Tartibi" (2000-yil 7-mart, ro'yxat raqami 907-son - Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 2000 y., 5-son) asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma)

kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklariga g'alla yetishtirish uchun "O'zdonmahsulot" tayyorlov korxonalari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi summasining 30 foizigacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga kontraktatsiya shartnomasi summasining 80 foizigacha miqdorida kredit berilishi mumkin.

Jamg'arma kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan paxta xom ashyosi yetishtiradigan fermer xo'jaliklariga ushbu kredit kontraktatsiya shartnomasi summasining 20 foizgacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga beriladigan kredit miqdori kontraktatsiya shartnomasi summasining 70 foizigacha miqdorda beriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank boshqaruvi-ning 2011-yil 7-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi" 1675-1-son qaroriga asosan "Paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish u-chun hosil yetishtirilayotgan yilning 1-apreliga qadar paxta xom ashyosi qiymatining 25%gacha, 1-iyulga qadar 50% gacha va 1-sentabrga qadar 60%gacha; g'alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil etishtirilayotgan yilning 1 yanvariga qadar g'alla xom ashyosi qiymatining 30%gacha, 1 aprelga qadar 50% gacha va 1 iyunga qadar 60%gacha kreditlash tartibi ishlab chiqildi

Kreditlar belgilangan shartlar asosida kreditni qaytarishga qodir bo'lgan qarz oluvchilarga shartnoma asosida 1,5 yilgacha (18 oy) bo'lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i joylashgan manzil bo'yicha beriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi. Tijorat banklari ushbu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkalari belgilash borasida qaror qabul

qilish huquqiga ega. (O‘zR AV 30.04.2005 y. 1337-1-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MBB Qarori tahriridagi xat boshi). Kreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- qishloq xo‘jaligi texnikasi, ehtiyot qismlar va uskunalarni xarid qilish;
- yonilg‘i-moylash materiallarini xarid qilish;
- mineral o‘g‘it, o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari, veterinariya dori-darmonlari sotib olish;
- MTP, muqobil MTP, SIU (Suv iste’molchilari uyushmasi), boshqa xo‘jalik subyektlari xizmatlaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar;
- g‘alla hosilini o‘rish va paxta xom ashyosi yig‘im-terimi xarajatlari uchun to‘lovlar; bevosita g‘alla va paxta xom ashyosi ishlab ch arish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar uchun.
- Kredit olish uchun fermer xo‘jaligi uning asosiy depozit hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim:
- kredit olish uchun ariza;
- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari;
- pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko‘rsatilgan biznes-reja;
- oxirgi hisobot sanasiga Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma’lumotnoma (2a-shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl).
- kreditni qaytarish ta’minoti.

Olinadigan kreditning qaytarish ta’minoti sifatida qarz oluvchi bankka o‘ziga uzoq muddatga ijaraga berilgan yerdan joriy yilda olinadigan bo‘lg‘usi hosil belgilanadi. Bunda bank va fermer xo‘jaligi o‘rtasida bo‘lajak hosilning garovi shartnomasi imzolanadi. Shartnomada garovga qo‘yilgan hosilni “O‘zdonmahsulot” va “Paxtasanoat” tayyorlov korxonalariga va boshqa xo‘jalik

subyektlariga sotishdan tushgan barcha pul mablag'lari, birinchi navbatda, ushbu kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashga yo'naltirilishi to'g'risidagi shartlar belgilab qo'yiladi. Shuningdek, garov shartnomasiga fermer xo'jaligi tomonidan bo'lg'usi hosilni kredit bergan bank-benefitsiar foydasiga ixtiyoriy sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisini ilova etishi shart.

Kredit so'rab, barcha zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, berilgan ariza bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu ariza bo'yicha bank tomonidan kredit berish yoki rad qilish haqida xulosa berish muddati 10 ish kunidan oshmasligi lozim. Kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng kredit bo'limi boshlig'i (xodimi), beriladigan kreditning miqdori, muddati va foiz stavkasini ko'rsatgan holda, ssuda hisobvarag'ini ochish to'g'risida buxgalteriyaga farmoyish beradi.

Fermer xo'jaliklariga boshlang'ich (dastlabki) kapitalni shakllantirish uchun tijorat kreditlar yakka tartibdagi tadbirkorlarga, kichik biznes subyektlariga tijorat banklari tomonidan budjetdan tashqari fondlarning kredit liniyalari hisobidan kreditlar berish tartibi to'g'risidagi Nizomda (Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 3-oktabrda 1074-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) belgilangan tartibda beriladi.

Fermer xo'jaliklari boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun kreditlar olgandan keyin o'zining biznes-rejasini mablag' bilan ta'minlashga kredit olish yuzasidan o'zlariga xizmat ko'rsatuvchi bankka murojaat qilishga haqlidir. Tijorat banklari tijorat kreditlarni fermerlarga shartnoma asosida 3 yilgacha muddatga beradi. Kreditlar mijozning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami joylashgan joyda beriladi. Tijorat kreditlar fermerlarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

• qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, urug'lik, mol, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak, omixta yem, ko'chatlar, veterinariya preparatlari, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari sotib olish;

• xomashyo va materiallarga dastlabki ishlov berish;
• mehnat qurollari, xomashyo sotib olish;
• kichik asbob-anjomlar sotib olish;
• kichik hajmli ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlarini amalga oshirish.

Tijorat kreditlari:

• ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni uzish;
• tamakichilik va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish;
• savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
• ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilmaydigan shaxsiy mol-mulk sotib olish maqsadlari uchun berilmaydi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori qarz oluvchi va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuv bo'yicha kredit shartnomasi asosida belgilanadi. Qarz oluvchi fermerlar tijorat kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

• kredit olish uchun kredit buyurtmanomasi;
• pul oqimi tahlili ko'rsatilgan holdagi biznes-reja;
• o'z faoliyatini uch oydan ortiq amalga oshirayotgan fermer xo'jaliklari, shuningdek, oxirgi hisobot davri uchun davlat soliq xizmati mahalliy (tuman) organi tasdiqlagan buxgalteriya balansi (1-shakl)ni hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma (2a-shakl)ni ham taqdim etadi.

Qarz oluvchi to'lamaslik xavfini bartaraf etish maqsadida kreditni qaytarishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, ta'minlay olish unga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Quyidagilar kreditning qaytarilishini ta'minlovchi bo'lib xizmat qilishi mumkin:

• sug'urta tashkilotining kafolatnomasi;
• bank kreditlari fermer xo'jaliklari tomonidan qaytarilmasligi xavfini olinadigan kredit summasining 50 foizi miqdorida majburiy sug'urta qilish hamda hosil va mol-mulkning 50 foizi ixtiyoriy sug'urta qilinganligi to'g'risida sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi.

"O'zagrosug'urta" kompaniyasi va boshqa sug'urta tashkilotlariga qishloq xo'jaligi ekinlari hosilining nobud bo'lishi xavfini yoki fermer xo'jaliklarining boshqa faoliyatini sug'urta qilish asosida tijorat kredit qaytarilishi haqida kafolatnomani tijorat banklariga taqdim etish tavsiya qilinadi. Ushbu kredit buyurtmanomasi (arizasi) bo'yicha bank xulosasini berish muddati kredit olish uchun buyurtmanoma ushbu Qoidalarning 9-bandida ko'rsatilgan zarur hujjatlar ilova qilingan holda bankka tushgan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

4.3. Minibanklarda fermer xo'jaliklariga kreditlarni berish, hisobini yuritish va kreditni qaytarish tartibi

Bank va fermer xo'jaligi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanib, u amalga kiritilganidan keyin, bank fermer xo'jaligi uchun alohida ssuda hisobvarag'ini ochadi va undan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida faqat naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan beriladi. Bunda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish xarajatlarining har bir turini moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlarning eng ko'p miqdorini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan har yilgi hosil uchun tasdiqlangan agrotexkartalardan kelib chiqqan holda belgilash tavsiya etiladi. (O'zR AV 30.04.2005 y. 1337-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB Qarori tahriridagi xatboshi). Berilgan kreditlar 14301 - "Xususiy korxonalarga, shirkatlar va korporatsiyalarga berilgan o'rta muddatli ssudalar" balans hisobvarag'ida hisobga olinadi. Alohida ssuda hisobvaraqlari bo'yicha berilgan kreditlar bo'yicha muddatli majburiyatnomalar rasmiylashtiriladi va ular kredit bo'limi xodimining farmoyishiga ko'ra kredit to'la qaytarilguniga qadar 91903 - "Qarz oluvchilarning o'rta muddatli ssudalar bo'yicha majburiyatlari" nomli, ko'zda tutilmagan sharoitlar hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi va u qarz oluvchi tomonidan uning loyihasi va kredit shartnomasi shartlarining amalga oshirilishiga har tomonlama ko'maklashishga qaratilgan bo'lishi lozim. Banklar tomonidan monitoring amalga oshirilish tartibi, berilgan kreditlar boshqa maqsadlarda ishlatilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Monitoring jarayonida fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilayotgan ekinlar holati va ularni parvarishlash bo'yicha zarur agrotexnika ishlarining o'tkazilishi va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanish bo'yicha joylarga borib o'rganishlar o'tkazib turiladi. Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan, agrotexnika tadbirlarining muddatida amalga oshirilmasligi, ekin maydonini begona o'tlar bosib ketgani, sug'orilmaganlik natijasida ekinlarni nobud bo'lish xavfi vujudga kelgani va shunga o'xshash holatlar sababli yetarli hosil to'planmasligi xavfi vujudga kelsa, bank kreditlashni to'xtatadi hamda berilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirib oladi. Ushbu holatlar kredit shartnomasida kelishib olingan bo'lishi lozim.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ularni undirish oyda bir marta, kredit shartnomasida kelishilgan sanada amalga oshiriladi. Olingan kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning qoldig'i va asosiy qarz to'lovi qarz oluvchining maxsus 23210, 23220-sonli hisobvaraqlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda hisoblangan foizlar kredit bo'yicha qarzdan oldin undirib olinadi. Fermer xo'jaliklari kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatdan oldin qaytarish huquqiga ega.

Qarzdorning 23210, 23220-sonli maxsus hisobvarag'idagi mablag'lar olingan kredit va unga hisoblangan foizlarni to'lash

uchun yetarli bo'lmagan taqdirda foizlar va kredit qoldig'ini undirish qarzdorning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida mavjud mablag'lar hisobidan qonunchilikda belgilangan navbat tartibida amalga oshiriladi. Bunda hisoblangan foizlar va kredit qoldig'i muddati o'tgan ssudalar hisobvarag'i orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa 2-kartotekaga joylashtiriladi

Qarzdorning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida hisoblangan foizlar va kredit qoldig'ini undirish uchun mablag'lar etarli bo'lmagan taqdirda, bank qarzdorning muddatli majburiyatnomasi asosida uning barcha ikkilamchi depozit hisobvaraqlari ochilgan banklarga ushbu hisobvaraqlarda mavjud pul mablag'larini asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazib berishni so'rab yozma talab yo'llaydi. Qarzdorning ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i ochilgan banklar kreditor bankning ushbu talabini Fuqarolik kodeksining 784-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda, memorial order bilan ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i egasining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart. Bunda qarzdorning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar hisobidan foizlar va kredit qoldig'i "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan o'chirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomada (1999-yil 30 yanvar, ro'yxat raqami 615-son) belgilangan kalendar navbati tartibida undiriladi. Bunda foizlar kreditdan oldin qaytariladi.

Agar qarzdor tomonidan yetishtirilgan hosilni sotishdan tushgan mablag'lar va uning talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari bank krediti va hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga yetarli bo'lmagan taqdirda, bank bo'lg'usi hosilni sug'urtasi to'lovidan olingan mablag'larni kreditni va hisoblangan foizlar to'lovini amalga oshirishga yo'naltiradi.

Hosilni sotish hamda sug'urta to'lovlaridan tushgan mablag'lar hisoblangan foizlar va kreditni qaytarishga etmagan taqdirda bank tomonidan kredit va hisoblangan foiz qoldig'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabridagi 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi"da belgilangan tartibda undirib olinadi.

Fermer xo'jaliklarga tijorat kreditlar mijozning talab qilib olinadigan depozit hisob raqami joylashgan joyda beriladi. Tijorat kreditlar alohida ssuda hisob raqami ochish va fermer xo'jaligining asosiy faoliyati bilan bog'liq tovar-moddiy boyliklar, asbob-uskunalar va boshqa xizmatlar uchun qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalarini to'lash yo'li bilan naqd pulsiz beriladi. Tijorat kreditni qaytarish muddatlari jadval tarzida taqdim etilishi mumkin, jadvalda kreditni pul oqimlari tushishi istiqboliga ko'ra bir nechta bosqichda qaytarish nazarda tutiladi.

Tijorat kredit uchun foizlarni to'lash yetishtirilgan hosilni sotishdan pul mablag'lari tushishiga qarab, biroq kredit berilgan kundan boshlab kamida 6 oydan keyin amalga oshirilishi mumkin. Tijorat kreditni qaytarish muddati boshlanganda va qarz oluvchida pul mablag'lari mavjud bo'lmaganda kredit kafolat beruvchi (sug'urtalovchi)ning talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan undirib olishga taqdim etiladi. Sug'urta holati boshlanganda "O'zagrosug'urta" kompaniyasining hududiy bo'limlari va boshqa sug'urta tashkilotlari tijorat banki talabiga ko'ra sug'urta summasini mazkur kredit bo'yicha foizlarni va asosiy qarzni to'lashga o'tkazishga majbur.

Tijorat banklari tijorat kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoringni amalga oshiradi va u qarz oluvchining buyurtmanomasi hamda kredit shartnomasi shartlarini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashishga yo'naltirilishi kerak. Monitoring jarayonida bank joylarda kreditdan samarali va

maqsadli foydalanilishini tekshiradi. Tijorat banklari tijorat kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmayotgan qarz oluvchilarga nisbatan:

- kredit berishni vaqtinchalik to'xtatib turishga yoki to'liq to'xtatib qo'yishga;
- berilgan kredit bo'yicha qarzning butun summasini muddatidan oldin undirib olishga haqlidir.

Berilgan tijorat kreditlardan maqsadli foydalanmaslik hollari aniqlangan taqdirda bank kreditning belgilanmagan maqsadda foydalanilgan qismini qarz oluvchining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamidan muddatidan oldin, kredit shartnomasida belgilangan tartibda undirib olish huquqiga egadir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki funksiyalarini aytib bering.
2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari qanday kreditlar beradi?
3. Banklarning kredit munosabatlarida vositachilik qilish funksiyasi tushuntiring.
4. Minibanklar faoliyatining tashkiliy va iqtisodiy asosi nima?
5. Fermer xo'jaliklariga moliyaviy kreditning zarurligini asoslab bering.
6. Fermer xo'jaliklariga beriladigan tijorat krediti nima?
7. Minibanklar tomonidan fermer xo'jaliklariga kredit berish mexanizmini tushuntirib bering.
8. Minibanklar bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida kredit shartnomasi qanday tuziladi?
9. Fermer xo'jaliklari tomonidan olingan kreditning minibanklarga qaytishini qanday kafolatlash tizimiga ega?
10. Qishloq xo'jaligida lizing munosabatlari qanday tartibda shakllanadi?

5-BOB . FERMER XO‘JALIKLARIDA MINERAL O‘G‘ITLAR TA’MINOTI VA O‘SIMLIKLARNI HIMOYA QILISH

5.1. Kimyo korxonalaridan fermer xo‘jaliklariga mineral o‘g‘itlarni yetkazib berishni tizimli tashkil etish

Qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlantirishning yetakchi omillaridan biri qishloq xo‘jaligini kimyolashtirishdir. Agrokimyoviy intensiv omillar tarkibida mineral o‘g‘itlarning qo‘llanilishi o‘simliklarning hosildorligini oshirishda alohida ahamiyatga egadir. Mineral o‘g‘itlarning me’yorida va texnologik jarayonda o‘z vaqtida qo‘llanishi hosilga hosil qo‘shish imkoniyatini oshiradi.

Respublikamizda “O‘zkimyosanoat” kompaniyasi tizimidagi kimyo korxonalarida ishlab chiqilgan mineral o‘g‘itlarni joylardagi “Qishloqxo‘jalikkimyo” korxonalari filiallari tomonidan fermerlarning dalasiga to‘liq tashib borib va ularni sepib berishgacha bo‘lgan tadbirlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yilning 23-yanvaridagi “Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyo xizmati ko‘rsatishini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 33-sonli qarori asosida tashkil etadi.

Ushbu qarorda g‘alla va paxta maydonlarini hokimliklar tomonidan tasdiqlangan ekinlarni joylashtirish rejasiga asosan, belgilangan me’yor bo‘yicha agrotexnik muddatlarda o‘g‘itlash uchun fermer xo‘jaliklarining talabnomalariga muvofiq amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan mineral o‘g‘itlarni “fermer xo‘jaliklari qo‘liga bermasdan” texnika vositalari ishini otryad usulida tashkil etib, bevosita ekin maydonlariga qadar tashib borib, shu kunning o‘zidayoq sepib berishni tizimli tashkillashtirib va ish yakunida tegishli hujjatlarni joyida rasmiylashtirish asosiy ustuvor yo‘nalish deb qabul qilingan.

Kompaniya tizimidagi kimyo korxonalarida 3 turdagi mineral o‘g‘itlar, jumladan, azotli o‘g‘itlar “Navoiyazot”, “Maksam-

Chirchiq" va "Farg'onaazot" ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida, fosforli o'g'itlar "Ammofos-Maksam", "Samarqandkimyo" va "Qo'qon SFZ" ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida, kaliyli o'g'itlar esa Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodida ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligiga mineral o'g'itlar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi "Qishloqxo'jalikkimyo" jamiyatlari tomonidan yetkazib berilishi yo'lga qo'yilgan.

"Qishloqxo'jalikkimyo" jamiyatlari tarkibida davlat buyurtmasidagi ekinlar ta'minoti bo'yicha 139 ta filial, ularning 936 tasi mineral o'g'itlar tarqatish shoxobchalari, davlat buyurtmasidan tashqari ekinlar va shaxsiy tomorqa xo'jaliklari ta'minoti bo'yicha 13 ta maxsus baza hamda ularning 466 ta chakana savdo do'konlari mavjud. Ma'lumki, kimyo korxonalaridan qishloq xo'jaligiga mineral o'g'itlarni yetkazib berish jarayoni amaldagi qonun hujjatlari va boshqa quyidagi asosiy me'yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi, jumladan :

-Vazirlar Mahkamasining 2004-yilning 23-yanvaridagi "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishini yaxshilash chora- tadbirlari to'g'risida" gi 33- sonli qarori;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili qabul qilinadigan "Qishloq xo'jaligini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash chora- tadbirlari to'g'risida" gi qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2004-yilning 30-aprelidagi «Ammiakli selitrani ishlab chiqarish, tashish va sotishni nazorat qilishga doir chora- tadbirlar to'g'risida» gi 204-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi IIV, «O'zkimyosanoat» DAK va «O'zbekiston temir yo'llari» DATK tomonidan 2004-yilning 4-iyunida tasdiqlangan «Ammiakli selitrani ishlab chiqaradigan Kimyo korxonalaridan «Qishloqxo'jalikkimyo» HAJ omborlari, hamda ishlab chiqarishda ishlatadigan korxonalargacha va eksportga tashib borish bo'yicha maxsus tartib»i va tartibga 2007-yilda kiritilgan 1- sonli qo'shimcha qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi IIV va «O‘zkimyosanoat» DAK tomonidan 2004-yilning 27-yunida tasdiqlangan «Ammiakli selitra saqlanadigan omborlarni tashkil etish va jihozlash bo‘yicha talablar»;

- yuqoridagi qarorlarga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2006-yilning 13 fevralida tasdiklangan 03-26-53 sonli «Chegara tumanlarida mineral o‘g‘itlarni yetkazib berish davrida ularning respublikadan noqonuniy olib chiqib ketilishini oldini olish, tashish, saqlash va ishlatishda nazoratni kuchaytirishga qaratilgan qo‘shimcha chora- tadbirlar Dastur»i;

- Adliya vazirligida 2005-yilning 14-fevralida 1451-sonli ro‘yxatga olingan «Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga ammiakli selitrani yetkazib berish shartnomalarini tuzish, saqlash va berish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomi;

- Vazirlar Mahkamasining 2011-yilning 26-iyunidagi 185 -sonli «Mahsulotlarning monopol turlarini tovar -xomashyo birjasi orqali sotish ro‘yxatini yanada kengaytirish va hajmlarini ko‘paytirish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.



8-Rasm. "Qishloqxo‘jalikkimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatining tumanlararo filial korxonasining namunaviy tuzilmasi

Mazkur tizimda kimyo korxonalari "Qishloqxo'jalikkimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining tuman (tumanlararo) filiallari bazalarini kompaniya Boshqaruvining 2009-yil 2-noyabridagi 253-sonli buyrug'iga muvofiq o'rnatilgan tartibda shartnomalar asosida ijaraga oladi va ushbu ijara bazalarida mineral o'g'itlar zaxirasini yaratishi belgilab qo'yiladi. Unda xodimlarning cheklangan umumiy soni -13-15 kishi va shu jumladan: boshqaruv xodimlari – 10, 12 kishini tashkil etadi. Ijara baza kimyo korxonasining ombori hisoblanadi, kimyo korxonasi tomonidan ushbu bazaga muhr va burchak shtampi beriladi.

Ijara bazada amaldagi qonunlar talablariga muvofiq baza boshlig'i, tovarshunos, hisobchi - iqtisodchi va ombor mudiri lavozimlari tashkil etiladi. Ushbu lavozimlarga kimyo korxonasi tomonidan malakali mutaxassislar ishga qabul qilinadi va ular bilan moddiy javobgar shaxs to'g'risida shartnoma imzolanadi. Ijara baza kimyo korxonasining ombori hisoblanadi, kimyo korxonasi tomonidan ushbu bazaga muhr va burchak shtampi beriladi. Baza boshlig'i - umumiy nazorat, moddiy javobgar shaxs hisoblanadi. Tovarshunos - kirim-chiqim bo'yicha omborchi tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlarga imzo qo'yadi, moddiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Omborchi mineral o'g'itlarni chiqim qilgandan so'ng taqdim etgan hujjatlarning to'g'riligini tahlil qilib, (barcha hujjatlarni solishtirib) miqdor va summani ko'rsatgan holda hisobot yuritadi. U moddiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Ombor mudiri - *temir yo'ldan vagonlarni qabul qilish - topshirish, vagon plombasini tekshirish, yukning to'liqligiga amin bo'lish, yukni vagondan tushirib olish va omborga kiritishni tashkillashtirish, kirim daftariga qayd etish, tax uruvchi bilan o'g'itlarning tezkor qoldig'ini aniqlaydigan va KMK 2.0911-97 me'yorlariga mos holda joylashtirish - taxlashni tashkil etadi, ombordan mineral o'g'itlarni (yuk xatida ko'rsatilgan miqdorda) transport vositasiga yuklab, tarozidan o'tkazib, chiqim hujjatlarini qayd etish kitobiga haqiqiy miqdorini qayd etib chiqaradi.*

Tax uruvchi - ijara baza omboriga mineral o'g'itlarni joylashtirish, tax urish va ombordan chiqarish davrida transport vositasiga sanash imkoniyatini hisobga olgan holda yuklashni tashkil etish, ishchilarni samarali va texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qiladi.

Doimiy va mavsumiy ishchilar - tax uruvchi topshirig'iga muvofiq, mineral o'g'itlarni vagondan tushirib olish, omborlarga joylashtirish va ombordan transport vositasiga yuklab berish ishlarini amalga oshiradi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan, to'la xo'jalik hisobida o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash va o'zini-o'zi qoplash tamoyili asosida o'zini-o'zi boshqaradi va faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda nizomga asoslanib faoliyat yuritadi. Korxona huquqiy shaxs hisoblanadi va o'z nomidan shartnomalar tuzish, mulk sotib olish, mulki asosida majburiyat qabul qilish, barcha sudlarda davogar va javobgar bo'lib ishtirok etadi. U o'z hisob raqami O'zbekiston Respublikasi gerbli muhri va burchak tamg'asiga ega bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy mamlakatlarda tashkil qilish huquqiga egadir. Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fermer va dehqon xo'jaliklarini shartnoma asosida mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy biologik vositalari hamda qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun boshqa kimyoviy vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlash;
- mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalaridan maqsadli va samarali foydalanishni, shuningdek, ularning saqlanishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- mineral o'g'itlar hamda o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini yetkazib beruvchilar va ularning qishloq

xo'jaligidagi iste'molchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish;

• qishloq xo'jaligi uchun keltirilgan mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari sifati ustidan nazoratni tashkil qilish;

• Belgilangan tartibda dehqon, fermer xo'jaliklari va boshqa davlat buyurtmasi bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchilarni mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish, kimyoviy va biologik vositalar bilan ta'minlaydi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasining maqsadi shoxobchalar faoliyatini shakllantirishda ishtirok yetish, xo'jalik faoliyati hisobida mulk shaklidan qa'ti nazar davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bilan shug'ullanayotgan barcha toifadagi korxonalar, tashkilotlarga mineral o'g'itlar, kimyoviy mahsulotlarni shartnomalar asosida yetkazib berish va xizmat ko'rsatishdan iborat.

«Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasining maxsus baza filiallari davlat buyurtmasidan tashqari ekinlar ekuvchi aholi va tomorqa egalarini mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida aholiga pullik xizmat ko'rsatishi, shoxobchalar hamda o'z do'konlarini tashkil etish huquqiga ega. O'z texnikalari bilan aholiga pullik xizmat ko'rsatadi, ulgurji va chakana savdo shoxobchalarini tashkil etadi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasi o'z shoxobchalarini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasidagi qonunlarda taqiqlanmagan barcha turdagi faoliyatidan keladigan foydadan milliy valyuta jamg'armalarini tashkil etadi. Marketingga oid ishlar o'tkazadi, kredit olib o'z maqsad yo'lida harakat qiladi. Barcha moliyaviy operatsiyalardan tushgan foydadan kredit berish huquqiga ega. O'ziga tegishli barcha mulk qiymati majburiyatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilash mumkin bo'lgan jazoga mustaqil javob beradi.

«Qishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik jamiyatining tavsiyasiga asosan, tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasi

boshlig'i tavsiyasi bilan tayinlanadi. Rahbar o'z vakolati doirasiga muvofiq harakat qiladi va har oyda o'z faoliyati to'g'risida «Qishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik birlashmasiga hisobot topshiradi, tegishli so'rovlarga to'liq va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasining boshlig'i korxonaning kundalik ish faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalarni o'zi hal qiladi. Shu jumladan, uning manfaatlarini ifoda etadi, shartnomalar tuzadi, shtat jadvalini viloyat birlashmasiga taqdim etadi, Korxonaning barcha xodimlari uchun esa bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Umumiy yig'ilish va majlislarni o'tkazish korxona boshlig'i tomonidan tashkil etiladi.

Korxona xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish mehnatga haq to'lash miqdori, xodimlarni moddiy rag'batlantirish, mukofotlarni berish masalasini filial boshlig'i jamoa shartnomasi hamda yakka tartibdagi mehnat shartnomasi orqali tartibga soladi. Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasining umumiy yig'ilishi qarori bilan ustav fondining miqdorini o'zgartirishi (ko'paytirishi, kamaytirishi) mumkin. Filialning ustav fondi tadbirkorlik va boshqa olinadigan foyda hisobidan ko'paytiriladi. Korxona quyidagi holatlarda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi:

«Qishloqxo'jalikkimyo» davlat aksiyadorlik jamiyati va tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filialining kelishuviga ko'ra;
O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan ta'qiqlab quyilgan faoliyatni amalga oshirgan taqdirda, sudning qaroriga muvofiq.

• Korxonani tugatish bo'yicha xo'jalik sudida bankrot deb e'lon qilganda, tugatish komissiyasi tayinlanadi, tugatish tartibi va muddati belgilanadi.

• Tugatish komissiyasi tayinlangan vaqtdan boshlab korxona faoliyatini boshqarish vakolati unga o'tadi. Tugatish komissiyasi

filial joylashgan joydagi matbuot organida uning tugatilganligi hamda kreditorlarning da'volarini kiritish tartibi va muddatlari to'g'risida e'lon beradi. E'lon ikki oy oldin berilgan bo'lishi kerak.

• Tugatish komissiyasi filialning mavjud mulkini baholaydi, uning kreditorlar va debitorlarini aniqlaydi, ular bilan hisob-kitob qiladi, filialning uchinchi shaxslar oldidagi qarzlarini to'lash choralarini ko'radi, shuningdek, oraliq tugatish balansini tuzadi va uni «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatiga taqdim etadi.

• Kreditor va budjet oldidagi majburiy to'lovlar bo'yicha hisob kitob qilingandan so'ng tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi va uni «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatiga taqdim etadi.

Tugatish to'g'risidagi davlat ro'yxatiga olish reestiriga tegishli yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab tugatish yakunlangan korxona esa tugatilgan hisoblanadi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiali baza omborlarida moddiy tovar boyliklarni, barcha turdagi mineral o'g'itlarni qo'riqlash uchun viloyatlar IIB huzuridagi "Qo'riqlash" bo'limlari bilan shartnomalar tuzadi va mablag'lar to'lovini amalga oshiradi.

Mazkur baza omborlariga mineral o'g'itlarni vagonlardan tushi-rib olish, o'g'itlarni omborlarga joylashtirish va sifatli saqlash, xavfsizlik texnikasi va yongin xavfidan muhofaza qilish, umuman olganda, mineral o'g'itlarning baza hududidagi harakati bilan bog'liq barcha jarayonlarning tashkil etilishida, xarajatlarni qoplash filial tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur tizimda yuqoridagi qarorlar, nizomlar va chora-tadbirlarda belgilangan tartiblarning bajarilishini ta'minlash, mineral o'g'itlarni bazalardan fermer xo'jaliklarining ekin maydonlariga qadar tashib borib, shu kunning o'zidayoq sepib berish ishlarini tashkil etish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonalari zimmasiga yuklatilgan.

5.2. Mineral o‘g‘itlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzish va zaxiraga jamg‘arishni tashkil etish

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan “Qishloqxo‘jalikkimyo” OAJ hududiy tumanlararo filiallari mineral o‘g‘itlarni tashish uchun o‘z transportlari, qadoqlash korxonalari hamda to‘lato‘kis ishlaydigan chakana savdo magazinlari ham shakllanib bormoqda. Hududiy tumanlararo filial korxonalari mineral o‘g‘itlarni fermer xo‘jaliklarining bevosita ekin maydonlariga qadar tashib borib, shu kunning o‘zidayoq sepib berish ishlarini tashkil etadi.

“Qishloqxo‘jalikkimyo” OAJ hududiy tumanlararo filiallari bazalaridan fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlariga qadar tashib borib, shu kunning o‘zidayoq sepib berish ishlarini tashkil etish va bajarish bo‘yicha shartnomalarning tuzilishi va joylarda o‘g‘it zaxirasining yaratilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yilning 4-sentabridagi 383-sonli “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlar takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora - tadbirlari to‘grisida” gi, 2004-yilning 5-fevralidagi 57-sonli “Mahsulotlar, xom ashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to‘g‘risida” gi qarori bilan tasdiqlangan “Moddiy - texnika resurslari strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to‘g‘risidagi Nizom” va 2011-yilning 26-iyunidagi 185-sonli “Mahsulotlarning monopol turlarini tovar - xomashyo birjasi orqali sotish ro‘yxatini yanada kengaytirish va hajmlarini ko‘paytirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan har yili tasdiqlanadigan «Mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish va taqsimlash balansi»ga muvofiq, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan «O‘zkimyosanoat» DAK bilan kelishilgan holda qishloq xo‘jaligiga yetkazib beriladigan mineral o‘g‘itlarning ekin turlari bo‘yicha taqsimoti viloyatlar kesimida ishlab chi-

qilib, tasdiqlanadi. Tasdiqlangan balans va taqsimotga muvofiq, «O'zkimyosanoat» DAK tomonidan:

a) kimyo korxonalarida mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish va viloyatlar kesimida ta'minotni yo'lga qo'yish bo'yicha;

b) «Qishloqxo'jalikkimyo» jamiyatlariga kimyo korxonalari kesimida mineral o'g'itlarni yetkazib berish bo'yicha tegishli taqsimot reja taqdim qilinadi.

– "Qishloqxo'jalikkimyo" jamiyatlari tomonidan:

a) kimyo korxonalariga tumanlararo filiallar kesimida ta'minotni yo'lga qo'yish bo'yicha;

b) o'zining tumanlararo filiallariga kimyo korxonalari kesimida yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar miqdori va turlari bo'yicha tegishli taqsimot taqdim qilinadi.

Tasdiqlangan balans va yuqoridagi taqsimotlar asosida kimyo korxonalari bilan «Qishloqxo'jalikkimyo» jamiyatlarining tumanlararo filiallari (jamiyat tomonidan berilgan vakolat asosida) o'rtasida mineral o'g'itlarni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolanadi, ushbu shartnoma va kimyo korxonasi bilan tuzilgan ijara shartnomalarining shartlariga muvofiq, kimyo korxonalari ijara bazalarida mineral o'g'itlarning zaxirasi jamg'ariladi. Tasdiqlangan balans va taqsimotlar asosida «Qishloqxo'jalikkimyo» tumanlararo filiallari va fermer xo'jaliklari o'rtasida mineral o'g'itlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolanadi.

Kimyo korxonasi mineral o'g'itlarni «Qishloqxo'jalikkimyo» tumanlararo filiali omborlariga temir yo'l vagonlarida temir yo'l yuk xati va tovarning sifat sertifikati qo'shib yuboriladi. Temir yo'l stansiyasida O'zbekiston Respublikasi IIV TIIB AMB xodimi kuzatuvi ostida olib kelingan vagonlar baza hududiga kiritiladi va filial ishonchnomasi bilan qabul qilinadi. Mineral o'g'itlarni qabul qilgan kun temiryo'l yuk xatiga temir yo'l stansiyasi tomonidan shtempel qo'ygan kuni hisoblanadi va viloyat IIB huzuridagi "Qo'riqlash" bo'limining navbatchisi, filial ombor mudiri bilan birga plombalarning buzilmaganligi tekshirilib, qabul qilinib olina-

di, shu joyning o'zida O'zbekiston Respublikasi IIV Transportdagi IIBga qarashli AMB xodimining "Yo'lnomasi"ga "Qo'riqlash" bo'limining navbatchisi imzo qo'yadi.

Vagondagi ammiakli selitra mineral o'g'itini tushirib olishda tax uruvchi (kladovshik) "Qo'riqlash" bo'limining navbatchisi kuzatuvida o'g'itlarni qoldiqni tezkor aniqlaydigan holatda va KMK 2.0911-97 me'yorlariga mos holda taxlaydi va mineral o'g'itlarning qop soni bo'yicha kimyo korxonasidan kelgan miqdorining temiryo'l yuk xatida ko'rsatilgan qop soni miqdoriga to'g'ri kelishi to'g'risida ombor mudiriga ma'lumot beradi. Shundan keyin yuk xatlarini, baza ombor mudiri o'zining maxsus shnurlangan kirim kitobiga qayd qiladi va "Qo'riqlash" bo'limining katta navbatchi xodimi ham o'zining maxsus ro'yxatdan o'tkazilgan kirim kitobida qayd qiladi.

Shu kunning yakuni bilan ombor mudiri o'z hujjatlarini temir yo'l yuk xati va tovarning sifat sertifikatini bazaning moddiy tovar boyliklar hisobchisiga umumlashtirgan holda topshiradi. Ombor mudiri vagonlarni qabul qilish davrida vagon plombasini tekshirishi, yukning to'liqligiga amin bo'lishi, yukni vagondan tushirib olish va omborga kiritishda ogoh bo'lishi shart. Vagondagi mineral o'g'itlar to'liq tushirib bo'lingandan so'ng, ombor mudiri zudlik bilan vagonlarni bo'shatilganligi to'g'risida temiryo'l stansiyasiga bildirgi bilan xabar beradi. Temiryo'l stansiyasida bildirgi xabarnomasiga muvofiq (pamyatka priemosdatchika na podachu vagonov, forma (U-45) vagonni yuki bilan olganini eslatib turuvchi hujjatni yopadi, bo'shatilgan vagonlar ombor mudiri kuzatuvi asosida temir yo'l teplovozi yordamida baza hududidan olib chiqib ketiladi.

Temir yo'l xizmatlari summalari temir yo'l stansiyasi tomonidan bazaga taqdim etiladi, baza buxgalteriyasi hisob-kitoblarni umumlashtiriib filial tomonidan to'lovini amalga oshirish chorasini ko'radi. Omborchi taqdim etgan temiryo'l stansiyasidan olgan yuk xati va kimyo korxonasi tomonidan taqdim etilgan schet – faktura, vagon raqamlari va mineral o'g'itlar miqdori ko'rsatilgan reestrlar

jamlanib baza moddiy tovar boyliklar hisobchisiga topshiriladi va har oy yakuni bilan kimyo korxonasiga baza mudiri imzosi va bazaning muhri bilan hisobot taqdim etadi.

5.3. Mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklarining ekin maydonlariga tashib borishni tashkil etish

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiallari tomonidan mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklariga ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit mablag'larini oldindan to'lovi asosida belgilangan agrotexnik muddatlarda yetkazib beradi. Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiallari tomonidan taqdim qilingan talabnoma asosida tijorat banklari belgilangan agrotexnik muddatlar boshlanishidan bir oy oldin Moliya vazirligi huzuridagi "Jamg'arma"dan imtiyozli kreditlarning ajratilishi bo'yicha tegishli choralarni ko'radi. "Jamg'arma" tomonidan fermer xo'jaliklariga mineral o'g'itlar uchun oldindan 100% lik to'lovlarni amalga oshirishga yetarli miqdorda mablag' ajratilmagan taqdirda, bank o'z mablag'i hisobidan kredit mablag'lari ajratib, talab qilingan 100% oldindan to'lovning amalga oshirilishini ta'minlaydi. "Jamg'arma" tomonidan ajratilgan maqsadli mablag'lar hisobidan davlat buyurtmasidan tashqari ehtiyojlar uchun olinadigan mineral o'g'itlarga to'lovlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiallari hisob raqamiga kelib tushgan mablag'larni kimyo korxonalariga yo'naltiradi. Bunda tumanlararo filiallar qo'llanilayotgan davlat antimonopoliya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ustama 22 foiz darajasidagi mablag'larni o'z ehtiyojlari uchun ishlatish maqsadida olib qoladi. Maqsadli mablag'lar harakati Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan yo'riqnoma va tartib asosida amalga oshiriladi. Shularni inobatga olib:

– tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiallari tashish vositalari bilan mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklari dalasigacha tashib

borishi, tashish texnikalari yetishmagan taqdirda litsenziyasi mavjud bo'lgan transport korxonalari bilan tashish texnikalarini ijaraga olish bo'yicha shartnoma tuzishi va shartnoma asosida jalb etilgan transport vositalari bilan ham mineral o'g'itlarni fermer xo'jaligi dalasigacha tashib borishi;

-fermer xo'jaligi dalasiga tashib borilgan mineral o'g'itlarni tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonalari (o'z tasarrufidagi texnikalar yetishmagan hollarda hududlardagi o'g'it sepish agregatlarini tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasi ijaraga oladi) NRU-0.5, RU -0.75, RMU va boshqa turdagi agregatlar bilan sepib berishi;

-"Neftmahsulot" unitar korxonalari ekin maydonlarini grafik bo'yicha oziqlantirishi belgilangan fermer xo'jaliklari dalasiga borgan otryaddagi NRU-0,5, RMU va boshqa o'g'it sepish agregatlarini ishlatish uchun yoqilg'i-moylash materiallarining fermer xo'jaliklari hisobidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi.

Tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filial korxonasi tomonidan bajariladigan tadbirlar:

• tumanda, tuman hokimi boshchiligida shtab tuziladi va mazkur shtab o'g'it sepish grafigini ishlab chiqadi hamda qishloq xo'jalik ekinlarini oziqlantirish tadbirini tashkil etadi;

• tuman shtabi SIU rahbarlaridan 5 kun oldin o'g'it uchun to'lovni amalga oshirgan va mineral o'g'it sepishga tayyor fermer xo'jaliklarining ro'yxatini oladi, shu asosda zarur bo'ladigan mineral o'g'it talabi va fermerlar ro'yxatini tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filiallariga taqdim etadi;

• buyurtmanomada o'g'itni bazadan olib chiqish bo'yicha fermer xo'jaliklari nomi va ularga ajratilayotgan mineral o'g'itlar miqdori, ombordan mineral o'g'itlarni yuklab olib chiqish uchun texnika vositalari ro'yxati va ularga o'g'it tashish uchun berilgan yuk xati raqami ko'rsatiladi. Filial bazasidan mineral o'g'it olishi uchun biriktirilgan shoxobcha mudiri (moddiy javobgar shaxs) buyurtmanomaga o'ziga berilgan yuk xatini qo'shib topshiradi.

• shoxobcha mudiriga bazadan o‘g‘itni olib chiqishga ruxsat bergandan so‘ng shoxobcha mudiri (moddiy javobgar shaxs) hududga biriktirilgan transport vositasiga o‘g‘it yuklash va bazaga kirishi uchun ruxsatnoma oladi, transport vositasini taroziga kiritib tarasini torttiradi, ruxsatnomada ko‘rsatilgan miqdordagi mineral o‘g‘it ombor mudiri va ishchilar tomonidan yuklab beriladi;

• mineral o‘g‘it yuklangan texnikalar taroziga kirib, yuk bilan tortiladi va ortilgan mineral o‘g‘it ombor mudiri tomonidan 3 nusxada yuk xati yozib beriladi va chiqim kitobiga qayd qilinadi. Yuk xatida mineral o‘g‘it miqdori, partiya raqami, qop soni, avtotransport rusumi va davlat raqami hamda haydovchining va shoxobcha mudiri (moddiy javobgar shaxs)ning ismi-sharifi ko‘rsatiladi, ammiakli selitra mineral o‘g‘itini chiqarishda kuzatuvchi tuman IIB xodimi familiyasi, ismi, guvohnoma raqami to‘liq yozilib imzo qo‘ydiriladi. Yuk xatida ko‘rsatilgan mineral o‘g‘it miqdori uchun hisob-faktura baza hisobchi - iqtisodchisi tomonidan yozib beriladi.

Hujjatlar ombor mudiri tomonidan rasmiylashtirilib, chi-qim kitoblariga qayd qilib boriladi. Bazaning "Qo‘riqlash" bo‘limi xodimlari tomonidan maxsus chiqim kitoblariga mineral o‘g‘it turi, miqdori, yuk xati raqami, avtotransport rusumi, davlat raqami, haydovchi va shoxobcha mudiri (moddiy javobgar shaxs) ismi-sharifi, kuzatuvchi IIB xodimi familiyasi, ismi, guvohnoma raqami to‘liq yozilib qoldiriladi va imzo qo‘ydiriladi. Mineral o‘g‘itlarni fermer xo‘jaligi ekin maydoniga qadar quyidagi tartibda tashib boriladi va sepib beriladi. Fermer xo‘jaligiga SIU (suv iste’molchilari uyushmasi) tomonidan berilgan buyurtmanomaga muvofiq tuman hokimliklari tomonidan tasdiqlangan grafiklar asosida bir yo‘nalishda joylashgan fermer xo‘jaliklariga yetkazib beriladigan mineral o‘g‘itlar transport vositasiga yuklanadi va tarozidan o‘tkaziladi. Mineral o‘g‘it baza omboridan IIB xodimi kuzatuvida mineral o‘g‘it yuklangan transport vositasi shoxobcha mudiri boshchiligida yetkazib beriladi.

Mineral o'g'it yuklangan transport vositalari talabnomada ko'rsatilgan fermer xo'jaliklarining dala maydonlariga borganda, dalada kutib turgan fermer xo'jaligi rahbari ishonchnomani shoxobcha mudiriga beradi. So'ng besh yuz boshchi (Ming boshchi), MFY vakili, mahalla posponi va IIB xodimi ishtirokida ushbu fermerga ajratilgan mineral o'g'itlar transport vositasidan tushiriladi va fermer xo'jaligiga mineral o'g'itlarni yetkazib berish bilan bog'liq 3 nusxada tayyorlangan hujjatlarni, jumladan, yuk xati, hisob-faktura va solishtirma dalolatnomani fermer xo'jaligi rahbari bilan birga shoxobcha mudiri imzolaydi. Hujjatlarning bir nusxasi fermer xo'jaligiga beriladi. Ma'lumotlarni shoxobcha mudiri o'zining yonidagi filial tomonidan berilgan maxsus kitobiga qayd qiladi, so'ng otryad boshlig'i oldindan belgilangan marshrut bo'yicha navbatdagi fermer xo'jaligiga mineral o'g'it yetkazib berish uchun mineral o'g'it yuklangan transport vositasida tuman IIB xodimi kuzatuvida jo'nab ketadi. Fermer xo'jaligining dala maydonlariga yetkazib berilgan mineral o'g'itlar besh yuz boshchi (Ming boshchi), fermer xo'jaligi rahbari, MFY xodimlari va mahalla posponi kuzatuvi ostida tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» korxonasiga qarashli NRU-0.5 va boshqa agregatlar bilan sepiladi.

Ekin maydonlariga o'g'it to'liq sepib bo'linganidan so'ng mineral o'g'itlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi o'rnatilgan tartibda 4 nusxada tuziladi. Unga MFY vakili, mahalla posboni, fermer xo'jaligi rahbari imzo va muhr qo'yadi. Haqiqatda o'g'itlarning maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi dalolatnomaning ikkinchi nusxasini fermer xo'jaligi rahbari olib qoladi va yo'nalish marshrut bo'yicha orqaga qaytib kelinayotganda dalolatnomaning 1 - nusxasi fermer tomonidan shoxobcha mudiriga taqdim etiladi. Qolgan bir nusxasini IIB vakiliga, IIB vakili esa shu kunning o'zida uni tuman IIB ga taqdim etadi.

Talabnomada ko'rsatilgan fermer xo'jaligi rahbari dalasida yo'qligi tufayli yoki texnika vositalari buzilib qolgan hollarda sepish imkoniyati bo'lmaganligi uchun mineral o'g'itlar bazaga

qaytariladi va o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuziladi. Kun yakuni bilan shoxobcha mudiri fermer xo'jaliklariga tarqatilgan mineral o'g'itlar hujjatlarini (ishonchnoma, hisob-faktura, yuk xati va ammiakli selitrani hisobdan chiqarish dalolatnomasi) umumlashtiradi. Shu bilan birga reestr tuzib, tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filialiga hisobot topshiradi.

Ekin maydonlarining oziqlantirilishi bo'yicha fermer xo'jaliklari kesimida tumanlararo «Qishloqxo'jalikkimyo» filial korxonasi tomonidan monitoring guruhi tashkil etiladi va kundalik monitoring yuritiladi. Monitoring ma'lumotlari tuman hokimligi shtabi, tuman prokuraturasi, tuman ichki ishlar bo'limi va «Qishloqxo'jalikkimyo» OAJga, va «O'zkimyosanoat» DAK ga taqdim etadi.

Viloyatga biriktirilgan kimyo korxonasi mas'ul xodimi har kuni bazadan olingan ma'lumotlarini tahlil qilgan holda umumlashtirib, viloyat shtabiga, viloyat «Qishloqxo'jalikkimyo» OAJ ga va «O'zkimyosanoat» DAKga, «O'zkimyosanoat» DAK esa viloyatlardan olingan ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasi va tegishli tashkilotlarga taqdim etadi. Viloyat shtabi, ya'ni «Qishloqxo'jalikkimyo» OAJ tumanlar kesimida olingan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda umumlashtirib, viloyat xokimligiga va o'rnatilgan tartibda tegishli tashkilotlarga taqdim etadi.

Monitoring guruhida tijorat banklariga mablag' ajratish bo'yicha taqdim qilingan talabnomaga asoslangan holda, ajratilgan me'yor va yetkazib berilgan mineral o'g'it qiymati bilan solishtirma tahlilni o'zida aks ettirishi talab qilinadi. Tuman prokuroriga har kuni to'lov masalasidagi muammolar to'g'risida bir kun oldingi monitoring natijalari bo'yicha yozma axborot berib boriladi. Shuningdek, har hafta yakuni bo'yicha to'lovni amalga oshirmayotgan fermer xo'jaliklariga ogohlantirish xatlari yuboriladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida g'o'za, g'alla va qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunandalar, turli kasalliklar hamda begona o'tlardan himoya qilishga katta e'tibor berilib kelinmoqda. 2000-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisida «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish» to'g'risidagi 117-P sonli maxsus qonunni qabul qildi. Qabul qilingan qonundan maqsad: «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, turli kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'ligiga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarini tartibga solishdan iborat» bo'lib, asosan, qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunandalar, turli kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishda biologik himoya asosi bo'lgan, uyg'unlashtirilgan kurashning keng joriy etilishiga qaratilgan.

Shu maqsaddan kelib chiqib respublikamiz hududlarida xususiy tadbirkorlik subyekti sifatida fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi biolaboratoriyalar tashkil etilgan. Biolaboratoriyalarning asosiy vazifasi belgilangan hududlarda qishloq xo'jalik ekinlarining fitosanitariya holatini, yerdan foydalanuvchi tashkilotlar, barcha fermer xo'jaliklar, dehqon xo'jaliklari ekinlarni zararkunandalar, turli kasalliklar va begona o'tlarga qarshi kurash choralarini o'tkazishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi.

Atrof-muhitni ifloslantirmaydigan inson salomatligi uchun bezarar bo'lgan o'simliklarni himoya qilish usulini tadqiq etishni rivojlantirish va o'simliklarni himoya qilish ishlarida uyg'unlashgan kurash tizimini ishlab chiqadi. Biolaboratoriyalar fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishda istiqbolli va samarali biologik va kimyoviy usullarda himoya qilish vositalarini ularni kuzatuv bashoratnomalari asosida tatbiq etib boradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, biolaboratoriyalar fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish jarayonida ko'rsatilgan xizmatlar uchun fermer xo'jaliklari tomonidan o'z vaqtida to'lovlarini to'laligicha amalga oshira olmayapti. Fermer xo'jaliklar asosan, MTP, mineral o'g'itlar va YOMM uchun to'lovlarni birinchi o'rinda amalga oshiradi va biolaboratoriyalar uchun to'lovlar moliyaviy resurs tanqisligi sababli amalga oshirilmay qolmoqda. Xususiy tadbirkorlik subyekti bo'lgan biolaboratoriyalar o'zlariga

biriktirilgan hududlarda fermer xo'jaliklariga o'simliklarni himoya qilish bo'yicha katta xizmatlarni amalga oshiradi biroq ko'rsatilgan xizmatlar uchun moliyaviy to'lovlar o'z vaqtida amalga oshmay kelmoqda. Natijada xususiy tadbirkorlik subyekti bo'lgan qator biolaboratoriyalar ko'rsatilgan xizmatlar uchun daromad olmay kelmoqda, natijada qilingan sarf-xarajatlar qoplanmay, biolaboratoriyalar moliyaviy inqiroz holatiga tushib qolmoqda. Bu respublikamizda qator biolaboratoriyalarning moliyaviy inqiroz holatida yopilib ketishiga sabab bo'lmoqda. Chunki biolaboratoriyalar, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan biomahsulotlarni (bragon va trixogramma, oltinko'z) o'zlari ishlab chiqaradi. Buning uchun ularga biomahsulotlarni ishlab chiqarish uchun katta hajmda margarin, sut achitqisi, 2 navli un, makka uni, shakar, meva qoqi, sut, mum, kuya qurti, brakon, arpa, asal, oltinko'z kapalagi kerak bo'ladi.

Chunki bu mahsulotlarni biolaboratoriyalar o'z mablag'lari hisobidan bozordan xarid qiladi. Qator biolaboratoriyalar ko'rsatilgan xizmatlar uchun fermer xo'jaliklardan to'lovlarni o'z vaqtida qabul qila olmasligi va ba'zi hollarda hisob kitoblar butunlay amalga oshmay qolishi natijasida, ushbu mahsulotlarga qilingan sarf-xarajatlar va ish haqi xarajatlari qoplanmay qolmoqda. Vaholanki, xususiy tadbirkorlik subyekti bo'lgan har qanday korxona foyda olish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Bu muammo qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruratidan kelib chiqmoqda. Chunki qishloq xo'jaligi, xususan, fermer xo'jaliklari doimo o'simliklarni biologik va kimyoviy usullarda himoya qilishga ehtiyoj sezadi. O'simliklarni biologik va kimyoviy usullarda himoya qilish xizmatlarisiz qishloq xo'jalik mahsulotlaridan yuqori hosil olishga erishib bo'lmaydi va shunga mos ravishda fermer xo'jaliklari samarali qishloq xo'jalik faoliyatini olib bora olmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida biolaboratoriyalar foyda olmasdan samarali faoliyat va fermer xo'jaliklariga samarali xizmatlar ko'rsata olmaydi. Shuning uchun xususiy tadbirkorlik subyekti

bo‘lgan biolaboratoriyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun kerakli bo‘lgan xomashyo resurslarining 50% xarajatlarini davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu, bir tomondan, biolaboratoriyalarning muntazam samarali faoliyat yuritishi uchun biomahsulotlar bilan ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan fermer xo‘jaliklarida o‘simliklarni biologik va kimyoviy usullarda himoya qilish samaradorligini oshirgan bo‘lar edi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Qishloqxo‘jalikkimyo” korxonalari filiallari tomonidan fermerlarning dalalariga to‘liq tashib borib, ularni sepib berishgacha bo‘lgan tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori asosida tashkil etiladi?
2. Kimyo korxonalaridan fermer xo‘jaliklariga mineral o‘g‘itlarni yetkazib berish jarayoni amaldagi qanday qonun hujjatlari va boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi?
3. “Qishloqxo‘jalikkimyo” hududiy aksiyadorlik jamiyatining tumanlararo filial korxonasining namunaviy tuzilmasini tushuntirib bering.
4. Tumanlararo «Qishloqxo‘jalikkimyo» korxonasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Tumanlararo «Qishloqxo‘jalikkimyo» korxonasi qanday holatlarda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi?
6. Tumanlararo «Qishloqxo‘jalikkimyo» korxona rahbarlari nima uchun baza omborlarida moddiy tovar boyliklarni, barcha turdagi mineral o‘g‘itlarni qo‘riqlash uchun viloyatlar IIB huzuridagi “Qo‘riqlash” bo‘limlari bilan shartnomalar tuzadi va mablag‘lar to‘lovini amalga oshiradi.
7. Tasdiqlangan balans va taqsimotlar asosida «Qishloqxo‘jalikkimyo» tumanlararo filiallari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida mineral o‘g‘itlar yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzilishini tushuntirib bering.

6-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV ISTE’MOLCHILARI UYUSHMALARINING ROLI

6.1. Qishloq xo‘jaligida suv iste’molchilari uyushmalarining shakllanishi va uning tashkiliy asoslari

Qadimdan mamlakatimiz hududida suv hayot manbai sifatida qadrlangan, tiriklikning birinchi omili sanalgan, uni muqaddas bilib, asrab - avaylab, tejab - tergab sarflaganlar. Bu qarashlar o‘z mohiyatini bugun ham yo‘qotgan emas. Darhaqiqat, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini suvsiz tasavvur etish mumkin emas. Shuning uchun suvdan maqsadli, tejab - tergab foydalanish hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana ham dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi bo‘lgan paxta, g‘alla va boshqa mahsulotlar yetishtirish bevosita suv ta’minoti bilan chambarchas bog‘liq.

Respublika bo‘yicha sug‘orish uchun yiliga o‘rtacha 55 mlrd.m^3 suv talab etiladi. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo respublikalarida iste’mol qilinadigan suvning deyarli yarmiga tengdir. Respublikada foydalaniladigan suvning ko‘p qismi qo‘shni davlatlar hududlaridan oqib keladi. Respublikada foydalaniladigan suvning 85 foizi qishloq xo‘jaligida ishlatiladi. Dehqonchilikka mo‘ljallangan yerlarning 98 foizini sug‘oriladigan maydonlar tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, suvdan tejab-tergab, samarali foydalanilmasa, kelgusida suv ta’minotida muammolar kelib chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishlok xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-sonli Farmoniga asosan respublikada fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish deb belgilandi. Farmonga muvofiq, respublika qishloq va suv xo‘jaligida o‘tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, soha boshqaruvini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi 290-sonli va 21-iyuldagi 320-sonli qarorlari qabul qilindi. Respublika suv xo‘jaligida

muhim o'zgarishlar yuz berdi. Suv resurslarini ma'muriy-hududiy boshqarish tamoyillaridan havzaviy boshqarish tamoyiliga o'tildi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta qurish jarayoni tamoyilida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va sohani bozor munosabatlari tamoyillariga asosan qayta qurishni taqozo etmokda. Respublikada suv xo'jaligi kompleksini qayta qurish jarayoni uch yo'nalish bo'yicha amalga oshirilmoqda.

Birinchi yo'nalish - qayta qurilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga suv xizmati tuzilmasining bozor munosabatlari sharoitiga mos shaklini barpo qilish.

Ikkinchi yo'nalish - respublika suv xo'jaligi kompleksini boshqarishni takomillashtirish.

Uchinchi yo'nalish - suv xo'jaligi obyektlarini zamonaviylashtirish. Hozirgi kunda tugatilgan qishloq xo'jaligi korxonalari negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga suv xizmati ko'rsatuvchi tuzilmaning bozor munosabatlari sharoitiga mos shaklini barpo qilish, xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarida suvdan foydalanuvchilar soni ko'payib, suvning hisob-kitobini olib borish hamda suvdan oqilona va maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli qaroriga asosan, "Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari hududida o'zaro suv xo'jaligi munosabatlarini tartibga solish to'g'risida"gi tartib tasdiqlandi.

Mazkur tartibga asosan tugatilgan xo'jaliklar hududida joylashgan barcha ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar birlashtirilib, sug'orish tarmog'i bo'yicha ularning "Uyushmasi" tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) zimmasiga xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini bir maromda ishlatish, ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar o'rtasida adolatli suv taqsimotini o'rnatish, sug'orishning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish hamda ularning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalar yuklatildi. SIU bir sug'orish tarmog'ida joylashgan barcha ikkilamchi

suvdan foydalanuvchilarning ixtiyoriy ravishda birlashgan tashkilotidir.

Prezident Farmoni bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fermer xo'jaliklariga ustuvor yo'nalish berilganligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fermer xo'jaliklarining ulushi ortib borayotgan sharoitda ularga belgilangan me'yorlarda suv yetkazib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan SIUning ishonchli hamkor sifatidagi o'rni o'sib borishi tabiiy. Ma'lumki, ilgari qishloq xo'jaligi yerlari shirkat xo'jaliklari ixtiyorida bo'lib, hududni suv bilan ta'minlash, asosan, ular zimmasiga yuklangan edi. Bitta xo'jalik hududida foydalanib kelingan xo'jalik ichki kanallari, undagi gidrotexnika inshootlari va meliorativ texnikalari, mol -mulklaridan foydalanadigan bir nechta subyektlar paydo bo'lganligi suv iste'molchilar uyushmasini (SIU) tashkil etish ehtiyojini keltirib chiqardi. Endilikda SIUlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha respublikada muayyan qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, SIUlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 77-moddasiga asosan, notijorat shaklda tashkil etilib, ular o'z a'zolarining badallari hisobiga faoliyat ko'rsatadi.

Suv resurslari tanqisligi sharoitida bu resurslarni boshqarish va yetkazib berish jarayonidagi institutsional quyi bo'g'in bo'lgan Suv iste'mochilari uyushmalari (SIU)ning o'rni nihoyatda yuqori. Suv iste'molchilari uyushmasi mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o'z faoliyatini xo'jalik hisobi tamoyillari asosida olib boradi. O'z faoliyatini fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan shartnoma asosida suv yetkazib berish xizmatlari uchun to'langan mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Suv iste'molchilari uyushmalariga qator imtiyozlar yaratilgan. Chunonchi, SIUlar notijorat shaklda faoliyat ko'rsatgani uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan notijorat tashkilotlarga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanadi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli qaroriga asosan, SIUlar xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'i, foyda va mulk solig'i hisoblanishi va to'lanishidan 2 yil muddatga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-Farmoniga asosan, SIUlarining xizmatlari qo‘shilgan qiymat solig‘i, daromad va mulk solig‘ini qo‘shish va to‘lashdan 3 yil muddatga ozod qilingan.

Suv iste’molchilari uyushmasi (SIU) bir yoki undan ortiq kanal atrofidagi suv iste’molchilarining xohish-irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan notijorat tashkilotdir. SIU muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqavaga chiqarish bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yaxshi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari va boshqa yuridik jismoniy shaxslar birlashmasidir (uyushmasi) (Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli qarorining 7-ilovasidan).

Suv iste’molchilari - fermer, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa egalari va boshqalar bo‘lib, adolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali uyushma hududida sug‘orma dshqonchilikni rivojlantiradi va buning uchun o‘zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradi.

Suv iste’molchilari - cheklangan miqdordagi suvni olish, undan va ichki suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish bilan bog‘liq xo‘jalik hamda boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa yuridik na jismoniy shaxslardir. Uyushma hududidagi suv iste’molchilari quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:

- yagona teng huquqli suv taqsimlash tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi bois suv iste’molchilari o‘rtasida suv uchun uzluksiz ziddiyatlar vujudga keladi;
- irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta’minlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘larning yetishmasligi tufayli ularning holati yomonlashib boradi;
- suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanmaslik ularning keskin kamayish havfini keltirib chiqaradi va Orolbo‘yi hududida yuz bergan favqulodda ekologik vaziyat yanada og‘irlashdi.

SIU o‘z a’zolari bo‘lgan suv iste’molchilariga sug‘orish tarmog‘idagi suvni taqsimlash va uyushmani demokratik asosda boshqarishda faol qatnashish imkoniyatini beradi. Suv iste’molchilari SIUning moliyaviy boshqaruvini oshkora tashkil etishlari uyushma faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini birlashtirgan holda nafaqat suv xo‘jaligi, balki qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq umumiy muammolarni hal qilishda ham yordam beradi. Bundan tashqari suvdan samarali foydalanish hisobiga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining oshishi fermerda ertangi kunga yanada ishonch uyg‘otadi.

SIU tuzish uchun, tartib bo‘yicha, uyushmaning bo‘lajak a’zolaridan iborat tashabbuskor guruh zaruriy hujjatlarni tayyorlaydi. Ushbu guruh SIUning ta’sis hujjati va ustav loyihasini a’zolarning takliflarini hisobga olgan holda tuzadi va buning uchun salohiyatli fermerlar orasida tushuntirish ishlarini olib boradi. (Ta’sis hujjatlari SIUning ta’sis shartnomasi va ustavidan iborat).

Ta’sis shartnomasi SIU ta’sis etishga asos bo‘luvchi hujjat bo‘lib, uyushmaning huquqiy maqomi, rasmiy nomi, ta’sischilar ro‘yxati, maqsad va vazifalarning qisqacha bayonidan iborat. Ta’sis shartnomasi SIU ta’sischilarining barchasi tomonidan imzolanadi.

Ustav SIUning ichki faoliyatini muvofiqlashtirishning asosiy hujjati hisoblanadi. Unda SIU a’zolarining huquq va majburiyatlari, boshqaruv organlarining tashkiliy tuzilmasi va ularning o‘zaro munosabatlarining mexanizmlari bayon etiladi. Ustav ta’sis yig‘ilishining raisi tomonidan imzolanadi.

SIU tuzish uchun kerakli hujjatlar namunasi mavjud bo‘lib, u uyushma tuzish jarayonini soddalashtirish va jadallashtirishga yordam beradi. Biroq mahalliy irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barcha o‘ziga xos tomonlari hamda har bir suv iste’molchilarining talabini alohida hisobga ololmaydi. Shuni alohida qayd etish kerakki, uyushma tuzish ja-

rayonida o‘z manfaatini ifodalash uchun har bir a’zoning ishtiroki zarur bo‘lib, bu SIUning ta’sis shartnomasi va ustavida sug‘orish hamda zovur tarmoqlarini ishchi holatda saqlash, boshqarishning mahalliy o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari hisobga olinadi.

Tashabbuskor guruh bo‘lajak SIUning ta’sis shartnomasi va ustavini salohiyatli a’zolar ishtirokida muhokama qilish va tasdiqlash uchun umumiy yig‘ilish chaqiradi. Ta’sis hujjatlari tasdiqlangandan so‘ng uyushma a’zolari yoki suv iste’molchilar guruhi vakillari SIU kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlar ro‘yxatini tuzadi.

Uyushma a’zolari yoki suv iste’molchilari guruhi vakillari umumiy yig‘ilishda kengash va taftish komissiyasini saylagandan so‘ng kengash a’zolari barcha uyushma a’zolari nomidan SIU boshqaruvchisini tayinlaydi. SIU a’zosi uyushma faoliyat ko‘rsatadigan hududda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

SIUning suv iste’molchilari guruhi vakili umumiy yig‘ilishlarda ma’lum bir uchastkadagi (hududiy yoki gidrografik bo‘linishga ko‘ra) suv iste’molchilari nomidan ularning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsdir (agar SIU a’zolari soni 100 kishidan oshsa, bu umumiy yig‘ilish o‘tkazishda va umumiy masalalarni hal qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi, shunda suv iste’molchilari bir guruhga birlashib, uyushma faoliyatida ishtirok etishi uchun o‘zlarining vakillarini saylaydi). SIU ustavida vakillarni saylash muddati, ularning majburiyatlari, umumiy yig‘ilishda qancha ovoz qo‘lga kiritishi lozimligi belgilab beriladi. SIU a’zolarining huquq va majburiyatlari uyushma ustavi va uning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqa ichki hujjatlarda ko‘zda tutilgan. **SIU a’zolarining huquqlari:**

- SIU boshqaruv organiga nomzodlar tavsiya qilish yoki o‘z nomzodlarini qo‘yish;

• suvdan foydalanish rejasiga muvofiq sug‘orish suvidan adolatli va teng huquqli foydalanish hamda qo‘shimcha suv resurslari mavjud bo‘lsa, birinchi navbatda olish;

• o‘z manfaatlari bilan bog‘liq masalalar muhokamasida ishtirok etish;

• shartnoma majburiyatlarini bajarmagan va ustavga rioya qilmagan hollarda SIUdan da’vo talab qilish;

• suv iste’molchilari o‘z qiziqishi va umumiy manfaatidan kelib chiqib, SIU faoliyatiga oid ma’lumotlar bilan tanishish.

SIU a’zolarining majburiyatlari:

• ustav qoidalari va uyushma tomonidan qabul qilingan barcha me’yoriy hujjatlarga rioya qilish;

• belgilangan badallar hamda uyushma xizmatlari haqini o‘z vaqtida to‘lash;

• sug‘orish tartibiga rioya qilish hamda har bir suv iste’molchisi bilan kelishilgan holda belgilangan limitdagi suvni olish;

• uyushmani tasarrufidagi yer va foydalanilgan suv bilan bog‘liq ma’lumotlar bilan ta’minlash;

• SIUga qarashli irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini asrab-avaylash.

Ustav va barcha ichki me’yoriy hujjatlarga amal qilmagan a’zolarga nisbatan jazo choralarini qo‘llash SIU ustavida ko‘zda tutiladi. SIUni uyushma a’zolarining bevosita o‘zlari yoki ularning vakillari SIU faoliyatini demokratik tamoyillar asosida boshqaradi. Bu quyidagi tuzilmada aks ettirilgan:



9-Rasm. SIUning tashkiliy tuzilmasi

Umumiy yig'ilish SIUning oliy boshqaruv organidir. Unda barcha a'zolar yoki suv iste'molchilari guruhlari vakillari qatnashadi va ularning har biri bir ovozga ega.

Umumiy yig'ilishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

• SIU ustavi va uning faoliyati bilan bog'liq ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

• SIU kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini saylash yoki vazifasidan ozod etish;

• boshqaruv tuzilmasi, yollanma ishchi-xizmatchilar soni, ularning ish haqi miqdori va uni berish tartibini tasdiqlash;

• uyushma a'zolari va a'zo bo'lmaganlarning badal to'lovlari miqdorini belgilash;

• uyushmaga a'zo bo'lmaganlar bilan tuziladigan shartnoma qiymatini belgilash;

• uyushmaning istiqbolli rejalari va budjeti, ularning hisobotlarini tasdiqlash;

• SIUning yillik ish rejasi va sug'orish jadvalini tasdiqlash;

• ustav tartiblari va ichki me'yoriy hujjatlar qoidalari buzilgan xollarda jarimalar turi va miqdorini tasdiqlash;

• SIU kengashi va taftish komissiyasi hisobotlari bilan tanishish va tegishli qarorlar qabul qilish;

• SIU boshqa tashkilotlarga birlashgan holatda uning maqomini belgilash.

SIU kengashi a'zolari jamoatchilik asosida (ish haqisiz) faoliyat yuritadi va har oyda kamida bir marta yig'iladi. Kengash vakolatiga quyidagilar kiradi:

• kengash tarkibidan uyushma kengashi raisini saylash;

• umumiy yig'ilish kun tartibini tayyorlash va chaqiriq muddatini belgilash;

• yillik hisobotni tayyorlash va uni umumiy yig'ilish a'zolari yoki SIU vakillariga taqdim etish;

• SIU ustaviga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish. Ularni umumiy yig'ilishga tasdiqlash uchun taqdim etish;

• umumiy yig'ilish qabul qilgan ustav, qaror, shartnomalarning bajarilishi hamda suv resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilishni qonun talabi doirasida nazorat qilish;

• budjet, yillik reja va ish rejasiga muvofiq keluvchi shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish;

• ijro organi faoliyatini nazorat qilish;

• uyushma a'zolari o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish, ularning uyushmaga nisbatan da'volarini ko'rib chiqish;

• ustav va shartnomaga amal qilmaganlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish;

• kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda umumiy yig'ilish vakolatidagi qarorlarni qabul qilish va navbatdagi umumiy yig'ilishda tasdiqlash;

• uyushmaga qabul qilish yoki a'zolikdan chetlatish arizalarini o'rganib, tegishli qaror qabul qilish.

SIU kengashi raisi kengash a'zolari tomonidan ma'lum muddatga saylanadi va nomzod umumiy yig'ilish a'zolari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Uning majburiyatiga quyidagilar kiradi:

• SIU a'zolari yoki vakillarning umumiy yig'ilishlari hamda kengash majlislarini o'tkazadi;

• SIU faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarda uyushma vakili sifatida qatnashadi;

• SIU ustavida belgilab berilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

Taftish komissiyasi uyushmaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi hamda umumiy yig'ilishga hisobot beradi. Uyushma faoliyatida jiddiy moliyaviy kamchiliklar aniqlansa, komissiya kengashdan navbatdan tashqari umumiy yig'ilish chaqirtirishni talab etish huquqiga ega. Taftish komissiyasi vazifalariga quyidagilar kiradi:

• umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarish;

• uyushmaning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish;

• hisob raqamlari, aktivlar va jihozlarni kamida bir yilda bir marta umumiy yig'ilish yoki suv iste'molchilari guruhi vakillarining qarori asosida tahlil qilish va tekshirish;

• audit nazorati bo'yicha olib borilgan tekshiruvlar natijasi hisobotini umumiy yig'ilish va kengashga taqdim etish.

Ijroiya organi SIUning xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi. U boshqaruvchi, hisobchi va texnik xodimlardan iboratdir. Bu mehnatiga haq to'lanadigan yagona organ bo'lib, ularning vakolat muddatlari mehnat shartnomasida belgilab beriladi. Ijroiya organining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- SIU a'zolari hamda a'zo bo'lmagan shaxslar bilan suv xo'jaligi xizmati ko'rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish;
- irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini ishchi holatda saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
- suv yetkazish va uni SIU a'zolari orasida taqsimlash yillik rejasini tuzish hamda amalga oshirish, shuningdek suvning ta'minotchilar tomonidan yetkazilishini nazorat qilish;
- budjet loyihasi, sug'orish va zovur tarmoqlarini boshqarish va ishchi holatda saqlash rejasi hamda boshqa talab qilinadigan me'yoriy hujjatlarni tuzish va kengashga taqdim etish;
- umumiy yig'ilish va kengash qabul qilgan qarorlarni bajarish

SIUning moliyaviy manbalarini a'zolarning badallari, uyushma a'zosi bo'lmaganlarning shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlari, davlat va boshqa manbalarning grantlari tashkil etadi. SIU a'zolarining suv xizmati uchun to'lanadigan badallari miqdori umumiy yig'ilish tomonidan belgilanib, uyushmaning irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini ishlatish va ishchi holatda saqlash xarajatlarini qoplashi kerak.

SIU o'zi sotib olgan, qurgan va uning balansiga o'tkazib berilgan barcha (suv xo'jaligi obyektlari va boshqalar) mol-mulkning egasi hisoblanadi.

U xizmat ko'rsatadigan hududdagi irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari va unda joylashgan gidrotexnik inshootlar shular jumlasidandir. Meliorativ texnika va mol-mulk deganda ekskavatorlar, buldozerlar, skreperlar, drenaj yuvish agregatlari, avtotransport, yuk ko'tarish kranlari, bino hamda qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari hududidagi suv xo'jaligi obyektlari va boshqa mol-mulk tushuniladi. Ichki suv xo'jaligi obyektlariga qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari tasarrufidagi

sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, gidrotexnika inshootlari, nasos stansiyalari va agregatlari, sug‘orish va drenaj quduqlari, ularning elektr uzatish tarmoqlari, yordamchi transformator stansiyalari hamda ichki xo‘jalik maqomiga ega bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishga oid boshqa inshootlar kiradi.

6.2. Suv iste’molchilar uyushmasi faoliyatining huquqiy asoslari

Huquqiy asos bu qonunchilik tizimining asosiy va ajralmas tuzilmasi bo‘lib, parlament tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlaridan iborat bo‘lgan turli qonuniy hujjatlar to‘plamidir. Bu qonuniy hujjatlarning maqomi va ustunligi har bir mamlakatda turlichadir. Shuningdek hukumat, vazirliklar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlarning jamiyatda qanday kuchga egaligi ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, dunyo tajribasida SIUlar faoliyatini tartibga solib turuvchi huquqiy asosni ikki qismga ajratib o‘rganish mumkin:

SIU to‘grisidagi Qonun (hozirgi kunda O‘zbekistonda mavjud emas) odatda mamlakat huquqiy normativ hujjatlarining tarkibiy qismi bo‘lib, SIUlarni tashkil etish va boshqarishni to‘g‘ridan to‘g‘ri tartibga solib turuvchi asosiy huquqiy hujjatdir. Jahon tajribasidan ma’lumki, SIU to‘g‘risida alohida qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

SIU tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishiga asos bo‘luvchi qonunlar (O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (77-moddasi) hamda “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun asos bo‘lishi mumkin). Amaliyotda bu huquqiy normativ hujjatlar nazariy nuqtayi nazardan mamlakatning bir necha qonuniy hujjatlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Bu qonun va huquqiy-normativ hujjatlarning barchasi SIUni faoliyat ko‘rsatishi uchun qonuniy asos sifatida xizmat qiladi.

Masalan, SIU yollanma ishchi kuchidan foydalanadigan bo'lsa, bu jarayon mamlakatning Mehnat Kodeksi va qandaydir bir uskuna sotib oladigan bo'lsa, bu munosabatlar shartnomalar bilan bog'liq huquqiy hujjatlar tomonidan tartibga solinadi. Shuningdek, SIU-ga qarashli yoki u tomonidan foydalaniladigan infratuzilmalarga zarar yetkaziladigan bo'lsa, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksda bunga nisbatan tegishli choralar qo'llash belgilangan. SIU to'laydigan soliqdar esa soliq kodeksi tomonidan tartibga solinadi.

Avvalombor, qonun SIUning huquqiy maqomini belgilab beradi va bu, o'z navbatida, uyushma a'zolari, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan teng huquqli munosabatlarga kirishishga imkon beradi. SIUning a'zolari qanchalik ko'p, ayni vaqtda mavjud suv resurlariga talab yuqori bo'lsa, nizolarning paydo bo'lish ehtimoli ham shunchalik ko'p bo'lishi aniq. Agarda huquqiy asos yetarli bo'lsa, u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va mummmolarni oldini olish yoki kamaytirishga ko'mak beradi. SIU to'g'risidagi maxsus qonun uning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'ladigan huquqiy muhitni yaratib beradi. SIUning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qonunda nimalar aks ettirilishi zarur:

- SIUning huquqiy maqomi;
- a'zolik haqidagi tartib -qoidalar;
- ichki boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi;
- SIU faoliyatining moliyaviy asosi;
- suv yetkazib beruvchi tashkilot, suv iste'molchilar va SIU ning suv bo'yicha huquqlari va majburiyatlari;
- Sug'irish va zovur tizimlariga egalik huquqlari.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning bosh qonuni hisoblanadi hamda fuqarolar, davlat boshqaruv organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Barcha qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiyaga muvofiq qabul qilinadi. Konstitutsiyaning inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari (II bo'lim) hamda Jamiyat va shaxs (III

bo‘lim) bo‘limlaridagi moddalar SIUni tashkil etishga va faoliyatini amalga oshirishga nazariy tomondan xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga binoan qonunchilik tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi hukuqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi. Asosiy qonuniy hujjatlarda SIU tuzish va faoliyatini amalga oshirish alohida qayd etilmagan bo‘lsada, lekin quyidagi qonun va qonun osti hujjatlar orqali tartibga solinishi mumkin:

- “Fuqarolik Kodeksi”ning 77-moddasi:
- “Fermer xo‘jaligi to‘grisida”gi Qonunning (2004-yil avgustdagi yangi tahriri) 26-moddasi
- “Dehqon xo‘jaligi to‘grisida”gi Qonunning (2004-yil avgust) 22-moddasi.
- “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to‘grisida”gi Qonun (1999-yil 14 aprel)
- “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun (1993-yil 6 may)
- “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeks (1997-yil 25 aprel)
- Yer Kodeksi (1998-yil aprel
- Soliq Kodeksi (1997-yil 24 aprel)

Qonunosti hujjatlar qonunlar asosida qabul qilinadi. Qonunosti hujjatlarni qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlanishi talab qilinmaydi hamda qonun hujjatlariga nisbatan tez qabul qilinadi. Bu hujjatlar asosan biror masalaga qaratilgan bo‘lib, uning barcha

kirralarini qamrab oladi. Quyidagi qonunosti hujjatlar SIU faoliyati bilan bog'liq:

• Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5 yanvardagi 8-sonli qarorining 7-ilovasi suv iste'molchilari kimlar va kimlar SIU a'zosi bo'la olishiga aniqlik kiritadi. Suv iste'molchilari qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari hududida muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqovaga chiqarish bilan bog'lik xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Ular jumlasiga fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kiradi. Suv iste'molchilari uyushmasi muayyan miqdorda suv olish, undan foydalanish va oqavaga chiqarish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari va boshqa yuridik, jismoniy shaxslar birlashmasi (uyushmasi) hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida cheklangan suv resurslaridan foydalanish to'g'risida"gi qarori suv taqchil bo'lgan mavsumda suv taqsimlash tartib qoidalarini belgilab beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29-iyuldagi "Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatining asosiy tamoyillari va tashkiliy tuzilmasini belgilab beradi. Shu qarorning 5-ilovasiga ko'ra, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi SIUlarni qo'llab quvvatlashi ta'kidlanadi. Agarda SIUni tashkil etish va boshqarish uchun qonuniy asoslar noaniq bo'lsa, SIUning barqaror va to'g'ri faoliyat ko'rsatishi kiyinlashadi. Shuni ta'kidlash zarurki, SIUni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatishiga faqatgina qonun hujjatlari yetarli emas. Buning o'ziga xos muhim xususiyati shundaki, SIUlar uchun huquqiy asos qonun hujjatlarning barcha darajasida o'z ifodasini topishi zarur.

SIU to'g'risida maxsus qonun qabul qilinishi yoki biror qonunga bu haqda maxsus bo'lim kiritilishidan tashqari, shuningdek,

davlat ro'yxatidan o'tishidan oldin SIU o'z a'zolari tomonidan tasdiqlangan ichki tartib qoidalarini belgilab beruvchi ustaviga ega bo'lishi kerak.,

Har bir SIU mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda suvga bo'lgan talabni aniqlash, irrigatsiya-melioratsiya xizmati badalini hisoblash va to'lash tartibi, suvni yetkazib berish tartibi hamda boshqa jarayonlarni o'z ustavida aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan SIUlarning ustavi bir-biridan farq qilishi mumkin. Ustav SIUning maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi asosiy ichki hujjatdir yoki boshqacha so'z bilan aytganda SIUning "asosiy qonuni" hisoblanadi.

Ustav SIU tashkil etish, uyushma va a'zolarning huquq-majburiyatlari hamda uning tashkiliy tuzilmasini belgilab beruvchi ichki tartib-qoidalar to'plamidir. Amaliyotda ustav tartib qoidalarining asosiy tarkibi SIUlar tuzishga asos bo'luvchi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan bo'ladi. Qonun hujjatlari va ustav o'rtasidagi farq shundan iboratki, qonun hujjatlari SIUning umumiy tartib-qoidalarini ko'rsatib bersa, ustav uning ichki tartib-qoidalarini batafsil belgilab beradi.

Qonun hujjatlari mamlakatdagi barcha SIUlarga taalluqli bo'ladi, ustav esa qonun hujjatlari doirasida o'ziga hos bo'lishi mumkin va har bir SIUning talablariga aniq javob beradi. Ustavni tayyorlash va tasdiqlash jarayonida barcha SIU a'zolari faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiq. Chunki u har bir suv iste'molchining manfaatini o'zida aks ettirishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan namunaviy ustav tavsiya etilgan. Biroq tavsiya etilgan ustav asosida har bir SIU o'z ustavini ishlab chiqishi lozim.

Ustav loyihasi ishlab chiqilgach, SIU a'zolarining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Har bir a'zo ustavning har bir bo'limi bilan yaqindan tanishib chiqishi kerak. Odatda ustavda quyidagilar batafsil bayon qilinadi:

- SIU a'zolari qabul qilgan qarorlarga so'zsiz rioya qilish;

- suvga talabnoma berish tartibi;
- nizolarni hal qilish tartibi;
- SIU tartib-qoidalarini buzganlarga jarima solish;
- Irrigatsiya xizmati badalini hisoblash usullari.

Ustavni tasdiqdash jarayonida SIUning barcha a'zolari to'liq qatnashishlari maqsadga muvofiq. Ekin maydonining katta kichikligidan qat'iy nazar SIUning har bir a'zosi odatda bir ovozga ega bo'ladi.

Ustav quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- SIUning maqsadi va vazifalari hamda uyushma haqidagi umumiy ma'lumotlar: rasmiy nomi, manzili, xizmat ko'rsatadigan hudud maydoni, a'zolar soni;
- SIUga a'zo bo'lish tartibi;
- SIU ta'sis etish uchun zarur bo'ladigan fermerlar soni. Masalan, muayyan hududdagi fermerlarning 50%dan ortigi SIU tuzishni qo'llab-quvvatlasa, ularning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi;
- SIUning huquqiy maqomi notijorat yoki jamoat tashkiloti;
- SIUning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv organlari. Umumiy yig'ilish, kengash, taftish komissiya, ijroiya organi tavsifi va vazifalari;
- irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlaridan foydalanish hamda ularni ishchi holatda saqlash tartibi;
- suv xizmatiga haq to'lash-irrigatsiya xizmati badalini hisoblash, belgilash va yig'ishning usullari va jarayoni;
- SIU a'zolarining huquq va majburiyatlari;
- SIUni tugatish va qayta tuzish;
- SIUlar federatsiyasini tashkil qilish. Federatsiya va undagi SIUlarning huquq va majburiyatlari va boshqa tartib qoidalar.

SIU a'zolarining huquqlari, ustavning bu bo'limi nihoyatda katta ahamiyatga ega, chunki SIU a'zolarining huquqlarini aniq belgilab beradi. Odatda a'zolarning huquqlari quyidagilardan iborat:

- uyushmanig boshqaruv organlariga saylash va saylanish;
- o'z manfaatlariga tegishli bo'lgan masalalar muhokamasida og'zaki yoki yozma tarzda ishtirok etish;

• belgilangan hajmdagi suv limitini olish;

• qo'shimcha suv resurslari mavjud bo'lsa, uyushmaga a'zo bo'lmaganlarga nisbatan birinchi navbatda olish;

• o'zining suv xo'jalik obyektlarida uyushma yoki boshqa pudratlar bilan irrigatsiya-melioratsiya xizmatini ko'rsatish shakllarini mustaqil belgilash;

• uyushma boshqaruv organi faoliyati to'g'risida o'z ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi ma'lumotlarni olish;

• o'z qiziqish, manfaatlari va ehtiyojidan kelib chiqqan holda SIUga takliflar kiritish;

• o'z buyurtmalari bo'yicha bajarilgan uyushmaning pullik xizmatlari hajmi va sifati ustidan nazorat olib borish;

• uyushma ma'muriyatini oldindan xabardor etgan holda belgilangan limitdagi suvning bir qismidan xohlagan muhlatda foydalanmasligi yoki uyushmaning boshqa a'zosiga berish (binobarin bu ularni pullik va moddiy badallarni to'lashdan ozod etmaydi).

SIU a'zolarining majburiyatlari. SIU a'zolari o'z huquqlarini bilishlaridan tashqari quyidagi majburiyatlarga ham rioya qilishlari lozim:

• ajratilgan suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish;

• belgilangan badallarni hamda uyushma xizmatlari haqini o'z vaqtida to'lash;

• ustav qoidalari, shartnoma majburiyatlari, suv resurslarini muhofaza qilish va foydalanishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

• suv hajmi va yetkazib berish muddati, irrigatsiya-melioratsiya xizmatlarining amalga oshirilishini uyushma bilan oldindan kelishib olish;

• belgilangan limitdan ortiq bo'lmagan hajmdagi suvlarni olish va suvlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

• o'z balansida bo'lgan suv xo'jalik obyektlarini ishga yaroqli holatda saqlash va boshqa suv inshootlariga zarar yetkazmaslik;

• suv o'lchash vositalarining saqlanishiga javobgar bo'lib, ular aybi bilan yaroqsiz holatga kelsa, keltirilgan zarar o'rnini tiklash va ta'mirlash xarajatlarini qoplash;

• fermerlararo irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlaridan suv olish uchun qo'shimcha suv olish nuqtalar, ko'tarma va to'siqlar qurishni uyushma bilan kelishgan holda amalga oshirish.

SIUning o'z a'zolari oldidagi huquqlari. Suv iste'molchilarining suv ta'minotida tenglik va adolatni ta'minlash uchun SIUning ham o'ziga yarasha huquqlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

• o'z ixtiyoridagi mavjud suv resurslarining avval belgilangan limiti o'zgarganda uyushma a'zolarini oldindan xabardor etgan holda ularning limitini operativ ravishda o'zgartirish;

• uyushma a'zolari tomonidan ma'lum bir muddatga belgilangan limitdan ortiq suv olinsa, u holda keyingi muddatda beriladigan suv hajmini qisqartirish;

• ustav va shartnoma majburiyatlariga rioya qilmagan uyushma a'zolariga choralar ko'rish, jumladan, sug'orish suvi berishni vaqtincha to'xtatish.

SIUning o'z a'zolari oldidagi majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• suvdan foydalanishda belgilangan qoidalarga muvofiq suv resurslarining muayyan miqdorini uyushma a'zolari o'rtasida rejalashtirish va adolatli taqsimlash;

• uyushma a'zolarining sug'oriladigan yerlaridan drenaj va oqava suvlarning chiqib ketishini ta'minlash;

• uyushma aybi bilan belgilangan ma'lum bir muddatda suv yetkazib berilmasa, u holda belgilangan limit doirasida boshqa bir muddatda yetkazib berilmagan suvni qoplash uchun imkoniyat doirasidagi barcha choralarni ko'rish.

Har bir SIU ustavdan tashqari, kundalik amaliy ish faoliyatini tartibga soluvchi va belgilab beruvchi o'zining ichki tartib qoidalariga ega bo'lishi zarur, chunki ustavda SIUning butun faoliyatini batafsil ravishda yoritib bo'lmaydi. Masalan, ustavda qoidabu-

zar a'zolarga, jumladan, suv berishni vaqtincha to'xtatish chorasi belgilangan bo'lishi mumkin. Umumiy yig'ilish yoki kengash qarorlarida jarima solish jarayoni, suv berish qanday muddatlarga kechiktirilishi, badallarni hisoblash usullari va to'lash muddatlari kabilar batafsil o'z ifodasini topadi. SIU qarorlarining barchasi ustavga asoslangan bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha SIUlar tegishli ravishda davlat ro'yxatidan o'tganlaridan so'ng yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar. Fuqarolik Kodeksida (39-modda. Yuridik shaxs tushunchasi) yuridik shaxsga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi."

Shuningdek, shu Kodeksning 40-moddasiga binoan yuridik shaxslar o'z faoliyatlaridan kelib chiqqan holda 2 ta asosiy guruhga, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) va foyda olishni maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) tashkilotlarga bo'linadilar. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda bo'lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin. Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana oladi.

Qonunga muvofiq yuridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin.

6.3.SIUning budjetini shakllanishi va unda buxgalteriya hisobini yuritish

SIU budjeti - joriy kalendar yili yoki hosil yili kabi ma'lum davr uchun biznes-rejasini amalga oshirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar va daromadlarni oldindan baholashni anglatadi. Oddiy qilib aytganda, budjet - muayyan davrdagi rejalashtirilgan tadbirlarning miqdoriy moliyaviy qismi bo'lib, unda har oyda sarf-xarajatlarni qoplash uchun zarur mablag' va kutilayotgan daromad miqdori ko'rsatiladi.

Suv iste'molchilari har ishlab chiqarish yili yakunida kelgusi moliya yili davomida qilinadigan xarajatlar va ularning moliyalashtirish manbalari, ya'ni irrigatsiya xizmati badallari SIUlari budjetida qat'iy belgilab qo'yiladi. Byudjet ushbu uyushmalar miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, jami daromad qiymatini aniqlash va taqsimlash natijasida o'z tasarrufida qoladigan pul fondining shakllanishi va undan oqilona foydalanishni bildiradi. Ayrim hollarni hisobga olmaganda budjet "ichki" hujjat hisoblanadi. ya'ni, tashkilot budjetdan yil davomida moliyaviy rejalashtirish va pul mablag'larini boshqarish maqsadlarida foydalanadi. SIU a'zolari tomonidan tasdiqlangan budjet tashkilotning buxgalterlik hisobi tizimi uchun nazorat o'rnatadi va bu tizimda SIUning daromad va xarajatlari buxgalterlik hisobi tizimi va tartib-qoidalarida qayd etiladi.

SIUning yillik budjetini tuzish uchun birinchidan, shtat jadvali bo'yicha ajratilgan ish haqi umumiy qiymatini, ikkinchidan, bajariladigan ish hajmlari uchun sarflanadigan xarajatlar umumiy qiymatini aniqlash zarur. Mazkur uyushmalarning yillik budjeti to'rt qismdan iborat bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Yillik ish haqi fondi. Yillik ish haqi fondini aniqlash uchun shtat jadvaliga kiritiladigan xodimlar soni, tarif bo'yicha ularning razryadlariga oylik maoshlar belgilanadi. Uyushma umumiy yig'ilishi qarori bilan yollanma xodimlarning ish haqiga

qo'shimcha 40 foiz miqdorida moddiy rag'batlantirish fondi. Bundan tashqari yollanma xodimlarga har yili bir oylik maosh miqdorida moddiy yordam tariqasida fond tashkil etilishi mumkin.

2. Ijtimoiy sug'urta ajratmasi. Barcha yuridik shaxslarga, mulk shaklidan qat'iy nazar, ijtimoiy sug'urta uchun 25 foiz miqdorida to'lov belgilangan.

3. Ishlab chiqarish xarajatlari qiymati. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar: ariq–zovurlarni tozalash, inshootlar va texnikalarni ta'mirlash, elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, aloqa xizmati, pudratchi tashkilotlarning bajargan ishlari, ehtiyot qismlar sotib olish va bajarilgan boshqa ishlar uchun sarflangan xarajatlar majmui rivojlanish badali qiymatini belgilaydi. Rivojlanish badali uchun yig'imlar har bir a'zoning sug'oriladigan ekin maydoniga qarab belgilanadi. Yillik rivojlanish badali miqdori ushbu ajratma asosida belgilanishi lozim.

4. Ma'muriy-xo'jalik xarajatlari. Telefon, idora uchun elektr energiyasi, gaz, suv, konselyariya xarajatlar va boshqa xarajatlar ma'muriy-xo'jalik sarf-xarajatlari hisobiga kiritiladi.

Moliyaviy rejalashtirish va pul mablag'lari boshqarishning samarali quroli bo'lishi uchun budjet kamida har chorakda yoki hatto har oyda qayta ko'rilishi va muhokama qilinishi kerak. Byudjetni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish amaldagi daromad va xarajatlardagi ko'rsatkichlardan farq qilgan qilmaganligi hamda buning sabablarini aniqlashga yordam beradi. Amaldagi hamda budjetda rejalashtirilgan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq bir necha sabablar tufayli yuzaga keladi. Jumladan, mavsumiy xarajatlar, kutilmagan xarajatlar (kanalni suv urib ketishi va hokazo), irrigatsiya xizmati uchun badallarning kechiktirib to'lanishi, inflyasiya, haqiqatdan yiroq bo'lgan budjet ko'rsatkichlari, fors-major vaziyatlar va boshqalar.

Xarajat va daromad bo'yicha turli farqlar vujudga kelgan holda odatda joriy vaziyatni aks ettirish maqsadida budjetni SIU kengashi a'zolari qayta qo'rib chiqishi, lozim bo'lsa o'zgartirishi tavsiya

etiladi. Agar budjetni qayta ko'rish va muhokama qilish chog'ida bo'lajak taqchillik vaziyati aniqlansa, bu tadbir SIU da moliyaviy inqirozning oldini olishga yordam beradi. Masalan, bunday budjetni qayta ko'rish jarayoni kelajak xarajatlarni qisqartirishni o'z ichiga olishi mumkin. Tuzatish choralari barvaqt ko'rilsa, SIU xodimlar sonini qisqartirish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini to'xtatish zaruriyatining oldini olishga erishadi. Byudjetni tegishli ravishda monitoring qilish muammolardan qutulishni ta'minlaydi. Buning uchun SIUning kengash a'zolari har oyda bir marotaba uchrashib, boshqaruvchining hisobotini tinglaydilar. Boshqaruvchi kengash a'zolariga o'tgan oyda SIU hisob raqamiga fermerlardan kelib tushgan badal pullari hamda ularning ishlatilishi bo'yicha to'liq hisobot beradi. Bundan tashqari kengash a'zolari va boshqaruvchi kelgusi oyda qilinadigan ishlar hamda SIU hisob raqamiga tushishi kutilayotgan badal pullarini ham muhokama qiladilar. Shuningdek, yig'ilishda budjet rejaga asosan amalga oshirilayotganligini ham muhokama qiladilar. Nima uchun SIUda budjet muhim ahamiyatga ega:

- byudjet orqali irrigatsiya xizmati badali qiymati aniqlanadi;
- budjet tuzish jarayoni moliyaviy manbalar qanday ishlatilishi, qaysi tadbirlar moliyalashtirilishi va sarflanadigan mablag'larning manbalari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi;
- budjet xodimlar uchun uyushmaning moliyaviy faoliyatini boshqarishda vakolat va ko'rsatma vositasi bo'lib xizmat kiladi.
- budjet SIU yoki boshqa bir tashkilotning moliyaviy maqsadalariga erishish uchun qanday moliyaviy manbalar kerakligini aniqlaydi;
- budjet tuzish mavjud moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi;
- budjet amaldagi natijalarni taqkoslash uchun asos yaratadi.

Byudjetning tarkibiy qismlari. Bo'lajak xarajatlarni aniqlashda avvalgi yillardagi budjet ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar budjetni ishlab chiqish uchun yetarli moliyaviy

ma'lumotlar bo'lmasa, boshqa SIUlarning tajribalaridan foydalanish mumkin. Masalan, kanal yoki zovurni tozalash xarajatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni mahalliy ko'chma mexanizatsiyalashgan kalonnadan yoki boshqa qurilish bilan shug'ullanadigan tashkilotlardan olish mumkin. Agar boshqa manbadagi ma'lumotlardan foydalanilsa, uyushmaga xos xususiyatlarni aks ettirish maqsadida bunday budjetga tegishli tuzatishlar kiritish lozim.

Byudjetni ishlab chiqishda SIU fermerlarga suv yetkazib berish evaziga yuzaga keladigan daromad va xarajatlarni aniqlashi zarur. Daromad irrigatsiya xizmatlari uchun fermerlar to'laydigan badal pullari hamda SIUga a'zo bo'lmagan boshqa suv iste'molchilardan olinadigan badallarni o'z ichiga oladi.

Xarajatlar o'zgaruvchan va o'zgarmas deb nomlanuvchi ikki guruhga bo'linadi. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga bevosita bog'liq bo'lgan moddalar bo'yicha xarajatlarni bildiradi. (o'zgaruvchan xarajatlar bu SIUning ishlab chiqarish faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlardir). O'zgaruvchan xarajatlarga suv taqsimlash va suv olinadigan kanallarga texnik xizmat ko'rsatish, irrigatsiya inshootlari va quvurlarini ta'mirlash, asbob-uskunalar uchun yonilgi, yoki asbob-uskuna ijarasi bilan bog'liq xarajatlar misol bo'la oladi. O'zgarmas xarajatlar SIUning muayyan davrdagi faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladigan xarajatlardir. Ularga ish haqi, elektr energiyasi, idora boshqaruvi uchun xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, binolarning amortizatsiyasi va sug'urta qilish xarajatlari kiradi.

O'zgarmas xarajatlarni o'zgaruvchan xarajatlarga nisbatan aniqlash osonroq. Lekin bunda ijara va ish haqinining oshishi kabi yil davomida kutilayotgan o'zgarishlarni hisobga olish kerak. O'zgaruvchan xarajatlarni imkon boricha aniqlash lozim, lekin bunda mavsumiy hamda o'rtacha oylik xarajatlarni hisobga olishni unutmaslik zarur. Odatda budjet ikki qismdan iborat bo'ladi:

1) daromadlar qismi;

2) xarajatlar qismi.

Ushbu ikki bo'lim doirasida daromad va xarajatlar yana kichikroq maxsus bo'limlarga bo'linadi. Bu toifalarning har biri alohida qatorga joylashtirilib, uning yoniga pul ko'rinishidagi qiymatlari ko'rsatiladi va bu toifalar «qator moddalari» deb nomlanadi.

Daromadga taalluqli budjet qatori moddalari odatda jadvalning chap tomonida ko'rsatiladi, xarajatlarga tegishli moddalar esa jadvalning o'ng tomonida keltiriladi. Quyida daromadlar va xarajatlar budjeti qator moddalarining namunasi keltirilgan:

Sxema- №1.SIUning daromadlar va xarajatlar budjeti namunasi

Daromad	Qiymati	Chiqim	Qiymati
Irrigatsiya xizmati badali	So'm	Ish haqi	So'm
Boshqa badallar (masalan, a'zo bo'lmagan xo'jaliklar yoki aholidan olinadigan badallar)	So'm	Idora jihozlari	So'm
To'lovni amalga oshirmaganlik uchun jarimalar	So'm	Qurilish materiallari (sement, po'lat)	So'm
Grantlar	So'm	Ijara to'lovlari (traktor ijarasi)	So'm
Ssudalar yoki ayrim faoliyat turlaridan olinadigan daromad	So'm	Asbob-uskunalarni xarid qilish	So'm
	So'm	Ta'mirlash ishlari	So'm
		Ijtimoiy jamg'armalar va hokazolarga to'lovlar	
Jami summa:	So'm		So'm

Byudjet tuzishda, ishni avval xarajatlar qismini aniqlash bilan boshlash tavsiya etiladi. Buning asosiy sababi shundaki, irrigatsiya xizmatlari uchun badalning mikdori ko'pincha irrigatsiya va drenaj tizimlarini boshqarish, ularni ishchi holatda saqlash xarajatlarini qoplash uchun yetarli darajada hisoblanishi kerak. Lekin budjet hamda irrigatsiya xizmatlari uchun badal miqdori kelgusi yil uchun ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish rejasiga bog'liqdir, shu sababli SIU boshqaruvchisi va bosh gidrotexnik mazkur rejani ishlab chiqishlari hamda SIU hisobchisi bilan birgalikda budjetning taxminiy hisob-kitob ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlari lozim.



Sxema №2. SIUning budjetini ishlab chiqish va tasdiqlash sxemasi

SIUga kerak bo'ladigan ikki xil budjet hisobotlari mavjud: biri daromadlar, ikkinchisi xarajatlar uchun. Bu hisobotlar alohida sa-

hifalarda yoki bitta sahifada ko'rsatilishi mumkin. Shunisi muhimki, bu hisobotlar murakkab buxgalterlik tizimi bilan yoki usiz joriy etish uchun nisbatan oddiy bo'lib, ularni yuritish juda ham sodda. Mazkur hisobotlar uchun kerakli barcha ma'lumotlar tashkilotning asosiy moliyaviy ma'lumotlarining tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Byudjet hisobotlari har oyda tayyorlanishi lozim.

SIUlarda buxgalteriya hisobi barcha moliyaviy operatsiyalarni qayd etib borishning asosiy hisob-kitob usuli hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar ular amalga oshirilgandan so'ng muntazam ravishda qayd etib borilishi muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobi mablag'lar qayerdan kelayotgani va qaysi maqsadlarda sarflanayotganini kuzatishining zarur vositasidir. Buxgalteriya ma'lumotlari SIU uchun budjetdan chetga chiqmagan holda ishlayotganini aniqlash uchun muhimdir. Kichik biznes sohasida, xususan paxtachilik, (g'allachilikka) ixtisoslashgan xo'jaliklar va SIUlarda moliyaviy operatsiyalarni qayd etib borish uchun professional hisobchini yollash shart emas. Fermerning o'zi yoki SIU hisobchisi buxgalteriya hisobi qaydlarini yuritishi mumkin.

SIUlarda buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotni sistematik ravishda tashkil etish, qayd etib borish va ta'minlashdan iborat. SIUlar uchun moliyaviy buxgalteriya hisobining maqsadi qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi, soliq organlari kabi davlat organlariga o'zining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumot beruvchi moliyaviy hisobotlar tayyorlashni ham nazarda tutadi. Har qanday SIUlar ham ikkita asosiy maqsadni ko'zlab faoliyat ko'rsatadilar:

- badal pullarini o'z vaqtida va kerakli miqdorda to'plab olish;
- to'lov qobiliyatiga ega bo'lish (barcha schet-fakturalar bo'yicha to'lash imkoniyatiga ega bo'lish).

To'lov qobiliyati - bu SIUning irrigatsiya xizmati haqi va boshqa manbalardan oladigan daromadi hisobiga o'z schet fakturalari bo'yicha to'lash va qarzini qaytarish qobiliyatini anglatadi. Korxo-

naning samaradorligi, to'lov qobiliyati va moliyaviy ahvoli haqida boshqa tomonlarni baholashi uchun imkoniyat yaratuvchi to'rtta balans hisoboti, daromad hisoboti, shaxsiy mablag'lar to'g'risida hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlar birlamchi moliyaviy hisobotlar hisoblanadi. Bu to'rt moliyaviy hisobotlar korxona operatsiyalarining hisobchisi tomonidan qilingan tahlilining natijaviy mahsulidir. Bu jarayon buxgalteriya hisobini yuritishdan boshlanadi va u buxgalteriya hisobi jarayoning ilk qadamidir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda SIUlar faoliyatida qator muammolar mavjud. Buning oqibatida ular ko'ngildagidek samaraga erisha olmayapti, deb bo'lmaydi. Bunday holatlarning asosiy sabablari:

1. Mahalliy hokimiyat tomonidan SIUlar faoliyatiga yetarli e'tibor berilmayotganligi;

2. SIUni moliyalashtirish mexanizmi turli xil sabablarga ko'ra amalda yaxshi ishlamayotganligi;

3. SIUlar ko'rsatilgan xizmatlari uchun fermer xo'jaliklari bilan o'zaro dalolatnomalarni vaqtida tuzmasliklari hamda fermer xo'jaliklarning banklardagi hisob raqamlariga qo'yilgan inkassalarni banklarning mas'ul xodimlari tomonidan to'lab berilmayotganligi;

4. Ko'p hollarda SIU hisobiga nosoz va ishga yaroqsiz texnikalar berilgan bo'lib, SIUlarda esa ularni soz holatga keltirish uchun mablag'ning mavjud emasligi;

5. SIUlarning haq-huquqlarini va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi aniq bir tashkilot yoki idoraning yo'qligi;

6. SIU rahbari, hisobchisi va xodimlari malakasining pastligi hamda ularda mutaxassislar yetishmasligi natijasida SIU faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir.

Bular esa SIUning to'laqonli faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilib, SIU xodimlarining o'z vaqtida ish haqini ololmasligiga, biznes rejada belgilangan tadbirlarni bajarilmasligiga olib kelib, natijada SIUdan mutaxassislarning ketib qolishiga, suv hisob-kitobini olib

borish, ichki sug‘orish tarmoqlarida suvni boshqarish inshootlari bilan jihozlash, nasos stansiyalarini ishlatish hamda sug‘orish va zovur tarmoqlarini tozalashda muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, SIUlarda malakali gidrotexniklarning yo‘qligi sababli xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarida aylanma suv ta’minotini hamda suv iste’molchilar o‘rtasida navbatlab sug‘orish yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa o‘z navbatida sug‘orish tarmoqlarida katta miqdordagi suvning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Yuqorida keltirilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. SIU xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish;

2. SIUlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish (paxta va g‘alla yetishtirish uchun fermer xo‘jaliklarini kreditlash nizomiga tegishli o‘zlartirishlar kiritish);

3. SIU va fermer xo‘jaliklari hisobidagi nasoslar sotib olishda iste’molchilarga imtiyozlar berish;

4. Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun fermer xo‘jaliklari bilan o‘zaro dalolatnomalarni o‘z vaqtida tuzib, fermer xo‘jaliklarining banklardagi hisob raqamlariga inkassalar qo‘yib borishni tashkil etish;

5. SIU tomonidan qo‘yilgan inkassalarni undirib berishda bank xodimlarining mas’uliyatini oshirish;

6. SIUlarning haq-huquqlari va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi aniq bir tashkilot yoki idora tashkil etib, SIUlarni rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat hamda xalqaro investitsiyalarni jalb etish;

7. SIUlarning faoliyatini sxemalar orqali imtiyozli kreditlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mamlakatimizda suv hayot manbai sifatida ahamiyatini asoslab bering.

2. SIU faoliyating tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tushuntirib bering.

3. SIU qanday moliyalashtirish manbalariga ega?

4. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda SIUlarga qanday vazifa yuklatilgan?

5. SIU ishlab chiqarish faoliyatida unga qanday imtiyozlar yaratilgan.

6. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida suv istemolchilariga kimlar kiradi?

7. SIU a'zolarining huquqlari va vazifalarini nimalardan iborat?

7-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MUQOBIL MASHINA-TRAKTOR PARKLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

7.1. Mashina tarktor parklarining huquqlari va uning ustav jamg'armasini shakllanishi

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi mavjud texnikaviy hamda texnologik salohiyatidan foydalanishning tashkiliy shakllarini isloh qilishga olib keldi. Ma'lumki, fermer xo'jaliklarida yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish mahsulot yetishtirish hajmini ko'paytirish, tannarxini arzonlashtirish, qo'l mehnatini kamaytirish, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Fermer xo'jaliklariga keng ko'lamli qishloq ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko'rsatishda AJ MTP korxonalari tizimini tutgan o'rni beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida ushbu sohani rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan juda katta e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligida mavjud texnika vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-martidagi 95-sonli qaroriga asosan mashina-traktor parklari (MTP) tashkil etilib, bugungi kunga kelib ularning soni o'sib bormoqda. Ushbu turdagi MTP aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tuzilgan bo'lib, bular aksiyalar paketi davlat ixtiyoridadir, ya'ni ushbu tuzilmalar davlat tomonidan nazorat qilinadi. Tashkil etilgan davrdan boshlab hozirgi kunga qadar ushbu tashkilotlarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida juda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ularni lizing asosida yuqori unumli texnikalar bilan ta'minlanishi, xizmat ko'rsatish sifati va hajmini ortishiga sabab bo'ldi.

AJ MTP korxonalari tizimini barqaror rivojlantirish va sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston Res-

publikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qator qaror va farmonlari qabul qilindi. Ularga:

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-martdagi 106-sonli «Mashina - traktor parklarining moddiy - texnika bazasini yanada mustahkamlash ularning xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori;

• O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2008-yil 7-apreldagi "Qishloq xo'jalik mashinasozligini modernizatsiyalash va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-249-sonli qarori;

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 14-noyabrdagi "2009-yilda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish va sotishning asosiy parametrlari to'g'risida"gi 247-sonli qarori.

Mashina tarktor parklari ochiq aksiyadorlik jamiyati (AJ MTP) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik korxona hisoblanadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, hamda o'z ustavi asosida tashkil etadi. Korxona, qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida filial tashkil etishi, vakolatxonalar ochishi mumkin.

AJ MTP huquqiy shaxs huquqlariga ega sho'ba korxonalar va unga tobe jamiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Korxona mustaqil balans yuritadi, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijiy bank muassasalarida hisob raqamlarini va boshqa raqamlarni ochadi, AJ MTPning to'liq nomi davlat tilida yozilgan va joylashgan joyi ko'rsatilgan yumaloq muhrga, shtampga, ish qog'ozlari va belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgisiga va boshqa identifikatsiya vositalariga ega. AJ MTP o'z faoliyatini va oldida turgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlardan foydalanadi:

– mintaqalararo hamkorlikni va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

– MDH, davlatlari va xorijiy davlatlar korxona va tashkilotlari bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish;

– O‘zbekistan Respublikasi hududida va undan tashqarida filial, vakolatxona qo‘shma korxona, ishlab chiqarish sexlari, bo‘linmalar va boshqa yangi korxonalarni tashkil etish va ochish;

– o‘quv muassasalari bilan birgalikda shartnoma asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash;

– birgalikda faoliyat haqidagi shartnomalar asosida Jamiyat va uning filiallari faoliyatiga xorijiy sarmoyalarni jalb etish;

– O‘zbekistan Respublikasi hududida va undan tashqari huquqiy va jismoniy shaxslar bilan turli bitimlar tuzish va ularni amalga oshirish;

– O‘zbekistan Respublikasi hududida va undan tashqari ko‘char va ko‘chmas mulk, mulkiy va nomulkiy huquqdarni hamda intellektual mulkni egalikka sotib olish, qabul qilish ijaraga berish va ijaraga olish;

– turli uyushma, ittifoq, konsorsium, aksiyadorlik jamiyati, birlashmalarga a’zo bo‘lish;

– belgilangan tartibda bank muassasalarida turli hisob raqamlarni ochish, shu jumladan xorijiy valyutada, bank ssudalari va kreditlaridan foydalanish, qonunchilikka muvofiq barcha to‘lov shakllaridan foydalanish va akseptlash, amaldagi konvertatsiya tartibiga asosan o‘z mablag‘larini vakolatli banklar orqali konvertatsiya qilish;

– turli tender va tanlovlarda ishtirok etish;

– o‘z xo‘jalik faoliyatini mustaqil rejalashtirish;

– O‘zbekistan Respublikasi amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda mulk, qarz, kamomad, boshqa yo‘qotishlarni mustaqil tarzda balansdan chiqarish;

– Jamiyatning Ustav vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish texnik maqsadli buyumlar, xomashyo, materiallar, transport vositalarini sotib olish;

– homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshirish;

– amaldagi qonunchilikka muvofiq ishchi va xizmatchilariga qo‘shimcha ta’til, qisqartirilgan ish kuni, ish jadvali va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni belgilash va taqdim etish.

AJ MTP aksiyadorlari quyidagi huquqdarga ega:

– jamiyat aksiyadorlari reestriga kiritilish;

– uzi haqida depozitariydagi depo hisob varag'idan o'ziga nisbatan tegishli ko'chirmani olish;

– dividend ko'rinishida jamiyat foydasining bir qismini olish;

– jamiyat tugatilgan taqdirda, o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

– jamiyat boshqaruvida ishtirok etish;

– mazkur Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq, Jamiyat moliyaviy faoliyati natijalari haqida to'liq va haqqoniy ma'lumotni olish;

– olingan dividendni erkin tasarruf qilish;

– o'z huquqlarini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish vakolatli davlat organida, hamda sudda himoyalash;

– qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va emitentlarning uquvsiz yoki g'arazli xatti-harakatlari tufayli ko'rgan zararning to'lanishini talab qilish;

– o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida turli uyushma va boshqa jamoa tashkilotlariga birlashish;

– vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziyonlar va (yoki) qimmatli qog'ozlarni sotib olishda zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikni sug'urtalash.

AJ MTP Aksiyadorlar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

AJ MTPning har bir oddiy aksiyasi aksiyador - aksiya egasiga bir xil hajmda huquq beradi. Oddiy aksiya egalari amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida, uning vakolatlariga kiruvchi barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishga haqli, shuningdek, dividend olishga va jamiyat tugatilgan taqdirda mulk qismini olishga haqli. Imtiyozli aksiya egalari, agar boshqasi qonunchilikda belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

AJ MTPning ustavi bilan belgilangan imtiyozli aksiyalar egalari, to'planma (kumulyativ) imtiyozli aksiyalar egalaridan tashqari, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni qisman to'lash haqida qaror qilingan yillik aksiyadorlar umumiy yig'ilishidan keyingi aksiyadorlar umumiy yig'ilishidan boshlab, uning vakolatlariga kiruvchi barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishga haqli. Bunday turdagi imtiyozli aksiyalar egalarining umumiy yig'ilishda ishtirok etish va ovoz berish huquqi, imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq dividend to'lashning birinchi to'lovi amalga oshirilganidan so'ng to'xtatiladi.

AJ MTPning aksiyadorlari majburiyatlari:

– Mazkur Ustavda va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartib, muddat va miqdorda o'z aksiyalari uchun to'lovni amalga oshirish;

– Mazkur Ustavda va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat boshqaruvida ishtirok etish;

– Mazkur Ustavda belgilangan doirada, Jamiyat boshqaruv organlari qarorlariga bo'ysunish;

– Jamiyat faoliyati to'g'risida sir hisoblangan ma'lumotni oshkor etmaslik;

AJ MTPning mulki aksiyalarga tulangan badal, jamiyat xo'jalik faoliyati natijasida ishlab chiqilgan mahsulot, olingan foyda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat berilgan asoslarda topilgan boshqa mulklardan tashkil topgan. Davlat korxonasi negizida tashkil topgan aksiyadorlik jamiyati barcha mulklar, pul mablaglari va boshqa moliyaviy resurslar, hamda shakl o'zgartirish paytidagi karzlarining tulik vorisi hisoblanadi. Nizom fondining boshlang'ich qiymati Davlat mulk qomitasi tomonidan davlat korxonasining barcha mulkini baholashi natijasida aniqlangan.

AJ MTPning ustav jamgarmasining taqsimlanishi:

– 2 % - joylashtirilgan mexnat jamoasi ulushi;

– 35 % - "AJ MTPlar birlashmasi" nizom jamg'armasini shakllantirish uchun berilgan davlat ulushi;

– 34 % - joylashtirilgan qishloq xo'jalik korxonalar ulushi;

– 25 % erkin savdo ulushi;

Aksiya o'zining nominal qiymatiga ega bo'ladi.

AJ MTPning ustav jamg'armasi aksiyadorlar tomonidan sotib olingan aksiyalar nominal qiymatidan tashkil etiladi. Jamiyat tomonidan chiqarilayotgan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi shart. Ustav jamg'armasi shakllantirilishining oxirgi muddati qimmatli qog'ozlar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab bir yildan oshishi mumkin emas. Belgilangan muddat tugagandan so'ng, ta'sischi tomonidan to'lanmagan aksiyalar bekor deb e'lon qilinishi kerak. Ustav jamg'armasi miqdori oshirilganda, aksiyalar uchun to'lovni amalga oshirish muddati qimmatli qog'ozlar chiqarilishi belgilangan tartibda tegishli davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, bir yil deb belgilanadi. Qo'shimcha joylashtirilayotgan aksiyalar uchun to'lovning aniq muddati ushbu aksiyalarni joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilinganda belgilanadi.

Oddiy aksiyalar bilan birgalikda AJ MTP bir yoki bir nechta turdagi imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli, ushbu aksiyalarning nominal qiymati uning ustav jamg'armasining 20 foizidan oshmasligi kerak. Bitta to'langan oddiy aksiya aksiyadorlar umumiy yig'ilishida bitta ovoz huquqini beradi.

AJ MTPning har bir ishtirokchisi aksiyadorlik jamiyati aksiyasini sotib olgandan so'ng, amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi va quyida "Aksiyador" deb ataladi. Aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun to'lov pul mablag'lari va boshqa to'lov vositalari, shu jumladan pul qiymatiga ega huquqlar (shu jumladan mulkiy) yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shimcha aksiyalar uchun to'lov shakli ushbu aksiyalarni joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilinganda belgilanadi.

Qo‘shimcha aksiyalari uchun to‘lovni pul mablag‘laridan o‘zga vositalar bilan amalga oshirilganda, mulk qiymati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadi, amaldagi qonunchilik bilan nazarda tutilgan holatlarda esa mustaqil ekspertlarni (baholovchi) jalb qilgan holda baholanadi. AJ MTPning mulki aksiyalarini joylashtirishdan olingan daromad, asosiy va aylanma mablag‘lar, ko‘char va ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar, olingan foyda va O‘zbekistan Respublikasi qonunchiligi bilan man etilmagan boshqa usullarda olingan mulkdan tashkil topadi. Yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishda, AJ MTP aksiyadorlari, ularga tegishli qimmatli qog‘ozlar miqdoriga mutanosib ravishda imtiyozli huquqdan foydalanishadi. Agar yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar aksiyadorlar orasida tarqatilmasa, qolgan aksiyalar erkin savdo yo‘li bilan tarqatiladi. Imtiyozli huquqdan foydalanmaslik to‘g‘risidagi qarorni Umumiy yig‘ilishda ishtirok etayotgan va ovoz berish huquqiga ega aksiyalar egalarining ko‘pchilik ovozlari bilan qabul qilinishi mumkin. Jamiyat xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq zararlarni qoplash maqsadida aksiyalar chiqarishga haqli emas.

AJ MTPning ustav jamg‘armasi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo‘shimcha aksiyalar joylashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu jamiyatning kuzatuv kengashi yig‘ilishida bir ovozda qaror qabul qilish va aksiyalarni nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan amalga oshadi. Qo‘shimcha aksiyalar jamiyat tomonidan e’lon qilingan aksiyalar doirasida, eng ko‘p miqdori 2 000 000 (ikki million) dona oddiy aksiyani joylashtirilishi mumkin.

AJ MTPning ustav jamg‘armasi miqdorini qo‘shimcha aksiyalar joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatga olinadi. Bunda ma’lum tur va toifali aksiyalarning e’lon qilingan miqdori, ushbu tur va toifadagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalar miqdorigacha kamaytirilishi shart.

AJ MTPning ustav jamg'armasi miqdorining kamaytirilishi aksiyalar nominal qiymatini kamaytirish yoki ularning umumiy sonini kamaytirish, shu jumladan korxona tomonidan aksiyalar qismini sotib olish va keyinchalik bekor qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Agar ustav jamg'armasi miqdorining kamaytirilishi natijasida jamg'arma miqdori qonunda belgilangan eng kam ustav jamg'armasi miqdoridan kam bo'lib qolsa, jamiyat bunday kamaytirishni amalga oshirishga haqli emas. Ustav jamg'armasi miqdori kamaytirilishi haqidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kun ichida, jamiyat unga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarni ustav jamg'armasining yangi miqdori haqida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

AJ MTP tomonidan qimmatli qogozlarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va korxona ustavi bilan belgilanadi. Jamiyat quyidagi turdagi aksiyalarni chiqaradi: imtiyozli va oddiy. Qo'shimcha (e'lon qilingan) aksiyalarni korxona tomonidan joylashtirish tartibi va shartlari uning ustavi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi. Qo'shimcha aksiyalar jamiyat kuzatuv kengashi qarori bo'yicha ochiq yoki yopiq obuna yo'li bilan joylashtiriladi. Jamiyat aksiyadorlari yangi chiqarilgan aksiyalarni bozor qiymatidan to'qson foizdan kam bo'lmagan narxda imtiyozli sotib olish huquqidan foydalanishadi.

Qo'shimcha aksiyalarga to'lov, aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab bir yildan oshmagan muddatda amalga oshirilishi lozim. Aksiyalarga to'lov amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa to'lov vositalari yordamida amalga oshiriladi. Agar qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar, davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, chiqariluv qarori bilan belgilangan imtiyozli sotib olish muddatida jamiyat aksiyadorlari tomonidan to'liq sotib olinmasa, aksiyalarning qolgan qismi investitsiya institulari orqali erkin savdoga chiqarish yo'li bilan joylashtiriladi. Qo'shimcha chiqarilgan, oddiy

va imtiyozli aksiyalar beradigan huquqlar amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanishadi. AJ MTP qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa qimmatli qog'ozlarni ham joylashtirishga haqli.

7.2. Mashina tarktor parklarining ishlab chiqarish faoliyati boshqarish mexanizmi

AJ MTP faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish bo'lib uning faoliyatining predmeti quyidagilardan iborat:

– qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmatini ko'rsatish;

– qishloq xo'jaligi korxonalari texnikalarini ta'mirlash xizmatlarini kursatish;

– jamoa shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga shirkatlar va chorvachilik fermerlari bilan shartnomalar asosida qishloq xo'jaligi ishlarini belgilangan muddatlarda bajarish;

– xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan traktorlarni va qishloq xo'jaligi texnikalarini tuzatish ularga texnik transport xizmatini kursatish moddiy texnika resurslari bilan ta'minlash;

– ta'mirlash ustaxonalaridan, xo'jaliklardan ijaraga olingan uz balansdagi olingan texnikalar avtotransport va boshqa asosiy vositalardan foydalanish;

– qishloq xo'jalik texnikalarini saklash va ushbu xizmatlarni ko'rsatish;

– xo'jaliklar bilan texnologik xaritalarga muvofiq mexanizatsiyalashtirilgan qishloq xo'jalik ishlarini, hajmlarini va bajarish muddatlarini belgilash, qilinadigan ishlarni o'z vaktida agrotexnika muddatlarida bajarish;

– tuproqqa ishlov berish, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarish qilish, hosilni yig'ib olish va boshqa xizmatlarda mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish;

– qishloq xo'jaligi korxonalariga texnika va servis xizmatini ko'rsatish, traktorlar qishloq xo'jalik mashinalari ehtiyot qismlari va boshqa turdagi moddiy texnika rusurslari bilan ta'minlash;

– ishdan chiqqan ehtiyot qismlari ta'mirlash, yangilarini ishlab chiqarish va sotish;

– yangi qishloq xo'jalik texnikalarini sotib olish;

– kim oshdi savdolarida va yarmarkalarida qatnashish;

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatini yuritish;

– xarid kilingan mahsulot va xomashyolarni eksportga jo'natish, shuningdek import muammolarini konkret asosda, beligilangan tartib, amalga oshirish;

– tovar ayirboshlash jarayonini o'tkazish va rivojlantirish;

– kichik ishlab chiqarish korxonalari, sexlari tashkil qilish;

– tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish savdosini tashkil qilish;

– jamiyat ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish va mustahkamlash;;

– boshqarish va xo'jalik yuritishning samarali turlari va uslublarini joriy etish asosida, hamda bozor munosabatlari sharoitida ish haqqini oshirishini ta'minlagan holda mehnat unumdorligini oshirish;

– bozor munosabatlari sharoitida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni shakllantirish;

– asosiy fondlar texnika va boshqa xil mulkning dahlsizligini ta'minlash;

– tashqi iqtisodiy marketing, konsalting va auditorlik faoliyatini amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga zid ravishda bo'lmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish;

– litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlari, tegishli litsenziyalar olingandan so'ng amalga oshiriladi.

An'anaviy bozor muhitini qayta tiklash maqsadida, xalqning turmush tarzini hisobga olib, belgilangan muddatlarda savdo do'konlari, savdo shoxobchalari, sexlarini qayta qurish, ularni zamonaviy uskuna, asboblar va og'ir mehnat jarayonlarini mexanizatsiya vositalari bilan jihozlashni yaxshilashni ta'minlaydi.

Jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etish va o'z faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

– uz mulkida egalik qilishi va undan foydalanishi amaldagi qonunchilikka tayangan holda, o'z balansidagi qarzlar, kamomadlar va boshqa zararlarni hisobdan chiqarish;

– o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashni, o'z-o'zini qoplashni va vujudga kelgan bozor kon'yukturasini hisobga olgan holda, amalga oshirilgan ishlar, kursatilgan xizmatlar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun mustakil narx belgilash;

– mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lish;

– o'z nomidan shartnomalar va kontraktlar tuzish, huquqiy harakat qilish, hamda mulkni sotib olish va ijaraga olish;

– respublika va undan tashkarida filiallar, qo'shma korxonalar, vakolatxonalarni barpo qilish va ta'sis etish;

– xohlagan banklarda hisob va boshqa raqamlarni ochish va ular orqali milliy va xorijiy valyutalarda operatsiyalarni amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi va undan tashqarida mahalliy va xorijiy korxonalar, tashkilotlar va boshqa huquqiy shaxslar bilan shartnomalar va huquqiy aktlar tuzish, belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi hududida kuchmas va kuchar mulkka egalik qilish va ijaraga berish;

– assosatsiya ittifoqlar, konsorsiumlar, aksiyadorlik va holding kompaniyalari va boshqa birlashmalar tarkibiga kirish;

– o'z ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini, hamda ijtimoiy rivojlanish jamg'armalarini mustaqil ravishda rejalashtirish;

– Ushbu nizomga muvofiq holda foyda (daromad)dan foydalanish;

– shartnoma asosida xohlagan mehnat jamoatlarini, hatto xorijiy mutaxasislardan iborat mehnat jamoalarini mehnatga jalb qilish;

– litsenziya va patentlarni olish;

– texnika, uskunalar, texnologiyalar, patetnlar, «nou-xao», dasturlar sotib olish, yaqin va olis xorijga mutaxassislarni safarbar

etish xarajatlarini qoplash va xorijiy reklama, ishlab chiqarish va tijorat anjumanlarida katnashish xarajatlarini qoplash maqsadida sum va xorij valyutasi vositalaridan mustaqil foydalanish;

AJ MTPning boshqarish organlari quyidagilar hisoblanadi:

– Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;

– Kuzatuv kengashi;

– Ijroiya organi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi AJ MTPni boshqarish oliy organi hisoblanadi. Jamiyat har yilda aksiyadorlar umumiy yig'ilishini (aksiyadorlar hisobot umumiy yig'ilishi) o'tkazadi. Aksiyadorlar hisobot umumiy yig'ilishi yiliga bir marotaba, ammo moliyaviy yil tugaganidan so'ng olti oydan kechiktirmasdan o'tkaziladi. Aksiyadorlar hisobot umumiy yig'ilishida majburiy tarzda jamiyat yillik hisoboti va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Yillik umumiy yig'ilishdan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar navbatdan tashqari hisoblanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, uni o'tkazish haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etiladigan materiallar (ma'lumotlar) ro'yxati jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi, ushbu yig'ilishni o'tkazish haqida qaror qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kundan kam va qirq besh kundan ko'p muddatda belgilanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishning mutloq vakolatiga quyidagilar kiradi:

– Jamiyat Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash;

– Jamiyatni qayta tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

– Jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash va oraliq hamda yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

– Kuzatuv kengashi a'zolari miqdor tarkibini belgilash, Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash va muddatdan avval vakolatlarini tugatish;

– E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

– Jamiyat ustav jamg'armasini ko'paytirish;

– Jamiyat Ustav jamg'armasi miqdorini kamaytirish;

– Joylashtirilgan aksiyalarni qaytarib sotib olish;

– Jamiyat taftish komissiyasini tayinlash va muddatdan oldin vakolatlaridan ozod etish;

– Auditor tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qarorni qabul qilish, auditor tashkilotini tanlash va auditorlar xizmati uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilash;

– Jamiyatning yillik biznes-rejasi, yillik hisobotlari, buxgalteriya balanslari, Jamiyat foyda va ziyonlar hisobini, hamda foyda va zararalarni taqsimlash hisobotini tasdiqlash;

– Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha, uning hisobotlarini tinglash;

– Aksiya va qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorlarning imtiyozli huquqini ishlatmaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

– Umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

– Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

– Qonunchilikda va jamiyatning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlarda, bitimlar tuzish;

– Qonunchilikda va jamiyatning. ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlarda. Jamiyat tomonidan mulk sotib olish yoki uni sotish bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilish;

– Ustav, Jamiyatning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

AJ MTP quyidagi masalalar bo'yicha:

– Jamiyatni qayta tuzish;

– Jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash va oraliq hamda yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

– Jamiyat kuzatuv kengashining miqdor tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

– Jamiyatning ustav jamg'armasini ko'paytirish;

– Jamiyat tomonidan balans narxi qaror qabul qilish kuniga Jamiyat aktivlari balans qiymatining 50 foiz miqdoridan ko'p bo'lgan mulkni sotib olish yoki uni sotish bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish;

– qarorlar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan, agar amaldagi qonunchilikda boshqasi nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari ovozlarining to'rtdan uch ko'pligi bilan qabul qilinadi.

Ko'rilgan masalalar bo'yicha qarorlar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari ovozlarining oddiy ko'pchiligi bilan qabul qilinadi. Umumiy yig'ilishda oddiy va imtiyozli aksiyalar egalari ishtirok etganda va ikkinchilari ham ovoz berishga haqli bo'lganda, ovozlar qaror qabul qilish paytida birgalikda hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilishni jamiyatning ijrochi organi zimmasiga yuklatish man etiladi. Ovozga quyilgan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqidan quyidagilar foydalanishadi:

– Jamiyatning oddiy aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar;

– Amaldagi qonunchilikda va mazkur Ustavda belgilangan holatlarda, Jamiyatning imtiyozli aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqini aksiyadorlar shaxsan, yoki yozma vakil orqali amalga oshiradi. Ovoz berish vakolatini beruvchi ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanishishi shart. Aksiyador istalgan paytda umumiy yig'ilishdagi vakilini almashtirishi mumkin yoki o'zi shaxsan umumiy yig'ilishda ishtirok etishga haqli. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqidagi xabar ommaviy axborot vositasida tegishli e'lon chop etish, va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 30 kalendar kuni avval tuzilgan aksiya-

dorlar reestriga asosan aksiyadorlarga yozma xabarnoma yuborish orqali e'lon qilinadi.

Umumiy yig'ilish o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish davrida aksiyadorlarga jamiyatning yillik hisobotlari, yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha taftish komissiyasining (taftishchi) va jamiyat auditori xulosalari, yakkaboshlik asosida faoliyat qiluvchi ijroiya organ bilan shartnomani o'zaytirish, qayta tuzish yoki bekor qilish haqidagi kuzatuv kengashi taqdimnomasi, jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga yangi a'zo sifatida saylanayotgan nomzodlar bo'yicha ma'lumot, ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihalari yoki yangi tahrirda ustav loyihasi beriladi.

Agar jamiyat aksiyadorlari reestrida qayd etilgan shaxs aksiyalarning nominal egasi hisoblansa, umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqidagi xabarnoma ushbu aksiyalarning nominal egasiga yuboriladi. Aksiyalar nominal egasi o'z mijozlariga umumiy yig'ilish sanasi va o'tkazish tartibi haqida xabarni yetkazishi shart. Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) moliyaviy yil tugagandan so'ng 30 kundan kechiktirmay, umumiy yig'ilishda ko'riladigan kun tartibiga masalalar kiritishga va Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga, ushbu organga a'zolik qiluvchilar sonidan oshmagan holda nomzodlarni kiritishga haqli.

Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlarni kiritganda, yoki aksiyador o'zini-o'zi nomzod qilib ko'rsatganda, nomzod ismi, unga tegishli aksiyalar soni va turi (agar nomzod Jamiyat aksiyadori bo'lsa), va nomzodni taklif etayotgan aksiyadorlar ismlari, hamda ularga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatiladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng, Kuzatuv kengashi 15 kun ichida ushbu masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish yoki kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan umumiy yig'ilish kun tartibiga taklif etilgan masala kun tartibiga kiritilishi,

shu bilan birga taklif etilgan nomzodlar kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga saylanadigan nomzodlar ro'yxatiga, ovoz berish uchun kiritilishlari shart, quyidagi holatlarda aksiyador taklifi rad etiladi:

– aksiyador (aksiyadorlar) tomonidn 12.18.-bandda belgilangan muddatga rioya qilmaslik;

– aksiyador (aksiyadorlar) tomonidn 12.18.-bandda belgilangan ovoz beruvchi aksiyalar miqdoriga ega bo'lmasa;

– ustavning 12.19 - 12.20-bandlariga muvofiq taqdim etiladigan ma'lumot to'liq bo'lmasa;

– taklif etilayotgan masala qonunchilik talablariga javob bermasa.

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala kiritish yoki kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga nomzodni ovoz berish uchun kiritish rad etilsa, kuzatuv kengashi ushbu qarorni qabul qilgan sanadan uch kun ichida, masalani kiritgan yoki nomzodni taklif etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga) qarorni yuborishi shart. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar va ovoz berish natijalari aksiyadorlar e'tiboriga ushbu umumiy yig'ilishda yetkaziladi, yoki, umumiy yig'ilish o'z ishini yakunlagandan so'ng, qarorlar qabul qilingan kundan boshlab 45 kundan kechiktirmay, ovoz berish natijalari haqida hisobotni chop etish yo'li bilan e'lon qilinadi. Agar aksiyador umumiy yig'ilish tomonidan qaror qabul qilinganda uzrli sabab bo'yicha umumiy yig'ilishda ishtirok etmagan bo'lsa, yoki ushbu aksiyador qaror qabul qilinganda qarshi ovoz berganda, aksiyador qabul qilingan qarorni sud orqali bekor qilishni talab qilishga haqli.

Navbatdan tashqari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kuzatuv kengashi tomonidan uning tashabbusi bilan, taftish komissiyasi talabi va talab kiritilgan kunga Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining o'n foizidan kam bo'lmagan aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar talabiga binoan o'tkaziladi. Taftish komissiyasi yoki Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining o'n foizidan kam

bo'lmagan aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar talabi bo'yicha navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashi tomonidan, navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazish haqida talabnoma olingan kundan boshlab 45 kun ichida chaqiriladi.

Kuzatuv kengashi taftish komissiyasi yoki jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining o'n foizidan kam bo'lmagan aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar talabi bo'yicha chaqirilgan navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas. Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish talabi aksiyador (aksiyadorlar) nomidan berilgan bo'lsa, talabnomada aksiyador (aksiyadorlar) ismi (nomlanishi) va unga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatilishi shart.

Navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqidagi asoslab berilgan qaror kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilingan sanadan uch kun ichida navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazishni talab qilgan shaxslarga yuboriladi. Kuzatuv kengashi tomonidan navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilish o'tkazishni rad etish qaroriga nisbatan sud organlariga da'vo bilan murojaat qilish mumkin. Agar qonunchilikda belgilangan muddatda kuzatuv kengashi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilmasa, navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni uni talab qiluvchi shaxslar tomonidan bevosita chaqirilishi mumkin. Bunday holatda aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra jamiyat mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

Agar umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish muddati tugaganda, jamiyatning joylashtirilgan va ovoz beruvchi aksiyalarining oltmish foizidan kam bo'lmagan aksiyalar egalari (ularning vakillari) ruyxatdan o'tgan bo'lsa, ushbu umumiy yig'ilish qarorlari huquqiy kuchga ega (kvorum mavjud) deb hisoblanadi. Kvorum mavjud bo'lmaganda, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazish uchun yangi sana e'lon qilinadi. Bu holatda

boshqa sanada o'tkaziladigan umumiy yig'ilish uchun kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish "bitta ovoz beruvchi aksiya-bitta ovoz" qoidasi bo'yicha amalga oshiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarini saylaganda kumulyativ ovoz berish va qonunchilikda belgilangan boshqa holatlar bundan mustasno. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopiq deb e'lon qilingandan 15 kun ichida umumiy yig'ilish bayonnomasi ikki nusxada tuziladi. Barcha nusxalar umumiy yig'ilish raisi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi. Umumiy yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

– aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgan vaqt va joy;

– jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalar egalarining umumiy ovozlar soni;

– yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning umumiy ovozlari soni;

– yig'ilish raisi (prezidium) va kotibi, kun tartibi.

AJ MTP Kuzatuv kengashi korxona faoliyati ustidan umumiy boshqaruvni amalga oshiradi, qonunchilikka asosan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiradigan masalalar bundan mustasno. Kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi va 3 kishidan iborat bo'ladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga, ular o'z vazifalarini amalga oshirish davrida mukofot puli to'lanishi, hamda kuzatuv kengashi a'zosining majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq, xarajatlar qoplanishi mumkin. Bunday mukofot va tovon pullar miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. AJ MTP kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

– jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

– jamiyat aksiyadorlari yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno;

– aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibini tayyorlash;

– aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanani belgilash;

– aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar berish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

– aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini tuzish sanasini belgilash;

– jamiyatning ustav jamg‘armasini ko‘paytirish;

– jamiyat tomonidan balans narxi qaror qabul qilish kuniga Jamiyat aktivlari balans qiymatining 25 foiz miqdoridan ko‘p bo‘lgan mulkni sotib olish yoki uni sotish bilan bog‘liq yirik bitimlarni tuzish;

– O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 65-modda, birinchi qismning ikkinchi va o‘n ikkinchi xatboshi bilan masalalarni umumiy yig‘ilishda hal etish uchun kiritish;

– jamiyat Ustav jamg‘armasi miqdorini aksiyalarni nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan ko‘paytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

– ustavda belgilangan e’lon qilingan aksiyalar doirasida qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yuli bilan ustav jamg‘armani ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish;

– emissiyaviy kimmatli qog‘ozlarini joylashtirish haqida qaror qabul qilish;

– jamiyat ijroiya organini shakllantirish (saylash, tayinlash, yollash va h-k.) va muddatdan avval vakolatlarini to‘xtatish;

– ijroiya organi hisobotlarini tinglash va har chorakda ijroiya organi faoliyati natijalarini ko‘rib chiqish;

– jamiyatning yillik biznes-rejasini ma’qullash;

– mulkning bozor qiymatini aniqlash;

– qonunchilikda belgilangan holatlarda, jamiyat joylashtirgan aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olish;

– ijroiya organiga to'lanadigan mukofot va tovon pul miqdorlarini belgilash;

– ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;

– jamiyat ijroiya organi faoliyatiga tegishli barcha hujjatlarni ko'rib chiqish, kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan masalalarni bajarish uchun ijroiya organidan hujjatlarni olish;

– taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan mukofot va tovon pullarining miqdorini aniqlash bo'yicha hamda auditorlar xizmati uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlash bo'yicha tavsiyalar berish;

– aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;

– jamiyatning zaxira va boshqa jamg'armalaridan foydalanish;

– jamiyat organlari faoliyatini me'yorlovchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);

– jamiyat filial va vakolatxonalarini ochish;

– jamiyat sho'ba va tobe korxonalarini yaratish;

– qonunda nazarda tutilgan va jamiyat mulk sotib olishi yoki uni sotishi bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish haqidagi qarorni qabul qilish;

– qonunda nazarda tutilgan va tuzilishida manfaatlar mavjud bitimlarni tuzish haqidagi qarorni qabul qilish;

– jamiyat boshqa jamiyatlar faoliyatida ishtirok etishi bilan bog'liq bitimlarni tuzish;

– amaldagi qonunchilikka muvofiq kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

AJ MTP kuzatuv kengashi vakolatiga kirgan masalalarni hal qilish ijroiya organi zimmasiga yuklatiladi. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga kiruvchi shaxslar kuzatuv kengashi tarkibiga cheklanmagan marotaba qayta saylanishi mumkin. Jamiyat ijroiya organi a'zolari Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanishi mumkin emas. Kuzatuv kengashiga ushbu jamiyatda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslar saylanishi mumkin emas. Jamiyat kuzatuv ken-

gashi tarkibiga saylanayotgan shaxslarga qo'yiladigan talablar aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

Aksiyador o'ziga tegishli ovozlarni kuzatuv kengashiga saylanayotgan nomzodlarning biriga to'lig'icha berishi yoki bir nechta nomzod o'rtasida taqsimlashi mumkin. Eng ko'p ovoz yig'gan nomzodlar kuzatuv kengash tarkibiga saylangan hisoblanadi. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari kumulyativ usulda ovoz berish bilan saylanadi.

Kuzatuv kengashi vakolatlarini muddatdan avval tugatish haqidagi qaror, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan faqat barcha kuzatuv kengashi a'zolariga nisbatan qabul qilinishi mumkin. Jamiyat kuzatuv kengashi vakolatlari muddatdan avval tugatilsa, navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda saylangan yangi kuzatuv kengashi vakolati keyingi yillik umumiy yig'ilish o'tkazilguncha davom etadi. Jamiyat kuzatuv kengashi raisi, kuzatuv kengashi tomonidan o'z a'zolari ichidan umumiy a'zolar sonining ko'pchilik ovozlari bilan saylanadi.

Jamiyat kuzatuv kengashi raisi kengash ishini tashkil etadi, umumiy yig'ilish va kuzatuv kengash majlislarida qabul qilingan qarorlar bajarilishini nazorat qiladi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida raislik qiladi. Kuzatuv kengashi raisi ba'zi sabablarga ko'ra, yo'q bo'lsa yoki vaqtincha mehnat layoqati cheklangan bo'lsa, uning vazifalarini kuzatuv kengashi a'zolarining biri bajaradi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari kuzatuv kengashi raisi tomonidan, uning tashabbusi bilan, kuzatuv kengashi a'zosi, taftish komissiyasi, auditor va jamiyat ijroiya organi talabiga ko'ra chaqiriladi.

Kuzatuv kengashi majlisida kvorum kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan a'zolarning yetmish besh foizidan kam bo'lmasiligi shart. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ustavda belgilangan yetmish besh foizdan kam bo'lsa, jamiyat navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirishi va kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylashi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari faqatgina bun-

day navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishni chaqirish haqidagi qarorni qabul qilishga haqli. Kuzatuv kengashi majlislarida qaror ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozlari bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlislarida masalalarni hal qilishda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega.

Jamiyat ustav jamg'armasi miqdorini e'lon qilingan aksiyalar doirasida ko'paytirish haqidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozda qabul qilinadi.

AJ MTPning joriy faoliyatini boshqarish jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan 1 yilga tayinlangan (direktor) ijroiya organi - boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv tarkibiga kiruvchi shaxslar va boshqaruv a'zolarining soni jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan jamiyat ijroiya organi to'g'risida Nizomga asosan belgilanadi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan, ijroiya organ vakolatlari shartnoma asosida tijorat tashkiloti (boshqaruvchi tashkilot) yoki xususiy tadbirkorga berilishi mumkin. Tuzilayotgan shartnoma shartlari korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqdanadi. Ijroiya organi (Direktor) vakolatlariga jamiyatning joriy faoliyati bilan bog'liq va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi mutlaq vakolatlariga kirmaydigan barcha masalalarni hal etish kiradi. AJ MTPning ijroiya organi rahbari - boshqaruv raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etadi va ijroiya organ zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

Boshqaruvning har bir a'zosi bilan shartnoma, jamiyat nomidan kuzatuv kengashi raisi yoki kuzatuv kengashi shunday vakolat bergan boshqa shaxs tomonidan imzolanadi. Boshqaruv aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari amaldagi qonunchilik, ustav hamda ularning har biri va jamiyat o'rtasida bir yilga, har yilda muddatini uzaytirish mumkinligi

to‘g‘risida qaror qabul qilish bilan tuzilgan shartnoma orqali belgilanadi.

Ijroiya organ rahbari - boshqaruv raisi o‘z faoliyatini mazkur ustav,aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi, boshqaruv qarorlari va amaldagi qonunchilik asosida amalga oshiradi, shu jumladan:

– o‘z vakolati doirasida jamiyat mulki va mablag‘larini tasarruf qiladi;

– huquqiy va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda jamiyatni ifodalaydi;

– jamiyat nomidan shartnoma va bitimlar tuzadi va shunday harakatlarni amalga oshirish uchun ishonchnomalar beradi;

– jamiyat nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi;

– barcha firma, korxona va tashkilotlarda jamiyat manfaatlarini ifodalaydi;

– ishga qabul qilinayotgan fuqarolar bilan shartnomalar tuzadi;

– amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan, faoliyat masalalari bo‘yicha farmoyish, buyruq, yo‘riqnoma va boshqa hujjatlarni chiqaradi;

– aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi, boshqaruv topshiriqlariga ko‘ra, amaldagi qonunchilik, ustav va jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida boshqa vazifalarni bajaradi. Boshqaruv majlislari o‘tishini boshqaruv raisi tashkil etadi, boshqaruv raisi jamiyat nomidan barcha hujjatlarni va boshqaruv majlisi bayonnomalarini imzolaydi. Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari tomonidan shartnoma shartlari, amaldagi qonunchilik, jamiyat ustavi talablari buzilganda, korxonaga zarar keltirilganda, jamiyat kuzatuv kengashi ular bilan tuzilgan shartnomani muddatdan avval tugatishga haqli.

AJ MTP kuzatuv kengashi a’zolari, ijroiya organi a’zolari, shuningdek, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi o‘z huquqlarini amalga oshirganda va majburiyatlarini bajarganda korxona manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari shart. Bunda jamiyatga zarar keltirgan qaror qabul qilinganda ovoz berishda

ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari zimmalariga javobgarlik yuklatilmaydi. Agar mazkur modda talablariga ko'ra, javobgarlik bir nechta shaxs zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, korxona oldida javobgarliklari solidar hisoblanadi. AJ MTP yoki jamiyat joylashtirgan aksiyalarning bir foizidan kam bo'lmagan aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) o'z harakatlari bilan jamiyatga zarar yetkazgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv a'zosi, shuningdek, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchiga qarshi sudga da'vo ariza kiritib, ziyonlarni qoplashni talab etishga haqli.

AJ MTP, tomonidan mulk bilan ta'minlanadigan va jamiyat tasdiqlagan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatuvchi filial va vakolatxonalarni tashkil etishga haqli. Filial va vakolatxona faoliyatini jamiyat tomonidan tayinlangan rahbar boshqaradi, u o'z faoliyatini belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va berilgan ishonchnoma asosida olib boradi. Jamiyat ustavidagi uning filiallari va vakolatxonalari haqidagi ma'lumotlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish Davlat tashkilotiga xabar beriladi. Jamiyat ustavidagi ko'rsatilgan o'zgarishlar uchinchi shaxslar uchun xabar berilgandan so'ng kuchga kiradi.

Sho'ba korxona asosiy jamiyat qarzlari bo'yicha javob bermaydi. Jamiyat sho'ba korxona bilan birgalikda, sho'ba korxona tomonidan asosiy jamiyat ko'rsatmalariga asosan tuzilgan bitimlar uchun javob beradi. Asosiy jamiyat aybi bilan sho'ba korxonasi nochorlik (bankrot) ahvolga tushsa, va asosiy jamiyat aybi o'z tasdig'ini topsa, asosiy jamiyat sho'ba korxona qarzlari bo'yicha subsidiar javobgarlikka tortiladi. Asosiy jamiyat sho'ba korxona tomonidan bajarilishi shart ko'rsatmalarni, asosiy jamiyat va sho'ba korxona o'rtasidagi shartnoma yoki sho'ba korxona Ustavida shunday huquq belgilangan bo'lsagina, berishga haqli. Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining yigirma foizidan ko'piga boshqa ishtirokchi egalik qilsa, birinchi Jamiyat xo'jalik tarzda bog'liq (tobe) deb hisoblanadi. Ishtirokchi va tobe jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi. Jami-

yat ishlari bo'yicha huquqiy va jismoniy shaxslar bilan vujudga kelgan barcha nizolar tegishli sud yoki boshqa vakolatli idoralar tomonidan hal qilinadi.

AJ MTP, qayta tuzilishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra, qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratish va qayta tuzish yo'llari bilan amalga oshiriladi. MTP (OAJ)ni qayta tuzilishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49-52 moddalarida va O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonunining 95-100 moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. AJ MTP, quyidagi holatlarda tugatilishi mumkin:

– aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan;

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud qaroriga asosan;

– Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarda.

MTP (OAJ)ni tugatilishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53-56 moddalarida va O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonunining 101-104 moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. AJ MTP ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan bo'lsa, jamiyat kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga jamiyatni tugatish va tugatish komissiyasini tayinlash masalasini hal qilish uchun olib chiqadi. Sud qaroriga asosan jamiyat tugatilganda, tugatish komissiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda tayinlanadi. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan boshlab, Jamiyatni boshqarish barcha vakolatlari tugatish komissiyasi zimmasiga o'tadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

Agar tugatilayotgan jamiyat aksiyadori sifatida davlat ishtirok etsa, tugatish komissiyasi tarkibiga davlat mulkini tasarruf etish huquqiga ega vakolatli organ vakili kiritiladi. Tugatish komissiyasi jamiyat faoliyati to'xtatilganligi, kreditorlarning talablarini qondirish tartibi va muddati to'g'risida Jamiyat joylashgan joyda mavjud ommaviy-axborot vositalari orqali e'lon qiladi. Kreditor-

lar e'tirozlarini qabul qilish muddati, shunday e'lon chop etilgan kundan boshlab ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas. Tugatish komissiyasi kreditorlarni aniqlash va debitor qarzdorlikni undirish uchun zarur choralarni ko'radi, yozma ravishda kreditorlarga jamiyat tugatilishi haqida xabar beradi.

Kreditorlar talablarini qabul qilish muddati tugagandan so'ng, tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi, unda tugatilayotgan jamiyat mulki tarkibi, kreditorlar talablari va ularni ko'rib chiqish natijalari ko'rsatiladi. Oraliq tugatish balansi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Agar jamiyatga tegishli pul mablag'lari kreditorlar talablarini qondirishga yetarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi jamiyat mulkini kim oshdi savdosi orqali, sud qarorlarini bajarish tartibida sotadi. Tugatilayotgan jamiyat kreditorlariga to'lovlar, tugatish komissiyasi tomonidan oraliq tugatish balansiga muvofiq, balans tasdiqlangan kundan boshlab, amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar tugatilgandan so'ng, tugatish komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan yakuniy tugatish balansini tuzadi. Barcha harakatlar amalga oshirilgandan so'ng, tugatish komissiyasi, qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda muomaladan jamiyatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish va jamiyat qimmatli qog'ozlarini chiqarishini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish bo'yicha zarur choralarni amalga oshiradi. Davlat ro'yxatga oluvchi idora tomonidan davlat reestriga tegishli yozuv kirtilgan paytdan boshlab AJ MTP faoliyati to'xtatilgan va jamiyat tugatilgan deb hisoblanadi.

Amaliyot tajribalari AJ MTP bir qator afzalliklarga ega ekanligi ko'rsatdi. Jumladan, masofa jihatdan qishloq xo'jaligi korxonalariga yaqinligi, xizmat baholarining arzonligi, ularni nisbatan sifatli va o'z vaqtida bajarilishi, tashkil etish uchun ko'p mablag' talab etilmasligi, ko'p turdagi texnika va uskunalar bilan jihozlanganligi va boshq. Shu bilan birga bir qator kamchiliklari ham yuzaga chiqdi, bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: asosan past unumli, xizmat muddatini o'tab bo'lgan sobiq shirkat texnika parki

negizida tashkil etilishi, xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining cheklanganligi, moliyaviy jihatdan zaifligi va boshqalar.

Bugungi kunda texnika vositalari bilan ta'minlovchi hamda asosiy turdagi texnik servis xizmati ko'rsatuvchi AJ MTP korxonalari o'zlarining monopol mavqeini saqlab qolmoqdalar. Shuning uchun ular tomonidan yetkazib berilayotgan texnika vositalari hamda ko'rsatilayotgan texnik xizmatlar narxi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Shu bois, ularga turdosh va teng kuchli bo'lgan korxonalarning tashkil etilishi hamda ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi raqobat muhitining paydo bo'lishiga, pirovard natijada haqiqiy erkin bozor munosabatlarining qaror topishiga olib keladi.

Bugungi sharoitda qishloq xo'jaligida o'zaro to'lovlar mexanizmi yaxshi ishlamayotganligi ham sohani texnika bilan ta'minlashni yaxshilashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. AJ MTP tomonidan ko'rsatilyotgan xizmatlarga to'lovlarni vaqtida amalga oshirilmasligi natijasida AJ MTPlarning debitor qarzdorligi ortib ketmoqda va ularning yangi texnika vositalari va ularning ehtiyot qismlarini sotib olish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. To'lovlar kechiktirilgan davr ichidagi inflyasiya yuki ham AJ MTPlar zimmasiga tushmoqda. Shu sababli texnik servis xizmati ko'rsatuvchi korxonalar bilan xizmatdan foydalanuvchi korxonalar o'rtasidagi o'zaro to'lov mexanizmi tartibga keltirish doimiy ravishda davlat tomonidan nazorat qilinib turilish lozim. Bunda nafaqat xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga to'lanadigan to'lovlar, balki qishloq xo'jaligi korxonalariga to'lanadigan to'lovlar ham tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yirik AJ MTPlarni rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

• qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashning yuqori hosildorlikni ta'minlaydigan va mehnat hamda moddiy resurslarni tejashga imkon beradigan eng yangi texnologiyalarini to'liq o'zlashtirish va xo'jaliklarda qo'llash;

• yuqori unumli texnika vositalari va mashinalar tizimi bilan qurollanish;

Ma'lumki, mahsulot yetishtirishning pirovard natijasi juda ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Mana shu omillardan biri mexanizatsiya bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish hisoblanadi. Yakuniy natijaga ta'sir etuvchi omillar ichida texnik xizmat omilini alohida ajratib olish va unga baho berish qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu muammoni hal qilishning qulay yo'llarini izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun AJ MTPlar tomonidan mexanizator-operatorlarni aniq belgilangan xo'jaliklarga butun mavsum bo'yicha biriktirib berish, bunda fermerlar xohish-istagini inobatga olish, mavsum oxirida fermer pirovard natijaga qarab mexanizator-operatorni rag'batlantirishi xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'zda tutilishi maqsadga muvofiq. Bu yerda ko'p yillik sinovdan o'tgan o'zaro munosabatlar omili muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari fermer xo'jaliklari bilan AJ MTP o'rtasida hamkorlikda ishlab chiqarishni tashkil qilish to'g'risidagi kelishuv asosida ishlash ham mexanizatsiya ishlari sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu kelishuv xizmat ko'rsatuvchi operator yetarli darajada texnika vositalari, ish kuchi va mutaxassislarga ega bo'lmagan sharoitlar uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hamkorlikda ishlab chiqarishni tashkil qilish to'g'risida shartnoma tuzish xizmat ko'rsatuvchi korxonaning fermer xo'jaligi yerida qonuniy ishlash va barcha texnologik jarayonlarni nazorat qilish imkonini beradi. Bu usul xizmat ko'rsatuvchi tashkilot fermer xo'jaligiga o'zi tomonidan berilayotgan tovar yoki xizmat ko'rinishadagi kreditdan qanday foydalanilayotganligini nazorat qilishdan manfaatdor bo'lgan holatlarda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida AJ MTPlar va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda quyidagilarni ko'zda tutish lozim:

• xizmatdan foydalanuvchi xo'jaliklarning mutaxassislari AJ MTP ishlarini tashkil qilishda hamda bajariladigan xizmatlar sifatini nazorat qilishda faol va tizimli ravishda ishtirok etishi;

• mexanizator-operatorlar, masalan, kombaynchilarning ish haqlari haqiqatda bajarilgan ish hajmiga qarab to'lanishi va sifat bo'yicha barcha qo'yilgan talablar bajarilganda 100 foizlik qo'shimcha ish haqi to'lanishi;

• xo'jaliklarda mavjud texnikalar, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, AJ MTPdagi texnika turlari va rusumi, xo'jaliklardagi moliyaviy mablag'larning mavjudligi va boshqa sharoitlardan kelib chiqqan holda mexanizatsiya ishlarini bajarish va texnikalardan foydalanishning iqtisodiy jihatdan samarali sharoitlarini aniqlash;

• to'lanadigan soliqlar soni va miqdorini va mexanizatsiya ishlarining tannarxini hamda bahosini, o'z navbatida, mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida AJ MTPlarga soliq solishda ularni qishloq xo'jalik korxonalariga yaqinlashtirish.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari bilan AJ MTPlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga soluvchi asosiy xujjat tuzilgan shartnoma bo'lar ekan, ana shu shartnomani to'liq bajarilishini ta'minlash uchun barcha tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki tomonlama shartnomaviy munosabatlarga chetdan aralashuvni bartaraf qilish, tomonlarni shartnoma bilan ishlash madaniyatini oshirish bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

7.3. Mashina tarktor parklarining daromadlari va ishlab chiqarish xarajatlari

AJ MTPning ishlab chiqarish faoliyati natijasida korxona oladigan foyda, amaldagi qonunchiliqka binoan barcha soliq va majburiy to'lovlarni to'lagandan so'ng, uning ixtiyorida qoladi va amaldagi qonunchilik muvofiq, aksiyalar bo'yicha dividend to'lashga yo'naltirilishi mumkin. Dividend deb, barcha soliq va

majburiy to'lovlarni to'lagandan, qayta investitsiyalar amalga oshirilgandan so'ng jamiyat tasarrufida qoladigan va aksiyadorlar orasida taqsimlanishi kerak bo'lgan foyda qismi tushuniladi. Dividendlar jamiyat ixtiyoriga qolgan sof foyda va (yoki) o'tgan yillardan taqsimlanmay qolgan foyda hisobidan to'lanadi. Jamiyat har bir aksiya turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan, dividendlar pul ko'rinishida yoki boshqa qonuniy to'lov vositasi ko'rinishida to'lanishi mumkin. Dividendlar aksiyadorlar orasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

AJ MTPning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlarni har chorakda, yarim yilda yoki yilda bir marotaba to'lashga haqli. Quyidagi holatlarda jamiyat dividend to'lash (e'lon qilish) haqida qarorni qabul qilishga haqli emas:

– Jamiyat Ustav jamg'armasi to'liq shakllanmaguncha;

– Dividend to'lab berish paytida jamiyatda qonunda belgilangan nochorlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bunday to'lov amalga oshirilishi natijasida Jamiyatda nochorlik belgilari paydo bo'lishi mumkin bo'lsa;

– Jamiyatning sof aktivlari qiymati uning Ustav va Zaxira jamg'armalaridan kam bo'lsa;

– Jamiyat chiqargan imtiyozli aksiyalar Jamiyat foydasi miqdoridan qatiy nazar, hamda Jamiyat tugatilgan taqdirda (tugatish qiymati) aksiya nominal qiymatining 20% miqdorida dividend olishga huquq beradi.

Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar ushbu maqsadlar uchun shakllantirilgan maxsus jamg'arma hisobidan to'lanishi mumkin. Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanayotgan dividendlar miqdori imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan miqdordan oshib ketsa, aksiyadorlar Umumiy yig'ilish qarori bilan imtiyozli aksiyalar egalariga to'lanadigan dividendlar miqdori oddiy aksiyalar egalariga to'lanadigan dividendlar miqdoriga tenglashtirilishi mumkin.

Yillik dividendlarni to'lash, dividend miqdori va to'lash shakli to'g'risidagi qaror AJ MTPning kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlar miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan katta bo'lishi mumkin emas, shu bilan birga, ushbu dividendlar miqdori to'langan oraliq dividendlar miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Dividendlarni to'lash muddati bunday qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 kundan oshmasligi kerak. Dividendlarni to'lashda, birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi, so'ng oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar tulanadi. Dividend egasi, uning qonuniy vorisi yoki merosxo'ri tomonidan talab qilinmagan dividendlar, belgilangan da'vo berish muddati tugagandan so'ng, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qaroriga binoan Jamiyat tasarrufida qoldiriladi. Dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilgan Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun tuzilgan Jamiyat aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlarigagina ushbu dividendlarni olish huquqiga ega bo'lishadi.

AJ MTPda kerakli miqdorga etguncha, yillik sof foydaning 5% ni ajratish yo'li bilan ustav jamg'armasi miqdorining 15% miqdorida zaxira jamg'armasi shakllantiriladi. Zaxira jamg'armasi mablag'lari ziyonlarni qoplash, jamiyat obligatsiyalarini sotib olish, sof foyda etmaganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va amaldagi qonunchilikka binoan bunday huquqqa ega aksiyadorlar talabiga ko'ra aksiyalarni qayta sotib olishga mo'ljallangan. Zaxira jamg'armasi mablag'larini boshqa maqsadlarga ishlatish man etiladi. Zaxira jamg'armasi mablag'lari qisman yoki to'liq sarflangan bo'lsa, sof foydadan ajratmalar tiklanadi.

AJ MTPning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan korxona ustaviga muvofiq bir yilga tayinlangan va uch kishidan iborat taftish komissiyasi amalga oshiradi. Jamiyat taftish komissiyasi vakolatlari amaldagi qonunchilik va mazkur ustav bilan belgilanadi. AJ MTPning taftish komissiyasi faoliyati tartibi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Nizomga mufoviq tartibga solinadi. Uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yillik yoki boshqa davr uchun

natijalarini tekshirish (taftish) taftish komissiyasi tashabbusi bilan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi yoki Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarning o'n foizidan kam bo'lmagan aksiyalar egasi (egalari) talablariga asosan amalga oshiriladi. Taftish komissiyasi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida korxonada hech qanday lavozimni egallab turmagan mustaqil ekspertlarni jalb etishga haqli.

Taftish komissiyasi talabiga ko'ra, korxonaning boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari moliyaviy-xo'jalik faoliyatga tegishli barcha hujjatlarni taqdim etishlari shart. Taftish komissiyasi, amaldagi qonunchilikka muvofiq, navbatdan tashqari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi chaqirtirishni talab etishga haqli. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin emas, shuningdek, AJ MTP boshqaruvida boshqa lavozimni egallashga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolariga va boshqaruv organlarida lavozimga ega shaxslar aksiyalari taftish komissiyasi a'zolarini saylaganda ovoz berishda ishtirok etmaydi. Aktivlarning balans qiymati bir milliard so'mdan oshsa, korxonada ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyat kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

Ichki audit xizmati ijroiya organi, vakolatxona va filiallar ishini qonunchilikka, ta'sis va boshqa hujjatlar talablariga rioya qilishlarini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumot to'liq va to'g'ri aks ettirilishini, xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda belgilangan qoida va talablarni bajarilishini, aktivlar butligini, hamda jamiyatni boshqarish bo'yicha qonunchilik bilan belgilangan talabalarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan baholaydi va nazorat qiladi. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga asosan olib boradi.

AJ MTP, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini olib borishi va moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart. Qonunchilikka ko'ra, korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etilishi, holati va haqqoniyligi, te-

gishli idoralarga o‘z vaqtida yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni, hamda aksiyador, kreditor va ommaviy axborot vositalariga faoliyat bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlarni taqdim etish uchun javobgarlik Boshqaruv zimmasiga yuklatiladi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga taqdim etilayotgan yillik hisobot, buxgalteriya balansi, foyda va ziyonlar hisobidagi ma’lumotlar to‘g‘riligi jamiyat taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi shart.

AJ MTP ko‘rsatilgan hujjatlarni e’lon qilishdan avval, har yilgi tekshirish va moliyaviy natijalarni tasdiqlash uchun, jamiyat va uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatlar orqali bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkilotini taklif etishi shart. Korxonaning yillik hisoboti aksiyadorlar yillik umumiy yig‘ilish o‘tkazilishidan kamida 30 kun avval kuzatuv kengashining dastlabki tasdig‘idan o‘tishi shart.



10-Rasm. Qishloq xo‘jaligini texnika vositalari bilan ta’minlanganlik darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar tizimi[1]

[1] Manba: Muallifning ilmiy tadqiqot ishlari asosida tuzilgan.

AJ MTPlarida mashinalardan foydalanish samarasi nafaqat ularning ekspluatatsiyasi, texnik tavsifi, balki ulardan foydalanishda qancha jonli mehnatni siqib chiqarishi, mashinalarning mehnat sig'imiga va ularni yaratishga sarflangan mehnat bilan ularni qo'llash natijasida olingan mehnat o'rtasidagi farq qanday darajaga tengligiga bog'liq.

Birinchi ko'rsatkich mashinalardan foydalanish davrida, ikkinchisi ishlab chiqarish jarayonida, uchunchisi xalq xo'jalik tarmog'ida namayon bo'ladi. Ayrim bir tarmoq, ya'ni uni ishlab chiqarish yoki undan foydalanish jarayoni nuqtayi nazaridan mashinalar samaradorligini baholash nisbiylik kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida texnika vositalaridan foydalanish samardorligini baholash ko'p qirrali masala bo'lib, unga qo'yilgan maqsadga muvofiq aniqlash, natijalarni turli ko'rinishda bo'lishini keltirib chiqaradi. Bu esa qishloq xo'jaligida texnika vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash masalaga majmuali yondashuvni taqozo etadi.

Qishloq xo'jlik texnikalaridan foydalanish samaradorligini baholashda tarmoqni texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ta'minotning qay darajada bo'lishligi texnikalaridan foydalanish samaradorligini provard natijani shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkchilar olib borilgan tadqiqotlar asosida tizimlashtirildi.

Qishloq xo'jaligida texnikani yangilashning ikki shaklini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Birinchidan yaroqsiz holga kelgan eski tehnikalarni tanlab almashtirish.
- Ikkinchisi miqdor jihatdan eskisidan farq qilmaydigan, o'zining texnik-ekspluatsiya xususiyati bo'yicha nisbatan yuqori bo'lgan, yangi zamonaviy texnika bilan almashtiriladi.

Ba'zi hollarda mashinalar parkini bir muncha, yani agrotexnik ishlarni qisqa muddatlarda yahshi bajarishni ta'minlash maqsa-

dida zarur miqdorlargacha ko'paytirish mumkin bo'ladi. Bunday jarayon har qanday korxona faoliyatida tabiy holat bo'lib hisoblanadi. Mavjud texnikani yangilashni ikkinchi shakli ilmiy tehnik taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassamlagan yangi zamonaviy texnika bilan almashtirish hisoblanadi. Bunday texnika odatda o'zining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha eski qo'llanilgan texnikadan keskin farq qiladi. Har qanday holatda ham tehnikani yangilash ishlab chiqarishning ilg'or innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Fermer xo'jaliklarida texnikadan foydalanish samaradorligini aniqlashda o'rtacha ko'rsatkichlar qo'llanilmoqda. MTPlardan foydalanish samaradorligini baholash va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimi sodda, keng mutaxassislar ommasiga tushunarli bo'lishi lozim va shu asosda mexanizatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator tadbirlarni belgilash va rejalashtirish kerak.

Umuman olganda mashina traktor parkidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish va umumiy baholashda asosan bir yil yoki bir necha yil uchun korxonalarning yillik yoki bir necha yillar bo'yicha yig'ma hisobot ma'lumotlari bo'yicha o'tkaziladi.

Fermer xo'jaliklarida texnikani foydalanishning iqtisodiy samaradorligini bir-muncha to'la ta'riflash uchun hisob-hisobot va reja hujjatlari asosida hisob kitob qiladigan haqiqiy va reja – me'yoriy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Me'yornomalarni, reja topshiriqlarni bajarish darajasi va MTP foydalanish darajasini ta'riflovchi amaliy va reja me'yoriy ko'rsatkichlar nisbatini ifodalovchi nisbiy miqdorlar juda muhim hisoblanadi. Ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish, texnikadan har tomonlama foydalanishni tadqiq etish imkoniyatlarini beradi. U yoki boshqa ko'rsatkichlar va o'lchovlarni tahlil etish uchun qaysi obyektlar, qaysi foydalanish davri olingan, bajarilgan ishlarni miqdori va tarkibi qandayligiga qarab tanlab olinadi. Bunda alohida turdagi mashinalar bo'yicha olingan ba'zi tahliliy ko'rsatkichlar, butun bir agregatlar guruhi, mashinalar majmuasi,

bir xil markali traktorlar yoki butun traktorlar parki ishini baholashda, (lekin odatda boshqa o'lchov birliklarda) qo'llanilishi mumkin. Agarda bir agregatning muayyan ishini haqiqiy bajarilishini aniq birliklar hisobida (ga, s, tn, tn-km, va boshqalarda) o'lchansa, butun traktorlar parki bo'yicha ishni muayan davr uchun bir qancha ishlar bo'yicha faqatgina umumlashtiruvchi o'lchovlarda, masalan, etalon traktor bilan, shartli haydalgan gektarlarda ifodalash mumkin.

Mashina traktor parkidan foydalanish samaradorligini tahlili qilishda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi natijalarini alohida resurs turlari va joriy ishlab chiqarish sarflari bilan taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan o'simchilikda ishlab chiqilgan yalpi mahsulot qiymatini, 100 ga shudgorga, MTPning 1000 so'mlik qiymatiga, uni ishlab chiqarishning 1000 so'mlik sarfiga, bir o'rtacha yillik mehanizatorga, o'simchilikdagi 1 ishchi kuni mexnati sarfiga va hokozo hisobida qaralishi mumkin. SHunday qilib, texnikani foydalanish samaradorligini tahlil qilishda quyidagilarni rejalashtirish va hisobga olish zarur:

- mashina va agregatlarda ish bajarish, mexanizatsiyalashgan ishlar hajmi;
- ish vaqti fondi, undan foydalanish, ishlarni bajarish muddatlari;
- mexanizatorlar va yordamchi xodimlar mehnat sarfi;
- eksplutatsiya sarf-xarajatlari;
- yoqilg'i - moylash materiallari harajatlari.

Undan tashqari, ulardan biri texnika bo'lgan, ishlab chiqarishning ko'pgina omillarining o'zaro ta'siri natijasi bo'lib hisoblangan va qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishining asosiy natijalarini tavsiflovchi, ko'rsatkichlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi» deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo'jaligida lizing munosabatlari qanday tartibda shakllanadi?
3. Qishloq xo'jaligi korxonalari moddiy-texnika ta'minotining tashkiliy omillari nimlaardan tashkil topadi?
4. ASMda transportdan foydalanishning o'zigaga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. AJ MTP o'z faoliyatini va oldida turgan vazifalarni amalga oshirish uchun qanday huquqlardan foydalanadi.
6. AJ MTPning ishlab chiqarish faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yoritib bering.
7. Fermer xo'jaliklarida tehnikani yangilashning qanday shakllari mavjud?
8. AJ MTPlarida texnikadan samarali foydalanish afzalliklari nimalardani iborat?

8-BOB-QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMA XIZMATLARI TIZIMIDA AXBOROT VA KONSALTING TA'MINOTINI TASHKIL ETISH

8.1. Infratuzilma tizimida axborot-konsating markazi xizmatlarining o'rni va unga bo'lgan talabni aniqlash uslubiyoti

Qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlar va erkinlashtirish jarayonlari soha iqtisodiyotini yuksaltirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, fermer va qishloq tadbirkorlarining mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etgan holda iqtisodiy-moliyaviy qudratini mustahkamlashga olib kelmoqda.

Bugungi kunda Prezidentimiz va hukumatimizning bir qator qaror va farmoyishlar asosida agrar sohada tadbirkorlik subyektlarini axborot bilan ta'minlash va ularga turli maslahatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirish borasida majmuali chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi zarur infratuzilmalar, jumladan, axborot-konsalting markazlari tashkil etish asosida ularga xizmatlar ko'rsatishning yo'lga qo'yilishi, shunday tadbirlar jumlasiga kiradi. Darhaqiqat, mamlakat agrar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tarkibida, fermer va dehqon xo'jaliklariga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlarini barpo qilishga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilishi, bu sohaning muhim amaliy ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "...Iqtisodiyotimizda tub demokratik va bozor islohotlarining amalga oshirilayotgani, xususiy mulkka keng yo'l ochib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jalik sohasida hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish

bo‘yicha ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilingani muhim prinsipial ahamiyatga ega bo‘ldi.”

Tahlillar ko‘rsatishicha, bir qator fermer xo‘jaliklari yuqori ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishganligi bilan aksariyat holatlarda ularning moliyaviy ahvoli pastligicha qolmoqda. Bunday xo‘jaliklar faoliyatining tahlil natijalariga ko‘ra, ularning bunday vaziyatga tushib qolishga boshqa omillar bilan bir qatorda xo‘jalik rahbarlarning bilimi, kasbiy mahorati, tajribasi talab darajasida emasligi hamda xo‘jalik faoliyatini boshqarish uchun zarur ma’lumot va axborotlar bilan ta’minlash masalasi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi hisoblanadi. Bu o‘z navbatida xo‘jaliklarda mavjud yer va suv, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan va boshqa mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmaslikka olib kelmoqda.

Faqatgina doimo o‘z bilim, malakasini doimo oshirib borayotgan va yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo‘lgan rahbar yoki mutaxassisgina xo‘jalik faoliyatiga oid oqilona va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni, xo‘jalik ishlab chiqarish yo‘nalishi va rivojlanish strategiyasini to‘g‘ri belgilashga, ishlab chiqarishga innovatsion g‘oyalar joriy etgan holda yer, suv, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni tashkil etishi mumkin.

Bu hol bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo‘jalik yuritish subyekti kabi, fermer va dehqon xo‘jaliklari ham o‘z faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishi uchun ma’lum bir axborot va ma’lumotlarga, xizmat ko‘rsatish tizimiga ehtiyoj sezadi. Eng kerakli axborotlarga o‘z vaqtida va muntazam ega bo‘lgan fermer va dehqon xo‘jaligi esa kuchli raqobat sharoitida yashovchanlik va moslashuvchanlik xususiyatlarini saqlab qolgan holda barqaror faoliyat ko‘rsata olishi mumkin.

Shuning uchun axborot-konsalting markazlari faoliyati tashkiliy-iqtisodiy mehanizmini bozor qonunlari asosida takomillashtirish, ular faoliyatini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar faoliyatining yakuniy natijasi bilan uzviy bog‘lovchi iqtisodiy mexanizmni shakllantirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Xo'jalik menejeri boshqaruvchisiga oid bunday xislatlarni fermer xo'jaligi rahbari yoki mutaxassislarida shakllantirish ko'plab rivojlangan mamlakatlarda axborot-konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi axborot-konsalting markazlariga yuklatilgan. Bugungi kunda respublikamiz agrar sohasida axborot konsalting markazlarini rivojlantirish quyidagi muammolarni hal etishga imkon beradi, ya'ni:

• Zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari va qishloq xo'jaligi amaliyotida erishilgan yutuqlarni keng targ'ib etish;

• Agrar soha tadbirkorlik subyektlari, fermer va dehqon xo'jaliklariga fan-texnika yangiliklari, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bo'yicha ilg'or tajriba va ilmiy amaliy tavsiyalardan foydalanish va amaliyotga joriy etishga sharoit yaratish;

• Xuquqiy, me'yoriy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy-agrotexnologik hujjatlar, standart va tartib-qoidalar borasidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ularni davriy va uzluksiz yangilab borish hamda ulardan agrar tadbirkorlik subyektlarining foydalanishiga imkon yaratish;

• Agrar tadbirkorlik subyektlari va birinchi navbatda fermer xo'jaliklariga sifatli, arzon va ishonchli resurslar manbaini izlab topishga va ulardan foydalanish, xarid qilish tartib-qoida va yo'llarini o'zlashtirishga;

• Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar asosida ilg'or g'oya va agrotexnologiyalarini joriy etishga va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish yo'nalishlari, tartib va shart-sharoitlarini bilishga;

• Xo'jalik tarmoqlarini diversifikatsiyalash yo'nalishlarini o'rganish, innovatsion jozibadorligini oshirish va investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishga;

• Zarur bo'lgan paytlarda turli yo'nalishdagi (huquq, iqtisod, moliya, menejment, marketing, eksport-import, standart va bojxona, agrotexnologiya, zootexniya, veterinariya, texnika va agro-

texnologiya va boshqa yo'nalishlar) malakali mutaxassislar maslahatidan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishga;

• Agrar fanni moliyalashtirish ilmiy-tadqiqot institutlari – kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi – yangiliklarni amaliyotga joriy etish kabi jarayonlarini yagona tizim asosida uyg'unlashgan holda tashkil etishga va boshqalar.

Axborot-konsalting markazlari o'z ustavi va belgilab olgan vakolati bo'yicha turli yo'nalishdagi xizmatlarni amalga oshirishi mumkin:

• Agrar tadbirkorlik subyektlariga turli yo'nalishlarda maslahatlar berish;

• Agrar tadbirkorlik subyektlari so'rov va talabnomalar bo'yicha axborotlarni uzatish-yetkazish, analitik xisobot, buxgalteriya hisob-hisobotlarini tayyorlash, turli yo'nalishlarda tadqiqotlar o'tkazish, ular asosida xulosa va takliflar tayyorlash;

• Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida erishilgan yuqori natijalarni, shuningdek, innovatsion loyiha va ilg'or ishlanmalarni OAV larida targ'ib etish va ommalashtirish;

• Davriy, mavsumiy va muntazam ravishda turli yo'nalishlarda ko'rik, ko'rgazma, tanlov, yarmarka va namoyishlarni tashkil etish, ilmiy-texnikaviy axborot xizmatlari ko'rsatish;

• Qishloq xo'jaligi mutaxassislari, fermer va dehqon xo'jaliklari rahbar, xodim va mutaxassislarni tayyorlash, o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirishga yo'naltirilgan qisqa, uzoq va o'rta muddatli o'quv-seminar-treninglarini tashkil etish, respublika va xalqaro miqyosda anjumanlar uyushtirish;

• Markazda shakllantirishgan ma'lumotlar bankini (belgilangan tartib-qoidaga rioya qilgan holda) byulleten, axborotnoma, uslubiy va amaliy qo'llanmalarda chop etish, ilg'or tajriba va innovatsion agrotexnologiyalar asosida mahsulot yetishtirish va xizmat ko'rsatishga bag'ishlangan amaliy, o'quv-uslubiy filmlarni tayyorlash va boshqalar.

Shu bois, qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmati (AKX) ko'rsatish tizimining asosiy maqsadi – fermer va dehqon xo'jaliklari

rahbarlari va boshqa barcha agrar soha tadbirkorlariga xo'jalik faoliyatini tashkil etish, yuritish va boshqarish hamda istiqbolini belgilashga oid tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, agrotexnologik va boshqa qarorlar qabul qilishda ularda nisbatan obyektiv fikr, tasavvur, qarash va g'oyalarni shakllantirish va oqilona hamda to'g'ri qaror qabul qilishlariga ko'maklashish maqsadida axborotlar mamuini ma'lum tartib, qoida tizim va tasnif hamda tamoyillar asosida yetkazishdan iborat.

O'z vaqtida olingan ma'lumot tadbirkorlik subyektlarining mexnat va ishlab chikarini tashkil etish, infratuzilma ko'nikmalari xizmatidan foydalanish, arzon va sifatli resurslardan bahramand bo'lish, fan yangiliklari va yangi texnika, agrotexnologiya hamda innovatsion loyihalarni jalb etish asosida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlash va daromadni ko'paytirishga xizmat qiladi. Shu bois, qishloq tadbirkorlari, fermer va dehqon xo'jaliklariga axborot-konsalting xizmatlari ko'rsatish masalasi bugungi kunda agrar soha iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonidagi muhim yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda bunday xizmatlar ko'lamining kengayishi, hajmining ortib borishi, qamrab olish doirasining oshishi, hamda bu toifadagi korxonalarning aksariyati samarali faoliyat ko'rsatish darajasida ekanligi agrar sohada xizmat ko'rsatish tizimi shakllanganligidan, ularning zamon talablari asosida rivojlanib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Bu yo'nalishdagi xizmatlar bugungi kunda mamlakatimizning turli mintaqa va hududlarida davlat unitar korxonasi, xususiy korxona, ma'suliyati cheklangan jamiyat, qo'shma korxona shaklida vazirlik, qo'mita, xolding, korporatsiya, aksionerlik jamiyati, kengash, uyushma hamda turli nufuzli xalqaro tashkilotlar va muassasalar qoshida tashkil etilmoqda.

Taxlillarning ko'rsatishicha turli shakl va ko'rinishdagi axborot-konsalting xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatining maqsadi ilmiy-texnika yangiliklariga oid ma'lumotlarni yig'ish va uni iste'molchilarga yetkazib berish, shuningdek, innovatsion va

ilmiy-texnikaviy loyihalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qo'llashga ko'maklashishdan iborat.

Bunda bosh maqsad axborot-konsalting markazlarida maxsus ilmiy-texnika axborotni shakllantirish asosida innovatsion faoliyat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish hisoblanadi. Tahlillar ko'rsatishicha axborot-maslahat markazlari faoliyatining barqarorligini ko'p jihatdan bu markazlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lami va sifatiga, ikkinchi tomondan, xizmatlarga bo'lgan talab hajmi va uning to'lovi masalalariga bog'liq.

Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting markazlari xizmatlariga bo'lgan talab hajmini aniqlash zarurligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- hududda tadbirkorlik subyektlariga axborot-konsalting xizmati ko'rsatishning hozirgi holatini tahlil qilish va baholash, bu sohani yanada rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash;
- qishloq hududlarida axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talab istiqbolini bashoratlash va rivojlanish strategiyasini belgilash bilan bog'liq vazifalarni hal etish chora-tadbirlarini belgilash;
- xizmatlardan foydalanuvchilar talab hajmini bilish, baholash va qishloq hududlarida xizmat bozorini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xizmat yo'nalishini ko'paytirish, ko'lamini kengaytirish va sifatini takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xizmat ko'rsatish metodologiyasini takomillashtirish va taktikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Respublikamizning mustaqillikka erishganidan so'ng turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari vujudga kelishi bilan ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Shu bois, islohotlarning dastlabki bosqichlarida xizmat ko'rsatish turlarining alohida turlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi.

Asosiy xizmat turlari – texnik servis xizmati, zooveterinariya,

konsalting xizmatlari, lizing xizmatlari va suv iste'molchilari uyushmalarini rivojlantirish bo'yicha alohida qonunlar, qarorlar qabul qilinib, chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa, Respublikamiz Prezidentining Farmonlari va hukumatimizning bir qator qarorlari asosida 2003-2013-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi asosida chora-tadbirlarini amalga oshirish natijasida fermer va dehqon xo'jaliklariga zarur bo'lgan infratuzilma obyektlari va xizmat ko'rsatish korxonalari alohida dastur asosida rivojlana boshladi. Natijada, fermer xo'jaliklari o'z hududlarida o'zlari uchun zarur bo'lgan deyarli barcha turdagi xizmatlarga bo'lgan talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-640-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning qabul qilinishi xizmatlarning jadal o'sib borishida muhim bosqich bo'ldi.

Tahlillar ko'rsatishicha, hududlarda tashkil etilgan axborot-konsalting markazlarining barqarorligi o'shbu hududning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlariga bevosita va bilvosita bog'liq. Shuningdek, axborot-konsalting xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni tashkil etishda ushbu hududdagi shakllangan ehtiyoj hajmini aniqlash, bu turdagi xizmat bo'yicha mavjud talab va taklifni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Qishloq hududlarida axborot-konsalting markazlarining bir maromda faoliyat yurita olmayotganliklariga aynan shu holat sabab bo'lsa, ikkinchidan, markazlar ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmat turlari, yo'nalishi, ko'lami va hajmining hududdagi fermer va qishloq tadbirkorlari talabiga mos kelmayotganligi hisoblanadi. Uchinchidan esa, xizmatlar uchun o'rnatilgan bahoning to'liq asoslanmaganligi hisoblanadi. Shu boisdan, bugungi kunda axborot konsalting markazlari faoliyati barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda eng dolzarb masalalardan biri, qishloq

xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilarning axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlash hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda dastlabki vazifa, bu markaz joylashgan hududdagi fermer va boshqa tadbirkorlik subyektlari bo'yicha ularning ishlab chiqarish va resurs imkoniyatini qiyoslovchi statistik ma'lumotlar bankini shakllantirish: yig'ish-jamlash va ularni guruhlash, toifalarga bo'lish, tahlillar asosida xizmatlar ko'lami, hajmi va miqyosini aniqlash hamda prognozlash hisoblanadi.

Tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmati ko'rsatishi takomillashtirish maqsadida fermer va dehqon xo'jaliklari va qishloq tadbirkorlariga axborot-konsalting xizmati ko'rsatishining quyidagi metodik jihatdan nisbatan zamonaviy va innovatsion tizimni tavsiya etish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar va ma'lumotlar tizimi[1]

	Ko'rsatkich va ma'lumotlar mazmuni
1	Xizmat ko'rsatiladigan hududdagi xo'jaliklar yetishtirilayotgan ekin turlari bo'yicha yer maydoni
2	Xo'jaliklar tomonidan yetishtiriladigan va sotiladigan mahsulot miqdori (sifat ko'rsatkichlari bilan)
3	Hududning iqtisodiy-moliyaviy holati
4	Qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnik bazasi, qishloq xo'jaligi texnikasi parkining tarkibi, tuzilishi, ulardan foydalanish darajasi
5	Xo'jaliklarning xizmatlardan foydalanish darajasi va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji

[1] Manba: Mualliflar tadqiqotlari asosida tuzilgan..

6	Xo'jalikning ishlab chiqish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) va mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnoma kontraktatsiyalar bo'yicha qabul qiluvchi, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatini qiyoslovchi ma'lumotlar
7	Xo'jaliklarda bajariladigan jami ishlar hajmi va uni xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan qancha qismi qondirilishi, ya'ni talab va taklif balansi
8	Xo'jaliklarda resurslardan – moddiy, mehnat, kapital, inson omili, ma'lumotlardan foydalashini hajmi, tartibi va miqdori
9	Xo'jaliklarning kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi
10	Xo'jaliklarda band bo'lganlar soni, ularning tarmoqlar bo'yicha bandligi
11	Xo'jaliklarda internet tarmog'ining mavjudligi, undan foydalanish darajasi va davriyligi
12	Qishloq xo'jaligi tarmog'ining ma'lumotlarga bo'lgan talabi koeffitsenti ("ma'lumot sig'imi", bu ayniqsa xizmat ko'rsatish va ma'lumotlarga bo'lgan talabni aniqlashda muhim ahamiyatga ega
13	Xo'jalikda bir mutaxassisning bir oy davomida ma'lumotlarga bo'lgan talabi va uning qondirilishi

Shu bilan birga qishloq xo'jalik korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari (ayniqsa, ko'prov tabiiy iqlim sharoitiga bog'liqligi), ishonchli hamkor bo'lishi (har bir ko'rsatilgan xizmatning kafolatlanishi) va boshqa xolatlarni qiyoslovchi ma'lumotlar ham axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda e'tiborga olinishi kerak. Buning uchun asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi lozim, ya'ni:

- Aniq bir turdagi xizmatlarga bo'lgan talabni hisobga olgan holda xizmat turlarini belgilab olish va ularni rivojlantirishga ustuvorlik berish;
- Fermer va qishloq tadbirkorlarining xohish va istaklaridan kelib chiqqan holda xizmat turini taklif etishni rejalashtirish va

xizmat ko'rsatish strategiyasini aniqlash va shu asosida xizmatlar portfelini shakllantirish;

- Xizmatlarga baho belgilashda talabning egiluvchanligi (elastikligini)ni hisobga olish;

Iste'molchilarning – fermer va qishloq tadbirkorlarining –talabi va bu talabning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va unga ta'sir etish mexanizmlarini ishlab chiqish. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti talab va taklif qonuniga asoslanadi. Shuning uchun, qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi markazlar fermer va qishloq tadbirkorlarining shuningdek, hududdagi boshqa korxonalarning talabini doimo o'rganib borishlari zarur.

Qishloq hududlarida fermer va qishloq tadbirkorlarining axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabini aniqlashning oddiy, kam mehnat ta'lab etiladigan quyidagi usullar yordamida aniqlash maqsadga muvofiq:

1 usul. Axborot-konsalting markazlari xizmatlarga bo'lgan talabni fermer va dehqon xo'jaliklari shuningdek, boshqa tadbirkorlik subyektlari o'rtasida maxsus so'rovnoma (anketa), uchrashuv, ko'rgazma, namoyish, tanlov va ko'riklar o'tkazish orqali xizmatlar turi, yo'nalishi va ko'lamini o'rganish.

2 usul. Axborot-konsalting markazi xodimlari tomonidan kelgusi yil uchun hududda faoliyat yuritayotgan fermer va qishloq tadbirkorlaridan buyurtmanomalar yig'ish usuli orqali aniqlash.

3 usul. Hisobot yilida hududda haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar har bir turining hajmidan kelib chiqqan holda yoki har bir xizmat turi bo'yicha o'tgan yili rejasining bajarilishini o'rganish natijasida talabni aniqlash.



11-rasm. Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting xizmatiga bo'lgan talabini aniqlash bosqichlari[1]

[1] Manba: Mualliflar tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga Respublika va xorijiy davlatlar agrar sohasida axborot-konsalting markazlari xizmatiga bo'lgan talabni aniqlash tajribasi va amaliyoti tahlili asosida qishloq hududlarida axborot-konsalting xizmatiga bo'lgan talabni aniqlashning chuqurlashtirilgan, mukammal olti bosqichli tadbirlarni amalga oshirish usulini tavsiya etish mumkin.

Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting markazlari xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda taklif etilayotgan ushbu metodologik yondoshuv, birinchidan, joylarda bu markazlar xizmatlarga bo'lgan talabning qay darajada bajarilayotganligini hamda qondirilayotganligini aniqlashga imkon bersa, ikkinchidan, tahlillar asosida har bir hududda xizmatlarning rivojlanganlik darajasiga baho berish va ularni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bu o'z navbatida ma'lum bir hudud, tuman va viloyat miqyosida qishloq va suv xo'jaligi masalalariga mutasaddi bo'lgan ma'muriy-boshqaruv tuzilmalariga fermer va qishloq tadbirkorlariga xizmatlar, jumladan axborot-konsalting xizmatlari sifatini takomillashtirishga, ko'lamini kengaytirishga, ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishga amaliy yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, tavsiya etilayotgan metodologiya va yondashuv asosini xizmat talab qilingan vaqtda, sifat va tartiblarda bajarilishini ta'minlashni tashkil etadi. Chunki, faqat kerakli vaqtda o'z muddatida ko'rsatilgan xizmatgina samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, vaqtida ko'rsatilmagan xizmat mahsulot sifatining pasayishiga, yo'qotishlarni ko'payishi va tannarxini oshishiga, vaqtida taqdim etilmagan hisobot uchun ko'riladigan jazo choralari (peniya, ogohlantirish, qo'shimcha to'lov va hakozolar)ni qo'llashga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida tadbirkorlik subyektining xaridor-mijozlari o'rtasida uning nufuziga putur etkazishi, moliya va bank, soliq va boshqa ma'muriy, boshqaruv va nazorat tashkilotlari oldida "to'lovga layoqatsiz" yoki "ishonchni suiste'mol qilgan tadbirkor" sifatida ko'rsatib, "ishonchsiz hamkor" toifasidagi mijozlar qatoridan joy olishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlashda dastlab hududdagi mavjud talabdan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda axborot-konsalting xizmat ko'rsatish markazlarining asosiy faoliyat ko'rsatish yo'nalishi aniqlab olinishi lozim.

Bugungi kunda hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan axborot konsaltining markazlarining asosiy qismi 3 ta katta yo'nalishda faoliyat ko'rsatishmoqda:

Birinchi yo'nalish. Turli xil yo'nalishlarda fermer va dexqon xo'jaliklari va boshqa agrar tadbirkorlik subyektlariga maslaxatlar berish bilan shug'ullanayotgan markazlar. Jumladan, agronomiya va tuproq unumdorligi, o'simliklarni himoya qilish, ilg'or agrotexnologiyalar, naslchilik ishlari irigatsiya va milioratsiya bo'yicha va boshqalar.

Ikkinchi yo'nalish. Moliyaviy, buxgalteriya va huquqiy hujjatlarni tayyorlab berish hamda ular talabnomalari asosida xizmat ko'rsatish va mahsulotlar topshirish shartnomalari bo'yicha to'lovlar va tushumlarni undirishga amaliy yordam ko'rsatish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan markazlar. Masalan, biznes-rejalar tayyorlab terish, bankdan kredit olish uchun hujjatlar tayyorlab berish, investitsiya uchun texnik-iqtisodiy asosnoma tayyorlash, buxgalteriya xizmatlarini bajarish va boshqalar.

Uchinchi yo'nalish. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni va boshqa iste'molchilarni turli xildagi ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlash. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari, moddiy-texnika resurslari narxlari, yangi texnika vositalari va ilg'or texnologiya, biostimulyatorlar, shuningdek, ob-havo va iqlim to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan axborot-konsaltining markazlari xizmat ko'rsatish jarayoni bir xil tashkil etilmagan bo'lib, ayrim chekka hududlarda bunday markazlar faoliyati talab darajasida emas. Ayrim yo'nalishlardagi xizmatlarga, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi xizmati hamda xizmat ko'rsatish va mahsulot topshirish shartnoma-

lari bo'yicha to'lovlar va tushumlarni undirishga amaliy yordam ko'rsatish (ikkinchi yo'nalish) sohasini takomillashtirish talab etiladi. Ayrim markazlar tashkiliy tuzilmasida marketing bo'limi hamda xizmat ko'rsatish va mahsulot topshirish shartnomalari bo'yicha to'lovlar va tushumlarni undirishga amaliy yordam ko'rsatish (guruhi) yo'nalishi ko'zda tutilgan bo'lsa, boshqalari bunday guruhlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Shuningdek, markaz mutaxassislari xizmat ko'rsatiladigan hudud to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emas va marketing tadqiqot olib borish doimiy ravishda olib borilmaydi.

Shu bois, axborot-konsalting markazlari tarkibida "Marketing tadqiqotlari o'tkazish va axborotlar to'plash bo'limi" hamda xizmat ko'rsatish (ish bajarish) va mahsulot topshirish shartnomalari bo'yicha to'lovlar va tushumlarni undirishga amaliy yordam ko'rsatish guruhini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu bo'lim va guruh mutaxassislarining vazifalari aniq belgilanishi lozim. Ta'kidlash joizki, respublikamizda fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini maqbullashtirish maqsadida qator tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsada, ba'zi tumanlarda fermerlar Kengashi qoshida tashkil etilgan axborot-konsalting markazlari to'laqonli faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib ular tashkiliy-moddiy jihatdan ko'makka muxtoj hisoblanadi.

Axborot-konsalting markazlarida hududidagi talabni aniqlash uchun markazlarda buyurtmalar portfelini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda axborot-konsalting markazi xodimlari tomonidan kelayotgan yil uchun hududda faoliyat yuritayotgan qishloq tovar ishlab chiqaruvchilardan buyurtmanomalar yig'ish orqali talabni aniqlash mumkin. Buyurmalar portfelini yuqorida qayd etilgan uch yo'nalish bo'yicha shakllantirilish tavsiya etiladi.

Axborot-konsalting markazlari faoliyatini barqarorlashtirish, ular ko'rsatayotgan xizmatlarga talabni oshirish ko'p jihatdan xizmat ko'rsatishning metodologik jihatdan nisbatan zamonaviy va innovatsion tizm va shakllarini qo'llashga bog'liq bo'lib qolmoqda.

3- jadval

Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting markazlarida xizmat ko'rsatishning metodologik jihatdan nisbatan zamonaviy va innovatsion tizimi va shakli

Maqsad	Usul va uslub	Manzil va maqsadli guruhlar
Vujudga kelgan muammoni kelib chiqish sababini aniqlash va uni hal etishga ko'maklashish	Xo'jalikka-fermer va dexqon xo'jaligi, qishloq tadbirkori xuziriga tashrif buyurish, muammo joyida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish joyida, jarayonida o'rganish	Alohida olingan bitta mutaxassis, mutaxassislar guruhi, maxsus guruh
Holatni tahlil etish va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash	• Rasmiy bo'lim va norasmiy shaklda guruhlarga bo'lingan holda muloqot qilish, fikr almashish; • Maslahat guruhi tashkil etish, maslahat xizmati ko'rsatuvchi doimiy/ mavsumiy guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish; • Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida ko'rik va namoyishlar tashkil etish; • Namunaviy dala maydonlariga yoki fermer/ dehqon/qishloq tadbirkori xo'jaliklariga tashrif buyurish, zamonaviy va innovatsion g'oya joriy etilgan ishlab chiqarish/xizmat ko'rsatish/ ish bajarilayotgan obyektlarni borib ko'rish va faoliyatni o'rganish; • Mavjud holatni foto va video tasvirga tushirish, anketa so'rovlarini o'tkazish, maxsus ekspert baholash varaqalarga qayd qilib borish.	Maxsus kichik guruhlar/ bo'limlar: • Dehqonchilik; • Chorvachilik; • Parrandachilik; • Mahsulotni qayta ishlash saralash, qadoqlash; • Qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi; • Sug'orishning innovatsion usullarini joriy etish; • Yer resurslaridan samarali foydalanish; • O'simliklar zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash; • Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish; • Urug'chilik, naslchilik; • Xizmat ko'rsatish va mahsulot topshirish shartnomalari bo'yicha to'lovlar tushumlarni undirishga amaliy yordam va boshqalar.

Ma'lumotni yetkazish, targ'ibot va tashviqot qilish	• axbarot yetkazish va maslahat berish kunlari-ertalab har haftaning belgilab olingan ma'lum kunida,masalan dushanba kuni/yoki erta tongda,yoki ikki hafta bir marta tanlangan fermer/dehqon xo'jaligi yoki qishloq tadbir kori xo'jaligi hududida; • tanlovlar, ko'riklar va namoyishlar tashkil etish; • ma'lumot va xizmatlardan dalanish, innovatsion g'oya va ilg'or tajribani joriy etishni aks ettiruvchi namoyish, ko'rik va seminar-treniglar, onlayn-internet anjumanlari tashkil etish; • radio va televedinie orqali eshittirishlar tashkil etish, gazeta, jurnal, axbarotnoma va byulletenlarda materiallar chop etish; • internet web-saytlarda xabardar joylashtirish, elektron pochtalarga ma'lumotlar yuborish; • xo'jalik faoliyatini tashkil etish, boshqarish, hisob-kitobni yuritish, ta'minot, resurs va kiridit olish muammolari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha davra suhbatlari, "oilaviy-internet" muloqatlari tashkil etish; • xo'jalik faoliyati bilan boliq dolzarb masalalar va ular echimi bo'yicha o'quv-uslubiy va amaliy qo'llamalar tayyorlash, ularni tarqatish;	Xizmat turi va yo'nalishiga bo'lgan talablar bo'yicha guruh va vaqtinchalik mutaxasislar jamoatchilik guruhlari

Manba: muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

Chunki, bugungi qishloq tadbirkorlari 10-15 yil oldingi tadbirkor emas edi. Bugungi kunda, maxsus bilim va malakaga ega, axborot texnologiyalari sohasidan xabardor, internet va uyali aloqa va boshqa zamonaviy aloqa vosita va usullarni o'zlashtirgan tadbirkor hisoblanadi. Shu bois, axborot-konsalting xizmatini taklif qilish usulini tanlashda tadbirkorning ham mintalitetini hisobga olish o'ta muhim hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida axborot-konsaltintng markazlari yuqorida ko'rib qayd etilganidek, turli yo'nalishlarda ko'rsatishi mumkin. Shunday xizmatlardan biri axborot-maslahat xizmatlari o'zagini tashkil etuvchi xizmat yo'nalishi-ma'lumotlar bilan ta'minlash, ya'ni ma'lumotlarga bo'lgan talabni qondirish hisoblanadi. Axbarot-konsalting markazlari doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarni quyidagi ketma-ketlikda va zanjirsimon jarayon ekanligi sabali, ayrim xizmat turlari, jumladan, xo'jaliklarning turli ma'lumotlarga bo'lgan talabini qondirish xizmati xususida to'xtalib o'tamiz.

Qishloq hududlarida u yoki bu axborot-konsalting markazlarida turli yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar taklif etilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, quyidagi omilar axborot-konsalting markazlari xizmat yo'nalishlarining shakllanishiga, xizmat darajasi, ko'lami, miqyosi hamda xizmatlar ko'rsatish usuli va vositasiga ta'sir ko'rsatmoqda, ya'ni:

- Hududining tabiiy-iqlim sharoiti, relefi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yo'nalishi, iqtisosligi;
- Hududda faoliyat yuritayotgan xo'jalik shakli, etishtirilayotgan ekin turi, moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi;
- Hududning yirik shahar va sanoat markazlaridan yaqin-uzoqda joylashganligi;
- Hududda kommunikatsiya-aloqa tizimining rivojlanganligi;
- Bozor, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda boshqa ijtimoiy infratuzilma ko'nikmalarining shakllanganligi va faoliyati darajasi;
- hududda agrosanoat majmui infratuzilmasi tizimining taraqqiy etganligi;

• Hududdagi axborot – konsalting markazlari mutaxassislari salohiyati, o'quv-uslubiy hamda ma'lumotlar bazasining shakllanganligi va boshqalar.

Bu omillar axborot-konsalting markazlari xizmatlariga, ayniqsa axborot-maslaxat xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda inobatga olinishi lozim. Hududiy sharoitdan kelib chiqqan holda axborot-maslahat xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlash vazifasini uch usul bilan aniqlash tavsiya etiladi:

• **birinchi usul,** bevosita axborot axborot-maslaxat xizmati bozorini tahlil qilish;

• **ikkinchi usul,** maqsadli guruhlar: fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq tadbirkorlari va boshqalarni maxsus anketa so'rovnomalari asosida so'rovlar o'tkazish yo'li bilan axborot-maslahat xizmati bozoridagi xizmatlar hajmi va tarkibini o'rganish;

• **uchinchi usul,** axborot-maslaxat xizmatlariga oid ikkinchi ma'lumotlarni va mutaxassis-ekspertlar (odatda xo'jalik rahbari, ish yurituvchi, mutaxassis, maslaxatchi va boshqalar) fikr, xulosasi va bahosiga asoslangan holda baho berish.

Amaliyot ko'rsatishicha, hududlarda asosan yuqorida ko'rsatib o'tilgan birinchi va ikkinchi usullardan nisbatan ko'proq foydalanilmoqda. Shu bilan birga ushbu usullardan yanada keng-roq foydalangan holda axborot-maslahat xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashda ayrim to'siq va muammolar mavjud. Masalan, birinchi qo'llash nihoyatda ko'p hajmdagi maxsus ma'lumotlarni to'plashni talab etadiki, bu birinchidan, nihoyatda mashaqqatli va ko'p mehnat talab qiladi, ikkinchidan, aksariyat hollarda bunday ma'lumotlar fermer va tadbirkorlar subyektlarining ishlab chiqarish yoki iqtisodiy-moliyaviy nuqtayiy-nazardan siri bo'lganligi bois, ularni yetarli darajada to'plashning iloji bo'lmaydi.

Ikkinchi usul ham nisbatan sermexnat bo'lganligi bilan birga, ushbu usul asosida olingan ma'lumotlarning reprezentativligi ayrim hollarda muammo keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu usulni qo'llashda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolar sirasiga o'tkazilgan so'rovnomalarni tahlil qilish, xulosa va takliflar tay-

yorlash ko'p vaqt talab qilishini kiritish lozim. Chunki, so'rovnoma o'tkazish vaqti va olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, xulosa va takliflar tayyorlash cho'zilib ketsa, olingan natijalar real haqiqatni aks ettirmaydi, pirovard natijada taklif va xulosalarning reprezentativligi kamaydi. Shunga qaramasdan, ushbu usul bugungi kunda qishloq xo'jaligida axborot-maslaxat xizmatlariga bo'lgan talabni aniqlashning eng samarali usuli hisoblanadi, hamda undan amaliyotda foydalanishga tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, baholash nazariyasi va amaliyoti hamda tamoyillariga asoslangan uchinchi usulni inkor etmagan holda, ushbu usulni yirik shahar va sanoat markazlari atrofida joylashgan hamda sermehnat va noqishloq xo'jalik faoliyat (ko'p tarmoqli) turi bilan shug'ullanayotgan xo'jaliklarning axborot-maslahat xizmatlariga bo'lgan talabini aniqlashda qo'llash birmuncha yuqori samara beradi.

Takidlash joizki, baholash tamoyillariga asoslangan usul ma'lumotlar bozoridagi joriy holatni tavsiflash bilan birga uni kelajakda rivojlantirish yo'nalishlarini hamda istiqbol parametrlari, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa sohalarga mansub statistik ma'lumotlarga va "tajribalar" tahliliga asoslanadi, qilingan xulosa va natijalar asosida ekstrapolyasiya metodlari yordamida istiqboldagi holat baholanadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bugungi kunda tashkil etilgan axborot-konsalting markazlarining faoliyat yuritishiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda:

- Agrar sohaga tadbirkorlariga ko'rsatilayotgan va taklif etilayotgan xizmatlar iqtisodiy va tashkiliy jihatdan zamon talablaridan orqada qolayotganligi;
- Fermer va qishloq tadbirkorlarining bozor iqtisodiyotiga oid bilim va ko'nikmalarining yetishmasligi;
- Fermerlarning agrotehnologiyalar, iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bilim va malakasining talab darajada emasligi;
- Fermer ho'jaliklari axborot-konsalting markazlari xizmatlari xizmatlarining xo'jalik faoliyatiga oid strategik va taktik

yo‘nalishdagi qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati va mohiyatini to‘g‘ri baholay olmayotganligi;

• Axborot-konsalting markazlari o‘quv-uslubiy, moddiy-texnik va moliyaviy imkoniyatni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarni mavsumiy xarakterdaligi;

• Axborot-konsalting markazlari xizmati ko‘rsatish turlari ko‘lamining yetarli emasligi va sifatining talab darajasida emasligi;

• Konsalting xizmatlaridan yetarli darajada foydalanilmasligi hamda sohada raqobat muhitining talab darajasida shakllanmaganligi;

• Shu munosabat bilan, markazda xizmat ko‘rsatishni innovatsion loyixalarga yo‘naltirishini, marketing va konsalting xizmati ko‘rsatishga ham ustuvorlik berish maqsadida “Marketing tadqiqotlari o‘tkazish va axborotlar to‘plash” guruhi tashkid etish taklif etiladi.

• “ Marketing tadqiqotlari o‘tkazish va axborotlar to‘plash” guruhining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

• Hududdagi xo‘jaliklarning ekin maydoni, ekin turlari bo‘yicha axborotlar to‘playdi;

• Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining barcha turdagi xizmat (tovar)larga bo‘lgan talabini o‘rganadi;

• Servis korxonalari (joylashgan manzili, ko‘rsatadigan xizmat turlar va xizmat baxolari) to‘g‘risida ma’lumotlar to‘playdi;

• Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, servis korxonalari, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat (tovar)larning reklamasini uyushtiradi. Bunday markazlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun:

• Hududdagi servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish;

• Taklif etilayotgan xizmat (tovar)lardan o‘zi uchun (baholari) ma’qul bo‘lgan servis xizmati ko‘rsatuvchini tanlash;

• Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari reklamasini uyushtirish;

• Olingan ma'lumotlar asosida xizmat (tovar) (assortiment) larini o'zgartirish va faoliyatini shunga mos ravishda muvofiqlashtirib borish;

• Ko'rsatiladigan (sotiladigan) xizmat (tovar)larni reklama qilish va foydalanuvchilarni ko'rsatiladigan (sotiladigan) xizmat (tovar)larga ko'proq jalb qilish va boshqalar;

• SHuningdek markazlarda marketing va huquqiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga ustuvorlik berish maqsadida tashkiliy tuzilmasida " Marketing axborot-maslaxat xizmati va huquqiy masalalar bo'yicha menejer" bo'limini tashkil etish tavsiya etiladi.

Markazning faoliyati ham iste'molchi, ham servis korxonalari uchun xizmat ko'satishga yo'naltirilgan. Shu bois, markaz tumandagi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilar faoliyati to'g'risidagina emas, balki servis xizmati ko'rsatuvchi korxonalar bilan yaqin aloqani yo'lga qo'yib, ular faoliyati to'g'risida ham to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shundagina iste'molchi ham, xizmat ko'rsatuvchi ham ko'p muammolarni ushbu markaz orqali hal qilishi mumkin. Markaz faoliyati ko'rsatadigan pullik xizmatlardan keladigan daromaddan moliyalashtiriladi.

Axborot-konsalting markazida innovatsion g'oya va ilg'or agrotexnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar banki shakllantirilgandan so'ng, ularni fermer va qishloq tadbirkorlariga yetkazishning innovatsion va nisbatan oqilona usul, vosita yo'llaridan foydalanish, markaz faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida axborot-konsalting markazlarida xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, jumladan:

• Fermer va qishloq tadbirkorlarining me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy va texnologik masalalarga oid bilimni oshirish;

• Hududdagi mulk shaklidan qat'iy nazar, tashkil etilgan axborot-konsalting markazlari, kasb-hunar kollejlari va o'quv markazlari, "fermerlar dala maktabi" yoki "namunaviy dala uchaskasi"da maxsus dasturlar asosida turli muddatli o'quv kurslari, amaliy seminar-treninglari, ko'rik va namoyishlar o'tkazish;

• Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan ajralgan (asosan noyabr-mart oylari) holda yuqorida qayd etilgan o'quv maskanlarida fermer xo'jaliklari kasbiy malakasini oshirish;

• Qishloq va mahalla fuqarolar yig'ini hamda hududdagi MTP va boshqa markazlarda yangi texnika va agrotexnologiya, innovatsion g'oya va ilg'or tajribalarni ommalashtirish, namoyish etish;

• Mutaxassis va ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha guruhlarga bo'lib tabaqalashtirilgan holda o'qitish va bilimini oshirish;

• Internet tarmog'i va komyuterlashgan tizimdan foydalangan holda, elektron model va dasturlar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy-moliyaviy faoliyatni boshqarishni kompyuterlashgan monitoring tizimni o'zlashtirish borasida treninglar tashkil etish;

• Xizmatlardan foydalanish, marketing va menejment, resurs sarfi va pul harakatini boshqarish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar fermer va qishloq tadbirkorlarining axborotlar bilan ta'minlashni yaxshilashga, ularning bozor iqtisodiyoti bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga, pirovard natijada ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va daromadini ko'paytirishga sharoit yaratadi.

8.2. Axborot- konsalting markazining tashkiliy- boshqaruv tuzilmasi va uni takomillashtirish

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratishga qaratilgan izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligi, ularni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan me'yoriy, huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy, agro-texnologik va ijtimoiy baza rivojlanib, yildan yilga takomillashtirib borilayotganligini hamda bunday tadbirlarlar samarali ekanligini tadbirkorlik subyektlari faoliyati va amaliyotidagi ijobiy natijalaridan ko'rish mumkin.

Bunday ijobiy natijalar albatta, ularning boshqaruv, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, resurs va xizmatlarni tanlash, sotish va sotib olish, hamkorlikni o'rnatish va yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion loyihalar asosida mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llarini izlab topish borasidagi jarayonlarda axborot va konsalting xizmatlaridan unumli va o'z vaqtida foydalanilayotganliklarining bir natijasi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Respublikamiz agrar sektorida axborot va konsalting xizmatlari aksariyat hollarda qishloq hududlarida tashkil etilgan axborot-konsalting markazlari vositasida amalga oshirilmoqda. Hukumatimiz tomonidan ushbu markazlar xizmatlari ko'lamini kengaytirish, miqyosini oshirish va sifatini yaxshilashga hamda xizmat ko'rsatish usul va vositalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligini agrar soha tadbirkorlik subyektlari, xususan fermer xo'jaliklari daromadi oshayotganligidan, qishloq hududlarining ijtimoiy-ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgarayotganligida kuzatish mumkin.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunda respublika agrar iqtisodiyoti, xususan, qishloq xo'jaligi tarmoklarini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida agrar tadbirkorlik subyektlariga turli yo'nalishda xizmat kuzatuvchi axborot-konsalting markazlari faoliyatini qo'llab-qo'vvatlash tizimi va mexanizmini konseptual jihatdan takomillashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, xizmatlar va axborot-ma'lumotlar bozoridagi raqobatni hamda tashki va ichki bozorda xizmat va ma'lumotlardan foydalanish borasidagi o'zaro hamkorlikni sifat jihatdan nisbatan yuqori darajaga ko'tarish maqsadga muvofiq.

Xo'jaliklar aro o'zaro hamkorlik rishtalarining mustahkamlanishi, xizmatlar sohasidagi diversifikatsiya jarayonining kuchayishi esa bunday hamkorlik va bog'liklikni yana bir karra mustahkamlab, uni yangi pog'onaga ko'taradi. Bu hol axborot-konsalting markazlari tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, faoliyatini qo'llab-qo'vvatlash borasida yangicha yondashuv va usullarni ko'llashni taqozo etmoqda.

Ushbu masalaning ikkita muhim jihati mavjudki, ularni inobatga olmasdan turib qishloq xo'jaligida axborot-konsalting markazlari tashkiliy-boshqaruv hamda xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga erishish o'ta mushkul.

Birinchi jihat, bugungi kunda respublikamiz agrar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-qo'vvatlashga yo'naltirilgan qator qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlar, Prezident va Hukumat farmon va qarorlari, chora-tadbirlar Dasturlari, shuningdek, me'yor, yo'riqno-ma va tartiblar qabul qilinmoqda. Bu huquqiy-me'yoriy hujjatlar bevosita undan foydalanuvchilarga - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yetkazilib, tadbirkorlar tomonidan amaliyotda qo'llanilsa, va ushbu hujjatlar toifasiga kiruvchi boshqa huj-jatlarni qabul qilishdan qo'yilgan maqsadga erishilgan hisoblanadi. Aks holda, ushbu hujjatlarda belgilangan imtiyoz yoki yengilliklar, tartib va qoidalar amaliyotda o'z o'rnini topmay, yaxshi istak va taklif sifatida qog'ozda qolaveradi. Bunda eng muhimi ushbu imtiyoz yoki yengiliklarning joriy etilganligini tadbirkorlik subyektlariga yetkazish, bu hujjatlar maqsad, mazmun va mohiyatini ularga yetkazish, ularning amaliyotda qo'llanishiga uslubiy va mavzuviy zamin yaratish hamda amaliy ko'maklashish hisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq tadbirkorlari, xususan fermer va dehqon xo'jaliklariga ular xo'jalik faoliyatiga oid qonun, farmon, qaror, nizom, yo'riqnoma va me'yorlar mazmun mohiyatini tadbirkorlarga yetkazish, amaliyotda qo'llashda ko'maklashish, zarur paytlarda esa, ularga maslahatlar berish vazifalari axborot-konsalting markazlari zimmasiga yuklatilgan. Bu esa, bunday markazlar faoliyatini barqarorlashtirishga, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini zamon va amaliyot talablari mos ravishda takomillashtirishga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtiisodiy mexanizmlarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Ikkinchi jihat, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida fikr yuritilganda, aksariyat hollarda fermer va dehqon xo'jaliklarini nazarda tutiladi. Bu to'g'ri albatta. Ammo, axborot-konsalting

markazlarining o‘zi ham tadbirkorlik subyekti hisoblanib, bu sohaga kiruvchi tadbirkorlik faolitini o‘zini ham qo‘llab-quvvatlash lozimligi nazardan chetda qolmoqda.

Shu bois, axborot-konsalting markazlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratish uchun, ularning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan huquqiy-me’yoriy va iqtisodiy-moliyaviy baza doimo takomillashtirib borilishi, ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Bunday tadbirlar jumlasiga quyidagilar tavsiya etiladi:

• qishloq xo‘jaligida axborot-konsalting markazlarining barqaror rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-qo‘vvatlashning 2015-2025-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasi va chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish;

• fermer va dehqon xo‘jaliklarining axborot-konsalting markazlari xizmatidan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovning ma’lum qismini (dastlabki besh yil mobaynida ko‘rsatilgan xizmat qiymatining 70%, keyingi besh yil mobaynida esa 50% va yana keyingi besh yil mobaynida 25% mikdorida) davlat tomonidan qoplashni nazarda tutuvchi iqtisodiy mexanizmni joriy etish;

• qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan axborot-konsalting markazlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va sifatini takomillashtirish maksadida ularga imtiyozli kreditlar ajratish, hamda davlatimiz raxbarining 2011-yil 11-martda qabul qilingan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan belgilangan engilliklarni (tijorat banklarining ushbu yunalishga yo‘naltirilgan kreditlar hisobidan olinadigan daromadlari 2011-yil 1-apreldan 2016-yil 1-yanvargacha foyda soligidan ozod qilingan) bu soha tadbirkorlari uchun ham joriy etish;

• axborot-konsalting markazlari foliyatini qishloq va mahalla fuqarolari yig‘ini faoliyati bilan uyg‘unligini ta’minlash maqsa-

dida markazlar mutaxassislarini yiginlar mutaxassislari bilan to'ldirish yoki o'rindoshlik asosida ishlashini ta'minlashga erishish va boshqalar.

• Hududlarda axborot-konsalting markazlarining barqaror faoliyat ko'rsatishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

• axborot-konsalting markazlari mutaxassislarining o'zlari qishloqda tadbirkorlikni qo'llab-qo'vvatlash, fermer xo'jaliklarini kreditlash, innovatsion loyihalar asosida ilg'or agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etish va bu jarayonga investitsiya va investorlarni jalb etish borasida mamlakatimizda amalda bo'lgan qonun, tartib va qoidalarga o'zgartirish kiritilganligi borasida, hududlarda ijobiy tajribalar tuplanganligi xususida to'liq ma'lumotga emas;

• ayrim markaz va uning mutaxassislarini bu boradagi uslubiy va maliy qo'llanmalar bilan ta'minlash hamda malakasini oshirish lozim;

• aksariyat axborot-konsalting markazlari tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi hududdagi fermer va agrar tadbirkorlik subyektlarining axborot-konsalting xizmatlariga bo'lgan talabi tuzilishiga mos kelmaydi.

Axborot-konsalting xizmati ko'rsatuvchi korxonalarining me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish ushbu tuzilma faoliyatini boshqarish bilan bog'liq; boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan hamohang olib borilgandagina samarali bo'lishini inobatga olish lozim. Shu bois, fermerlarga va qishloq tadbirkorlariga axborot-konsalting xizmati ko'rsatuvchi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirish, raqobat muhitida barqaror faoliyat ko'rsatish, o'z mijozlariga talab darajasida xizmat ko'rsatishni ta'minlab, to'lovlarining muddatida kelib turishini ta'minlash maqsadida markazni boshqarish va faoliyatini yuritishda quyidagi boshqarish tamoyillari va qonuniyatlariga tayangan holda faoliyat yuritish tavsiya etiladi:

• har bir xizmat ko'rsatilayottan subyekt (fermer yoki dehqon xo'jaligi, oilaviy yoki boshqa qishloq tadbirkori)ga mumkin qadar e'tiborli bo'lib, to'liq, sifatli va talab darajasida xizmat ko'rsatishga erishish;

• markazda mavjud bo'lgan imkoniyat, moddiy resurs, intellektual mexnat va hisobot-axborot resursidan maksimal darajada foydalangan holda hisob-tahlil va ko'rsatilayottan xizmatlarning to'la, muddatida, sifatli, ishonchli, aniq va me'yoriy, statistik hamda moliyaviy hisob-kitoblar talabalari darajasida bulishini ta'minlab, ularning samaradorligi yuqori bo'lishiga erishish;

• xizmat ko'rsatishni puxta o'ylangan taktika va strategiya asosida tashkil etish va xizmatlar ko'lami va miqyosini rivojlantirish, xizmatlar turini diversifikatsiyalash;

• barcha xizmat ko'rsatish jarayonlarining ijtimoiy jihatdan ma'qul, uzluksiz va barqarorligini ta'minlash;

• hisob-kitoblarni tashkil etish, hisobotlarni tayyorlash va taqdimlashda tomonlar, ya'ni xizmat oluvchi va xizmat ko'rsatuvchilar urtasida maksimal darajada bir-biriga ishonch nisbatiga erishish;

• xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni mumkin kadar ixtisoslashtirish bilan ularning ma'lum darajadagi universalligini eng maqbul tarzda qo'shib olib borish (masalan hisob-kitob ishlarini yuritish va analitik materiallar tayyorlash bilan ularni kompyuterlarga kiritish, hisob-tahlil va hisobot ishlarini kompyuterlashgan tizimda yuri-tish, hisobotlar tayyorlash va topshirish va boshqalar).

Korxona faoliyatini oqilona tashkil etish va samarali boshqarishda korxona rahbarining shaxsiy fazilatlari, innovatsion rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyati, bilim va iqtidori va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun korxona maqsadlari sari boshqaruv tamoyillarini boshqaruv tizimiga joriy etish va qo'llab borish asosida korxona barqarorligini ta'minlash rahbarning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Axborot-konsalting markazini boshqarishda rahbar boshqarishning quyidagi tamoyiliga, ya'ni boshqarish jarayonida samaradorlik va maqbullilik talablariga javob beradigan, ushbu jarayonda boshqaruv organlari va xodimlari tayanishi lozim bo'lgan, boshqaruv munosabatlari va qonuniyatlaridan kelib chiquvchi, obyektiv asoslangan asosiy boshqaruv tartiblarini o'z faoliyati shiori qilib olishi lozim.

Axborot-konsalting markazini boshqarishni tashkil etishda quyidagi tamoyillariga asoslanishi tavsiya etiladi:

- ishlab chiqarish faoliyatini reja asosida tashkil etish va yuritish;
- ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish;
- kadrlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish;
- moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

– ishlab chiqarishning yakuniy natijalaridagi javobgarlilik mexanizmi joriy etish va unta rioya etish;

- mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi tamoyiliga ustuvorlik berish;
- samaradorlik va optimallikni markaz faoliyatining bosh mezoni sifatida qaror topdirish;
- aniqlik va tezkorlik;
- nazorat va karorlar ijrosiga asoslangan monitoring tizimi va mexanizmini joriy etish.

Fermer va qishloq tadbirkorlariga axborot-konsalting xizmati ko'rsatuvchi markazlar faoliyatini boshqarishda yuqorida keltirilgan konuniyat va tamoyillarga asoslanish markaz me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Respublikamiz hududlarida 2013-yil yakuni bo'yicha jami 341 ta (2010 y. 301 ta) konsalting va marketing xizmati tarmoqlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular tomonidan 7142 (2010-y. -11713 ta) ta shartnoma bo'yicha 556,1 mln. so'mlik (2010-y. - 357,4 mln. so'mlik) xizmatlar ko'rsatilgan. 2013-yil davomida bitta konsalting va marketing xizmati ko'rsatish shaxobchasi tomonidan har birining qiymati o'rtacha 35,0-36,0 ming so'm turadigan 22 ta xizmat bajarilgan, boshqacha qilib aytganda bir xizmat ko'rsatish subyekta tomonidan bir yilda ko'rsatilgan xizmatlar qiymati o'rtacha 810,0 ming so'mni (2010-yilda 1180,0 ming so'mni) tashkil etgan. 2010-2013-yillar tahlil qilinganda, bir konsalting va marketing xizmati shaxobchasi tomonidan shartnomaviy xizmatlar soni 42 foizga, xizmatlar qiymati esa 55,2 foizga pasaygan.

Hududlarda axborot-konsalting xizmati ko‘rsatuvchi tizimga kiruvchi korxonalarning barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida agrosanoat majmui innovatsion infratuzilmasini yanada taraqqiy etdirish hamda konsalting va marketing xizmati shoxobchalari tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy qo‘llab-qo‘vvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4478-sonli Farmonining qabul qilinishi bilan repsublikamizda “Axborot-konsalting markazlari”ni rivojlantirishning yangi bosqich boshlandi. Ushbu farmon bilan O‘zbekiston Fermerlari Kengashi vertikal tizimi bo‘yicha bo‘g‘in rahbar va mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biri “... ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda, suvni tejaydigan samarali texnologiyalarni, birinchi navbatda, tomchilatib sug‘orishni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ularning faoliyatiga tatbiq etishga, ... qishloqda huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, agrotexnik hamda boshqa masalalar bo‘yicha konsalting markazlari tarmog‘i”ning turli shakllarini tashkil etish va kengaytarishga ko‘maklashish lozimligi belgilab qo‘yilgan. Bu o‘ta muhim va dolzarb vazifa hisoblanib, joylarda axborot-konsalting markazlari faoliyatini tashkil etish, boshqaruv tuzilmasini va moddiy-texnik bazasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlar ko‘lamini faollashtirishni ta’minladi.

Qishloq xo‘jaligida axborot-konsalting markazlari (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) turli mulk shakliga asoslangan ma’suliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ularning ta’sischilari soni qonun-tartiblarda belgilangan me’yordan oshmagan holda faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu sababli, Axborot-konsalting markazlari ta’sischilari quyidagilar bo‘lishi mumkin: fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, ta’minotchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, xususiy tadbirkorlar hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar. Qishloq xo‘jaligida markazlar odatda

ma'lum bir fuqarolar yig'ini hududidagi mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda hududiy tashkil etilishi samarali hisoblanadi.

Markazlar o'z-o'zini moliyalashtirish (xo'jalik xisobi) tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tijorat tashkiloti hisoblanadi. Ularning moliyaviy mablag'lari fermer va dehqon xo'jaliklari, boshqa qishloq tadbirkorlariga ko'rsatilgan xizmat va turli moliyaviy yordamlar, grantlar hamda xomiylar hisobiga shakllanmoqda.



⟶ Tashkiliy bog'liqlik

- - -> Yo'nalishlar bo'yicha buyurtmaga muvofiq maslahat va xizmatlar ko'rsatish

⟶ Buyurtmani bajarilishi

12-rasm. Axborot-konsalting markazlarining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi

Markazlarning yukori boshqaruv organi - ta'sischilar umumiy yig'ilishi hisobłanadi. Umumiy yig'ilishlar orasidagi davrda Markazda rahbarlikni saylangan Markaz boshlig'i olib boradi. U

markazning iqtisodiy, moliyaviy, statistik va boshqa faoliyatlariga rahbarlik qiladi va umumiy yig'ilish oldida hisobot beradi. Axborot-konsalting markazi tashkiliy-boshqaruv tuzilmasining umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin.

Axborot-konsalting markazlari qaysi hududiy darajada (respublika, viloyat, tuman) va mulkiy-tashkiliy tuzilmasi xususiyatlariga qarab turli funksiya va xizmatlarni ko'rsatmokdalar.

Axborot-konsalting markazlarining faoliyat funksiyasi va xizmatlar yo'nalishi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- o'qitish, qayta o'qitish, kasbiy mahorati va malakasini oshirish;
- ilmiy-amaliy, ilmiy-uslubiy xizmatlar ko'rsatish;
- axborot ta'minoti xizmatlari ko'rsatish;
- maslahat xizmatlari ko'rsatish;
- innovatsiya va ilg'or tajriba, ish uslubi, texnologiya va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish borasida maslahatlar berish, uni amalga oshirish-uzlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yordam berish, xizmat ko'rsatish;
- matbuot ishlarini yuritish;
- reklama, tashviqot va targ'ibot ishlarini (vakolati va qonun doirasida) olib borish borasida xizmat ko'rsatish;
- onlayn video anjumanlari, mavsumiy-davriy va maxsus ruknlar hamda mavzular buyicha anjumanlarini tashkil etish;
- xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlash, ularga istiqbolli loyihalar va investitsiya faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilish;
- xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida uchrashuv va muzokaralarni tashkil etish va boshqalar.

8.3. Fermer xo‘jaliklari bilan axborot konsalting xizmati markazlari o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar va uni takomillashtirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy subyektlar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy munosabatlar shartnoma asosida tartibga solinadi. Shartnomaning mukammal, adolatli va har ikki toman uchun o‘zoro foyda asosida tuzilishi hamda tomonlar o‘zlariga belgilangan majburiyatlarni o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarishlari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarining mulkiy va shartnomaviy munosabatlarining iqtisodiy-metodologik asoslarini o‘rganish, ular faoliyatini rivojlantirish institutlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, xususiyatlarini aniqlash, takomillashtirish hamda istiqbolda ularning ta’sirida fermer xo‘jaliklari qay darajada rivojlanishini va ularga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar obyektlarining miqdori va joylashuvi qanday bo‘lishini aniqlash hozirgi bosqichda olib borilayotgan agrar islohotlarning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bunda xo‘jalik yuritish samaradorligi nuqtayi nazaridan asosiy omillar sifatida mulkchilik, javobgarlik, raqobat, transaksiya va shartnoma institutlari katta rol o‘ynaydi.

Shartnoma instituti fermer xo‘jaligi tomonidan ichki xo‘jalik hamda boshqa subyektlar bilan o‘zaro iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish natijasida vujudga keladigan kelishuvlar, va bunda paydo bo‘ladigan rasmiy va norasmiy me`yorlarni aniqlash hamda ularni boshqarishni nazarda tutadi. Respublikamizda shartnoma instituti O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Yer Kodeksi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa qonun va qonunchilik hujjatlari orqali amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga muvofiq shartnoma bu “ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik

huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv"dir. Mazkur hujjatga muvofiq respublikamizda haq evaziga va tekinga tuziladigan, ommaviy, qo'shilish, dastlabki, uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan, oferta, aksept kabi shartnomalarni tuzish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tadbikorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari belgilangan. Ular quyidaglardan iborat: xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi; taraflarning o'zaro manfaatdorligi; shartnoma intizomiga rioya etish; taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi. Demak, respublika qonunchiligiga ko'ra, barcha shartnomalar o'zaro ixtiyoriyligi va o'zaro manfaatdorligi tamoyillari asosida tuziladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrida qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 383-sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi NIZOM" asosida yuritiladi.

Sxema №3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar tayyorlov xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
1-bosqich	Shartnomalarni tuzishga tayyorgarlik ko'rish	Agrotexnik tadbirlar boshlanishdan bir oy oldin	
2-bosqich	Shartnomalarni ko'rib chiqish va imzolash	7 kun mobaynida	Qishloq xo'jaligi korxonalari
3-bosqich	Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun berish	3 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
4-bosqich	Shartnomalar ro'yxatdan o'tkazish	3 ish kuni mobaynida Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
5-bosqich	Shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keniy 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
6-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni xo'jaliklarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar

7-bosqich	Shartnomalarni saqlash	Barcha shartnoma shartlari bajarilgandan keyin 3 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa tashkilotlar

Ushbu qaror va Nizomga asosan quyidagi imtiyozlar ko‘zda tutilgan:

• fermer xo‘jaligining rahbari tayyorlov, ta’minot va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan shartnoma mazburiyatlari bajarilmagan taqdirda xo‘jalik sudiga da’vo arizasi kiritishlari va bu jarayonda ular davlat boji to‘lashdan ozod qilinadilar;

• fermer xo‘jaligining manfaatini himoya qilib tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi yoki O‘zbekiston Fermerlar kengashi tuman vakilligi da’vo arizasini kiritganda ham davlat boji to‘lashdan ozod qilinadilar.

Nizomga asosan shartnomalarni tuzish qat’iy bosqichlar bo‘yicha amalga oshirishi belgilab berilgan(1-jadval), yani fermer xo‘jaliklarining biznes rejalarida nazarda tutilgan hajmlardan kelib chiqqan holda agrotexnik omillar boshlanishidan bir oy avval, lekin kalendar yil boshlanishidan kechiktirmasdan tuziladi.

Shartnomani ko‘rib chiqish va imzolash uchun fermer xo‘jaliklariga 7 kun muddat beriladi. Bu vaqt moboynida fermer xo‘jaligi shartnomani ko‘rib chiqishi va agar e’tirozlar bo‘lsa yozma ravishda tayyorlov, xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga murojaat qilishi lozim. Shartnomalar tuzilgandan so‘ng, tayyorlov va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar 3 kun davrda tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlaridan ro‘yxatdan o‘tishi uchun taqdim etadilar va qishloq xo‘jaligi bo‘limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim. Shartnomalar ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin tayyorlov xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa

tashkilotlarga qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari tomondan 1 kun mobaynida qaytib beriladi. O'z navbatida tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar 2 kun moboynida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni xo'jaliklarga beradilar. Shartnomalar 3 nusxada tuzilib, bir nusxasi fermer xo'jaligida, bir nusxasi tayyorlov xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda va bir nusxasi tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida saqlanadi.

Qishloq xo'jaligida kontraktatsiya shartnomalari, yani qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar bilan birga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar masalan, "Agrotexservis MTP" MCHJ, Muqobil MTP, SIU, mineral o'g'it va yonilg'i moylash materiallari yetkazib berish shoxobchalari va boshqa turdagi tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalarni tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va monitoring qilib borish tartibi keltirilgan. Nizomda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlari ham aniq qilib belgilab berilgan. Jumladan, xizmat ko'rsatish korxonalari o'rtasida tuzilgan shartnomalarda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning huquqlariga quydagilar kiradi:

- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma munosabatlarini o'rnatish;
- shartnomalarga muofiq ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan bo'nak to'lashi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar to'liq bajarilganda esa yakuniy hisob-kitoblarni to'liq amalga oshirishni talab qilish;
- shartnomalarda ko'zda tutilgan buyurtmalar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarni fermer xo'jaligi asossiz ravishda rad etishi natijasida ko'riladigan zararlar qoplanishini talab qiladi.
- Xizmat ko'rsatish korxonalarining majburiyatlari esa quydagilardan iborat:
- xizmat ko'rsatish bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq shartnomalar tuzishda hamda shartnoma majburiyatlarini ta'minlash;

• shartnomaga muvofiq fermer xo'jaliklariga ularning buyurtmalariga binoan belgilangan muddat, miqdor va sifatda xizmat bajarish;

• ko'rsatilgan xizmatlar va bajariladigan ishlar sifati shartnomada belgilangan talablar, shuningdek, amaldagi standart va me'yoriy ko'rsatkichlarga mos kelishini ta'minlash;

• shartlarni bajarmaslik natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash;

• shartnomaga muofiq beriladigan buyurtma xizmat ko'rsatish korxonalaridan sifatli darajada bajarib borilishi, kelishilgan yoki talab qilingan muddatlarda xizmatlar ko'rsatilishi (ishlar bajarilishini) talab qilishlari ;

• xizmatlar sifatsiz ko'rsatilganda yoki sifati talab darajasida bo'lmagan hollarda;

• xizmatlarni sifatli bajarilishini talab qilish;

• xizmatlarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun fermer xo'jaligi tomonidan qilingan xarajatlarni qoplanishini talab qilish;

• ko'rsatiladigan xizmatlar narxlarining keskin oshishini oldini olish va bu narxlar kelishilgan holda belgilanishi bo'yicha takliflar kiritish.

Xizmat ko'rsatish korxonalari oldida fermer xo'jaliklarining majburiyatlari:

• buyurtmaga asosan yetkazib berilgan moddiy-texnika vositalari va ko'rsatilgan xizmatlarini qabul qilish va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;

• yetkazib berilgan moddiy-texnika vositalari, ko'rstilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun o'zaro to'lovlar va hisob-kitoblarni vaqtida amalga oshirish.

Fermer xo'jaliklar o'zlariga kerakli axborot bazasini yaratish uchun va manfaatdor tashkilotlar bilan fermerlarni axborot va ta'minot aloqalari orqali bog'lash maqsadida axborot-konsalting markazlari bilan shartnomalar tuzadi. Bunda axborot bazasi fermer xo'jaliklarining faoliyati uchun zarur bo'lgan mexanizatsiya ish-

lari xizmatini amalga oshiruvchi subyektlar va ular ko‘rsatadigan xizmatlarning baholari, mineral o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini sotuvchi subyektlar va resurslar narxlari, bank xizmatlari bo‘yicha ma’lumotlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash korxonalari hamda ularning takliflari, zooveterenariya xizmatlarini olish va zotli mollarni sotib olish imkoniyatlari haqidagi fermerlar uchun eng kerakli axborotlarni o‘zida jamlashi maqsadga muvofiq. Shuning uchun fermer xo‘jaliklar bilan axborot-konsalting markazlari o‘rtasida tuzilayotgan shartnomalarda quyidagilar bo‘lishi shart:

- shartnomaning tuzilgan sanasi va joyi ;
- shartnomaning mavzusi(predmeti), bajariladigan ishlar nomi, hajmi, sifati, narxi;
- tomonlarning huquqlari va majburiyatlari ;
- xizmatlarni bajarish tartibi va shartlari, muddatlari;
- xizmatlarini bajarishga qo‘yiladigan talablar;
- xisob-kitob qilish tartibi, shakli va muddatlari;
- shartnoma shartlari bajarilmaganda tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- shartnomaga amal qilish muddatlari;
- nizolarni forj-major holatlarini hal etish tartibi;
- tomonlarning rekvizitlari, pochta manzili.

Axborot-kansalting xizmat ko‘rsatish hajmini oshirish va iste’molchilarni ko‘rsatilayotgan xizmatlardan ko‘proq foydalanishlarini rag‘batlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar joriy etish maqsadga muvofiq:

- ayol fermer tadbirkorlar uchun hamda o‘z ishini endi boshlagan yoshlar uchun 10 foizlik chegirmalarni qo‘llash;
- yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlarga xizmat baholarini arzonlashtirilgan (10-15 foizga) holda joriy etish, chegirmalar berish va boshqa imtiyozlarni tadbiq etish;
- shuningdek, doimiy mijozlar uchun, ularning axborot-konsalting xizmatlardan doimiy foydalanib kelayotganligini hisobga olib, 5,10 va 15 foizgacha chegirmalarni joriy etish;

• agar bir xo'jalik subyekti 500,0 ming so'mdan ortiq summaga shartnoma tuzsa bitta xizmat turi bepul bajarib berilishi, agar 1,0 mln. so'mdan ortiq summaga shartnoma tuzsa ikkita xizmat turi bepul bajarilishi va hakazo;

• ma'lum bir xizmat turlariga mavsum paytida talab ortib ketadi, bunday oylarda ushbu xizmat turiga narxlarni arzonlashtirilgan holda shartnomalar tuzish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan imtiyoz va chegirmalar shartnomalarda aks ettirilishi, ularni bajarish kafolatlanishi axborot-konsalting korxonasiga bo'lgan ishonchni, uning xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan rag'batni kuchaytiradi va pirovard natijasida esa xizmatlar hajmini oshirish hamda daromadni ko'paytirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyati qanday tahlil etiladi?

1. Fermer xo'jaliklarda mehnatni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?

2. Fermer xo'jalik rahbarlari qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, agrotehnologiyalar, iqtisodiyot va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bilim va malakasini qanday oshirib bormoqda.

3. Fermer xo'jaliklari axborot-konsalting markazlari xizmatlarining xo'jalik faoliyatiga oid strategik va taktik yo'nalishdagi qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini yoritib bering.

4. O'zbekiston Respublikasi tomonidan axborot-konsalting markazlarining o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va moliyaviy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar qabul qilingan?

5. Bugungi kunda hududlardagi axborot-konsalting markazlari fermer xo'jaliklariga qanday xizmat turlarini ko'rsatmoqda?

6. Axborot-konsalting markazlarida " Marketing tadqiqotlari o'tkazish va axborotlar to'plash" guruhining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

7. Mahsulotlarni eng maqbul sotish kanallari qanday aniqlanadi?

9-BOB. FERMER XO‘JALIKLARIDA YOQILG‘I-MOYLASH MATERIALLARI TA’MINOTI TASHKIL ETISH

9.1. Yoqilg‘i-moylash materiallarini (YOMM) sotish korxonalarining iqtisodiy va huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklarga yoqilg‘i-moylash materiallari (YOMM) ta’minoti bilan faoliyat yurituvchi infratuzilma korxonalariga “Neftbaza” unitar korxonasi kiradi. Bu korxona O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-maydagi 225-sonli, 2003-yil 12-iyundagi 265-sonli, 2003-yil 21-oktabrdagi 460-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 3-noyabrdagi 228-sonli Qarori, «O‘zneftmahsulot» AK ning 2006-yil 28-noyabrdagi 137-sonli buyrug‘iga asosan tashkil etilgan. Korxona yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etilgan bo‘lib, unitar korxona va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik obyektlarni o‘ziga kirituvchi yagona ishlab chiqarish kompleksi bo‘lib hisoblanadi va bevosita «O‘zneftmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi tasarufidadir. “Neftbaza” unitar korxonasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, «O‘zbekneftgaz» MXK va «Ozneftmahsulot» LK buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlariga amal qiladi. Korxona mustaqil balansiga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bank kassasalarida belgilangan tartibda hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochadi, davlat tilidagi to‘liq nomi tushirilgan muhr va shtamplarga, hamda o‘z nomi belgilangan blanklarga ega, «Ozneftmahsulot» AK tovar belgisidan foydalanadi. “Neftbaza” unitar korxonasi va uning fermer xo‘jaliklarga yoqilg‘i-moylash materiallari sotish bilan shug‘ullanuvchi shoxobchalarining maqsadi xalq xo‘jaligi va aholisini keng turdagi neft mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash va sotish, shu jumladan ularii tranzit va ulgurji savdo orqali, neft

baza, filiallar, AYOQSHlar orqali sotilishini ta'minlashdan va faoliyat samaradorligini oshirishdan iborat. "Neftbaza" unitar korxonasi faoliyatining mazmuni quyidagilardan iborat:

• limitlarni rasmiylashtirish va iste'molchilarga yetkazish, limit intizomiga rioya qilish, neft mahsulotlarini tasdiqlangan limitlar doirasida berilishini monitoring qilib borish, neft mahsulotlari ortilgan sistemalarning temir yo'l bo'yicha harakatini kuzatib borish,

• Respublika subyektlari bilan shartnomalar tuzish, neftni qayta ishlash zavodlari bilan bevosita hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, ular bilan o'zaro taqqoslashni amalga oshirish, ishlab chiqilgan neft mahsulotlarini yetkazib berishni unitar korxona bilan neftni qayta ishlash zavodlari bilan bevosita tuzilgan shartnomalar orqali amalga oshirish,

• barcha iste'molchilar bilan, shu jumladan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, fermer xo'jaliklar bilan neft mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilishi va ularning bajarilishini ta'minlash;

• neft mahsulotlarini belgilangan tartibda uzluksiz qabul qilinishini, sifat va miqdor jihatidan, shu jumladan Davlat zaxirasi va 2-guruhdagi neft mahsulotlarining saqlanishini ta'minlash;

• xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish;

• ishlatilgan neft mahsulotlarini yig'ishni tashkil etish;

• atrof-muhitni muxofaza qilish (ekologiya), xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi, mehnat muxofazasi, texnik ekspluatatsiya qoidalari talablarining bajarilishi va ular bo'yicha chora-tadbirlarni bajarish;

• avtotransportda yuk tashish va transport-ekspeditsion xizmatlarini ko'rsatish:

• ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturining bajarilishini ta'minlash;

• korxona va filiallar obyektlarini yangi, qayta qurish, joriy va kapital ta'mirlash.

• korxona va filiallar zaruriyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlashni amalga oshirish;

• pul oqimlarini neftni qayta ishlash zavodlari va respublikaning boshqa subyektlari bilan hisob-kitob qilish uchun belgilangan tartibda jamg'arish;

• barcha asosiy soliq turlarini to'lash, barcha nobudjet jamg'armalariga pensiya narx-navoni boshqarish fondi, yo'l va x.k.) chegirmalar o'tkazish, elektr energiyasi aloqa, temir yo'l, kommunal xizmatlar, bank xizmatlari haqini tuzish;

• korxona va filiallar jamoasining shtatlar jadvalini, ularni ta'minlash uchun xarajatlar smetalarini, barcha turdagi mukofotlash, xizmat yillari uchun taqdirlash va hisobot yilidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha rag'batlantirish nizomlarini ishlab chiqish;

• neft mahsulotlarini sotishda qo'llaniladigan ustamalarni ishlab chiqish va ularni moliya bosqichlarida deklaratsiyalash;

• hisobot davrlarida buxgalteriya balanslarini tuzish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;

• korxona va filiallarning huquqiy ishlarini amalga oshirish;

• qat'iy kadrlar siyosatini olib borish, kadrlarni o'qitish, o'rgatish, malakasini oshirish, tanlash va samarali joylashtirish;

• barcha ko'rsatilgan masalalar bo'yicha kompaniya, yuqori va direktiv topshiriqlari bo'yicha axborotlarni to'plash va ishlovdan o'tkazish;

• «Ozneftmahsulot» AK roziligi bilan tashki iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish;

• filial to'g'risida tasdiqlangan Nizomga asosan, filiallar va avto stansiyalarinipg xizmat, vazifalarini tizimli ravishda nazorat qilishni amalga oshirish;

• «Ozneftmahsulot» AK roziligi bilan amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan barcha faoliyat turlarini amalga oshirish;

• "Neftbaza" unitar korxonasi va uning fermer xo'jaliklarga yoqilg'i-moylash materiallari sotish bilan shug'ullanuvchi shoxob-

chalari tomonidan amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari litsenziya olingandan so'ng, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

"Neftbaza" unitar korxonasi mol-mulkini xolisona baholovchi kompaniya tomonidan baholash sanasi bo'yicha belgilangan qiymatiga mos keladi va «Ozneftmahsulot» AK tomonidan korxonaning to'la xo'jalik tasarrufiga berilgan mol-mulki «Ozneftmahsulot» AK ning mulki hisoblanadi.

"Neftbaza" unitar korxonasining Ustav fondi, korxonaga to'la xo'jalik yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining buyrug'iga asosan topshirilgan mol-mulkning baholash qiymati hajmida belgilanadi. Unitar korxonaga va uning filiallariga topshirilgan mol-mulk va aksiya paketlarini boshqalarga o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan, «Ozneftmahsulot» AK ning roziligi bilan amalga oshiriladi.

"Neftbaza" unitar korxonasi va uning tarkibiga kiruvchi fermer xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash materiallari sotish bilan shug'ullanuvchi shoxobchalari yuridik shaxs bo'lib hisoblanmaydi va o'z faoliyatini o'zining Nizomi asosida amalga oshiradi.

Korxona Ustav fondining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish «Ozneftmahsulot» AK Kuzatuv Kengashining va «Ozneftmahsulot» AK aksionerlarining Umumiy yig'ilishi Qaroriga asosangina «Ozneftmahsulot» AK tomonidan amalga oshiriladi. Korxonaning xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda amaldagi qonunlariga binoan soliqlar to'langandan so'ng, zaxira va boshqa fondlarni shakllantirish va aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash uchun «Ozneftmahsulot» AK ixtiyoriga beriladi.

Korxona boshqaruvining ijrochi organi Direktor hisoblanadi. "Neftbaza" unitar korxonasi direktori «Ozneftmahsulot» AK Bosh direktorining taqdimiga binoan «O'zbekneftgaz» NXK tomonidan tayinlanadi. Direktor o'rinbosarlari, bosh muhandis va bosh hisobchi «Ozneftmahsulot» AK bilan kelishilgan holda «Neft bazasi» unitar korxona direktori tomonidan tayinlanadi va direktor bilan

birgalikda filiallari faoliyati uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga oladi. Korxona direktori Korxona Ustavini, shuningdek shartnoma shartlarini buzgan taqdirda egallab turgan lavozimidan chaqirib olinishi va u bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishi mumkin. Korxona direktorini chaqirib olish va u bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish qarorni kompaniyaning Bosh direktori qabul qiladi. Korxona kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishning mazkur Ustavda va u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan barcha masalalar korxona direktori vakolatiga kiradi.

"Neftbaza" unitar korxonasi direktori korxona direksiyasini - maslahat hay'at boshqaruv organini tashkil qilishga haqli. Korxona direksiyasi tarkibiga direktor o‘rinbosarlari, bosh muxandis, bosh hisobchi va korxona faoliyatida yo‘nalishlarni ta'minlovchi boshqa mutaxassislar kiradi. Korxona direktori korxona faoliyatida o‘z vakolatiga kiritilgan hamma masalalarni mustaqil ravishda hal etadi. "Neftbaza" unitar korxonasi direktori quyidagi vakolatlarga ega:

• Korxona nomidan ishonchnomasiz ish qurish, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o‘zaro munosabatlarda korxona manfaatlarini himoya qilish, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etish;

• Korxona Ustavi va Kompaniyaning boshqa hujjatida belgilangan doirada mol-mulk va pul mablag‘larini tasarruf etish, shuningdek smeta xarajatlarini taqsimlash;

• shartnoma va kontraktlar, shu jumladan mexnat qonunchiligiga asosan mehnat shartnomalari va kontraktlarni tuzish;

• ishonchnomalar berish;

• banklarda hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish;

• o‘z qo‘l ostidagi barcha xodimlar bajarishlari shart bo‘lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish;

Korxona direktorining majburiyatlari:

• Korxona joriy faoliyatiga o‘z vakolati doirasida rahbarlik qilish, «Ozneftmahsulot» AK boshqaruv organlarining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

• Korxona ishlab chiqarish birliklari, filiallarining samarali o‘zaro hamkorlik ishlarini ta’minlash;

• Korxona shartnomaviy majburiyatlarini bajarilishini ta’minlash;

• Ijtimoiy soha va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur foyda olinishini ta’minlash;

• «Ozneftmahsulot» AK ni rivojlantirish dasturlari va biznes rejasini ishlab chiqishda bevosita qatnashish;

• Korxona va filiallar faoliyatida qonun talablariga rioya qilinishini ta’minlash;

• Korxona kasaba uyushmasi faoliyatini to‘liq hajmda tashkil qilish, ma’muriyat xodimlari va mexnat jamoasi anjumanlarida qatnashib, shartnomasini, mehnat ichki tartib-qoidalarini, korxona va xodimlarning mehnat vazifalari qo‘llanmalarini ishlab chiqarish ishini ta’minlash;

• Debyukredit qarzlarining ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik va o‘z vaqtida to‘lash;

• Korxona buxgalteriya hisobi va hisobotlarining tashkil etilishini, bo‘lishini va aniq bo‘lishini, shuningdek korxona faoliyati «Ozneftmahsulot» AK, kreditorlar hamda boshqa axborot ma’lumotlarini vaqtida taqdim etilishini ta’minlash;

• «Ozneftmahsulot» AK Kuzatuv Kengashi, taftishchi va auditorning talabiga korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga doir hujjatlarni kamchiliksiz taqdim etish;

• Tegishli organlarga davlat statistika hisobotlarining to‘liq va vaqtida taqdim etilishini ta’minlash;

• Korxona tijorat siri hisoblangan ma’lumotlarni, agar uning vazifalari doirasiga bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish kirmasa, aniqlash. Korxona tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar ro‘yxati «Ozneftmahsulot» AK kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi;

• Hujjatlarni va korxona Direksiyasi majlisi bayonnomalarini korxona nomidan imzolash;

• Korxona va filiallarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, korxona xodimlarining bilimlari, malakalari, tajriba va qobiliyatlardan mumkin qadar foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish;

• mehnat va texnologiya intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;

• ijtimoiy kafolatlarga korxona xodimlari mehnatini muhofaza qilish qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;

• jamoa muzokaralarida qatnashish, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzishda ish beruvchi sifatida faoliyat yuritish, jamoa shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarish;

"Neftbaza" unitar korxonasida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, uning holati yillik xisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni tegishli joylarga vaqtida taqdim etilishi, shuningdek korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning «Ozneftmahsulot» AK ga vaqtida taqdim etilishi uchun direktor va bosh hisobchi amaldagi qonunlarga binoan javob beradilar. "Neftbaza" unitar korxonasi faoliyatining moliyaviy natijalari yillik buxgalteriya hisobotiga asosan belgilanadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlari har yilga tuzilib, ularda korxonananing daromatlari va xarajatlarini milliy valyutada aks ettiriladi. Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliq, moliya organlari , «Ozneftmahsulot» AK ning nazorat taftish boshqarmasi va auditorlar tomonidan tekshiriladi.

9.2. Neft mahsulotlarini sotish va undan samarali foydalanish qoidalari

Neft mahsulotlarini sotish faoliyati faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Neft mahsulotlarini sotish faoliyati (avtomobil benzini, aviabenzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosin, mazut, pech yoqilg'isi, neft bitumi, shuningdek zavodda o'rab, idishga solib qadoqlangandan tashqari texnik moylar va moylash materiallari), jumladan avtomobillarga yonilg'i quyish stansiyalari va moy almashtirish shoxobchalarining faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi 289-son qaroriga muvofiq litsenziyalanishi kerak. Neft mahsulotlaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

va hajmlari Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 28-iyundagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan Moddiy balanslarni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan moddiy balanslarda belgilanadi.

Davlat ehtiyojlari, uzoq muddat saqlash korxonalari, ishlab chiqaruvchilarning ichki tarmoqlari ehtiyojlari, iste'molchilar uchun neft mahsulotlarini sotish birjalar va kim oshdi savdolarida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar, komissiya shartnomalari bo'yicha, shuningdek eksportga sotish Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-fevraldagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan moddiy-texnika resurslarining strategik turlarini sotishning maxsus tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Neft mahsulotlarini sotish va ulardan foydalanish bo'yicha qonun hujjatlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 13-iyuldagi 328-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi to'g'risidagi nizomga muvofiq «O'zdavneftgazinspeksiya» tomonidan amalga oshiriladi. Neft mahsulotlarini berish va qabul qilish texnologiyasi neft mahsuloti yetkazib beriladigan va yuklab jo'natiladigan transport vositalarining turiga, to'kish-quyish operatsiyalarining jadalligiga, iqlim sharoitlariga va neft mahsulotlarining fizikaviy-kimyoviy xossalariga bog'liq bo'ladi. Neft mahsulotlarini berish va qabul qilish quyidagi statsionar to'kish-quyish qurilmalari:

- temir yo'l vagonlari-sisternalariga va konteyner-sisternalariga maxsus estakadalarda, alohida ustunlar yoki to'kish qurilmalari orqali;
- avtomobil sisternalariga va konteyner-sisternalariga — quyish stansiyalarida, avtoestakadalarda alohida ustunlar orqali;
- bochkalar, bidonlar va boshqa idishlarga — quyish va qadoqlash bo'limlari orqali amalga oshirilishi kerak.

Statsionar to'kish-quyish qurilmalari mavjud bo'lmaganda neft mahsulotlarini qabul qilish va berish bo'yicha operatsiyalarning

maxsus ko'chma haydash vositalari tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yiladi.

Neft mahsulotlarini berish va qabul qilishda ularning miqdori yetkazib berish yoki oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan o'lchash metodlari bilan hamda sifat tavsifini muayyan neft mahsulotiga belgilangan normativ hujjat bilan aniqlanadi. Neft mahsulotlarini berish «GOST 1510-84 (keyinchalik — GOST 1510) Neft va neft mahsulotlari. Markirovkalash, o'rash, transport vositasida tashish va saqlash»ga, transportning har bir turida amalda bo'lgan yo'riqnomalar, qoidalarga muvofiq tayyorlangan hamda qiyoslash sertifikatiga ega bo'lgan temir yo'llar, avtomobil sisternalari va ixtisoslashtirilgan konteyner-sisternalarda, shuningdek kichik iste'mol idishlarida amalga oshiriladi.

Avtomobil sisternalariga neft mahsulotlarini berish (quyish) avtomatlashtirilgan quyish tizimi, avtomatik tarzda quyish estakadalari va yakka ustunlar orqali, shuningdek maxsus ko'chma haydash vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Avtomobil sisternalari, tirkamalar va yarim tirkamalar, konteyner-sisternalarga neft mahsulotlarini quyish uchun maxsus, shu jumladan avtomatlashtirilgan, hisobga olish-dozalash qurilmalari, masofadan boshqarish pulti bilan, quyish jarayonida to'lib ketishini bartaraf etish va germetiklash (zichlab yopish) qurilmalari bilan jihozlangan, shuningdek quyilayotgan neft mahsulotlarining massa (hajm) birliklaridagi miqdorini avtomatlashtirilgan tarzda o'lchash tizimlari bilan jihozlangan yuqori va pastki quyish qurilmalarini qo'llash kerak. Neft mahsulotining avtomobil sisternasiga (konteyner-sisternasiga) beriladigan miqdori suyuqlik hisoblagichlar yordamida avtomobil tarozilarida tortish yoki sisternalarning nominal sig'imi bo'yicha aniqlanadi (planka bo'yicha). Avtomobil tarozilarining yuk ko'tarish quvvati avtomobil sisternalarining barcha turlari tortilishini ta'minlashi lozim.

Neft mahsulotlarini quyish uchun qo'yilayotgan avtomobil sisternalari (konteyner-sisternalari) GOST 1510 talablariga asosan tayyorlangan bo'lishi lozim. Avtomobil sisternalari va kon-

teyner-sisternalar neft mahsulotlari quyilgandan keyin tashishlarning amaldagi qoidalariga muvofiq plombalanishi kerak, neft mahsulotlari oluvchining avtotransporti bilan tashib ketish (o'zi olib ketish) holatlari bundan mustasno. Yong'inga qarshi inventarlari buzilgan va ular bilan butlanmagan avtomobil sisternalariga hamda konteyner-sisternalariga neft mahsulotlarini quyishga yo'l qo'yilmaydi.

Atrof muhitning ifloslanishini bartaraf etish maqsadida quyish qurilmalari, quyish operatsiyalari tugagandan keyin, quyish qurilmalaridan neft mahsulotlari qoldig'i oqishining oldini olish uchun tomchini tutadigan drenaj tizimiga ega bo'lishi kerak. Avtomobil sisternalariga neft mahsulotlarini quyish dvigatel ishlamay turganda amalga oshirilishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fermer xo'jaliklarini yoqilg'i-moylash materiallari ta'minoti hukumatning qanday farmonlari va qarorlari asosida amalga oshadi?
2. "Neftbaza" unitar korxonasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yoritib bering.
3. Neft mahsulotlarini quyish uchun qo'yilayotgan avtomobil sisternalari (konteyner-sisternalari) qanday talablarga javob berishi kerak?
4. "Neftbaza" unitar korxonasida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, uning holati yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni qaysi tashkilot oldida hisobot beradi.
5. "Neftbaza" unitar korxonasi tomonidan fermer xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish uchun siz qanday taklif va tavsiyalar bergan bo'lar edingiz?
6. "Neftbaza" unitar korxonasi tomonidan fermer xo'jaliklarga ko'rsatilan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish jarayonini yoritib bering.

"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanidan test savollari

1. ASM nechta sohani o'z ichiga qamrab oladi?

A.* 4 ta

B. 3ta

V. 2 ta

G. 1 ta

2. ASMning birinchi sohasi

A. * Qishloq xo'jaligi korxonalari

B. Sanoat korxonalari

V. Qishloq xo'jaligi korxonalarini iste'molchigacha yetkazib beradigan tarmoqlar

G. Infratuzilma tarmoqlari

3. ASMning to'rtinchi sohasi

A.* Infratuzilma tarmoqlari

B. Qishloq xo'jaligi korxonalari

V. Sanoat korxonalari

G. Qishloq xo'jaligi korxonalarini iste'molchigacha yetkazib beradigan tarmoqlar

4. Infratuzilmaning nechta turi mavjud?

A. *4 ta

B. 3 ta

V. 2 ta

G. 1 ta

5. Yo'llar, transport xo'jaligi, aloqa, ombor xo'jaligi –

A.*Ishlab chiqarish infratuzilmasi

B. Ijtimoiy infratuzilma

V. Moddiy soha

G. Nomoddiy soha

6. ASM integratsiya jarayonining shakliga ko'ra quyidagiga bo'linadi

A.*Tarmoq bo'yicha ASM va hududuy ASM

B. Mahsulot bo'yicha ASM va soha bo'yicha ASM

V. Hududiy ASM

G. Majmua, tarmoq va korxona bo‘yicha

7. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligining qiymat ko‘rsatkichlari

A. *Yalpi va tovar mahsulot, yalpi va sof daromad, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi

B. YAMM, YAIM,SMM, MD, SHD

V. Sof foyda, sof daromad, va ishlab chiqarish rentabelligi

G. Mahsulot qiymati, tannarxi va tushumi

8. Yalpi mahsulot bu

A. *Ma’lum bir davr ichida yaratilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining puldagi ifodasi

B. Ma’lum bir davr ichida yaratilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining natural shakli

V. Ma’lum bir davr ichida yaratilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining natural va puldani ifodasi

G. Ma’lum bir davr ichida yaratilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yig‘indisi

9. Tovar mahsulot –

A. * Sotilgan mahsulot

B. Tushum

V. Sotilajak mahsulot

G. Ishlab chiqarilgan mahsulot

10. Yalpi daromad –

A.* YAM – Ms

B. YAMM – amortizatsiya

V. YAMM – tannarx

G. YAM – o‘zgaruvchan xarajatlar

11. Sof daromad –

A. *YAMM – tannarx

B. YAM – o‘zgaruvchan xarajatlar

V. YAM – Ms

G. YAMM – amortizatsiya

12. Foyda –

A.*Tushum – tannarx

B. Tushum – amortizatsiya

V. Tushum – moddiy sarflar

G. Tushum – ish haqi

13. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

A.*Natural va qiymat

B. Qiymat

V. Natural

G. Iqtisodiy, ijtimoiy

14. Infratuzilma –

A. *Ijtimoiy va iqtisodiy ishlab chiqarish uchun normal shart-sharoitlarni ta’minlovchi tarmoqlar majmui

B. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida uzluksizlikni ta’minlab turuvchi tarmoqlarmajmui

V. Xizmat ko‘rsatuvchi soha

G. Moddiy soha

15. ASM infratuzilmasi ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri bo‘yicha quyidagi 2 guruhga bo‘linadi

A. *Ishlab chiqarish va ijtimoiy

B. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

V. Hududiy va tarmoq

G. Tarmoqlararo va tarmoq ichida

16. ASM infratuzilmasi hududiy xususiyati bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi

A. *Xalq xo‘jaligi, hududiy, mahalliy

B. Hududiy, mahalliy, munitsipal

V. Hududiy va tarmoq

G. Tashqi va ichki

17. Alohida korxonalarning faoliyatini ta’minlaydigan element va ishlab chiqarish

A. *Lokal infratuzilma

B. Ijtimoiy infratuzilma

V. Bozor infratuzilmasi

G. Institutsional infratuzilma

18. Alohida iqtisodiy jarayonlarni rivojlantiradigan va hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantiradigan –

A.*Hududiy infratuzilma

B. Lokal infratuzilma

V. Bozor infratuzilmasi

G. Institutsional infratuzilma

19. Butun xalq xo'jaligining samarali ishlashiga xizmat qiladigan tarmoq

A. *Xalq xo'jaligi infratuzilmasi

B. Hududiy infratuzilma

V. Lokal infratuzilma

G. Ijtimoiy infratuzilma

20. Transport, aloqa, elektroenergiya, moddiy texnika ta'minoti, tayyorlov qaysi tarmoqlarga kiradi?

A.*Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari

B. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari

V. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi tarmoqlari

G. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi institutsional infratuzilma tarmoqlari

21. Meva va sabzavotlarni saqlash omborxonalari turlari

A. *Muvaqqat va doimiy

B. Vaqtinchalik

V. Konsignatsion

G. Doimiy va konsignatsion

22. Ijtimoiy infratuzilma obyektlari

A. *Kommunal uy-joy xo'jaliklari, tibbiyot, umumiy ovqatlanish

B. Transport, aloqa, elektroenergiya, melioratsiya inshootlari

V. O'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, fabrikalar

G. To'g'ri javob yo'q

23. Qaysi usul yordamida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'zaro uzviy ko'rsatkichlar bir biri bilan qiyoslanadi?

A. *Taqqoslash usuli

B. Statistik usul

V. Matematik usul

G. Bog'lanish usuli

24. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlab beradi

A. *Statistik usul

B. Matematik usul

V. Bog'lanish usuli

G. Taqqoslash usuli

25. Guruxlash ma'lumotlarini ma'lum belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lish

A.* Guruhlarga ajratilgan uslub

B. Statistik uslub

V. Metamatik uslub

G. Taqqoslash uslubi

26. ASMni zamonaviy boshqaruv usullari

A.*Tizimli va vaziyatli

B. Chiziqli va funksional

V. Tizimli va funksional

G. Chiziqli va vaziyatli

27. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi

A.* Mehnat vositalari va mehnat predmetlari

B. Moddiy ishlab chiqarish

V. Nomoddiy ishlab chiqarish

G. Texnika va texnologiya

28. Qishloq xo'jaligining moddiy bazasi tarkibi

A.* Yer, traktorlar, YOMM, elektr jihozlar

B. Er, suv, texnologiya, tajriba, bilim

V. Urug'lik, texnika, innovatsiya, aloqa

G. Mehnat qurollari, yer resurslari, texnologiya

29. Xo'jalik moddiy-texnika bazasida asosiy rolni nima o'ynaydi?

A. *Yer

B. Suv

V. Texnika

G. Mehnat resurslari

30. Lizing –

A. *Qishloq xo'jaligi texnikasini uzoq muddatga ijaraga berish

B. Texnik markaz tomonidan texnikani sotish

V. Texnikani kreditga berish

G. Texnikani qaytarib olish sharti bilan ijaraga berish

31. Texnik markazning vazifalari

A. *Mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlarni sotish va servis xizmat ko'rsatish

B. Mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlarni ijaraga berish

V. Mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlarni lizingga berish

G. Mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlarni kreditga berish

32. Texnik markazga texnika yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar qanday variantda tashkil etiladi?

A. *Shartnomaviy va korporativ

B. Korporativ

V. Shartnomaviy

G. Fors-mojor

33. Texnika ishlab chiqaruvchilar, texnik markazlar va iste'molchilar o'rtasidagi vakil bu –

A. *Dillerlik markazi

B. Texnik markaz

V. Lizing kompaniyasi

G. Brokerlik idorasi

34. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmalari obyektlarida qaysi tarmoqlar davlat tasarrufida qolgan?

A.* Elektr uzatish, yo'l xo'jaligi;

B. Transport

V. Moliyaviy xizmat

G. Moddiy-texnika xizmati

35. Energetika resurslari tarkibida asosiy o‘rinni qaysi egallaydi?

A.* Elektr energiyasi

B. Gaz

V. Neft

G. O‘tin

36. Moddiy ishlab chiqarishning to‘rt sohasi to‘g‘ri va to‘liq ko‘rsatilgan qatorni toping?

A.* Qazib oluvchi, ishlab beruvchi, sanoat, dehqonchilik va transport

B. Qazib oluvchi, sanoat, dehqonchilik va transport, aloqa

V. Qazib oluvchi, ishlab beruvchi, sanoat

G. Qazib oluvchi, ishlab beruvchi, aloqa

37. Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.* U yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan moddiy boylikni iste’molga yetkazadi

B. U yangi mahsulot yaratadi

V. Faqat aholiga xizmat ko‘rsatadi

G. Davlat tasarrufiga kiradi

38. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun ... qisqartiradi?

A.* Sarflanadigan vaqtni

B. Mahsulot sifatini

V. Mahsulot sonini

G. Ishsizlarni

39. Transport vositalaridan unumli foydalanish nima?

A.* Qishloq xo‘jaligida yo‘llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish;

B. Ta’mir ishlarini muntazam yo‘lga qo‘ymaslik;

V. Yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani e’tibor bermaslik;

G. Ulardan unumli foydalanmaslik

40. Xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash va o‘z muddatida ta’mirlash, yo‘l qurishini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini qanday usulda rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi?

A.* Intensiv

B. Ekstensiv

V. Past darajada rivojlanish

G. To‘g‘ri javob yo‘q

41. Kuzatishlar avtomobilning yonilg‘i sarfi qattiq qoplamali yo‘llarda qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan necha martaga kamayishini ko‘rsatadi?

A.* 2 marta

B. 4 marta

V. Kamaytirmaydi

G. 3 marta

42. Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.* Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi tufayli yuk tashishni yil mobaynida bir me’yorda amalga oshirib bo‘lmaydi;

B. Tashiladigan yuklar turi, hajmi, xususiyatiga ko‘ra bir xildir;

V.Bir xil transport vositalari talab etilishi mumkin

G. Yuk tashish masofasi bir xil bo‘ladi;

43. Mahsulot tannarxida transport xarajatlari necha foizni ko‘rsatadi?

A.* 30-40 % ni

B. 35-50 % ni

V. 45-60 % ni

G. 60-70 % ni

44. Hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklarida tashiladigan yuklarning 80 % qaysi transportga to‘g‘ri keladi?

A.* Avtomobil

B. Ot-ulov

V. Temir yo‘l

G. Traktor

45. Hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklarida tashiladigan yuklarning 16 % qaysi transportga to‘g‘ri keladi?

A.* Traktor

B. Temir yo‘l

V. Ot-ulov

G. Avtomobil

46. Xo‘jalik yuritishning ma’muriy-buyruqbozlik sharoitida avtotransport xizmatlari uchun narx-navolarni kim belgilagan?

A.* Davlat tomonidan markazlashtirilgan holda

B. Fermer xo‘jaligi tomonidan

V. Iste’molchilar tomonidan

G. Bozor muvozanatiga qarab

47. Narx-navoning shakllanishiga tannarx qanday omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi?

A.* Ichki omil

B. Tashqi omil

V. Ham tashqi, ham ichki omil

G. To‘g‘ri javob yo‘q

48. Transport vositalaridan samarali foydalanishning iqtisodiy samaradorligida bir tonna kilometr yuk tannarxi ko‘rsatgichi qanday aniqlanadi?

A.*Qilingan xarajatlarni tashilgan tonna kilometrga bo‘lish yo‘li bilan;

B. Tashilgan tonna kilometrni qilingan xarajatlarga

V. Umumiy tashilgan yukning yuk bilan bosilgan yo‘lga nisbati

G. Mashina-kunlari sonini mashinaning xo‘jalikda bo‘lgan mashina kunlari soniga nisbati

49. Ijtimoiy infratuzilma ishlab chiqarish samaradorligi o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

A.*Bevosita

B. Bilvosita

V. To‘g‘ridan-to‘g‘ri

G. Ta’siri yo‘q

50. Aholini ish bilan ta’minlash muammosini hal etish qishloqda qanday tadbirlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq?

A.* Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish

B. Suvni tejash

V. Chorva mollarini ko‘paytirish

G. Qishloqni to‘la ish bilan ta’minlab bo‘lmaydi

51. Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish tarkibiga qaysi xizmat turlari kiradi?

A.* Barcha javoblar to‘g‘ri

B. Marosimlar o‘tkazish xizmati; buyumlarni ijaraga berish xizmati;

V. Uy-joylarni ta’mirlash va qurish; metall buyumlarni tayyorlash va ta’mirlash

G. Poyabzal ta’mirlash va tikish; hammom va dush xizmati; kir yuvish xizmati; avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish;

52. Maishiy xizmat ko‘rsatish uyushmasi qanday tashkiliy bo‘limlardan tashkil topadi?

A.* Rais, Moliya-hisobot bo‘limi, Muvofiqlashtirish va texnik siyosat bo‘limi, Xususiy tadbirkorlar va korxonalar,

B. Rais, Muvofiqlashtirish va texnik siyosat bo‘limi, Xususiy tadbirkorlar va korxonalar,

V. Rais, Moliya-hisobot bo‘limi, Xususiy tadbirkorlar va korxonalar,

G. Muvofiqlashtirish va texnik siyosat bo‘limi, Xususiy tadbirkorlar va korxonalar,

53. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish jarayonidagi xarajatlarni qanday yo‘llar bilan kamaytirish mumkin?

A*Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalaridan tushgan soliqlar orqali

B. Davlat budjetidan

V. Mahalliy budjetdan

G. Kamaytirib bo'lmaydi

54. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida monopoliya tugatilishi qanday oqibatlarga olib keldi?

A.* Raqobat kuchayib, narx pasaydi, xizmat ko'rsatisb sifati darajasi ortdi

B. Raqobat susayib, narx pasaydi, xizmat ko'rsatish sifati darajasi ortdi

V. Raqobat kuchayib, narx ortdi, xizmat ko'rsatish sifati darajasi ortdi

G. Raqobat kuchayib, narx pasaydi, xizmat ko'rsatish sifati pasaydi

55. Qishloq xo'jaligida sotish bo'g'inining vazifasi nimadan iborat?

A.* Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqaradigan barcha turdagi mahsulotlarni sotish hisoblanadi;

B. Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqaradigan faqat paxta mahsulotlarini sotish hisoblanadi

V. Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqaradigan faqat bug'doy mahsulotlarini sotish hisoblanadi

G. Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqaradigan barcha turdagi mahsulotlarni sotib olish hisoblanadi

56. Qishloq xo'jaligi korxonalarida omborlar qurishning afzalligi nimada?

A.* Qishloq xo'jalik korxonalarining bevosita o'zida qayta ishlash quvvatlari rivoji ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat natural holida, balki qayta ishlangan ko'rinishda ham sotish masalalarini hal etadi.

B. Tayyorlov jarayonida tig'izlikni oshiradi

V. Mahsulotni oqilona ishlatishga halaqit beradi

G. Xomashyo va iste'mol fondi kamayadi

57. Transport vositalaridan unumli foydalanish nima?

A.* Qishloq xo'jaligida yo'llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish;

B. Ta'mir ishlarini muntazam yo'lga qo'ymaslik;

V. Yo'l xo'jaligi ixtiyoridagi texnikaga e'tibor bermaslik;

G. Ulardan unumli foydalanmaslik

58. Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A.* U yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan moddiy boylikni iste'molga etkazadi

B. U yangi mahsulot yaratadi

V. Faqat aholiga xizmat ko'rsatadi

G. Davlat tasarrufiga kiradi

59. «Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodi» fanining predmeti nimadan iborat?

A. *Iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar asosida hozirgi davrdagi iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarish kuchlari bilan bog'langan holda o'rganish

B. Tashkiliy-siyosiy va ijtimoiy munosabatlarni o'rganish

V. Qishloq xo'jaligida infratuzilma iqtisodini o'rganish, uni rivojlantirish yo'nalishlari, asoslarini o'rganish

G. Mahsulot ishlab chiqarishni o'rganish

60. ASMni rivojlantirishning maqsadi, obyektiv zarurligi.

A. *Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash xizmat ko'rsatish natijasida mahsulot hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, o'z vaqtida tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va iste'molchini talabini doim qondirishdir

B. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotni iste'molchiga o'z vaqtida yetkazishdir

V. Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash

G. Iste'molchilar talabini qondirish

61. Ijara xo'jaliklarini iqtisodiy negizini nima tashkil etadi?

A. *Ijara mulki, unga bo'lgan egalik

B. Davlat mulki, unga bo'lgan egalik

V. Kooperativ mulk, unga bo'lgan egalik

G. Yer maydoni

62. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davrda yangitdan shakllangan mulk turlari?

A. *Ijara, xususiy, mahalla va boshqa mulklar

B. Davlat mulki

V. Kooperativ mulk

G. Umumxalq mulk

63. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibi.

A. *Traktor parklari, ijtimoiy obyektlar

B. Qishloq xo‘jaligi, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash tarmoqlari

V. Asosiy vositalarni ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi

G. Qishloq xo‘jaligi

64. Ijtimoiy infratuzilma tarkibi.

A. *Uy-joy, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport, maorif, madaniyat, savdo, transport

B. Jismoniy tarbiya, maorif, madaniyat

V. Uy-joy, qurilish, transport

G. Savdo va transport

65. Korxonani iqtisodiy samaradorlik darajasini qaysi ko‘rsatkich ifodalaydi?

A. *Daromadlilik, rentabellik darajasi

B. Tannarx darajasi, fondlar sig‘imi

V. Hosildorlik, mahsuldorlik

G. Fondlar qiymati

66. Rentabellik darajasini aniqlash tartibi.

A. *Foyda summasining ishlab chiqarish xarajatlariga (ishlab chiqarish fondlari qiymatiga) taqsimlab va 100 ga ko‘paytirib

B. Yalpi mahsulot qiymatini ishchilar soniga taqsimlab

V. Foyda summasini yer maydoniga bo‘lib

G. Daromadni xarajatlarga ko‘paytirib

67. Yer kadastrining tarkibi.

A. *Yerlarni hududlar bo‘yicha joylashuvi

B. Yerdan foydalanuvchilarga yerlarni miqdori, ularni sifati

V. Shahar yerlari, asosiy fondlar

G. Jami yer maydoni, territoriya

68. Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha.

A. *Mavjud bo'lgan asosiy va aylanma vositalar, yer resurslarining xammasi

B. Ishlab chiqarishda qatnashgan mehnat resurslari

V. Temir yo'l, havo transporti, suv resurslari

G. Traktorlar soni

69. Mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsientini aniqlash.

A. *Ishlagan mashina-traktorlar sonini jami traktorlar miqdoriga taqsimlab

B. Mashina-traktorlarning o'rtacha bajargan ish kunlari

V. Ishlamagan mashina-traktorlarni ishlaganlari miqdoriga bo'lib

G. Ishlagan traktorlar soni

70. Mashina-traktor parkidan foydalanishni samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar.

A. *Mehnat unumdorligi, etalon gektar, tonna/km tannarxi, xarajatlar, foyda

B. Smena bajarilgan ish, jami tejalgan xarajatlar summasi

V. Bitta traktorga qilingan xarajat

G. Traktorlar sonini yer maydoniga nisbati

71. Mineral o'g'itlardan sanoatimiz qanday o'g'it turlarini ishlab chiqaradi?

A. * Hamma javoblar to'g'ri.

B. Soporela, ipak qurti chiqindilari, go'ng, azot, fosfor chiqaradi.

V. Ammiakli selitra, ampak suvi, suyultirilgan ampak, alyuminiy sulfat, kaliy tuzi, kalsiy, sianamiz, fosforli superfosfat, kalsiy xlorid, ammofoz.

G. Suyuq organik o'g'itlar, suyak va baliq, uning go'sht, sut mahsulotlari chiqindilari, qand ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan chiqindilar.

72. Yerga ishlov berish mashinalari qanday guruhlarga bo‘linadi?

A. *Shudgor qiladigan, boronalaydigan, tekislaydigan, zichlaydigan.

B. Tuproq qatlamini ag‘darib haydaydigan va ag‘darmasdan haydaydigan.

V. Ag‘darib va ag‘darmasdan haydaydigan, yarusli chuqur haydaydigan, yerni yuza ishlaydigan va ularni zichlaydigan, tekislaydigan.

G. O‘rtacha va ikki, uch yarusli haydaydigan.

73. O‘simliklarni zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash usullari?

A. *Agrotexnik, biologik, mexanik, biofizik va kimyoviy.

B. Biofizik, mexanik.

V. Oltingugurt eritmali va tamaki qaynatilgan suyuqlik bilan.

G. Agrotexnik, biofizik, kimyoviy, fizik.

74. O‘simlmklarni himoya qilishda zaharli dorilar qanday usullar bilan dorilanadi?

A. *Changlanadi, purkalanadi, aerozalar bilan ishlov beriladi, urug‘lar dorilanadi, fumigatsiya qilinadi, yolg‘on yem qo‘llanadi.

B. Samolyotdan, vertolyotdan va traktor agregatlaridan turib changlanadi, purkalanadi.

V. Faqat aerozal ustanovkalari qo‘llanadi.

G. Zararkunandalar qo‘lda terilib, daladan chiqarib tashlanadi, kasalliklarga qarshi qo‘l bilan zaharli dorilar dala bo‘ylab sochib chiqiladi.

75. Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiluvchi infratuzilmaning bo‘g‘ini..

A.*Ishlab chiqarish infratuzilmasi

B. Ijtimoiy infratuzilma

V. Institutsional infratuzilma

G. Bozor infratuzilmasi

GLOSSARIY

Agrosanoat majmuasini iste'molchilarning talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida iqtisodiyotning ayrim ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanuvchi soxalarning iqtisodiy uyg'unlashuvi tashkil etadi.

Aylanma vosita (o'zgaruvchi vosita) – qishlov xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir marta marta qatnashib, o'z qiymatini ularga to'liq o'tkazadigan vositadir.

Asosiy vosita (doimiy kapital) – qishloq xo'jalik subyekti faoliyatida uzoq yillar mobaynida foydalanib, o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga asta-sekin o'tkazib beradigan vositadir.

Asosiy kapitalga investitsiya (kapital quyilma) – asosiy vositalarni barpo etish va takror ishlab chiqarish bilan bog'liq sarflar.

Davlat buyurtmasi – davlat ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot miqdori.

Davlat yer kadastri – yerning tarkibi, xo'jalik, huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati (bahosi), yer uchastkalarining manzili va o'lchamlari, ularning yer egaligi, undan foydalanuvchilarga, ijarachilarga, to'g'ri taqsimlash to'g'risida zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar yig'indisi.

Davr xarajati – qishloq xo'jalik subyektini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi.

Dexqon xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirib realizatsiya qiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoxud ega bo'lmagan oilaviy mayda tovar xo'jaligidir.

Yer uchastka ijarasi – davlat mulki hisoblangan yer uchastkalarini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yerdan foydalanuvchilarga haq to'lash evaziga ma'lum muddatga hamda umrbod meros qoldirish huquqi bilan berish.

Yerdan foydalanish koeffitsienti - qishloq xo'jalik korxonasida yil mobaynida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga nisbatidir.

Yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini barcha omillaridan tadbirkorlik bilan foydalanish natijasida har bir gektar yerdan olingan sof foyda mummasini ifodalaydi.

Yer monitoringi – yer fondi, undan foydalanuvchilar, ularning tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarning sifati, qiymatini baholash, barcha salbiy jarayonlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish, yer fondidan foydalanish darajasini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmui.

Jonlashtirish – tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jalik subyektlarida u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Ijtimoiy investitsiya – inson salohiyatini, malakasini, tajribasini oshirishga hamda nomoddiy ne'matlarni rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lar.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy jarayonlarning mazmun, mohiyatini hamda turli tomonlarini aks ettiruvchi, muhim, inson ta'sirisiz doimo takrorlanadigan, uzviy iqtisodiy zaruriyatni taqoza etuvchi munosabatlar.

Investitsiya – qishloq xo'jalik subyektini barcha omillarini rivojlanishiga sarflanadigan mablag'.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi – bir vaqtda investitsiya qilingan mablag' evaziga olingan sof foyda.

Investitsiyaning qoplanish muddati – investitsiya qilinayotgan mablag'ning shuni evaziga olingan sof foyda summasiga nisbati bilan hisoblanadi.

Innovatsion investitsiya – texnika va texnoligiyalarning yangi navlarini yaratish va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan mablag' sarfi.

Intensiv yo'l (usul) – fan-texnika yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun qo'shimcha mehnat, mablag' sarflab, investitsiyalarni jalb etish mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning sifatini yaxshilish, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirishdir.

Ixtisoslashtirish – tabiiy, iqtisodiy sharoitlarni hamda talabni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jalik subyektlarini bir yoki ikki turdagi mahsulot etishtirishga moslashtirish.

Ishlab chiqrish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqrish bilan bog'liq bxlgan mexnat, mablag', material, xarajatlar yig'indisi.

Ishning mexanizatsiyalashganligi – qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish jarayonida bajariladigan ishlarni mashina va mexanizmlar yordamida bajarilganligi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – yetishtirilgan bir birlikdagi mahsulotga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarining summasi.

Mexnat resursi – qonunlarda belgilangan yoshga ega bo'lib qishloq xo'jalik subyekti hududida yashab, mexnat qobiliyatiga ega bo'lgan inson.

Mehnat unumdorligi - mehnat qilish qobiliyatigi ega bo'lgan insonning ma'lum bir vaqt ichida bajaradigan ishining, ko'rsatadigan xizmatining, ishlab chiqaradigan mahsulotining miqdori (qiymati).

Mehnatning fond bilan qurollanganligi – qishloq xo'jalik subyektining bir birlikdagi mehnat resursiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvati miqdori.

Moliyaviy xarajatlar – soliqlar, to'lovlar va boshqa moliyaviy xarajatlar summasi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – davlat mulkiga asoslangan davlat korxonalari va tashkilotlarini nodavlat mulkchiligiga asoslangan shirkatlarga, fermer va ijara korxonalariga hamda davlatga qarishli mulk bo'lmaydigan boshqa subyektlarga aylantirishdir.

Pul daromadi – qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish oqibatida olinadigan pul tushumlaridir.

Pul tushumlari oqimi – tayyor mahsulotlarni sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish natijasida oylar, choraklar bo'yicha tushadigan pullar summasi.

Real investitsiya – moddiylashgan asosiy va aylanma vosita (kapital) barpo etishga sarflanadigan mablag'.

Sof kapital quyilma – mablag' sarflash natijasida ishga tushirilgan obyektning yoki asosiy kapitalning qiymati.

Sof foyda - barcha pul tushumlaridan ishlab chiqarish, davr, moliyaviy va favqulodda xarajatlarni chegirgandan so'nggi summa.

Sug'oriladigan yerlar – qishloq xo'jaligidan foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerni sug'orilishini ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan yerlardir.

Tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish natijasida daromad hamda foyda olishga qaratilgan faoliyatidir.

Tayyor mahsulot - qishloq xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarilib, sotishga, ayirboshlashga mo'ljallagan mahsulotlar.

Tovar mahsuloti - qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan iste'mol talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot.

Tuproqning unumdorligi – tuproq tarkibida mavjud bo'lgan turli xildagi mikro va makro elementlarning mahsulot yetishtirish maqsadida amalga oshiriladigan agro-texnik hamda texnologik tadbir yordamida mahsulot yetishtirib berish qobiliyatidir.

O'simlikchilik yalpi mahsuloti - o'simliklarga ishlov berish, parvarish qilish natijasida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Fermer xo'jaligi – o'ziga uzoq (30 yildan 50 yilgacha) muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Foydalilikni qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan sarflangan barcha xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasini ifodalaydi.

Fond bilan ta'minlanish – qishloq xo'jalik subyektlarining bir birlikdagi yer maydoniga to'g'ri keladigan fondlar qiymati.

Xususiylashtirish – davlat mulkchiligiga asoslangan davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini amaldagi qonun talablari asosida sotib olish nodavlat mulkiga aylantrishdir.

Chorvachilik yalpi mahsuloti - chorva hayvonlarini parvarish etish, boqish natijasida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Shirkat xo'jaligi - qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida fuqarolarning poychilikka asosan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkin, mustaqil faoliyat ko'rsataadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan xo'jalik yuritish subyektidir.

Ekinlar hosildorligi - tadbirkorlik bilan amalga oshiriladigan barcha irrigatsion, meliorativ, agro-texnik, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar natijasida ma'lum bir yer maydonidan yetishtirib olingan mahsulot miqdori.

Ekstensiv yo'l (usul) – mehnat va mablag' sarflab, mavjud vositalardan foydalanib ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish evaziga mahsulot ishlab chiqrish hajmini ko'paytirishdir.

Yalpi kapital quyilma – asosiy kapitalga sarflangan asosiy jami mablag'.

Qishloq xo'jalik yerlari – qishloq xo'jalik subyektlariga turli xildagi tayyor mahsulotlarni, ishlab chiqarish maqsadida ma'lum muddat davomida foydalanish uchun berilgan haydalaniladigan

yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, ko‘p yillik daraxtlar maydoni yig‘indisi.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining xaqiqiy qiymati – bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqiy baholardagi qiymati.

Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti – bozor iqtisodi subyektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2003.

2. O‘zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 7-may.

3. O‘zbekiston Respublikasi «Korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. 1993-yil 7-may.

4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2010-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 29-avgust 1996-y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. 30-aprel 1998-y.

7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 25-dekabr 2007-y.

8. “O‘zbekiston Respublikasida kooperatsiya to‘g‘risida»gi Qonuni. 14-iyun 1991-y.

9. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. 19-noyabr 1991-y.

10. O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. 6-may 1993-y.

11. O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 29-avgust 1998-y.

12. O‘zbekiston Respublikasi “Xususiy tadbirkorlik kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”gi Qonuni. 25-may 2000-y.

13. O‘zbekiston Respublikasi “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 26-avgust 2004-y.

14. O‘zbekiston Respublikasi “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuni. 27-avgust 2006-y.

15. O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni. 6-yanvar 2012-y.

16. O‘zbekiston Respublikasi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. 26-aprel 2012-y.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 1998-yil 24-dekabr.

18. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr.

II. Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, turli dasturlar, yo‘riqnoma va boshqa me’yoriy hujjatlar

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ilm-fanni va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida.1992-yil 8-iyul. PF-438-sonli Farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-3226-sonli Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi “2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-3342-sonli Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-yanvardagi “Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohalarida isloh qilish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-255-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilga qadar xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi PQ-640-sonli Qarori.

24. “O‘zbekston Respublikasi Prezidentining 15 iyul 2008-yil PQ 916-sonli “Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida» gi qarori. / Xalq so‘zi. -2008-yil. 16-iyul.

25. «Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash

chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan 288-sonli Qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2008-yil 15-iyul, PQ-916- sonli Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qism va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi 2009-yil 27-yanvardagi PQ-1048-sonli Qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to‘g‘risida” PQ-1046 – sonli Qarori.

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 18-oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi er uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3512-sonli Qarori.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to‘g‘risida. 2011-yil, 7-fevral, PQ-1474- sonli Qarori.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-maydagi “2012-2016-yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1758-sonli Qarori.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ -4478-sonli Qarori.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi “2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1957-sonli Qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi “2013 - 2017-yillar davrida sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1958-sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

34. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-tom. -T.: O‘zbekiston, 2006. - 280 b.

35. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohot-larni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. –T. 15. –T.: O‘zbekiston, 2007. - 320 b.

36. 31. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. –T. 16. –T.: O‘zbekiston, 2008. - 368 b.

37. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009.

38. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. / O‘zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi, 2010-yil 13-noyabr.

39. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T., “Xalq so‘zi”. 2013-yil 19-yanvar, № 13.

40. Karimov.I.A 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T., “Xalq so‘zi”, 18-yanvar 2014-y.

III. Kitoblar va turkum nashrlar
Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plam

41. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot) T: Mehnat, 2004. 604-b.

42. Abdukarimov va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. -T.:Fan va texnoloqiya, 2007. – 288-b.

43. Аванесова Г.А Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: Учебное пособие. – М.: – Аспект – Пресс, 2005. – 63 с.

44. Борисов А.Б. Большой экономический словарь./А.Б. Борисов. – М.: Книжный Мир, 1999. –825 с

45. Кэмбел Р. Макконелл. Стенли Л.Бю. Экономикс. Принципы, проблемы и политика. 1-2 книги - М.: Республика, 1993.

46. Маршалл А. Принципы политической экономии. Пер. с англ. Т. 1-3. – М.: Прогресс, 1984.

47. Макконелл К.р., Брю С.А. Экономикс: принципы, проблемы и политика. – М.: Республика, 1992. Т.1. 77 с.

48. Мексон М., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. - М., 1992. -566 с..

49. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы проблемы и политика. Т.1. - М., 1992. –390 с.

50. Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник. - М., 2000.

51. Романов Ж.А. Сервисная деятельность - М.: Дашков-К, 2006. -399 с.

52. To‘xliyev N. O‘zbekiston iqtisodiyoti. - T.: O‘qituvchi, 1994 va 1998-y.y.

53. Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 178 b.

54. Fermer xo‘jaliklari uchun bozor infrastrukturasini rivojlantirish. / YUSAIDning “O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar” loyihasi ko‘magida tayyorlangan ITM ma’ruzasi. – T., 2004. – 76 b.

55. Fayziyev E.S. Servis sohasining iqtisodiyotdagi o‘rni. Risola. -T.: Fan va texnoloqiya, 2007. – 16 b.

56. Muqimov Z.M. Fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish va moddiy-texnika ta’minotini tizimini takomillashtirish yo‘llari

(Qashqadaryo viloyati fermer xo'jaliklari misolida) – T.: O'zR Bank-moliya akademiyasi, 2009 – 24 b.

57. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot. / O'quv qo'llanma. – T.: YANGI NASHR, 2011. – 248 b.

58. Tashmatov R.X. Qishloq xo'jaligini institutsional rivojlantirish. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2013. – 160 b.

59. Самуелсон П."Экономика". М.: Алгон, 1992, т.2. –14 б.

60. Чернявский Н.Ф. "Инфраструктура сельскохозяйственного производства". 13 б.

61. Селезнев А. "Становление рынки и его инфраструтуры" Экономист.1993.№9

62. Говорин А.А. Инфраструктура современного предпринимательства: проблемиы, теории ипрактики. М.: "Финстатинформ", 1999, 55 б.

63. Пчеливцев О.С. Региональная инфраструктура как условие экономического роста.// Проблем прогнозирования.-2004.-№6.

64. Салимов Б. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрнх рынков.- М.:Тандем,1998.

65. Коваленко Н.Я. Инфраструктура сельского хозяйства. Экономика сельского хозяйства с основами аграрнх рынков.- М.:Тандем,1998.

66. Минасов М. Стратегия устойчивого развития АПК.// АПК: экономика, управление, 2004.№9

67. Экономикасельскогохозяйства/Подред.В.А.Добрынина М.:Агропромиздат, 1990. - С. 240, 476 с.

68. Мюллер Д.К. – Англо-русский словарь – М.: «Русский язык» 1992 . –С. 233-234.

69. Кравченко С.А. Социально-экономический русско-английский словарь – М.: Астрель, 2004. –С. 511.

70. Борисов А.Б. Большой экономический словарь/А.Б. Борисов – М.: Книжный Мир, 1999. – С. 825.

71. Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) -T.: Fan, 2005. 122-123 –b.

72. Коволенко Н.Я. Экономика сельского хозяйста с основами аграрных рынков. Курс лекций. - М.: ЭКМОС, 1999.-448 с.

73. Васильева Е.С. Сельскохозяйственные кооперативы США.-М.:Издательство «Колос», 1994. -244 с.

74. Зияходжаев М.З. Программирование уражайности хлопчатника. - Т.: Фан, 1982. –84 с.

75. Саттаров Д. Сорт, почва, удобрение и урожай. – Т.: Меҳнат, 1988. –188 с.

76. Фатхутдинов Р.А. Инноватсионный менеджмент. -Питер, 2010. С. 59

77. Яковец Ю. Стратегия стабилизации и развития производства Ж-ль. Экономист, 1999, № 10.

78. Каменецкий М. И. Инвестиционная сфера и строительный комплекс: ситуация, государственное регулирование и рыночное взаимодействие //Проблемы прогнозирования, 1997, N. 6.

79. Белявский И.К. Маркетинговые исследования: Информация, анализ, прогноз. Учебное пособие. М.,2007. С.63.

80. Xodiyev B.Yu. va boshq. Kichik tadbirkorlik faoliyati asoslari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. – Toshkent: EH TEMPUS dasturi “Matador - 2000” loyihasi, 2004, -B.98.

81. Афонин И.В. Инновационный менеджмент: Учебное пособие. М., 2005. С.78.

82. Парпиев О.Р. Основные факторы дальнейшего развития инновационной научно-технической деятельности в Узбекистане//http://www.uzscience.uz/system.phtml?action=2-7-5.

Ko‘p tomlik kitoblar

83. Umurzoqov O‘.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008. - 273 b.

84. Salimov B.T., Yusupov M.S. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan taribga solish va qo'llab-quvvatlash. Ilmiy monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2011. – 232 b.

85. Choriyev Q., Xushmatov N. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish. – T.: Sharq, 2002. -29 b.

86. Макконел Кэмпбелл Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2–х т. – М.: Республика, 1992. – 388 с.

87. Федко В.П., Федко Н.Г. "Инфраструктура товарного рынка". Ростов н/Д: Феникс, 2000-512с. 14 б.

88. O'lmasov A.,To'xliyev N. Iqtisodiy lug'at..T.1995. – B. 43.

89. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O'zbekistonda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo'nalishlari.– T.: TDIU, 2007 - 23 b.

90. Белокрылова О.С., Германова О.Е., Солдатова И.Ю. Институциональные основы рыночной экономики в Росии.- М.:Наука,1996.с.43-47.

91. O'lmasov A.,N.To'xliyev. Iqtisodiy lug'at..T.1995. - B. 43.

92. Овчинников В.Н., Ахохов М.Х. Рыночная стратегия материально-технического обеспечения регионального АПК.- Нальчик Издательский центр «ЭЛЬ-ФА», 199

93. Кочанов М.А., Семенов П.К. Бурланков С.П. Оптимальные формм объединений в АПК //Достижения науки и техники АПК.-2002. №5 с.34.

94. Salimov B.T. ..O'raqov N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma). –T.: TDIU. 2004 –B. 21-22.

95. O'lmasov A., SHarifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.1992. - BL 06-107.

96. Abdug'aniev A.A., Abdug'aniev A.A.Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: TDIU, 2004. –B. 274 b.

97. Власкин Г.А., Ленчу к Е.Б. Промышленная политика в условиях перехода к инновационной экономике: опыт стран Центральной и Восточной Европы и СНГ. Серия №2,3-М.: Экономика, 2007. С. 195.

IV. Jurnallardagi maqolalarga havolalar

98. Isaqov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish soxasiniig rivojlanishi. №4. 2012.– B.44.

99. Muqimov Z. Fermer xo'jaliklarida xizmat ko'rsatish va moddiy texnika ta'minoti tizimini rivojlantirish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №6.2008.– B.19.

100. Saidova D. Fermer xo'jaliklari barqarorligi asosi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №8. 2008. – B. 9.

101. Rahimov B. Moddiy texnika resurslari ta'minoti muammo va takliflar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2.2007. –B 56.

102. Rahimov B. Moddiy texnika resurslari ta'minoti muammo va takliflar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2.2007. –B 56.

103. Djalilova N. Tadbirkorlikda dahqon va fermer xo'jaliklari o'rni. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №5 . 2011. – B.26.

104. Qayumov N. Fermer xo'jaliklariga yangi bilimlar va innovatsion texnologiyalar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №1. 2010. – B. 31.

105. Qutbiddinova M. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori va marketingi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №3. 2010. – B.31.

106. Saidova D. Fermer xo'jaliklari barqarorligi asosi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №8. 2008. – B. 9.

107. Djalilova N. Tadbirkorlikda dahqon va fermer xo'jaliklari o'rni. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №5 . 2011.–B.26.

108. Alimqulov I,.Davronov Z. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi J-l. "Iqtisodiyot va ta'lim" 2013 y. №2. – B. 26-30.

109. Ortiqov I. Agrar sohada innovatsiyaning ahamiyati. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent,2009. - №2. – B.29.

110. Husanov R., Xolmirzaev I., Babadjanov A. Qishloq xo'jaligida innovatsiya. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2009. - № 2. – B.29.

111. Xushmatov N., Fayzullaeva T. Innovatsiya va qishloq xo'jaligi // «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» j. – Toshkent, 2009. №12. – B. 47-48.

112. Shadmanov Sh. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2. 2012. – B. 37.

113. Rasulov Sh. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №2. 2012.

114. Jumaev U. Veterinariya: ehtiyojni qondirish bosh mezon. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №10. 2010. – B. 21.

115. Maxmudov N, Ishbaeva Sh. Infratuzilma korxonalarini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish omillari. J-l "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" 2012-y. №4. – B.33.

116. Воронин С. "Финансирование механизации сельскохозяйственного производства". "Bozor, Pul va Kredit". №3. 2008 y. 34-36 b.

117. Sultonov D. Kompleks serviz xizmati ko'rsatish subyektlarini takomillashtirish. J-l "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" 2012 y. №11. – B.42.

118. Xalilov X. Axborot maslahat xizmati va tadbirkorlik. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №7. 2011. – B. 35.

119. Alimqulov I,.Davronov Z. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi J-l. "Iqtisodiyot va ta'lim" 2013 y. №2. – B. 26-30.

120. Ortiqov I. Axborot maslahat markazlarining ASMda innovatsion faollikni oshirishdagi o'rni. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №7. 2009. – B. 28.

121. Babadjanov A . Agrar soha ilmiy ta'minotida investitsiya va innovatsiya. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №4. 2010. – B.33

122. Shadmanov Sh. Ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi J-l O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012-yil.№2. – B.37.

123. Isakov J. Xizmat ko'rsatish tizimini kreditlash va lizing qonunchiligini takomillashtirish. J-l. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012-yil. №8. B. 44.

124. Sotvoldiev X. Infratuzilma shoxobchalarini rivojlantirishda davlatning roli. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. №6. 2008. – B. 39.

125. Маркова М.Д. Маркетинг услуг. -М.: Финансы и статистика, 1996.

126. Qudratov G'.H., Pardaev M.Q. Davlatning bosh islohotchilik roli. –T.: O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2009. 2-son.

V.Simpozium va konferensiya ishlariga havolalar

127. Синякина Н.Б., Сафаров А. Роль малого бизнеса в развитии инновационной деятельности//"Innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikni yanada kengaytirishning muhim omillari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 13-aprel 2011-yil. Toshkent, 2011. – B.100-101.

128. Xaitbayev M.M. kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning huquqiy masalalari // «Innovatsiya faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikni yanada kengaytirishning muhim omillari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 13-aprel 2011-yil. Toshkent, 2011. 78-81-b.

129. Choriyev Q.A. Bozor infratuzilmasini shakllantirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish garovi. // Bozor islohotlarini chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va qishloqda infratuzilmani rivojlantirish ilmiy-amaliy seminar ma'ruzalari to'plami. A Toshkent, 1998. – B. 13-16.

130. Qosimov A. Va boshqalar. «Agrar tarmoq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish va agrotexnologiyalar samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent. O'zBIITI, 2013. – 232 b.

131. Доклад о мировом развитии. Развитие и новое поколение. 2008 год. С.50

VI.Statistik ma'lumotlar

132. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2005-2013-yillar bo'yicha ma'lumotlari.

133. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990 – 2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011 – 2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari: statistik to‘plam.– T.: “O‘zbekiston”, 2011, 128-bet .

134. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi. – T., 2012. –356 b.

135. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi. – T., 2013. –345 b.

VII.Internet ma’lumotlari

136. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. - 2012. –T.: 2013.

137. www.uza.uz- O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligining rasmiy sayti.

138. IV Республиканской ярмарки инновационных идей, технологий и проектов //http://www.mineconomy.uz/innovation

139. http://www.usda_programs. Один из важнейших факторов развития сельского хозяйства США – государственное регулирование

140. http://expert.ru/expert/2013/02/poterya-kapitala/.

141. www.bafuture.org/sites/default/files/Report_0.pdf.

142. http://news.olam.uz/business/1785.html.

143. http://www.uz/iqtisod/.

144. www.uzreport.com .

MUNDARIJA

Kirish 3
1-BOB. QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI FANINING PREDMETI VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI .. 6
1.1. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti fanining predmeti, boshqa fanlar bilan bog'liqligi va o'rni 6
1.2. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti fanining predmetini o'rganish usullari 12
1.3. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti fanining vazifalari 14
2-BOB. QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA UNI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 21
2.1. ASMda ifratuzilmaning mohiyati va uni tadqiq etishning nazariy asoslari 21
2.2. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati 40
2.3. ASMda infratuzilma institutlarining tizimli o'zaro aloqadorligining funksional differensiatsiyasi 59
3-BOB. QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANISHI 74
3.1. Fermer xo'jaliklari bilan infratuzilma korxonalarining o'zaro aloqalarini tartibga solishning institutsional va bozor mexanizmlari 74
3.2. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining samaradorligini baholash uslubiyoti 85
3.3. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlari 95
4-BOB. FERMER XO'JALIKLARNING KREDIT MABLAG'LARINI SHAKLLANISHIDA MINIBANKLARNING TUTGAN O'RNI 106

4.1. Minibanklar faoliyatining xuquqiy va iqtisodiy asoslari 106
4.2. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi 112
4.3. Minibanklarda fermer xo'jaliklarga kreditlarni berish, hisobini yuritish va kreditni qaytarish tartibi 118
5-BOB. FERMER XO'JALIKLARIDA MINERAL O'G'ITLAR TA'MINOTI VA UNDA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISH 123
5.1. Kimyo korxonalaridan fermer xo'jaliklariga mineral o'g'itlarni yetkazib berishni tizimli tashkil etish 123
5.2. Mineral o'g'itlarni etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish va zahiraga jamg'arishni tashkil etish 131
5.3. Mineral o'g'itlarni fermer xo'jaliklarining ekin maydonlariga tashib borishni tashkil etish 134
6-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV ISTE'MOLCHILARI UYUSHMALARINING ROLI 142
6.1. Qishloq xo'jaligida suv iste'molchilari uyushmalarini shakllanishi va uning tashkiliy asoslari 142
6.2. Suv iste'molchilar uyushmasi faoliyatining huquqiy asoslari 153
6.3. SIU ning byudjeti uni shakllanishi 162
7-BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MUQOBIL MASHINA-TRAKTOR PARKLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH 172
7.1. Mashina tarktor parklarining huquqlari va uning ustav jamg'armasini shakllanishi 172
7.2. Mashina tarktor parklarining ishlab chiqarish faoliyati boshqarish mexanizmi 180
7.3. Mashina tarktor parklarining daromadlari va ishlab chiqarish xarajatlari 200

8-BOB-QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMA XIZMATLARI TIZIMIDA AXBOROT VA KONSALTING TA'MINOTINI TASHKIL ETISH 209
8.1. Infratuzilma tizimida axborot-konsalting markazi xizmatlarining o'rni va unga bo'lgan talabni aniqlash uslubiyoti 209
8.2. Axborot-konsalting markazining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi va uni takomillashtirish 230
8.3. Fermer xo'jaliklari bilan axborot-konsalting xizmati markazlari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar va uni takomillashtirish 240
9-BOB. FERMER XO'JALIKLARIDA YOQILG'I-MOYLASH MATERIALLARI TA'MINOTI TASHKIL ETISH 249
9.1. Yoqilg'i-moylash materiallarini (YOMM) sotish korxonalarining iqtisodiy va xuquqiy asoslari 249
9.2. Neft mahsulotlarini sotish va undan samarali foydalanish qoidalari 255
"Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti" fanidan test savollari 259
Glosariy 274
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 280

Qaydlar uchun

MAMATOV A.A., XURRAMOV A.F. MAMATOV M.A.

QISHLOQ ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: A.Tilavov
Texnik muharrir: Yu.O‘rinov
Badiiy muharrir: I.Zaxidova
Musahhih: S.Bozorova
Dizayner: Yu.O‘rinov

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.
Terishga 01.11.2016-yilda berildi. Bosishga 29.12.2016-yilda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times» garniturasi. Shartli b.t. 17,25.
Nashr b.t. 18,5. Adadi 400 nusxa. Buyurtma №111.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Shiroq ko‘chasi, 100-uy.
Telefon: (371) 228-07-96, faks: (371) 228-07-95.

39259-00

65,9(5Y)32
M220

ISBN 978-9943-4802-7-8



"Sano-standart"